30. Boltayeva I. T., Tashnazarov D. Y., Kazaqov R. T. TECHNICAL-TACTICS OF 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 91-98.
31. Сафаров Ў. К ВОПРОСАМ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО АНАЛИЗА И СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
32. Сафаров Ў. МАМЛАКАТИМИЗДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК АСОСЛАРИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
33. Сафаров Ў. СПОРТ СОҲАСИДА САМАРАЛИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
34. Сафаров Ў. РОЛЬ СПОРТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА В СОВРЕМЕННОЙ СПОРТИВНОЙ ИНДУСТРИИ УЗБЕКСКОЙ РЕСПУБЛИКИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
35. Safarov O. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SPORT MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
36. Murod o'g'li P. D. МАМЛАКАТИМИЗДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТИВНИЙ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. – 2023.



## ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ҲУҚУҚИ

Нематова Шахрибону Хамидовна

Навоий вилояти юридик техникуми

Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича мутахассиси.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13692545>

**Аннотация.** *Инклюзив таълимнинг жорий қилиниши ҳозирда алоҳида парвариши ва эҳтиёжларга мухтож бўлган болаларга ўз тенгқурлари билан бирга таълим тарбия олишлари учун яхши имкониятлар беради ва натижага эришилади. Чунки инклюзив таълим оладиган ўқувчи соғлом болаларга қараб, ундан кўп нарсаларни ўрганади ва улардек топшириқларни бажаришига интилади. Уларнинг ёзишига қараб, туриб гапиришига қараб, доскада ёзишлари ёки топшириқларни бажариб беришлари кераклигини хис қилади ва ўзи ҳам шунга ҳаракат қилади. Инклюзив таълим- болаларни ўз-ўзини камситилмаслигини, халқ орасида муомала маданиятини, ўзини тута олишини, меҳнат қилишига лаёқатлилигини, агар интилиши бўлса ҳамма нарсага эриша олишига имкон беради.*

**Калим сўзлар:** *индивидуал, инклюзив таълим, профессионал таълим, жисмоний ва ақлий, норма, эксперт-таҳлилий, илмий-академик доиралар, конституция, тараққиёт стратегияси, интернет ва ижтимоий тармоқ, махсус инфраструктура.*

### THE RIGHT TO INCLUSIVE EDUCATION IN THE REVISED CONSTITUTION

**Abstract.** *The implementation of inclusive education currently provides better opportunities for children with special care and needs to be educated together with their peers and results are achieved. Because a student who receives inclusive education learns a lot from healthy children and tries to do the same tasks as them. By looking at their writing and speaking, he feels that they should write on the board or complete assignments, and he tries to do the same.*

*Inclusive education allows children to learn self-discipline, the culture of dealing with people, self-control, the ability to work, and to achieve everything if there is an aspiration.*

**Key words:** *individual, inclusive education, professional education, physical and mental, norm, expert-analytical, scientific-academic circles, constitution, development strategy, internet and social network, special infrastructure.*

### ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ПЕРЕСМОТРЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ

**Аннотация.** *Внедрение инклюзивного образования в настоящее время предоставляет лучшие возможности детям с особым уходом, которые должны получать образование вместе со своими сверстниками, и достигаются результаты. Потому что ученик, получающий инклюзивное образование, многому учится у здоровых детей и старается выполнять те же задачи, что и они. Глядя на то, как они пишут и говорят, он чувствует, что им следует писать на доске или выполнять задания, и пытается делать то же самое. Инклюзивное образование позволяет детям научиться самодисциплине, культуре обращения с людьми, самоконтролю, умению работать и добиваться всего, если есть стремление.*

**Ключевые слова:** *личность, инклюзивное образование, профессиональное образование, физическое и психическое, норма, экспертно-аналитические, научно-*

*академические кружки, конституция, стратегия развития, Интернет и социальные сети, специальная инфраструктура.*

Таълим бўйича алоҳида эҳтиёжларга ва индивидуал имкониятларга эга бўлган болалар учун таълим ташкилотларида инклюзив таълим ва тарбия ташкил этилиши ҳуқуқи кафолатланиши лозим

### **IX боб. Иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик ҳуқуқлар 50-модда.**

Ҳар ким таълим олиш ҳуқуқига эга.

Давлат узлуксиз таълим тизими, унинг ҳар хил турлари ва шакллари, давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожланишини таъминлайди.

Давлат мактабгача таълим ва тарбияни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратади.

Давлат бепул умумий ўрта таълим ва бошланғич профессионал таълим олишни кафолатлайди. Умумий ўрта таълим мажбурийдир.

Мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта таълим давлат назоратидадир.

Таълим ташкилотларида алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болалар учун **инклюзив таълим ва тарбия таъминланади.**

Янгиланган Конституцияда илк маротаба инклюзив таълим учун шароит яратишга оид алоҳида норманинг белгиланиши таълим эҳтиёжларига эга бўлган болалар учун таълим ва тарбия уларнинг жисмоний ва ақлий ривожланишини ҳисобга олган ҳолда ташкил этилиши, таълим олиш жараёнида уларни бирор-бир шаклда камситишга йўл қўйилмаслиги, барча болаларнинг тенглиги таъминланишига хизмат қилади.

Пировардида, алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болаларнинг таълим олишга бўлган ҳуқуқи таъминланади.

Айни кунларда мамлакатимиз Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича таклифларни шакллантириш борасида бошланган ишлар эксперт-таҳлилий, илмий-академик доиралар, кенг жамоатчилик шунингдек, Интернет ва ижтимоий тармоқларнинг муҳокама марказида бўлиб турибди. Муҳокама қилинаётган энг муҳим масалалардан бири – таълим сифати ва таълим олиш имконияти, таълим жараёнининг ижтимоий жиҳатларидир.

Сўнгги йилларда инклюзив таълим тизими соҳасида қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди ва муайян норматив база шаклланди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Ногиронлиги бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-чадбирлари тўғрисида” қарорига мувофиқ, 2020 — 2025 йилларда халқ таълими тизимида инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди. Концепция икки босқичда яъни 2020-2022 ҳамда 2023-2025 йилларда амалга оширилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида Ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимини шакллантириш, уларнинг ҳаёт сифати ва даражасини ошириш 66-мақсадда қайд этилди. Унда ногиронлиги бўлган

шахсларнинг жамият ижтимоий-иқтисодий ҳаётига жалб қилиниши ва фаол иштирокини таъминловчи инклюзив таълим ва ишга жойлаштириш тизимини такомиллаштириш масаласи ўз ифодасини топган.

Бу борада тизимли ва самарали ишлар амалга оширилганлигига қарамасдан бажарилиши зарур бўлган қатор вазифалар мавжуд эканлигини таъкидлаш лозим.

Жумладан, ногиронлиги бўлган болаларни инклюзив шароитда ўқитиш учун умумтаълим мактабларида зарур шарт-шароитлар, моддий-техника база ҳамда биноларда махсус инфратузилманинг етарли эмас. Ҳозирда инклюзив таълим ва тарбия норматив ҳуқуқий ҳужжатларда қайд этилган бўлсада, конституциявий норма даражасида ўз аксини топмаган.

**Тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам илм-фан, таълим ва тарбиядир.**

Ўзбекистонда ўқитувчининг меҳнати жамият ва давлатни ривожлантириш, соғлом, баркамол авлодни шакллантириш ҳамда тарбиялаш, халқнинг маънавий ва маданий салоҳиятини сақлаш ҳамда бойитишнинг асоси сифатида эътироф этилади.

Давлат ўқитувчиларнинг шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий ва моддий фаровонлиги, касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилади.

Инклюзив таълимнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у ўқув дастурига эмас, балки болаларга қаратилган. Бунга ҳар бир боланинг, шу жумладан ногиронлиги бўлган ва кўшимча ёрдамга муҳтож бўлган болаларнинг эҳтиёжларини қондирадиган педагогика орқали эришилади.

Конституцияда давлат томонидан бепул умумий ўрта ва бошланғич касб-ҳунар таълими кафолатланиши белгилаб қўйилган. Махсус таълимга муҳтож болалар учун таълим ташкилотлари инклюзив таълим ва тарбияни таъминлайди.

Давлат томонидан инклюзив таълимни шакллантириш бўйича кўрилатган чора-тадбирларга қарамай, ишни халқнинг ўзи олиб бориши керак. Жамиятда ногиронларга нисбатан кўплаб стереотиплар мавжуд бўлиб, бу тизим ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шундай экан, жамият қанчалик бағрикенг бўлса, дастурларни амалга ошириш шунчалик осон бўлади. Ва, энг муҳими, болаларнинг хусусиятларидан қатъи назар, умумий тилни топиш осонроқ бўлади.

**Инклюзив таълим – тенг муносабатни таъминлайди.**

2020 йил 23 сентябрь куни Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” Қонуни қабул қилинди.

Қонунда таълим олиш шаклларида инклюзив таълим киритилди. Бу билан алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг тенг ҳуқуқли жамият аъзоси сифатида умумтаълим муассасаларида билим олиши таъминланади. Инклюзив таълим алоҳида таълим эҳтиёжлари ва индивидуал имкониятларнинг хилма-хиллигини ҳисобга олган ҳолда барча таълим олувчилар учун таълим ташкилотларида таълим олишга бўлган тенг имкониятларни таъминлашга қаратилган бўлиб, жисмоний, ақлий, сенсор (сезги) ёки руҳий нуқсонлари бўлган болалар (шахслар) учун таълим ташкилотларида инклюзив таълим ташкил этилишидир.

Инклюзив таълим – бу асосий мактабларда алоҳида эҳтиёжли болаларни ўқитиш жараёнини тавсифлаш учун ишлатиладиган атама.

Инклюзив (французча инклюзив – шу жумладан, лот. Инклуде – мен хулоса қиламан, шу жумладан) ёки инклюзив таълим – бу махсус эҳтиёжга эга болаларни умумий таълим (оммавий) мактабларида ўқитиш жараёнини тавсифлаш учун ишлатиладиган атама.

Инклюзив таълим болаларга нисбатан ҳар қандай камситишларни истисно қиладиган, барча одамларга тенг муносабатни таъминлайдиган, аммо махсус таълим эҳтиёжлари бўлган болалар учун алоҳида шароит яратадиган мафкурага асосланади.

Инклюзив таълим – бу барча болаларнинг турли хил эҳтиёжларига мослашиш нуқтаи назаридан ҳамма учун таълим мавжудлигини назарда тутадиган умумий таълимнинг ривожланиш жараёни, бу алоҳида эҳтиёжли болалар учун таълим олиш имкониятини таъминлайди.

**Инклюзив таълимнинг тамойиллари:**

- инсоннинг қиймати унинг қобилиятлари ва ютуқларига боғлиқ эмас;
- ҳар бир инсон ҳис қилиш ва фикрлашга қодир;
- ҳар ким мулоқот қилиш ва тинглаш ҳуқуқига эга;
- барча одамлар бир-бирига муҳтож;
- ҳақиқий таълим фақат ҳақиқий муносабатлар шароитида амалга оширилиши мумкин;
- барча одамлар тенгдошларининг қўллаб-қувватлаши ва дўстлигига муҳтож;
- барча ўқувчилар учун муваффақиятсизликка қараганда, улар қила оладиган нарсаларга эришиш эҳтимоли кўпроқ;
- турли хиллик инсон ҳаётининг барча жабҳаларини яхшилайдди.

Инклюзив таълим тизимига ўрта, ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари киради. Унинг мақсади алоҳида таълим эҳтиёжлари ва индивидуал имкониятларнинг хилма-хиллигини инобатга олган ҳолда болаларни ўқитиш ва ўқитишда тўсиқсиз муҳит яратишдир. Ушбу чора-тадбирлар мажмуаси таълим муассасаларининг техник жиҳозланишини ҳамда ўқитувчилар ва бошқа талабалар учун уларнинг ногиронлиги бўлган шахслар билан ўзаро муносабатларини ривожлантиришга қаратилган махсус ўқув курсларини ишлаб чиқишни назарда тутайди.

Инклюзив таълимнинг жаҳон амалиётига назар соладиган бўлсак 1970 йиллардан бошлаб, ногиронлиги бор болаларнинг таълим олиш имкониятларини кенгайтириш учун норматив ҳужжатлар тўплами ишлаб чиқилди ва амалга оширилди. Америка Қўшма Штатлар ва Европада замонавий таълим сиёсатида бир нечта ёндашувлар ишлаб чиқилган, шу жумладан: иштирокчи кенгайтириш, асосий оқимга қўшилиш. Таъкидлаш жоизки, ногиронлиги бор ўқувчилар таътил кунлари, ўзларининг тенгдошлари билан турли хил бўш вақт дастурларида мулоқот қилишади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, қабул қилинган қонун таълим ва тарбияга миллий ҳамда умуминсоний қадриятларнинг сингдирилганлиги принципи киритилмоқда. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасидаги ҳеч бир бола давлатимизнинг назаридан четда қолмаганлигининг исботидир.

**REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 12-октябрдаги 638-сонли қарори,
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси,
3. Интернет тармоғи.



## TASVIRIY SAN'ATDA IQTIDORLI YOSHLARNI ANIQLASH VA IQTIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**G'aybullayeva Odina Farxod qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

+998 33 808 33 53.

**Oltmishev Tohirjon Turg'unovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

+998 91 591 49 46.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13710890>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtidorli yoshlarni aniqlash, bolaning o'ziga xos faoliyati, individual iste'dodni shakllantirish, iqtidor turlari, maxsus iste'dod, qobiliyat, potentsial iqtidor, aniq iqtidor, yashirin iste'dod, tarbiya, intellektual imkoniyatlar, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtidor, qobiliyat, iste'dod, tarbiya, ta'lim.

## PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IDENTIFYING TALENTED YOUNG PEOPLE AND DEVELOPING THEIR TALENTS IN VISUAL ARTS

**Abstract.** This article describes the identification of talented young people, the specific activities of the child, the formation of individual talent, types of talent, special talent, abilities, potential talent, specific talent, hidden talent, upbringing, intellectual opportunities, education and development of gifted students.

**Keywords:** student, talent, ability, talent, upbringing, education.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫЯВЛЕНИЯ ТАЛАНТЛИВОЙ МОЛОДЕЖИ И РАЗВИТИЯ ЕЕ ТАЛАНТОВ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются выявление одаренной молодежи, уникальная активность ребенка, формирование индивидуального таланта, виды таланта, особый талант, способности, потенциальный талант, явный талант, скрытый талант, воспитание, интеллектуальные способности, одаренный ребенок. Описано обучение и развитие учащихся.

**Ключевые слова:** талант, способности, талант, воспитание, образование.

### **Kirish**

Pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda ko'plab pedagog-psixologlar iqtidorni rivojlantirish darajasi, sifatli o'ziga xosligi va tabiati har doim irsiyat (tabiiy mayllar) va bolaning faoliyati vositasida bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitning (o'yin, ta'lim, ish) murakkab o'zaro ta'siri natijasidir—deb fikr bildiradilar. Bunday holda, bolaning o'ziga xos faoliyati, shuningdek, individual iste'dodni shakllantirish va amalga oshirish asosida shaxsning o'zini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish alohida ahamiyatga egadir.

Iqtidor –bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

“Iqtidor” arabcha “qodir bo'lmoq”, “qila olmoq”, shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy

salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlashdan iboratdir.

Psixologik lug'atlarda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

1) iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potentsial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslarini o'ziga xosligi va namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Iqtidorli bola – bu u yoki bu faoliyat turida yorqin, ravshan, ba'zan ajoyib yutuqlar bilan ajralib turadigan (yoki bunday yutuqlarning ichki shart– sharoitlariga ega) bola.

Iqtidor turlarini ajratish mezonlari orasida quyidagilar mavjud:

1) Iqtidorli bolalarning faoliyat turlari va uni ta'minlovchi psixika sohalari

2) Iqtidorning shakllanish darajasi

3) Iqtidorning namoyon bo'lish shakli

4) Turli faoliyatdagi namoyonlarning kengligi

5) Yosh rivojlanish xususiyatlari

Iqtidor turlari:

Amalda (hunarmandchilik, sport va tashkilotchilikda iqtidorli).

Ma'naviy qadriyatlar faoliyatida (yangi ma'naviy qadriyatlarni yaratishda va odamlarga xizmat qilishda namoyon bo'ladigan iqtidor). salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlashdan iboratdir.

Nazariy faoliyatda (faoliyatning mavzu mazmuniga qarab har xil turdagi intellektual iste'dod).

Badiiy va estetik faoliyatda (xoreografik, adabiy-poetik, vizual va musiqiy).

Kommunikativ faoliyatda (boshqa odamlarni tushunish, ular bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish, etakchilik qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan etakchilik qobiliyati).

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq.

Erta yosh davrlar-maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan bu-umumiy qobiliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat-aktual, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat-potensial qobiliyat deyiladi.

Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A. Motsart, F. Galton, I. Mechnikov, K. Gauss, N. Vinner, G. Leybnits, V. Gyugo) erta yoshda o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Bu aqliy potentsialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlicidir. Potensial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir.

Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir.

Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potentsial imkoniyatlarni sezmagandir, va xattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom - sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi.

Erta iqtidor. Erta iqtidorga misol "geeks" (ajoyib bola) - bular, qoida tariqasida, maktabgacha yoki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar, har qanday faoliyat turida -musiqqa, rasm chizish, matematika, she'riyat, raqs, qo'shiq aytish va hokazolarda ajoyib muvaffaqiyatga erishadilar. Bunday bolalar orasida alohida o'rinni intellektual geeks egallaydi. Ular erta (2-3 yoshdan) o'qish, yozish va hisoblashni o'zlashtirish bilan tavsiflanadi; kognitiv qobiliyatlarning yuqori rivojlanishi (yorqin xotira, mavhum fikrlashning yuqori darajasi va boshqalar); birinchi sinfning oxirigacha uch yillik o'quv dasturini o'zlashtirish; o'z ixtiyori bilan murakkab faoliyatni tanlash (masalan: besh yoshli bola o'z tarixi entsiklopediyasini tuzadi va hokazo).

Kech iqtidor. Iqtidorning keyingi yosh bosqichlarida ma'lum bir faoliyat turida namoyon bo'lishi.

Yosh, iqtidorning namoyon bo'lishi va faoliyat sohasi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Dastlabki iste'dod san'at sohasida, ayniqsa musiqada, biroz keyinroq - tasviriy san'at sohasida, keyinroq - fanda (ajoyib kashfiyotlar, yangi yo'nalishlar va tadqiqot usullarini yaratish shaklida) namoyon bo'ladi. bilimlarni egallash zarurati bilan bog'liq bo'lib, ularsiz buning iloji yo'q ilmiy kashfiyotlar.

Matematik iste'dod boshqalarga qaraganda ertaroq namoyon bo'ladi.

Bolalar iqtidorining belgilari:  
Qobiliyatlarni rivojlantirishning yuqori darajasi;  
Yuqori darajadagi o'rganish;  
Ijodiy ko'rinishlar (ijodkorlik); motivatsiya.

Iqtidorli bolalar uchun o'quv dasturlari odatdagidan yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish, psixologik va shaxsiy rivojlanish, ijodiy qobiliyatlarni yaxshilash va, albatta, bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlaydi.

### **Xulosa**

Ushbu rivojlanayotgan muhit o'quv jarayonining markaziy qismi sifatida turli xil ta'lim e'tiqodlarini, ularning elementlarini, o'quv materialini va ta'lim jarayonining sub'ektlarini birlashtiradi. Eng qiyini - o'qituvchi va iqtidorli bolaning sub'ektivligini uyg'un shakllantirish, chunki talaba avtomatik ravishda ta'lim faoliyati sub'ektiga aylana olmaydi.

Bu borada Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potentsial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan bashorat qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l -atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlarini kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash va ta'lim mazmunini shu asosda tashkil etish maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning rivojlanishini ta'minlovchi, intellekt va bilimlarni ro'yobga chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

### **REFERENCES**

1. Мадаминов, Н. М. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИДАН
2. 2017 г.
3. Рахматова Ф.Е. Идтидорли удувчилар билан ишлашнинг назарий-технологик жихатлари. Услубий дулланма. Самарданд-2019. - .46 б.
4. Психология: Словарь/ Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. -М., 1990. - С. 247.
5. Узбек тилининг изохли лугати. 2-жилд. - Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -264-б.
6. Ma'Murov, A. A. (2022). TARBIYA JARAYONIDA AMALIY SAN'ATDAGI USTOZ VA SHOGIRD ODOBI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 138-142
7. Sulaymonova, S. B. Q. (2021). TASVIRIY SAN'AT ORQALI DUNYO SIVILIZATSIYASINI O'RGANISH OMILLARI. Academic research in educational sciences, 2(6), 730-735.

## ROZA OTUNBOYEVA - MARKAZIY OSIYO TARIXIDAGI ILK AYOL PREZIDENT

Nabiyev Muhammadali

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13710935>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda saylangan birinchi Prezident ayol Roza Atunboyeva siyosiy faoliyati va Prezidentlik davri, hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari mazkur maqolada 2010-yil O'sh voqealari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* Markaziy Osiyo, Prezident, senat, ta'lim, vazirlik, Konstitutsiya, Muvaqqat hukumat.

## ROZA OTUNBOYEVA IS THE FIRST FEMALE PRESIDENT IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA

*Abstract.* This article provides information about the political activity, presidential period and life of Roza Atunbayeva, the first female president elected in Central Asia. In addition, this article provides information on the events of 2010 in Osh.

*Key words:* Central Asia, President, Senate, Education, Ministry, Constitution, Provisional Government.

## РОЗА ОТУНБОЕВА – ПЕРВАЯ ЖЕНЩИНА-ПРЕЗИДЕНТ В ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о политической деятельности, президентском периоде и жизни Розы Атумбаевой, первой женщины-президента, избранной в Центральной Азии. Кроме того, в данной статье представлена информация о событиях 2010 года в Оше.

*Ключевые слова:* Средняя Азия, Президент, Сенат, Просвещение, Министерство, Конституция, Временное правительство.

**Kirish.** Roza Otunboeva Qirg'iziston Respublikasining sobiq prezidenti. 2010 yil 7 aprel voqealari natijasida u Qirg'iziston Muvaqqat hukumati rahbari bo'ldi. 2010-yil 19-mayda Qirg'iziston Prezidenti 2011-yil 31-dekabrgacha o'tish davrini e'lon qildi. 2010-yil 27-iyulda Konstitutsiyaning yangi matnini qabul qilish bo'yicha referendumda uni Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti etib tasdiqladi. Qirg'izistonning birinchi ayol prezidenti va MDH davlatlarida prezidentlik lavozimini egallagan birinchi ayol. U bu lavozimda Almazbek Atamboyev 2011-yil 1-dekabrda lavozimga kirishgunga qadar faoliyat yuritgan. [2:41]

Roza Otunboeva 1950-yil 23-avgustda (Talas viloyati, Boqay-Ota tumani, Boo-Terek qishlog'ida) tug'ilgan. Uning otasi Isaak Otunboev uzoq yillar Oliy sud a'zosi bo'lgan. 10 yildan so'ng Isoq O'tunboyev ish uchun O'shga ko'chirildi. O'sh shahridagi maktabni oltin medal bilan tamomlagan. 1972 yilda Moskva davlat universitetining falsafa fakultetini tamomlab, Moskva davlat universitetining aspiranturasiga o'qishga kirdi. Germaniyada malaka oshirgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** 2010 yilning iyun oyi Qirg'izistonning janubi.

Mahalliy qirg'izlar va o'zbeklar o'rtasida etnik mojaro chiqdi. "O'sh voqealari" nomi bilan tarixga kirgan ushbu nizo oqibatida 500 ga yaqin inson halok bo'ldi. Jarohatlanganlar soni mingdan, qo'shni O'zbekistonga qochib o'tganlar soni esa yuz mingdan oshdi. Bundan tashqari



3,5 mingdan ortiq ko‘chmas mulk vayron qilindi. Shundan atiga 275 tasi davlatga tegishli, qolgan katta qismi esa mahalliy aholining boshpanasi edi. Ushbu statistika voqeaning ko‘lamidan dalolat: yongan uylar, qonga belangan qo‘llar, yaqinlaridan ayrilgan insonlar.

Ushbu fojiga yaqinda 14 yil to‘ladi. Biroq o‘sha dahshatlardan jovdiragan ko‘zlar haligacha ko‘p savollariga javob topa olmagan aniq. Oradan yillar o‘tganiga qaramay, Qirg‘izistonning bugungi hukumati 2010 yil voqealarining sabab va omillariga aniqlik kiritishga qaror qildi: mamlakatning amaldagi Prezidenti Sadir Japarov ko‘rsatmasi bilan o‘sha davrda Qirg‘izistonni boshqargan Muvaqqat hukumatga qarshi qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha qayta tergov boshlandi. Ishni esa Qamchibek Toshiev raisligidagi Qirg‘iziston Milliy xavfsizlik davlat qo‘mitasi olib bormoqda.

2010 yilda yuz bergan inqiroz O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov uchun qaysidir ma’noda yangilik emasdi. U bunday favqulodda vaziyatlarga oldin ham guvoh bo‘lgan. Xususan, SSSR parchalanishi arafasida sovetlarning bosqinchilarga xos bo‘lgan “bo‘lib tashla va hukumronlik qil” siyosati o‘z mevasini berayotgan edi.

SSSR tarkibida tuzilgan mustaqil respublikalar chegarasi o‘tgan asrning 20-30-yillarida shunday “mahorat” bilan chizilgan ediki, mabodo ular mustaqil bo‘lishga intilsa, albatta, o‘ziga qo‘shni bo‘lgan davlatlar bilan mojaroga borishi va hatto, urushga kirishi kerak bo‘lgan. Tarixan bunday taktika bosqinchi davlatga mustaqil bo‘lishga intilgan mamlakatlarni o‘z tarkibida ushlab qolishda qo‘l kelgan. [2:50-51]

O‘tgan asrning 90-yillarida Gruziya, Checheniston, Tog‘li Qorabog‘ hamda Qirg‘iziston millatlararo konfliktni boshdan kechirgan. Ushbu davrda O‘zbekiston SSRga rahbarlik qilgan Islom Karimov yuqoridagi holatlarning guvohi bo‘lgan.

2010 yilga kelib, mustaqil O‘zbekistonning Prezidenti Islom Karimovning o‘zi bunday siyosiy imtihondan o‘tishiga to‘g‘ri keldi. Qirg‘izistonning janubida qirg‘inga uchragan o‘zbek millatining 100 minglab vakili O‘zbekiston tomonga qochib o‘tgan. O‘zbekistonning o‘sha vaqtdagi Hukumati ular uchun Andijon viloyatida vaqtinchalik maxsus lagerlar tashkil qilgan, yashash uchun kerakli bo‘lgan barcha birlamchi manbalar bilan ta‘minlagan.

**Natijalar.** Roza Otunboeva Markaziy Osiyodagi birinchi ayol prezident. 2010-yil iyulidan 2011-yil dekabrigacha Otunboeva Qirg‘iziston Respublikasini boshqargan. O‘z lavozimini tark etganidan so‘ng, u mamlakat taraqqiyotiga ko‘p qirrali hissa qo‘shayotgan “Roza Otunboeva tashabbusi” jamoat fondini tuzdi. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Limon.KG sayti Roza Isoqovna Otunboyeva haqida faktlar tayyorladi.

Roza Isakovna Otunboyeva 1950-yil 23-avgustda Bishkek shahrida tug‘ilgan, 70 yoshda.

U katta oilada o‘sgan. Roza Isakovna 8 farzandning ikkinchi farzandi, 6 opa va 1 ukasi bor.

Ulardan besh nafari Moskva oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari – Rayxon, Roza, Jamol, Tamara va Bolot O‘tunboyevlardir. To‘rt nafari – Roza, Rayxon, Tamara va Bolot – fan nomzodi.

Jamal Otunbaeva – terapevt, dotsent, Qozog‘istonning Olmaota shahrida ishlaydi va yashaydi; Anara bank xodimi, Bolot Otunboyev Qirg‘iziston Respublikasining Rossiya, Germaniya, AQSh va Kanadadagi sobiq elchisi. [3:12]

Roza Otunboevaning otasi Isoq O‘tunboyev Qirg‘iziston SSR Oliy sudining 25 yil a‘zosi bo‘lgan va 1995 yilda vafot etgan. Onasi – Saliya Doniyorova, oliy pedagogik ma‘lumotli (O‘sh pedagogika instituti) To‘qto‘g‘ul nomidagi Norin maktabida, so‘ngra O‘sh shahridagi Tereshkova



nomidagi maktab-internatida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlagan va o'qituvchilik faoliyatini maktab-internatda yakunlagan. Frunze shahridagi Krupskaya nomidagi maktab. U 2020-yil 29-iyun kuni 95 yoshida vafot etdi. R.Otunboevaning ota-onasi Baytiq qishlog'idagi qabristonga dafn etilgan.

Roza Otunboeva Norin shahridagi Chkalov nomidagi maktabda o'qishni boshlagan, biroq keyinchalik otasining ishi tufayli oilasi ko'chib kelganligi sababli O'sh shahridagi Kirov nomidagi o'rta maktabga o'qishga borgan va uni oltin medal bilan tamomlagan. 1967 yilda Moskva davlat universitetining falsafa fakultetiga o'qishga kirdi. 1972 yilda universitetni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, u darhol Moskva davlat universitetining aspiranturasiga o'qishga kirdi.

Roza Isoqovna 1976 yilda "Marksistik-leninistik dialektikaning Frankfurt maktabi faylasuflari tomonidan soxtalashtirish tanqidi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

1975 yildan Roza Otunboeva Qirg'iziston Davlat universitetida falsafa, mantiq va dialektik materializm tarixidan dars bera boshladi; 1978 yilda u falsafa kafedrasini mudiri bo'ldi va dotsent ilmiy unvonini oldi.

1979 yilda Roza Otunboeva fizik va Fanlar akademiyasining olimi Bolot Sadibaqasovga turmushga chiqdi. Bolot Sadibakasov bilan nikohda ikki farzand tug'ildi: Karachach va Atay Sadibakasovlar.[6]

Karachach Sadybakasova SOAS, London universitetida tahsil olgan va London biznes maktabini tamomlagan. U inglizga uylangan va ikki o'g'li bor.

O'g'li Atay Sadibaksov 38 yoshda. London Amerika maktabi, York universiteti va London iqtisodiyot maktabida tahsil olgan. Xususiy tadbirkor, OLOLO kompaniyasi asoschilaridan biri.

1981-yilda Otunboeva partiya va sovet ishlarida o'z yo'lini boshladi. Ikki yil davomida u Frunze shahridagi Lenin tuman partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi bo'lib ishladi. 1983 yilda u Frunzenskiy shahar partiya qo'mitasining kotibi bo'ldi. Qayta qurish boshlanishi va yuqori darajadagi kadrlar yangilanishi bilan Roza Otunboeva Qirg'iziston SSR Vazirlar Kengashi raisining ijtimoiy blok uchun mas'ul o'rinbosari etib tasdiqlandi. U bu lavozimda 1986-1989 yillarda ishlagan, o'sha yillarda Qirg'iziston SSR Oliy Kengashining Botken viloyatidan deputati bo'lgan. Sovet davrida hukumat boshlig'ining o'rinbosari lavozimi respublika tashqi ishlar vaziri lavozimi bilan birlashtirildi. Roza Otunboeva shu tariqa 4 marta respublika tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan: 1986-1989-yillarda, 1992-yilda, 1994-1997-yillarda, 2005-yilning martidan sentabrigha qadar esa vaqtinchalik Qirg'iziston Respublikasi tashqi ishlar vaziri vazifasini bajargan.

1989 yilda SSSR Tashqi ishlar vaziri E.A.Shevardnadze uni SSSR Tashqi ishlar vazirligida SSSR YUNESKO bo'yicha Milliy komissiya boshlig'i lavozimida ishlashga taklif qildi va u erda 1991 yil oxirigacha ishladi. U SSSRning Favqulodda va Muxtor elchisi unvonini oldi va SSSR Tashqi ishlar vazirligi hay'atining birinchi ayol a'zosi bo'ldi. SSSR YUNESKO komissiyasi raisi sifatida u YUNESKO Ijroiya kengashi vitse-prezidenti etib saylandi.

Roza Otunboeva Qirg'izistonning AQSh va Kanadadagi birinchi Favqulodda va Muxtor elchisi (1992—1994-yillar), shuningdek, Qirg'iziston Respublikasining Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyadagi birinchi elchisi (1997—2002-yillar) bo'lgan.

1992 yil noyabr oyida AQSh prezidenti Jorj H. V. Bushga ishonch yorliqlarini topshirish marosimida elchi Otunboeva qirg'iz milliy libosida. Keyinchalik, 1997 yilda u Buyuk Britaniya

qirolichasi Yelizaveta II ga milliy libosda ishonch yorliqlarini topshirdi. Tashqi ishlar vaziri R.Otunbayeva BMT Bosh Assambleyasining bosh minbaridan turib elechekda soʻzga chiqdi. “Bu mamlakatimizni tanib olishning samarali vositasi boʻldi, Qirgʻizistonni jahon xaritasiga mana shunday joylashtirdik”, - deydi Roza Isakovna. [7]

2002 yilda BMT tizimiga kirdi va Gruziya-Abxaz mojarosini tartibga solish boʻyicha tinchlikparvar missiyasi rahbari oʻrinbosari boʻldi va u erda ikki yildan ortiq ishladi.

Qirgʻizistonga qaytib, 2004-yil noyabrda parlament saylovlari arafasida u Dooronbek Sadirboyev bilan birga “Ata-Jurt” siyosiy harakatining hamraisi etib saylandi.

2005-yil yanvarida hukumat Roza Otunbayeva soʻnggi 5 yil davomida mamlakatda yashamagani uchun parlament saylovlarida ishtirok etishiga ruxsat bermadi. Saylovlar davomida qoʻpol qonunbuzarliklar, muxolifat nomzodlarini hukumat tarafdorlari foydasiga taʻqib qilish va tazyiq qilish, ovoz berish vaqtidagi firibgarlik va firibgarliklar butun mamlakat boʻylab ommaviy norozilik namoyishlariga olib keldi va birinchi prezidentning hokimiyatdan ketishi bilan yakunlandi. R.Otunboeva faol ishtirokchilardan biri boʻlib, “Lola” inqilobining lokomotivi laqabini oldi.

2005 yilda Jogorku Keneshning erkaklar tarkibi uning tashqi ishlar vaziri lavozimiga nomzodini rad etdi; Bishkekning Tunguch tumanida boʻsh oʻrin uchun boʻlgan LK saylovlarida u raqibiga yutqazdi, lekin prezident Bakievga qarshi muxolifat partiyalari va harakatlarida faol ishtirok etishda davom etmoqda.

2007-yil oktabr oyida SDPK siyosiy partiyasiga aʻzo boʻldi, shu yilning dekabr oyida esa Qirgʻiziston Respublikasi Jogorku Keneshining 4-chaqiriq deputati boʻldi. 2009 yilda u 2010 yil aprel inqilobi yetakchilaridan biri boʻlgan SDPK JK fraksiyasini boshqargan.

2010 yil aprel oyida Roza Otunbayevaga muvaqqat hukumatga rahbarlik qilish topshirildi.

Oʻtish davridagi boshqaruv shartlari hujjatlashtirilgan 2010-yil 27-iyundagi yangi Konstitutsiya boʻyicha referendumdan soʻng, 2010-yil 3-iyulda R.Otunboeva oʻtish davridagi Qirgʻiziston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishdi. U Markaziy Osiyodagi birinchi ayol prezident boʻldi.

Mamlakatda hokimiyatning barcha tarmoqlari – parlament, hukumat tiklandi, yangi prezident saylandi.

2011-yil dekabrda Roza Otunbayeva hokimiyatni ixtiyoriy, tinch yoʻl bilan saylangan prezident Almazbek Atambayevga topshirdi.

Roza Otunboevaning mukofotlari: Fransiya Faxriy legioni ordeni (Fransiya, 2012 yil) “Demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishdagi ajoyib xizmatlari uchun”; Italiya Prezidenti homiyligidagi Italiyaning Minerva mukofoti, 2015 yil - “Qirgʻizistondagi yuksak institutsional roli va xalqaro miqyosda tinchlik va demokratiya foydasiga doimiy faoliyati uchun”; R.Otunbayeva Newsweek Daily Beast (2012) ma'lumotlariga koʻra dunyodagi 150 ta nufuzli ayollar qatoriga kiritilgan; “Yetakchilik uchun” global ayollar sammitining bosh mukofoti bilan taqdirlangan (Afina, Gretsiya, 2012); "Qutb yulduzi" ordeni bilan taqdirlangan (Moʻgʻuliston, 2012). Roza Otunboeva Britaniyaning Apolitical tadqiqot tashkiloti roʻyxatiga koʻra, 2018-yilda gender siyosatini ilgari surish sohasida dunyoning eng nufuzli 100 nafar shaxsi qatoriga kirdi. 2011 yilda u Jasorat uchun xalqaro ayollar mukofotiga sazovor boʻldi (AQSh Davlat departamenti).

Tinchlikni o'rnatish bo'yicha dunyodagi eng yirik tashkilotning yillik "Finding Common Ground" mukofoti (2018 yil 1 noyabr, Nyu-York, AQSh). Kuvayt hukumatining 2019-yilgi "Fuqarolik jamiyati, davlat va xususiy sektorni takomillashtirishga qo'shgan hissasi uchun" mukofoti jamiyat rivojiga hissa qo'shgan va o'z ishiga innovatsion va ijodiy yondashuvlarni qo'llagan holda strategik qarashlarga ega bo'lgan ayollarni taqdirlaydi. [5:14-17]

Muhokama. Sobiq prezident Qirg'iziston Respublikasining o'nlab universitetlari, Shanxay siyosatshunoslik va huquq universiteti (Xitoy) va Ozarbayjonning Ganjavi universitetining faxriy professori hisoblanadi.

Sobiq prezident hali ham yoga bilan shug'ullanadi, tennis o'ynaydi, chang'i uchishni, konkida uchishni yaxshi ko'radi va har bir qirg'iz qizi kabi ot sporti bilan shug'ullanadi.

**Xulosa.** 2020-yilda Kembrij universiteti Roza Otunboevani tashrif buyurgan tadqiqotchi sifatida taklif qildi. Koronavirus pandemiyasi tufayli Otunbayevaning Kembrij universitetidagi ilmiy ishini boshlashi qoldirildi.

2012-yil yanvar oyida, prezident bo'lganidan so'ng, Roza Otunboeva "Roza Otunboeva tashabbusi" xalqaro jamoat fondini tuzdi va u ko'plab loyihalarni amalga oshiradi. Jamg'arma "Kelajak avlodga sarmoya kiritish", "Turlilikdagi birlik", "Demokratik boshqaruv" va "Barqaror rivojlanish" kabi to'rtta ustuvor yo'nalishda faoliyat yuritadi.

Jamg'armaning loyihalari:

Migrant ayol – onu urug'i; Qirg'iziston Respublikasi bo'ylab qamoqxonalardagi yillik yozgi rivojlanish markazlari (100 ga yaqin); "Sanarip 50+" – keksa odamlarni IT ko'nikmalariga, elektron hamyonlarga o'rgatish; 2013 yildan beri Bishkek shahrida har yili o'tkaziladigan Ta'lim festivali; "Qirg'iziston Respublikasida maktablarda ovqatlanish bo'yicha davlat siyosatini ilgari surish"; "STEMda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va rolini oshirish", "Ilmdegi qizlar" loyihasi 400 nafar qizni STEM kasblariga qabul qilish uchun ORT imtihonlariga tayyorlash va "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini targ'ib qilish" 2600 qizlarga murabbiylik; va boshqalar.

## REFERENCES

1. Otunbaeva Inaugurated As Kyrgyz President (англ.). RadioFreeEurope/RadioLiberty (3 июля 2010). Дата обращения: 15 августа 2021. Архивировано 27 августа 2021 года.
2. "Otunbayeva sworn in as Kyrgyz leader in historic first". BBC News. 2010-07-03. Архивировано 4 февраля 2022. Дата обращения: 15 августа 2021.
3. Roza Otunbayeva sworn in, becoming Central Asia's first female president (англ.). France 24 (3 июля 2010). Дата обращения: 15 августа 2021. Архивировано 1 мая 2021 года.
4. "Апрельская революция" в Киргизии: год спустя. BBC News Русская служба (6 апреля 2011). Дата обращения: 21 июля 2021. Архивировано 21 июля 2021 года.
5. Руслан ХАРИЗОВ. Миллионы сомов на инаугурацию. Сколько президенты тратили на церемонию. 24.kg (21 января 2021). Дата обращения: 21 июля 2021. Архивировано 21 июля 2021 года.
6. <https://roza.kg/press-center/news/1840>
7. [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30776632](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30776632)

## O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH OMILLARI VA IMKONIYATLARI, MUAMMOLARIGA YECHIMLAR.

**Tosheva Gulnora Sunnatovna**

Navoiy viloyat yuridik texnikumi ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi  
yetakchi mutaxassisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13710987>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi zamon ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi qiyinchiliklar, ularni hal qilish yo'llari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari muhokama qilinadi. Maqolada o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, ilmiy tadqiqotlarni zamon talablariga moslashtirish, xorijiy tajribalarni o'rganish, o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** fan va texnika, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, metod, texnologiya va b.q.

### FACTORS AND OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN UZBEKISTAN, SOLUTIONS TO PROBLEMS.

**Abstract.** This article discusses the challenges that prevent the improvement of the quality of the current education system, ways to solve them, and directions for future development. The article focuses on such issues as improving educational programs, modernizing the educational process, adapting scientific research to modern requirements, studying foreign experiences, and developing students' professional skills and logical thinking abilities.

**Key words:** science and technology, education, education, curriculum, public education standard, knowledge, skill, qualification, competence, professional quality, logical thinking, method, technology, etc.

### ФАКТОРЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ, ПУТИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы, препятствующие повышению качества действующей системы образования, пути их решения и направления дальнейшего развития. В статье уделяется внимание таким вопросам, как совершенствование образовательных программ, модернизация образовательного процесса, адаптация научных исследований к современным требованиям, изучение зарубежного опыта, развитие профессиональных навыков и способностей логического мышления студентов.

**Ключевые слова:** наука и техника, образование, образование, учебная программа, народное образование, стандарт, знания, умение, квалификация, компетентность, профессиональное качество, логическое мышление, метод, технология и т. д.

### KIRISH

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri ta'lim tizimining rivojlanishiga bog'liq.

Mustaqil fikrlaydigan, ijodiy, tadbirkor va tashabbuskor shaxslarni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu Mamlakatning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishi zamonaviy bilimlar va yangi yondashuvlarni talab qiladi. Shuning uchun ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini zamon talablariga moslashtirish, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv materiallarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni hal qilish kelajakdagi muvaffaqiyatlarimizning kafolati hisoblanadi.

Fan va texnologiyaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida ilmiy bilimlar, tushunchalar va g'oyalar soni keskin o'sib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan va texnologiyaning yangi sohalarini rivojlanishiga olib keladi, bu esa ularning ixtisoslashuvini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, fanlar o'rtasida integratsiya jarayoni kuzatiladi. Bunday sharoitda malakali o'qituvchilarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Fanning asosiy tamoyillarini, pedagogika va psixologiya usullarini mukammal egallagan, yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega va zamonaviy innovatsion pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan amalda foydalana oladigan ijodiy o'qituvchilarni tayyorlash zarur.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotganligi sababli, ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda joriy etishga alohida e'tibor qaratish kerak. Biroq, ta'limning yangi mazmun, shakl, usul va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy tadqiqotlarning hozirgi holati yetarli emas.

Albatta, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchi ta'lim sohasidagi yangiliklarni doimiy ravishda o'rganib, ularni o'z ish faoliyatida qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda fan va texnologiya sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturiga tezkorlik bilan kiritish zarur, bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy o'qitish texnologiyalari va ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar kelajakdagi o'qituvchilarda zarur bilim, muhim qonuniyatlar va ko'plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning bilim va kasbiy mahorati zamon talablariga mos kelishi, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, o'quvchilarning mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tilishini ta'minlash muhim.

O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, o'quvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodiylik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda o'qituvchilarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega bo'lgan, muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Tahlil va tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimimizda hali ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

- Ta'lim muassasalarida malakali o'qituvchilarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o'quv reja va dasturlari sohadagi islohotlarni to'liq aks ettirmaydi va mazmunan eskirgan.



- O'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning ijodiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishda tizimli va innovatsion faoliyat yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

- O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmayapti.

- O'qituvchilar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiya va usullarni amaliyotga keng joriy etilmayapti.

- Ta'lim muassasalarida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmagan.

- O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga bahslashish, o'z fikrini bayon etish imkoniyati kam berilmoqda. Ba'zi mashg'ulotlarda o'qituvchilar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolmoqda, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emas.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish, alternativ usullarni qo'llash va tinimsiz izlanishlarni yo'lga qo'yish zarur. Bu o'z navbatida o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Hozirgi kunda o'quv dasturi mazmuni va tuzilishini qayta ko'rib chiqish juda muhim. U o'qituvchi uchun "ko'zgu" vazifasini bajarishi kerak. Chunki, inson ko'zguga qarab o'zining butun vujudini ko'radi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z fani bo'yicha o'quv dasturiga qarab, butun faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga yetkazishi lozim bo'lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalarni eslaydi. Biroq, amaldagi fan dasturlarida bir qator kamchiliklar mavjud:

- Fanni o'qitishda maqsad va vazifalar chuqur, aniq yoritib berilmaydi yoki haddan tashqari ko'p bo'ladi.

- O'quvchilarga qo'yilayotgan malaka talablari bugungi kun talablariga moslashtirilmagan, bu borada ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

- Kursdan kursga o'tishda yoki bitiruvchilarda malaka talablarini egallaganlik darajasini aniqlovchi mezonlar va ko'rsatkichlar ishlab chiqilmagan.

- Malaka talablarini ishlab chiqishda o'quvchilarning kasbiy sifatlari (mustaqillik, ijodiylik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik) hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil qila olish, klassifikatsiyalash, solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, amaliyotga joriy etish kabi) deyarli e'tiborga olinmaydi.

- O'quv dasturlari tuzilishini yangilash va o'zgartirish zarurati mavjud.

- Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda mustaqil ta'lim to'g'ri talqin etilmaydi.

- Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatiga yillar bo'yicha chegara qo'yilgan va boshqalar.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish orqali biz zamonaviy o'quv dasturlarini yaratishga erishamiz. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblayman:

Birinchidan, fan dasturining kirish qismida o'qitiladigan fanning dolzarbligi va ahamiyati, uning maqsad va vazifalari, kelajakda nima uchun kerakligini ochib berishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buni fanga tegishli hayotiy misollar, fan va texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu albatta o'quvchilarda fanga bo'lgan dastlabki qiziqishni uyg'otishga, kelajakka bo'lgan ishonch kurtaklarining yuzaga kelishiga yordam beradi.



Ikkinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Mamlakatimizga xorijdan ko'plab yangi texnika va texnologiyalar, investitsiyalar kirib kelmoqda, qolaversa o'zimizda ham ishlab chiqarilmoqda, yangi-yangi korxonalar va ishlab chiqarish tashkilotlari barpo etilmoqda. Albatta, ertaga bu korxonalarda mustaqil ishlay oladigan, ularni boshqara oladigan mutaxassislar zarur. Shuning uchun bugungi kunda biz kelajak uchun tayyorlayotgan mutaxassislarimizga ular tomonidan qo'yilayotgan zamonaviy malaka talablarini aniq, to'g'ri, chalkashtirmasdan, "bizdan ketdi - egasiga yetdi" tarzida ish qilmasdan o'rganib, kerak bo'lsa ushbu korxonalar va tashkilotlarga borib, ko'z bilan ko'rib, ularning yetakchi, tajribali mutaxassislari bilan hamkorlikda shakllantirish lozim. So'ngra ushbu tayyor malaka talablari o'quv dasturida o'z aksini topishi kerak.

Uchinchidan, o'quv dasturida fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish deb: aqliy hujum, bumerang, sinkveyn, konseptual jadval kabi interfaol usullar yozilganini kuzatamiz. Axir ular pedagogik texnologiyalar emas-ku, ular pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullardir. Axborot texnologiyalari bo'yicha esa biron bir texnologiya nomi yozilmagan. Demak, bu noto'g'ri yondashuv va talqin.

To'rtinchidan, loyihalashni o'quv dasturlariga kiritish juda muhim. Ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri faoliyat va jarayonni loyihalash hisoblanadi.

Shuning uchun ham bu o'quv dasturida o'z aksini topishi kerak.

Bundan tashqari, yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga ko'proq e'tibor qaratish lozim:

- O'quv dasturlarini ilg'or xalqaro tajribalar asosida tajribali pedagog va mutaxassislar bilan kelishgan holda tubdan takomillashtirish, kerak bo'lsa ularning variantlarini ishlab chiqish.

- O'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlashni, yangicha yondashuv uslublarida qobiliyatlarini shakllantirish.

- Nazariy va amaliy bilimlarni yaxlitligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilg'or tajribalarni tatbiq etgan holda yangi avlod o'quv materiallarini yaratish.

- O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar faolligini oshirishni nazarda tutuvchi muammoli savol va topshiriqlarni ishlab chiqish hamda munozaralarni yo'lga qo'yish.

- O'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar uchun tajribalar o'tkazish, modellar yasash, loyihalash, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish, o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimini yaratish.

- Respublika va xorijdagi yetakchi mutaxassis-olimlar ma'ruzalarini hamda vebinar mashg'ulotlarini onlayn audio-, videotranslyatsiyalar ko'rinishida tashkil qilish.

- O'quv qo'llanmalarini sohalardan kelib chiqib yaratish. Masalan, fizika darsligi bo'yicha: tibbiyot fizikasi, transport fizikasi, yengil sanoat fizikasi va boshqalar.

- Har bir fan bo'yicha o'quv yili uchun "Fan yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.

- O'qituvchilarning "Tahlil - muammo - yechim - natija" klasteri asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etishini yo'lga qo'yish. Ma'ruzalarni ushbu klaster asosida o'tkazilishiga erishish.

- O'quvchilarning bilimlarini baholashda barcha baholash tizimlaridan voz kechib "yaxshi o'zlashtirgan, o'rtacha o'zlashtirgan, past o'zlashtirgan" tizimni kiritish (Izoh: a'lo bu ideal

tushuncha. O'zlashtirmadi deb hisoblash noto'g'ri, chunki biz maktabgacha ta'limda, umumiy o'rta ta'limda, professional ta'limda, qolaversa oliy ta'limda bolani shuncha yillar nimaga o'qitdik).

- Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda quyidagi punktlarga e'tiborni qaratish: tadqiqot ishining tahlili, tahlil asosida aniqlangan muammolar, muammoni hal qilishga qaratilgan maqsad va vazifalar, ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan metod, texnologiya va vositalar, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalar va ularning amaliyotga tatbiqi, xulosalar va takliflar.

### **Xulosa**

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorijiy tajribalarni samarali qo'llash, uning asosida o'quv jarayonini tashkil etishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, o'quv jarayoni pedagogik ijodiylikning asosiy maydoni hisoblanadi, uni tashkil qilish va boshqarishga to'g'ri, innovatsion yondashuv o'quvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodiylikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish orqali ta'lim sifatiga e'tibor berishga jalb qiladi [7-9].

Ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalarining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020y., 07/20/4884/1484-son).

## MILLIY FOND BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Tashbayev Dilmurod Xolmuradovich

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13711246>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini rivojlantirish real sektor hamda moliyaviy sektorning o'zaro uyg'un tarzda rivojlantirishni taqozo etishi. Bunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi fond bozori bilan bevosita bog'liqligi yoritilgan hamda O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar fond bozorining zamonaviy holati tahlili amalga oshirilgan bo'lib, milliy iqtisodiyotda fond bozori amal qilishi uchun davlat tomonidan yetarli darajada me'yoriy-huquqiy, institutsional, tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilganligi hamda fond bozorini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha bir qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, mazkur mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, kapital bozor, investor, kapitallashuv, deponent, emitent, aksiya, obligatsiya, aksiyadorlik jamiyati.

### PROSPECTIVE DIRECTIONS OF NATIONAL FUND MARKET DEVELOPMENT

**Abstract.** In this article, the development of all branches and sectors of the economy requires the harmonious development of the real sector and the financial sector. In this, the development of the country's economy is directly related to the stock market, and the analysis of the modern state of the stock market of Uzbekistan and developed countries was carried out. - a number of scientific proposals and practical recommendations were given on the creation of economic conditions and the further improvement of the stock market, and opinions of foreign and local scientists were presented on this topic.

**Keywords:** stock market, capital market, investor, capitalization, depositor, issuer, share, bond, joint stock company.

### ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ФОНДОВЫЙ РЫНОК

**Аннотация.** В данной статье развитие всех отраслей и секторов экономики требует гармоничного развития реального сектора и финансового сектора. При этом развитие экономики страны напрямую связано с фондовым рынком, и был проведен анализ современного состояния фондового рынка Узбекистана и развитых стран - дан ряд научных предложений и практических рекомендаций по созданию экономических условий и дальнейшее совершенствование фондового рынка, а также представлены мнения зарубежных и отечественных ученых по этой теме.

**Ключевые слова:** фондовый рынок, рынок капитала, инвестор, капитализация, вкладчик, эмитент, акция, облигация, акционерное общество.

### Kirish.

Qaysi bir rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy progressiyasiga razm solmaylik, kapital bozorining shiddat bilan o'sib borayotgani, investitsiya oqimining barqaror ekanligiga guvohi bo'lamiz. Fond bozori iqtisodiyotda muhim vazifalarni bajaradi, ya'ni jamg'armalarni investitsiyaga transformatsiya qilib, moliyaviy-investitsion resurslarni iqtisodiyotning istiqbolli

sohalariga samarali taqsimlash va qayta taqsimlash, davlat qarzig'a xizmat qilish, ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqini qayta taqsimlash, biznesni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, vaqtinchalik bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyot maqsadlariga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Fond bozori yordamida davlat ham, korxonalar ham rivojlanish va ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni jalb qiladilar. Shuningdek, dunyoning ko'plab, eng zamonaviy davlatlarning bozor iqtisodiyotida fond birjalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, fond birjalari bozor iqtisodiyotining eng muhim instituti sifatida qaralib, tegishli moliya institutlarining faoliyatini milliy iqtisodiyotidan kelib chiqqan holda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab vazifalarni o'z ichiga oladi. Fond bozori jismoniy yoki qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan mexanizm to'plamidir. Fond birjasi - bu qimmatli qog'ozlar savdosiga mo'ljallangan uyushgan bozor. Bu qimmatli qog'ozlar xaridori hamda sotuvchisi uchrashadigan joy hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 26-maqsadida: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, unda Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish hamda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususi sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish reja qilingan [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-oktabrdagi fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so'm bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmasligi. Bu ko'rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etayotgani.

Shu bois 2020-2025 yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilganligi hamda erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha kamida 10-15 foizga yetkazish bo'yicha tegishli mutassadi tashkilotlarga vazifalar berilgan bo'lib, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni ko'paytirish, xorijiy birja, brokerlar va banklarni mamlakatimiz fond bozoriga jalb qilish choralari muhokama qilingan.

Sug'urta kompaniyalariga aktivlarining ma'lum foizini fond bozoriga yo'naltirish, banklarga birlamchi bozorda yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun ruxsat berish masalalari ko'rib chiqilgan. Shu qatorda, investorlar va minoritar aksiyadorlar huquqi himoyasini kuchaytirish, dividendlar to'lash va undirishni takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy hisobot va xalqaro audit standartlariga o'tish bo'yicha topshiriqlar berilgan [3].

Bundan ko'rinib turibiki, fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining zarur segmentlaridan biri hisoblanishi, qolaversa, investitsiya oqimini jalb qilishdagi samarali mexanizmi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Raymon Barr fond bozoriga quyidagicha ta'rif beradi. "Fond bozori texnik institut sifatida bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi, mulk huquqiga baho beradi, risklarni qayta taqsimlaydi, ishchi aylanmasida ishtirokchilar o'rtasida ma'lumotlarni qayta taqsimlaydi. Shu bois fond bozori deyilganda jamg'armalarni yig'uvchi va bir joyga jamlovchi uzoq muddatli bo'sh turgan kapitallar bozori tushuniladi. Ushbu mablag'lar uzoq muddatga immobilizatsiyada bo'luvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi [4]".

Xususan, xorijlik zamonaviy va taniqli iqtisodchi olimlardan biri Gregori Menkyu bu borada shunday ta'rif beradi. "Ko'p hollarda fond bozoriga oid shunday ta'rif tez-tez uchraydi, ya'ni u xohlovchi shaxslarga jamg'arma qilish, aksiya va obligatsiya bozorida o'z mablag'larini qarzdorlarga berish imkonini beruvchi moliyaviy muassalar yig'indisidir [5]"

Xorijlik zamonaviy va taniqli iqtisodchi olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryu fond bozoriga shunday ta'rif beradilar. "Fond bozori - kapital mablag'larini tavsiya etuvchi va sotib oluvchilarni bir joyga jamlovchi institutdir" [6].

Iqtisodchi olim Mollah Aminul Islamning fikricha, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi, chunki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha intensiv firmalar tashqi fondlarni jalb qilish uchun mahalliy aksiyalar bozorida o'z aksiyalarini listingdan o'tkazadi. Jamg'arma oqimi va operatsiyalarning ko'payishi moliyaviy vositachilikka bo'lgan talabni oshiradi va natijada qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanadi [7].

Taniqli iqtisodchi Takhumova Oksananing ta'kidlashicha, Korxonalarining investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: fond bozorining amaldagi holati, investitsiya jalb etishdagi mexanizmlar va qonunchilik shartlari hisoblanadi [8].

Respublikamiz olimlaridan D.G'.G'ozibekov tomonidan, investitsiyalarning moliyalashtirishning turli manbalar tuzilmasini optimallashtirish yo'li bilan ta'minlash, davlat sektorida tarmoqlararo proportsiyalarni nazorat qilish g'oyat muhim masaladir, deb ta'kidlaniladi.

Olimning fikricha, iqtisodiyot subyektlarining o'z mablag'lari, maxsus fondlar, bank-kredit institutlari va mintaqalar resurslari hisobiga ko'chirish zarur [9], deb hisoblaydi. Olim fikricha, turli manbalarni oqilonlashtirish tuzilmasi orqali fond bozoriga ham e'tibor berish zarurligi qisman keltirib o'tiladi. A.V.Vaxabov asarida investitsiya resurslarini samarali taqsimlanishini nazorat qilishning asosiy mexanizmi-bu fond birjasidir. Aynan rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori ushbu modelni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi [10] deb ta'kidlanadi. Demak, rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori investitsiyalarni jalb etishni muhim vositasi bo'lishi mumkinligi ilgari suriladi. M.B.Xamidulin ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish uchun barcha sharoitlar yetarli [11] deb ta'kidlaydi. Mahalliy olimlarimizdan yana biri S.Elmirzayevning fikricha esa, "mamlakatdagi kompaniyalar o'z dividend siyosatida dividend va reinvestitsiya o'rtasidagi me'yoriy nisbatni aniqlashi, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishi, aksiyalarning bozordagi narxlarining o'sishiga erishishi, biznes faoliyatini kengaytirishi kabilar kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi, bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini [12] aytib



o‘tadi. Olim A.Shomirov ilmiy qarashlarida quyidagicha yondashadi. “Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishidan qat’iy nazar, qo‘shimcha moliyaviy resurslarini joylashtirish, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishning eng zamonaviy usullaridan biri IPO mexanizmini qo‘llashdir [13]”.

Ushbu yondashuvlar bilan fond bozorining mohiyatiga oid ta’riflar chegaralanmaydi.

Bozorning ushbu turi bozor iqtisodiyotining muayyan rivojlanish davrida pul muomalasining yangi shakliga bo‘lgan talabning yuzaga kelishi bilan paydo bo‘ldi.

Bizning fikrimizcha ham fond bozorini yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish, oldi sotdisini tashkil etish va uni qoplanishi bilan bog‘liq munosabatlar tizimi sifatida qarashimiz lozim. Bozor iqtisodiyoti qimmatli qog‘ozlar muomalasini rivojlantirmasdan amal qilishi mumkin emas.


### Tadqiqot metodikasi.

Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy fond bozorining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ifodalovchi manbalarining tahliliga bag‘ishlangan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy asarlari va maqolalari o‘rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

### Tahlili va natijalar.

Fond bozori – bu moliya bozorining bir qismi bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va ularning savdosida ixtisoslashgan bozor hisoblanadi. Fond bozorining asosiy vazifasi - investitsiyalarni, ya’ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag‘larini to‘plash hamda taqsimlash, qimmatli qog‘ozlar paketlaridan foydalangan hodda mulk egaligini o‘zgartirish, qimmatli qog‘ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshqalar.

Fond bozori qimmatli qog‘ozlar bozorining katta qismini tashkil etadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining qolgan qismi o‘zining nisbatan kichik xajmlari tufayli maxsus nomni olmadi, shu sababli ko‘pincha qimmatli qog‘ozlar bozori bilan fond bozori tushunchalari bir hil ma’noda ishlatiladi.






### 1-rasm. Fond bozorining sub'ektlari [14]

Fond bozori qatnashchilari kapital "iste'molchilari" (emitentlar) va uni "taqdim etuvchilar" (investorlar)dir "Iste'molchilar" - davlat, mahalliy hokimiyat organlari, yirik milliy va xalqaro kompaniyalar hisoblanadi. Investorlar esa institutsional (qimmatli qog'ozlar bilan ish yurituvchi har xil moliyaviy kredit institutlari: tijorat va investitsiya banklari, sug'urta jamiyatlari, pensiya fondlari va boshqalar) va individual (xususiylar, shu jumladan, venchur biznesining uncha katta bo'lmagan korxonalar egalari) guruhlarga bo'linadi.

Bizga ma'lumki, fond bozoriga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishda siyosiy, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va infratuzilmaviy omillar keng ta'sir etadi. Ushbu omillar ichida makroiqtisodiy omillar fond bozoriga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadigan omillardan biri hisoblanadi.



### 2-rasm. Fond bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillarning tasnifi [15]

Davlat byudjetining holati fond bozori rivojlanish holatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar byudjetda xarajatlar daromadlardan oshib ketib, kamomad yuzaga keladigan bo'lsa va ushbu kamomad pul emissiyasi orqali qoplansa, bu holat inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

Pirovard natijada fond bozoriga investitsiyalash sekinlashadi.

Shuningdek, ko'pgina rivojlangan davlatlar hamda respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridagi tajribasida ham byudjet kamomadini noinflyatsion usullarda qoplash usuli fond bozori faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekistonda bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchisi bo'lib, ular faoliyatining barqarorligi, o'z navbatida, fond bozorining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslangan. Jahon amaliyotida yetakchi fond birjalari o'z faoliyatni olib bormoqda va ularning olib borayotgan islohatlari fond birjalarni yanada rivojlanishiga turtki bolib kelmoqda.

Banklar qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitimlar hajmi sezilarli darajada pasayganligiga qaramasdan, ular bilan tuzilgan bitimlar summasi tarmoqlar kesimida 2019 yilda

amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi bo'yicha 72,81 foizni yoki 319,5 milliard so'mni tashkil etdi.

Kapital bozorida eng faol bank tizimini qaraydigan bo'lsak, banklar aktivlarining 84,3 foiz yoki 235,16 trillion so'm davlat ulushiga to'g'ri keladi. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmog'ida.

Fond birjasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri moliyaviy barqaror jamiyatlarning qimmatli qog'ozlarini yanada ko'proq birja savdolariga jalb qilish, ularga qulay va kam xarajatli birja operatsiyalari orqali investitsiya mablag'larini yo'naltirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni hamda "Toshkent" respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan birja savdosi qoidalariga binoan, listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari doimiy kotirovka qilinadi. Bu esa, listingdagi qimmatli qog'ozlarning bozor bahosini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar deb qabul qilinib, kapitallashuv ko'rsatkichini bozorning sig'imi (hajm) omili, sotilgan aksiyalar sonini bozorning faollik omili, emissiyani bozorning kengayish omili deb qabul qilingan. O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lsa-da, ammo fond bozori orqali ularning salmog'i kamligicha qolmog'ida.

#### **Xulosa va takliflar.**

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda fond bozorini takomillashtirish va uning investitsiyalarni jalb qilishdagi rolini oshirish uchun qo'yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Fond bozori holati, uning qatnashchilari, ularning qimmatli qog'ozlari va moliyaviy-xo'jalik faoliyati haqidagi zarur ma'lumotlar va hisobotlarni tuzish va taqdim etish masalalari bo'yicha me'yoriy-xuquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirib, ularni takomillashtirish lozim. Fond bozoriga oid bo'lgan normativ bazani qayta ko'rib chiqqan holda soddalashtirish va to'siqlarni olib tashlash kerak;

2. Qimmatli qog'ozlarning emitentlari hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyadorlar umumiy yig'ilishini onlayn rejimida masofaviy tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim. Shu asosda aksiyadorlarga taqdim etilayotgan hujjatlar va hisobotlar elektronlashadi, aksiyadorlarning vaqti tejaladi, transport xarajatlari kamayadi hamda barcha aksiyadorlarning yuz foiz ishtirok etishi ta'minlanadi;

3. Fond bozoriga oid rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganish, ularda qo'llanilayotgan dasturiy texnik ta'minotlardan foydalanish, fond bozori bo'yicha mutaxassislarni malaka oshirishlarini ta'minlash qo'yilgan maqsadlarga erishishda ko'maklashadi;

4. Fond bozori amaliyotiga yangi moliya vositalarini, xususan davlat qimmatli qog'ozlari, xosilaviy qimmatli qog'ozlarni joriy kilish vaqti keldi deb hisoblaymiz. Buning uchun vakolatli davlat organlari tomonidan yangi moliya instrumentlarining muomalaga chiqarilishini rag'batlantiradigan me'yoriy xujjatlar ishlab chiqilishi lozim.

Birinchi navbatda korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ro'yxatga olishning maxsus soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqilishi zarur.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish fond bozori ishtirokchilarining say-harakatlarini birlashtirib, qo'yilgan maqsadlarga hamkorlikda erishishga, iqtisodiy taraqqiyot yo'lida fond

bozori salohiyatidan samarali foydalanish va uning investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirishga zamin yaratadi.

#### REFERENCES

1. S.A.Obidov. Fond bozorini rivojlantirish milliy iqtisodiyotining eng muhim omili – “Science and Education” Scientific journal, January 2021/Volume 2 Issue 1. 207-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-oktabrdagi fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi - <https://gov.uz/oz/news/view/24425>
4. Barr R. Political economy. T.-M. International Relations, 1995, P.319.
5. M. Gregory. The principle is economics. - SPb.: Peter Kem., 1999, P.538.
6. McConnell KR, Brew SL. Economics. – M: Infra M, 2003, P.62.
7. Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies?//Journal of Multinational Financial Management, 12 February 2021. – P.13. <https://www.sciencedirect.com>
8. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Masliхова Elena A, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12.
9. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: “Moliya” 2003.-332 b. (122-124b.).
10. Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma.-T.: “Moliya” 2010.-328 b. (152b.).
11. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. доктор наук получить степень Автореферат диссертации написан для - Ташкент, 2008.-37с.
12. S.Elmirzayev. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va Dividend Aristokratlari.// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy-elektron jurnali, №2, 2020. – B.11;
13. Shomirov Aziz. “The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects”, International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article.
14. D.Abdikarimova, F.Muxamedov, M.Raxmedova, N.Tursunova, N.Sherkuziyevalar tomonidan “Birja ishi” Darslik - (2021-yil, 320 bet.) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
15. S.Elmirzayev. “Zamonaviy korporativ boshqaruv” Darslik – (2019-yil 416 bet.) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
16. [www.theglobaleconomy.com](http://www.theglobaleconomy.com) – veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
17. [www.uzse.uz](http://www.uzse.uz) – Toshkent Fond Birjasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

## BIZNES LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI

**Sobirov Akram Maxmudovich**

Bank-moliya akademiyasi

Loyiha boshqaruvi mutahassisligi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13730006>

**Annotatsiya.** Maqolada biznes loyihalarining moliyaviy resurs manbalari va ularning tahlili to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik moliyasi, moliyaviy resurslar, moliyalashning ichki manbai, moliyalashning tashqi manbai.

### ANALYSIS OF SOURCES OF FUNDING FOR BUSINESS PROJECTS

**Abstract.** The article discusses the sources of financial resources of business projects and their analysis.

**Key words:** business finance, financial resources, internal source of financing, external source of financing.

### АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ БИЗНЕС-ПРОЕКТОВ

**Аннотация.** В статье рассматриваются источники финансовых ресурсов бизнес-проектов и их анализ.

**Ключевые слова:** финансирование бизнеса, финансовые ресурсы, внутренний источник финансирования, внешний источник финансирования.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda biznes korxonalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori samaradorlikka erishgan, eng ilg'or tajribalarga asoslangan AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Gonkong, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator davlatlarda bu borada ijobiy holatlar kuzatilgan. Shuningdek, "jahon tajribasida kichik biznes korxonalarining investitsiyasiz juda sekin rivojlanayotganligi ham barchaga ma'lum".

Shunday ekan, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilinib, ushbu Farmonning III. "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bo'limidagi 29-maqсадida: "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish" o'z aksini topgan.

Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan:

➤ Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish;

➤ Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. SHaroiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish; Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.

- 2026 yilga borib tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish;
- Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish;
- Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish;
- Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish.

Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish. 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 98,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 6,1 foizga ko'p demakdir. Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (38,9%), sanoat sohasida (19,5%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (11,8%), qurilish sohasida (6,4%) tashkil etilgan.


Ammo faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 2021 yilda o'tgan yilga nisbatan ko'paygan bo'lsada, YAIMda kichik tadbirkorlik ulushi - 0,6 (2020 y. - 55,5%; 2021 y. - 54,9%) foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, sanoat (-0,9%), qurilish (-0,1%), savdo (-0,2%), xizmat ko'rsatish (-0,7%), yuk tashish (-2,2%), yuk aylanmasi (-2,4%), yo'lovchi tashish (-0,7%) va boshqa sohalarda o'tgan yilgiga nisbatan kamaygan.

Bu esa, o'z navbatida, kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni jalb etish yordamida ularni rivojlantirishni talab etadi. Moliya xo'jalik jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan vosita bo'lib, bir tomondan, tadbirkorlik sub'ektlari va ikkinchi tomondan, davlat organlari, idoralari va muassasalari hamda boshqa korxonalar va tashkilotlar, jismoniy shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda katta rol o'ynaydi.

Tadbirkorlikning moliyaviy resurslari uning pul mablag'laridir. Tadbirkorlik faoliyatida xilma-xil va murakkab o'zaro iqtisodiy aloqalar pul mablag'lari yordamida amalga oshiriladi.

Pul mablag'lari vositasida takror ishlab chiqarishning bir fazasidan boshqa fazasiga o'tiladi hamda maqsadli jamg'armalar shakllantiriladi. Bular ishlab chiqarish va umuman, tadbirkorlik faoliyatini uzluksiz yuritish va kengaytirish garovi bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash deganda uni pul mablag'lari bilan ta'minlash tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash ikki xil manbadan - ichki va tashqi manbalardan amalga oshiriladi.



1-chizma. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash manbalari

Moliyalashning ichki manbai bo‘lib:

- tadbirkorlik sub‘ektining o‘z mablag‘lari;
- nizom sarmoyasi tarkibidagi pul mablag‘lari;
- faoliyatdan olinadigan foyda; - amortizatsiya jamg‘armasi;
- tekinga berilgan mablag‘lar kiradi.

Tadbirkorlik sub‘ekti yuridik shaxs ko‘rinishida tashkil etilganda nizom sarmoyasi shakllantiriladi. Bu sarmoyaning hammasi yoki bir qismi pul mablag‘lari bo‘lishi mumkin.

Mazkur mablag‘lar nizomda belgilangan miqdorda shakllantiriladi va asosiy vositalar sotib olish, aylanma mablag‘larni shakllantirish uchun ishlatiladi, ya‘ni ishlab chiqarish vositalariga joylashtiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasi foyda bo‘lib, u foydadan to‘lanadigan majburiy to‘lovlarni amalga oshirish, ayrim qarzlarni qaytarish va faoliyatni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Amortizatsiya jamg‘armasi mablag‘laridan asosiy vositalarni qurish, sotib olish, tahrirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun foydalaniladi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashning tashqi manbalariga:

- kreditorlar;
- investorlar;
- ijarachilar;
- sug‘urta;
- lizing va boshqa tuzilmalar kiradi.

Kerakli resurslar tashqi manbalardan turli tijorat shartlari asosida jalb qilinib ishlatiladi, ayrimlari sotib olinadi (xomashyo, materiallar, energiya va suv resurslari, yoqilg‘i-moylash materiallari, texnika, texnologiya); ayrimlari ijaraga va lizingga olinadi (asosiy vositalar, er); ayrimlari esa qarzga yoki kreditga olinadi (moliyaviy resurslar).

Bunday resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanishning tadbirkor uchun muhim jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- a) resurslarning har bir turiga nisbatan o‘z ehtiyojini to‘g‘ri aniqlash;
- b) samarali manbalarni tanlash;
- v) o‘ziga ma‘qul shakllarda va shartlarda olish;
- g) zamonaviy ilg‘or variantlarini tanlash;
- d) ta‘minotning uzluksizligi va davomiyligiga erishish;
- e) ulardan o‘z faoliyatida samarali foydalanish.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashning tashqi manbalaridan tijorat banklari va kredit uyushmalari katta rol o‘ynaydi.

Moliyaviy ta‘minlashning imkonli manbalari quyidagilardir: - tijorat banklari; - moliyaviy kompaniyalar; - investitsion kompaniyalar; - investitsion fondlar; - kredit uyushmalari; - xaridorlar; - mahsulot beruvchilar; - do‘st va tanishlar; - xayriya tashkilotlari; - transkompaniyalar va banklarning trast bo‘linmalari; - davlat, xalqaro va jamiyat tashkiloti va idoralari, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturida ishtirok etuvchilar (ularning markaziy va mahalliy idoralari); - ishlovchilar; - dastgoh ishlab chiqaruvchilar; - sug‘urta kompaniyalari; - nafaqa fondlari; - xususiy investorlar; - moliyaviy maslahatchilar.



#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Xasanova G.D. O'zbekistonning investitsiya siyosati (Buxoro viloyati misolida). Научный журнал "Интернаука". Часть 2. Москва. 2019. № 9 (91). С.27-29.
3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. T., 2002 yil.
4. Aripov O.A. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi. – T.: "Namangan" nashriyoti, 2018. – 213 b.

## КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

Казоқов Р.Т.

Катта ўқитувчи., ЎзДЖТСУ.

Холбоева Д.Р.

Катта ўқитувчи., ЎзДЖТСУ.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13747503>

**Аннотация.** Ушбу мақолада кейс-стади таълим технологияси асосида талабаларни педагогик маҳоратини шакллантириши ҳақида фикр юритилган.

**Калим сўзлар:** Ўқув бирликларини (мезонлар) белгилаш, диагностик таҳлил, тузатиш киритиш, қайта ишлаш (тўлдириш), кутилиши лозим бўлган (кафолатланган) натижани олиш, рейтинг (таққослаш).

## FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS ON THE BASIS OF CASE-STUDY EDUCATIONAL TECHNOLOGY.

**Abstract.** This article discusses the formation of pedagogical skills of students on the basis of case study technology.

**Key words:** Determining educational units (criteria), diagnostic analysis, correction, processing (filling), getting the expected (guaranteed) result, rating (comparison).

## ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается формирование педагогических умений студентов на основе технологии кейс-стади.

**Ключевые слова:** Определение учебных единиц (критериев), диагностический анализ, коррекция, обработка (заполнение), получение ожидаемого (гарантированного) результата, рейтинг (сравнение).

Кейслар амалий, ўргатувчи ва илмий-тадқиқотли бўлиши мумкин. Амалий кейсларнинг асосий мақсади ҳаётий ҳолатни синчиклаб, тўла акслантиришдан иборат.

Бундай кейслар вазиятнинг амалий, яъни “ҳаракатланувчи” номли вазият моделини яратади. Бундай кейсларнинг ўқув вазифаси ўқувчиларни тренинга, бундай вазиятда қарор қабул қилиш билим, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлашга мўлжалланади. Бундай кейслар имкон қадар кўргазмани ва ҳижжаланган бўлиши лозим. Уларнинг энг асосий маъноси ҳаётни билиш ва муқобил фаолиятга кўникишни эгаллаш.

У типик вазиятни кўришга имконият беради ва олдиндан аналогияни қўллаган ҳолда, вазиятни таҳлил қилиш қобилиятини аниқлайди.

Янги педагогик технологияларнинг таълим жараёнига татбиқ этилиши, ўқув жараёнига бир қатор янги элементларни олиб киради ва булар қуйидагилар:

- Ўқув бирликларини (мезонлар) белгилаш;
- Диагностик таҳлил;
- Тузатиш киритиш;
- Қайта ишлаш (тўлдириш);
- Кутилиши лозим бўлган (кафолатланган) натижани олиш;

–Рейтинг (таққослаш).

Юқоридаги тамойиллар ва элементларга асосланган ҳолда ва янги педагогик технологияларни таълимга жорий этиш, айниқса ривожланган давлатлардаги педагогик технологиялардан фойдаланиб, таълимий педагогик технология тизимини яратиш борасида амалга оширилаётган ишларни умумлаштириш ва таълим жараёнида қўллаш учун куйидагиларни амалга ошириш лозим:

1. Таълим жараёнининг иштирокчилари – педагог ва ўқувчи ўртасида ўқув меҳнати режасини ишлаб чиқиш: яъни педагог бўлим ёки бобни ўрганиш режасини тузар экан, ушбу режада ўқувчи фаолият ўз аксини топмоғи керак.

2. Фаннинг ички боғланиши ёки фанлараро боғланиш имкониятларидан мақсадли фойдаланиш. Маълумки, ҳар бир ўрганиладиган кичик ёки йирик ўқув бирликлари олдин ўрганилганларига таянади. Демак ўқувчини янги бўлим, бобни ўрганишга олиб киришда ундаги мавжуд билимларга таяниш, агар мавжуд билимлар янги бобни, бўлимни ўрганишга етарли бўлмаса «оралиқ тайёргарлик» олиб бориш ва шундан кейингина ўқувчини билимларини ўрганишнинг навбатдаги босқичига олиб кириш лозим. Бундай ишлаш янги педагогик технологиянинг асосий элементларидан бири диагноз(ташҳис) ҳисобланиб, ўқувчиларнинг янги билимларини ўзлаштириш қанчалик даражада тайёр эканликларини аниқлашдан иборат.

3. Ўқув бирликлари(мезонлари)ни белгилаш. Ўқув бирликлари ўқувчи томонидан ўрганилиши лозим бўлган тушунчалар, таърифлар, қоидалар, қонунлар, ҳодисалар, воқеалардан иборат бўлиб, улар орасидаги мантиқий боғланишнинг таъминланиши шу боб ёки бўлимнинг ўзлаштирилишига олиб келади. Ўқитувчи шу пайтда гуруҳга нисбатан ўртача баҳо билан ишламайди, балки аниқ ўлчовларга асосланган ҳолда иш олиб боради.

Шунинг учун, ҳам ўқув бирликларини билиш ўқувчи учун зарур топшириққа айлантирилади.

4. Диагностик таҳлил. Билим, кўникма ва малакадаги камчиликларни аниқлаш, уларни тўлдириш ва навбатдаги ўзлаштириш босқичига кўтарилиш мақсадида ташҳислаштириш амалга оширилади. Диагностика куйидаги мақсадларни амалга оширади:

- a) ўқувчилар ўзлаштириш даражасини ташҳислаштириш;
- b) бўлимлардаги етишмовчиликларнинг олдини олиш;
- c) аниқланган етишмовчиликларини тўлдириш мақсадида махсус топшириқлар ишлаб чиқиш;
- d) яқуний диагностик таҳлил қилиш.

Диагностика таълим технологиясининг навбатдаги босқичи бўлиб, унинг асосий элементларидан ҳисобланади. Диагностик таҳлил назорат турларидан тест сўровида амалга оширилади. Тест сўрови натижаларини диагностик таҳлил қилиш икки муҳим вазифани ҳал қилади:

1. Қайси ўқувчи қайса ўқув бирликларида қийналади;
2. Ўқитувчи қайси билимларини кучайтириш лозимлигини аниқлайди.\
3. Тузатиш киритиш. Бўлим, бобнинг ўзлаштирилиш даражасининг диагностик таҳлили натижасида 50%дан кам кўрсаткич олинса, ўқитувчи таълим жараёнининг боришига тузатиш киритиши лозим. Тузатиш киритишда куйидагилар бажарилади:

А. Ўқувчилар ўзлаштириши қийин бўлган мавзуларни аниқлаш(диагностик таҳлил асосида);

В. Қайта ўрганиши лозим бўлган мавзуларни янгича ўргатиш услубларини ишлаб чиқиши;

С. Дарс режасида тузатиш киритиш вақтларини белгилаш.

4. Қайта тўлдириш (нуқсонларни тугатиш). Қайта тузатиш киритишдан мақсад олинган билимлардаги камчиликларни бартараф этишдан иборат. Камчиликларни тузатиш тўлдириш асосида амалга оширилади. Қайта тўлдириш асосан амалиёт машғулотларида бажарилади. Шу мақсадда ўқитувчи ўқувчилар ўзлаштириш даражасидаги «тўлдиришни» амалга оширмоғи лозим.

5. Кутилиши лозим бўлган(кафолатланган) натижани олиш. Бу элемент янги педагогик технологиянинг марказий ғояси ҳисобланади. Янги педагогик технология таълим жараёни натижасида кафолатли бўлишини талаб қилиш билан бирга, жараённинг боришини кўзда тутилган мақсадда амалга оширилиши ва натижали бўлишининг мақсадли режалаштирилишини ўқитувчи олдиға мақсад қилиб қўяди. Жараён бориши давомида шу жараён таҳлил қилиниб борилади, тузатишлар киритилади, қайта тўлдиришлар амалга оширилади ва олдиндан кутилиш режалаштирилган натижа олинishiға эришилади.

## REFERENCES

1. Балтаева И. Т. и др. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //MODERN SCIENCE AND RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 709-718.
2. Jumayev U. X., Kazoqov R. T., Abdusalomov I. K. QUANTITATIVE EVALUATION OF QUALITY INDICATORS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 229-240.
3. Qutlimurotov I. X. et al. THE PROCESS OF ORGANIZING EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS AND MASTERING PERSONAL PROFESSIONAL KNOWLEDGE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 869-879.
4. Солиев И. Р. и др. МОРФО-ФУНКЦИОНАЛ ВА АНТРОПОГЕНЕТИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРГА КЎРА ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ИШЧАНЛИК НАТИЖАЛАРИНИ БАШОРАТ ҚИЛИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
5. Тажибаев С. С. и др. ЖАХОН ЧЕМПИОНАТИ 2022 ЙИЛГИ ФУТБОЛЧИЛАР АНТРОПОМЕТРИК ЎЛЧАМЛАРИ ВА ТЕЗЛИК СИФАТИ ОРАСИДАГИ КОРРЕЛЯЦИЯНИ ЎРГАНИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
6. Тажибаев С. С. и др. 13-14 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШ САМАРАДОРЛИГИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
7. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 561-569.
8. Ganieva M. et al. THE UNITY OF TECHNIQUE, TACTICS AND STRATEGY IN TABLE TENNIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1175-1183.

9. Usmonova S. H., Akmurodov M., Kazokov R. THE INFLUENCE OF TEMPERAMENT ON THE CHOICE OF SPORTS ACTIVITIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 63-70.
10. Umaraliyeva F. T., Kazoqov R. T. THE ROLE OF SPORTSWOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1124-1131.
11. Mustafayeva N. A., Kazoqov R. T. USING THE MAIN CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC SCHEDULE IN SOLVING ISSUES RELATED TO PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1115-1123.
12. Kazoqov R. T., Axatov L. K. SPORT TOMOSHASINING ESTETIKASI. – 2024.
13. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
14. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.
15. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
16. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
17. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.
18. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
19. Казоков Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоков Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.



23. Казоқов Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
24. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
25. Kazonov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
26. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
27. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Казоқов Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р. КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Bektorov O. Y. et al. MONITORING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS DURING THE TRAINING PROCESS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 342-352.

33. Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Kazoqov P. T. и др. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR //TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1-237.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.
36. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
39. Axatov L. K., Burliyev U. K., Kazoqov R. T. AESTHETICS OF SPORTS SPECTACLE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 19-28.
Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2017-yil davomida 26 mingdan ziyod begunoh inson yovuzlik qurboni bo'lgan. Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida BMTga a'zo davlatlar tomonidan 21-avgust – «Xalqaro terrorizm qurbonlarini xotirlash va qadrlash kuni» deb qabul qilindi hamda ushbu xalqaro sana dunyo bo'ylab 5 yildan buyon nishonlab kelinmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2017-yildagi 72/165-rezolyusiyasi bilan bu kun rasmiy xalqaro sana sifatida e'lon qilingani bejiz emas. Butun dunyoda sodir etilayotgan ko'plab terraktlar, siyosiy va mafkuraviy kurashlar oqibatida millionlab begunoh insonlar qurbon bo'lmoqda. Ayniqsa, oxirgi 15 yilda terrorizm qurbonlari soni bir necha barobarga oshib ketdi.

Xalqaro ekspertlar terrorchilarning vahshiyliklari hech qanday asosga ega bo'lmagan holda inson huquqlari va xalqaro huquq tamoyillarini buzishini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda terrorizmning diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'liqlik holatlari kuzatila boshlangan.

Shu sababli, Prezidentimizning 2021-yil 1-iyuldagi «2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy

strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan. Respublikamiz konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali va bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirilgan davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash strategiyaning maqsadi sifatida belgilangan.

Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadga erishish nazarda tutilmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 22-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonining «Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish» deb nomlangan oltinchi bo'limida ham kelgusida terrorizmga qarshi murosasiz kurash olib borilishi qayd etilgan. Mamlakatimizning terrorizmga qarshi kurashdagi qat'iy pozitsiyasini namoyon qiluvchi ushbu bo'limda quyidagilar o'z aksini topgan:

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish;

- ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yot g'oyalar ta'sirining oldini olish va ularning ta'siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish;

- aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;

- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;

- faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;

- Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish;

- Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning rolini kengaytirish; kabilar kiritilgan.

Bundan tashqari, «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi qarori ham qabul qilindi. Ushbu ikki hujjat talabiga ko'ra, terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarning ro'yxatiga kiritilgan tashkilot yoki jismoniy

shaxsning pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki bilan bog‘liq operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish choralari ko‘riladi.

O‘zbekiston tomonidan terrorizmdan aziyat chekkan, uning domiga tushgan va terror harakatlari avj olib turgan hududlardan o‘z fuqarolarini olib kelish maqsadida 2019-2021- yillarda «Mehr» insonparvarlik operatsiyasi 5 marta tashkil qilindi va 500 dan ortiq vatandoshlar Yaqin Sharq va Afg‘oniston hududidan mamlakatimizga olib kelindi. Siyosiy va mafkuraviy maqsadlar qurboni bo‘lgan ushbu shaxslarga davlat tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatildi. Ular jamiyat ijtimoiy hayotiga qo‘shilib ketishlari uchun zarur sharoitlar yaratilib, turar joy va ish bilan ta‘minlandi.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimizda juda ko‘p amalga oshirilgan bo‘lib, oxirgisi ham emas, hali yer yuzi bu illatga qarshi asrlar davomida kurash olib boradi.

### **XULOSA**

Tarixiy haqiqat shuni ko‘rsatib turibdiki, terrorizm – dunyo aholisining tinchligi va farovonligiga rahna soluvchi qabih illatdir. Dunyo hamjamiyati ushbu yovuzlikka qarshi bir yoqadan bosh chiqargan holda kurashagina bu kurashlar kutilgan samarani beradi.

Shu ma‘noda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta‘sis etgan mazkur xalqaro sana muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu kun terrorizmdan aziyat chekkan davlatlarga hamdardlik bildirish, birdamlikni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bilan birga, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish yo‘lida xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

1. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m1113>
2. <https://mudofaa.uz/9840/>
3. “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” O‘zbekiston gumanitar jurnali

## XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNI MOLIVAVIY NATIJALAR HISOBINIISLOH QILISH

**Qodirov Nurillo Abdulboqiyevich**

Bank- moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788633>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish zaruriyati va usullari tahlil qilingan. Moliyaviy natijalarni hisobga olishning dolzarb muammolari, mavjud yondashuvlar va ularni yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Asosiy e‘tibor moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, moliyaviy ko‘rsatkichlarning aniqligini ta‘minlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy bo‘lgan moliyaviy tahlillarni amalga oshirish usullariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy natijalar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, moliyaviy hisob, hisobot, moliyaviy tahlil, boshqaruv qarorlari, iqtisodiy samaradorlik, takomillashtirish usullari.

### REFORM OF ACCOUNTING OF FINANCIAL RESULTS OF ECONOMIC ENTITIES

**Abstract.** This article analyzes the necessity and methods of improving the accounting of financial results in economic entities. Actual problems of accounting for financial results, existing approaches and ways to improve them are considered. The main focus is on methods of financial analysis necessary to improve the quality of financial reports, ensure the accuracy of financial indicators and make effective management decisions.

**Key words:** financial results, economic entities, financial accounting, reporting, financial analysis, management decisions, economic efficiency, methods of improvement.

### РЕФОРМА УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ


**Аннотация.** В данной статье анализируются необходимость и методы совершенствования учета финансовых результатов в хозяйствующих субъектах. Рассмотрены актуальные проблемы учета финансовых результатов, существующие подходы и пути их улучшения. Основное внимание уделяется методам финансового анализа, необходимым для повышения качества финансовой отчетности, обеспечения точности финансовых показателей и принятия эффективных управленческих решений.

**Ключевые слова:** финансовые результаты, хозяйствующие субъекты, финансовый учет, отчетность, финансовый анализ, управленческие решения, экономическая эффективность, методы повышения.

XYuSlar faoliyatida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirmasdan turib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin emas. Ularni isloh qilish jarayonining mazmuni bozor munosabatlari rivojlanishining qonuniyatlaridan kelib chiqadiki, ularda birlamchi bo‘g‘in (XYuSlar) ga alohida o‘rin berilishi kerak.

Bozor iqtisodiyotidagi o‘zaro aloqalarning umumiy modeli quyidagi chizmada keltirilgan (1-chizma):





1-chizma. Bozor iqtisodiyotidagi o‘zaro aloqalar modeli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida XYuSlar xaridor va sotuvchi sifatida maydonga chiqib, tovarlar va xizmatlar bozorida o‘zgaruvchan talab va taklif asosida raqobat muhitida aniqlanadigan baho orqali o‘zaro ta’sirlashadi. Baholarning yig‘indisi tushumning o‘lchamini belgilab (aniqlab) berganligi uchun XYuS (firma, korporatsiya va h.k.) larning moliyaviy ahvoli bilan ularning bozordagi faolligi, ular faoliyatida taraqqiyotning bozor omillari o‘zgarishi (dinamikasi) ni har tomonlama hisobga olish o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjud.

Bu omillarni hisobga olish XYuSlar, firmalar va korporatsiyalar faoliyatining butun falsafasini prinsipial jihatdan o‘zgartirishni talab qiladi. XYuSlarni bozor sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan choralar tizimini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, XYuSlarni bozor iqtisodiyotining mustaqil (to‘laqonli) subyektiga aylantirish ularni moliyaviy isloh qilishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sari yuz tutilganligiga 18 yildan ko‘proq vaqt bo‘lganligiga qaramasdan hamon mamlakatimiz XYuSlarining ma’lum bir qismi dinamik rivojlanayotgan bozor munosabatlariga moslashayotganligi yo‘q. Ayrim ekspertlarning bahosiga ko‘ra, sanoat XYuSlarining ¼ qisminigina bozor iqtisodiyotining to‘laqonli subyektlari safiga kiri-tish mumkin. Yangi sharoit talabiga ko‘ra munosabati bilan XYuSlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- faoliyatni bozor talablariga yo‘naltirish va eng yangi texnologiyalarga investitsiyalar asosida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish yo‘li bilan mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini ta‘minlash;

- XYuS kapitalini shakllantirish va boshqarish samaradorligini oshirish;

- XYuS rivojlanishini moliyaviy jihatdan ta‘minlash va uning moliyaviy barqarorligini oshirish rezervlarini qidirib topish va jalb qilish;

- ishlab chiqarishning barcha omillaridan samarali foydalanish va mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni kamaytirish asosida ularning daromadlarini o‘stirish yo‘li bilan XYuSlarning investitsion jozibadorligini oshirish;

- aktivlarni restrukturizatsiya qilish va bozor konyunkturasini bashoratlash, tovarlar va xizmatlarning to‘lovga layoqatli talabi va taklifi asosida XYuS faoliyatini diversifikatsiyalash.

XYuSlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilishda kapitalizatsiya jarayoni, ya’ni mavjud salohiyat (aktivlar)dan eng yaxshi foydalanish hisobidan kompaniyaning

qiymatini oshirish va shu asosda kapitallashtirishning asosiy manbayini – kapitalni o‘stirishga yo‘naltiri-ladigan sof foydani o‘stirish alohida o‘rin egallaydi.

Sof foydani kapitallashtirish koeffitsiyenti aktiv (kapital) ni oshirishga yo‘naltirilgan sof foyda qismining XYuS sof foydasi umumiy hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Uni formula shaklida quyidagicha aks ettirish mumkin:

$$K_k = (SF_{kq} : SF_{uh}),$$

Bu yerda:  $K_k$  – sof foydani kapitallashtirish koeffitsiyenti;

$SF_{kq}$  – aktivlar (kapital)ni oshirishga yo‘naltirilgan sof foydaning qismi;

$SF_{uh}$  – XYuS sof foydasining umumiy hajmi.

Kapitallashtirish jarayoni investitsion-innovatsiya strategiyasini amalga oshirish asosida faqat aktivlar hajmini oshirishni emas, balki ularning yanada samaraliroq foydalanilishini ko‘zda tutganligi bilan ham muhim. Uni quyidagi tartibda aniqlasa bo‘ladi:

$$K_a = (K^o : A_o),$$

Bu yerda:

$K_a$  – aktivlarni kapitallashtirish koeffitsiyenti;

$K^o$  – tahlil davrida o‘z kapitalining o‘sishi;

$A_o$  – tahlil davri oxiridagi aktivlar.

Kapitallashtirish jarayoni ishlab chiqarishda ilmiy yutuqlarning moddiylikligini aks ettiruvchi ilg‘or innovatsion ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalariga qo‘yiladigan kapital shaklning intellektuallashtirishga asoslanishi kerak. O‘z faoliyatida yangi sifat talablarini joriy etayotgan samarali bozordagi o‘zaro aloqalar tizimiga nisbatan tezroq kirish uchun XYuSlar tomonidan moliyaviy isloh qilishning asoslangan dasturini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Bunda butun xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyatining natijasi sifatida yuqori yakuniy moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishishga alohida o‘rin ajratilmog‘i lozim.

Bir vaqtning o‘zida bunday dastur bozor omillari va iqtisodiy o‘shish shart-sharoitlaridan foydalanish, shuningdek, innovatsion taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalarini amalga oshirish asosida XYuS faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha choralar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi. Moliyaviy isloh qilish dasturi quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- XYuSning tashkiliy va mulkiy holatini o‘zgartirish (yuqori samarali tashkiliy shakl, kapitalning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish va uni samaradorlikni oshirish maqsadlari uchun joylashtirish, yuqori talabga ega bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarishni rivojlantirish va h.k.);

- ishlab chiqarishning investitsion texnologik bazani o‘zgartirish (asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning tarkibiy tuzilishi, texnologik yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yangilash va h.k.);

- ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining yuqori yakuniy natijalariga – XYuSning ixtiyoriga qoldiriladigan sof foydaga erishish, kompaniyaning qiymatini o‘stirish va xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy negizi bo‘lgan asoslangan biznes-rejani ishlab chiqish;

- XYuSning asoslangan marketing va baho strategiyasini ishlab chiqish;

- XYuSning moliyaviy strategiyasini uning ishlab chiqarish marketing siyosati bilan o‘zaro ta’sirchanligi (bog‘liqligi)ni asoslash.

Yuqoridagilarning barchasi moliyaviy munosabatlarni tegishli tarzda qayta qurishni, XYuSni boshqarishda moliyaviy oqimlarning rolini oshirishni; tushum, xarajatlar, foyda, soliqqa tortish norma (me'yor) lari, sof foyda, umumiy va o'zlik kapitalining hajmi va manbalaridan iborat bo'lgan moliyaviy indikatorlarning o'zgarishini monitoring qilish orqali moliyaviy boshqaruvning yaxlit samarali tizimi shakllantirilishini talab qiladi. Bu ishlar, o'z navbatida, quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- XYuS xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatiga oid moliyaviy oqim-larning o'zaro aloqadorligini kuchaytirish va ularda ishlab chiqarish omillari – moddiy, mehnat, informatsion va boshqa resurslarning tegishli harakatlarini yanada to'laroq aks ettirish;

- boshqaruv qarorlari qabul qilishda, XYuS moliyaviy resurslari o'sishining rezervlarini to'liq qidirib topish va amalga oshirishda uning moliyaviy-analitik xizmatlari ahamiyatini oshirish;

- XYuS faoliyatini moliyaviy resurslar bilan yanada to'liqroq ta'minlash uchun o'z bilimlarini sarf etayotgan moliyaviy menejment malakasi darajasini oshirish;

- XYuS moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida xalqaro andozalarga muvofiq ravishda ma'lumotlar olish, XYuSlar, firmalar va korporatsiyalar faoliyatida yuqori darajadagi barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga o'tish.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori
2. A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, N. K. Rizaev, N. M. Imamova-moliyaviy hisobot standardari / dars-T.: "Moliya", 2021-310 B.
3. Norbekov D.E. Ochilov I.K. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent:,2019. – 416 b.
4. Sh.Muzrapova "Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi" "Tafakkur manzili" may2022 ISSN:2180-2160 www.reandpub.com

## KO'PRIK QURILISH LOYIHALARI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH

**Xalilov Sodiqjon Qayumovich**

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788692>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola to'sinli temirbeton ko'priklarning boshqaruvini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bunda variant loyihasining asosiy maqsadi oraliq qurilmalarning zamonaviy turlari, tayanchlar, poydevorlar asosiy materiallari ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada variantlar taqqoslashni asosiy holatlari va optimal qaror chiqarish, ko'priklarning asosiy sxemalarini misollarda ko'rsatish va chizma hisob tushuntirish xatini ishlab chiqish uchun takliflar kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Temirbeton, poydevorlarning zamonaviy turlari, ko'priklarni loyihalash, materiallar hajmi, loyihalari boshqaruvini, boshqaruvini samaradorligi.

## ENSURING THE EFFICIENCY OF MANAGEMENT OF BRIDGE CONSTRUCTION PROJECTS

**Abstract.** This article includes the development of control of girder reinforced concrete bridges. The main purpose of the variant project is the modern types of intermediate devices, main materials of supports, foundations. Also, the article includes the main cases of comparison of options and suggestions for making an optimal decision, showing the main schemes of bridges in examples, and developing an explanation of the drawing account.

**Key words:** Reinforced concrete, modern types of foundations, bridge design, volume of materials, project management, management efficiency.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ СТРОИТЕЛЬСТВА МОСТОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы управления балочными железобетонными мостами. Основная цель вариантного проекта – современные типы промежуточных устройств, основные материалы опор, фундаментов. Также в статье приведены основные случаи сравнения вариантов и предложения по принятию оптимального решения, показаны на примерах основные схемы мостов и разработаны пояснения к расчету чертежа.

**Ключевые слова:** Железобетон, современные типы фундаментов, проектирование мостов, объемы материалов, управление проектами, эффективность управления.

Temirbeton ko'priklar qurish uchun asosiy qurilish materialidir. Zo'riqtirilgan temirbeton qurilmalar bo'yicha tuzilgan. Xalkaro federatsiyaning (FIP) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda qurilayotgan ko'priklarning 60% zo'riqtirilgan temirbetondan, 30%-oddiy temirbetondan va fakat 10% gina metall dan quriladi [1]. Temirbetondan umumiy holda foydalanishning dastlabki sharti, metallni kam sarflanishi va beton to'ldiruvchilari va biriktiruvchilarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyolar zahirasi ko'pligidir. Yuqori sifatli qilib loyihalangan va qurilgan temirbeton ko'priklar uzoq saklanadi va foydalanish davrida katta xarajatlarni talab qilmaydi.

Bunga Rossiyada Don daryosiga qurilgan oraliq qurilmasi 20 va 25 m. dan bo'lgan ko'prikn misol qilish mumkin. Bu ko'prikn 80 yildan ko'prok foydalanishda bo'lib, hozirgi kunda piyodalar harakati uchun foydalanilmoqda.

Loyihalanayotgan ko'priknli inshoot, foydalanish davridagi, ekologik, iqtisodiy, ishlab chiqarish va me'morchilik xususiyatlariga ega bo'lgan qator asosiy talablarini qanoatlantirishi kerak.

Foydalanish davridagi talablar ishonchligi, pishiq va inshootni uzluksiz foydalanishda bo'lishini, hamda transport vositalari va piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir.

Qatnov qismi va piyodalar yo'llarining kengligi, kelajakdagi hisobiy o'tkazish qobiliyatiga to'g'ri kelishi kerak. Ko'prikn inshootining bo'ylama kesimi tekis bo'lishi kerak. Oraliq qurilmalari yuklar o'tgandan tashqari egilish va tebranishlarga yo'l qo'ymaydigan mustahkamlikka ega bo'lishi kerak.

Transport vositasining ko'priknidan tushib ketmasligini hamda, piyodalar xavfsizligini ta'minlovchi kerakli to'sinlar o'rnatilishi kerak.

Inshootlarning pishiqligi, mustahkam va chidamli xususiyatlari qurilish normalari va davlat standartlari talablarini qondiradigan materiallarni qo'llash orqali ta'minlanadi. Bunda qoplamalar ustidan suv qochirish ishlari yaxshi bajarilishi kerak. Inshootning pishiqligi yana qurilish-montaj ishlarini qanchalik sifatli bajarilganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Qurilmalar shunday loyihalanish kerakki, ko'prikn ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlashni bajarish qulay bo'lsin. Ko'prikn oralig'i, oraliq qurilmalar uzunligi va qurilmalarining daryodagi suv sathidan balandligi toshqinlar, muz oqimlari va shox - shabbalar oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlashi, hamda kemalar qatnovi va yog'och oqizish talablariga javob berishi kerak.

Foydalanishi davridagi ko'priknka qo'yiladigan talablar asosiy hisoblanadi. Ekologik talablarga - hozirgi zamon ko'priknli o'tish joylarini, yo'l o'tkazgichlarni, havonlarini loyihalashtirilgan joylarda atrof muhitga yetkaziladigan zararni iloji boricha minimal qiymatga keltirish shartlarini o'z ichiga oladi. Loyihalash davrida ko'priknli o'tish joylari yuk chiziqlarini o'tkazishni davlat qo'riqxonalari, tabiat va madaniyat obidalari, daryo bo'ylaridagi o'rmon polosalari joylashishini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilmog'i zarur.

Botqoqliklar, yemirilishlar hosil bo'lishini oldini olish, ekologik muvozanatni va baliq zahiralari himoyasini saqlab qolish, qurilish davrida vaqtincha foydalanishda bo'lgan yerlarni qayta tiklash va serhosil tuproqlardan qayta foydalanish bo'yicha chora va tadbirlar ko'zda tutiladi.

Shaharlarda asosiy e'tiborni me'morchilik obidalari saqlash va shovqinga qarshi tadbirlarga qaratiladi. Zarur bo'lganda yo'l o'tkazgichlar va ularga kirish joylarida shovqindan himoya qiluvchi to'siqlar qurilishi mumkin.

Iqtisodiy talablar - loyihalanayotganda ko'priklarni qurishda va ulardan foydalanish davrida iloji boricha kam xarajat va materiallar talab qiladigan yechimlarni tanlashdan iboratdir.

Bunda ko'prikn qurilishidagi kapital mablag'larni qoplash davri me'yoridagidan oshib ketmasligi kerak (taxminan sakkiz yil).

Ko'priknli loyihalash - bir necha ketma - ket bosqichlarda hal qilinadigan murakkab muhandislik vazifasidir. Boshlang'ich bosqichda ko'priknning bosh o'lchamlarini aniqlanadi, oraliq qurilmalar uzunliklari belgilanadi, oraliq qurilmalar, tayanchlar va poydevolarining turlari

tanlanadi. Buni ko'prik inshootining turli variantlarini ishlab chiqish va ularni solishtirish yo'li bilan hal qilinadi. Variantli loyihalash asosida ko'prikning optimal konstruktiv-texnologik yechimlari tanlanadi.

Talaba ko'prik variantlarini muvaffaqiyatli ishlab chiqarishi uchun, ko'prikarni loyihalash, zamin va poydevolar, ko'priklar qurilishi kurslari bo'yicha, hamda ularga yaqin bo'lgan: qurilish mexanikasi, qurilish iqtisodiy va boshqa kurslar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Ushbu maqola vatanimizdagi yig'ma temirbeton to'sinli ko'prikarni loyihalash va qurilishi tajribalarini umumlashtirishi asosida ishlab chiqilgan.

Ko'prik variantlarini taqqoslash uchun materiallar hajmi (yig'ma va monolit t/b, armatura, yordamchi qurilmalar metalli va boshqalar) hisoblab chiqiladi.

Element va konstruksiyalar namunaviy loyihalardan olingan bo'lsa, ularning hajmi berilgan bo'ladi, agar individual tarzda olingan bo'lsa eskiz rasmlaridan hisoblab chiqiladi.

Materiallar sarfini aniqlayotganda ko'prik harakat qismini yuzasiga qarab solishtirma ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

$$S=LxB$$

Bu yerda:

L-2 ta chekka to'sinlar qirralari orasidagi umumiy uzunlik; V-oraliq qurilma umumiy uzunligi. Beton sarfi ko'prik 1m 2 yuzasiga qarab belgilanadi.

Hammasi bo'lib 3 ta variantini sxemalari ishlab chiqilgan. Variantlar namunaviy loyihadan oldindan zo'riqtirilgan armaturadan tashkil topgan uzlukli va uzluksiz-sistemalardandir.

Ko'priklar ham xizmat qilish davri katta bo'lgan inshootlar qatoriga kiradi. SHuning uchun ular qurilmalari va materiallarining pishiqligi iqtisodiy o'lchamlaridan biridir. Iqtisodiy talablar foydalanish davridagi ekologik, me'morchilik va boshqa talablar bilan uzviy bog'likdir. Amalda iqtisodiy talablarning hamma qirralarini hisobga olish murakkab bo'lganligi uchun, ko'prikarni loyihalashda ularning asosiy iqtisodiy xususiyatlari qilib ko'pincha qurilishning smeta bo'yicha narxi olinadi. Bunda smeta narxi avtomobil yo'llari qurilishi uchun maxsus ishlab chiqilgan kapital mablag'lar normasidan oshib ketmasligi kerak.

## REFERENCES

1. Smith, J. "Ecological Impact of Lignosulfonates in Building Materials," *Journal of Green Building*, vol. 10, no. 2, pp. 45-59, 2015.
2. Kim, H., Lee, H., "Polycarboxylate-Based Superplasticizers and Their Role in Improving the Performance of Construction Materials: A Review," *Construction and Building Materials*, vol. 112, pp. 547-558, 2016.
3. Zhang, Y., Li, Q., "Zeta Potential in Cement Hydration with Superplasticizers," *Journal of the American Ceramic Society*, vol. 92, no. 10, pp. 2083-2088, 2009.
4. Gupta, R., Khan, A., "A Comprehensive Review on the Applications of Zeta Potential Measurements in Construction Materials Science," *Cement and Concrete Composites*, vol. 35, pp. 24-36, 2013.
5. Gupta, R., Khan, A., "A Comprehensive Review on the Applications of Zeta Potential Measurements in Construction Materials Science," *Cement and Concrete Composites*, vol. 35, pp. 24-36, 2013.



6. Israelachvili, J., "Intermolecular and Surface Forces," Academic Press, 3rd ed., 2011.
7. Yang, J., "Mechanisms of Controlling Rheology in Cement Pastes," Cement and Concrete Research, vol. 40, no. 1, pp. 1020-1028, 2010.

RESPUBLIKAMIZDA MUSIQA MAKTABLARINING YOSHLAR TA'LIM-  
TARBIYASIDAGI O'RNI.

AMUDARYO TUMANI 9-SON MUSIQA MAKTABI MISOLIDA.

**Qodirova Zilola Rajabboyevna**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali 3-kurs talabasi.

**Rano Abatbaeva Allambergenovna**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788913>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada amudaryo tumani mang'it shahrida joylashgan 9-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabining kelib chiqish tarixi, bugungi kunda o'rta ta'lim va musiqa maktablarda o'qitilish tizimi shu davrgacha ro'y bergan va kiritilib kelayotgan o'zgarishlar hamda hozirgacha erishilgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Teatr, ansambl, baxshi, musiqa, san'at, ashula, raqs, doston, konsert, latifa, lazgi, tanovor, shashmaqom, fortepiano, royal.

THE ROLE OF MUSIC SCHOOLS IN YOUTH EDUCATION IN OUR REPUBLIC IN  
THE EXAMPLE OF MUSIC SCHOOL NUMBER 9 OF  
AMUDARYA DISTRICT.

**Abstract.** In this article, the history of the origin of the Children's Music and Art School No. 9 located in the city of Mangit, Amudarya district, information about the changes that have occurred and are being made in the system of secondary education and training in music schools today, and the achievements achieved so far. explained.

**Key words:** Theater, ensemble, performance, music, art, song, dance, epic, concert, anecdote, lazgi, tanovor, shashmaqom, piano, piano.

РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ШКОЛ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ В НАШЕЙ  
РЕСПУБЛИКЕ НА ПРИМЕРЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ШКОЛЫ №9  
АМУДАРЬИНСКОГО РАЙОНА.

**Аннотация.** В данной статье представлена история возникновения Детской музыкально-художественной школы №9, расположенной в городе Мангит Амударьинского района, информация об изменениях, произошедших и осуществляемых в системе среднего образования и обучения. в музыкальных школах сегодня, и достижения, достигнутые к настоящему времени.

**Ключевые слова:** Театр, ансамбль, спектакль, музыка, искусство, песня, танец, эпос, концерт, анекдот, лазги, тановор, шашмаком, фортепиано, фортепиано.

Ulardir Amuning asl yulduzi,  
Kelajak osmonin yorug' yulduzi,  
Vatanga ma'naviy iforlar sochgan,  
Elim, yurtim, degan har o'g'il-qizi,  
Tiladim: yo'llari bo'lsin charog'on,  
Boshidan nur sochsin quyoshli osmon.  
Ulardir orzular qanotlarida  
Dunyoga tik boqqan hur O'zbekiston!

**Robiya YO‘LDOSHEVA**

Qadim Xorazm va Qoraqalpoq zaminining ajib sir-sinoatlarini, ildizlari olis ming yilliklarga borib taqaluvchi ikki buyuk xalqning urf-odat va an‘analarini, madaniyati, tarixi va umummilliy qadiryatlarini o‘zida mujassam etgan o‘lmas, boqiy san‘ati hamon dunyo xalqlarini o‘ziga rom etib kelmoqda. Xususan, Qilichboy va Mang‘it masqarabozlik, baxshichilik san‘atining o‘ziga hos yumoristik hususiyatlari bilan uyg‘unlashib ketgan qoraqalpoqlarning ajoyib afsonasi – “O‘mirbek laqqi latifalari” zamonlar osha sayqallanib, bugungi davr san‘ati sahnalaridan tushmay kelayotganining o‘zi san‘atsevar xalqimizning yaratgan bebaho durdonalarining qadri, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida tutgan o‘rni buyukligidandir.

Men har gal Mang‘it shahridagi 9-sonli Bolalar musiqa va san‘at maktabi oldidan o‘tar ekanman, bu go‘zal maskanda san‘at sir-sinoatlarini o‘rganib kelayotgan yosh san‘atga shinavanda bolalarning chiqishlariga guvoh bo‘lganimda ko‘nglimdan bir o‘y kechadi: “dunyoda musiqa, san‘at bo‘lmasa, insoniyat manqurtlarga aylanib qolarmidi, yaxshiyamki san‘at bor, musiqa bor...”

Darhaqiqat ushbu go‘zal olamda musiqa va san‘atning borligi uchun biz barcha go‘zalliklardan hayratlanishni, zavqlanishni bilamiz, quvonch va shodlik hissini tuyib yashaymiz.

O‘zbek milliy san‘atining afsonasiga aylangan “Lazgi”, “Tanavor”, “Shashmaqom” Qoraqalpoq xalqining esa “Qizmunayim”, “Dembermes” singari milliy kuylarining bir necha daqiqalik ohanglariga butun Qoraqalpoq kengliklarini, o‘ziga xos milliy mentalitetini singdira olgan qoraqalpoq simfoniyalarida, milliy kuylarida xalqimizning qudratli qalbi mujassamlashgan.

“Ana shunday jozibali ohanglar sehrini tuyib ulg‘ayganimiz uchun farzandlarimiz ham san‘atsevar, intiluvchan” - deydi 9-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabimizning direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi Yo‘ldashboy Abdalov.

O‘quvchilarimiz orasida o‘z san‘atini saodati hamda buyuk imkoniyat deb biluvchi iqtidorli bolalar ko‘p. Pedagogika jamoamiz esa juda ahil deb takidlab o‘tdi maktab direktori u bilan qurgan suhbatimizda.

Yosh avlodning musiqa va san‘at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an‘analariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash va milliy san‘atimiz durdona asarlarini o‘rganishga jalb etish borasida tumanimizda shu kabi Bolalar musiqa va san‘at maktablari o‘qitilish tizimiga va o‘quvchilarni ushbu bilim dargohlariga jalb qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib kelmoqda. O‘quvchilar milliy va jahon musiqasi, tasviriy san‘at va raqs san‘atining yuksak na‘munalaridan bahramand bo‘lib, ularni o‘rganishlariga pedagog murabbiylar sidqidildan intilishib xizmat qilib kelishmoqda va bugungi kunda ushbu musiqa maktabidan el-yurt xizmatidagi va hurmatidagi ko‘plab san‘at ahli yetishib chiqmoqda.

O‘tgan asrning 68-yilida tashkil etilgan mazkur musiqa va san‘at ilm dargohini o‘tgan yillar davomida yuzlab yoshlar bitirib chiqib, hozirda O‘zbekistonning turli hududlarida o‘qib ta‘limini davom ettirib kelmoqdalar.

Hayoti va ish faoliyati ushbu bilm maskani bilan bog‘liq bo‘lgan Usmon Ahmedov, Gulmirza Rahmatullayev, Gulmirza Nurmatov, Shukurullo Gulmanov, Hamza Bobojonov kabi elimiz sevgan san‘atkorlarimiz boshlab bergan ulug‘ va sharaflil san‘at yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib kelayotgan 9-sonli Bolalar musiqa va san‘at maktabi nafaqat bugungi Amudaryo tumani, balki

Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston Respublikasi madaniyati va san‘ati sohasi rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan nufuzli ta‘lim maskanlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Hozirda ushbu 9-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabida 251-nafar o‘quvchilar 12-ta yo‘nalish bo‘yicha ta‘lim-tarbiya olib kelishmoqda. Ularga 43 nafar o‘qituvchilar musiqa va san‘at sirlarini o‘rgatib, ta‘lim berib kelmoqda.

Ularning 10 nafari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha oliy, 30 nafari o‘rta maxsus ma‘lumotga ega. 3 nafar o‘qituvchi esa o‘rindoshlik asosida faoliyat yuritishadi. O‘quvchilar iqtidorlariga ko‘ra xalq cholg‘ulari, fortepiano, torli cholg‘ular, estrada xonandaligi, an‘anaviy cholg‘uchilik, baxshichilik, xoreografiya, tasviriy san‘at yo‘nalishlariga qamrab olinib, o‘z iste‘dotlarini rivojlantirishga, namoyon etishga to‘la shart-sharoitlar yaratilgan.

Keyingi yillarda zarur mutahasislar ishga qabul qilinganligi tufayli teatr va an‘anaviy baxshichilik, amaliy san‘at yo‘nalishlari ham tashkil etildi. Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha sinf xonalarda 10 ta fortepiano, 2 ta royal, musiqa asboblari hamda solfedjio xonalarida elektron doskalarining mavjudligi o‘quvchi yoshlarning o‘zlari tanlagan yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilm olishlariga imkon yaratmoqda. Bu esa ushbu maktab o‘quvchilarining erishayotgan yutuqlarida yaqqol namoyondir.

Shaxsan Prezidentimizning yuksak e‘tibori va ko‘rsatmalari bilan mamlakatimizda bolalar musiqa va san‘at maktablarini jahon andozalari darajasidagi ta‘lim-tarbiya maskanlariga aylantirish borasidagi tizimli chora-tadbirlari tufayli 9-sonli Bolalar musiqa va san‘at maktabi uchun yangi zamonaviy o‘quv binosi qurib berildi.

1990-yildan bunyod etilgan muassasa binosi 2015-yilda qayta rekonstruksiya qilinib, binoning barcha sinfxonalari, isitish tarmoqlari yangidan jihozlandi. Muassasaning ichki devorlari, shifti havo o‘tkazuvchanlik hususiyatiga ega qoplamalar bilan qoplandi, pollarga esa laminat to‘shaldi. Energiya tejovchi chiroqlar o‘rnatilib, 150 o‘ringa mo‘ljallangan tantanalar zali ovoz kuchaytirgichlar, rangli yorug‘lik tarqatuvchi moslamalar, ekran-proektorlar bilan ta‘minlanib o‘zbek musiqa cholg‘ulari jamlanmasi, harakatlarni yozib turuvchi vidiokameralar bilan to‘liq jihozlandi.

Shunisi e‘tiborga munosibki, 12 ta yo‘nalish- fortepiano, xalq chulg‘ulari, torli-kamonli cholg‘ular, bayan-akkordeon, an‘anaviy xonandalik va baxshichilik, tasviriy san‘at, xoreografiya, estrada xonandaligi, teatr san‘ati, an‘anaviy ijro yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan o‘quvchilar har 2 yilda bir marotaba o‘tkaziladigan M. Qori Yoqubov nomidagi, M. Ashrafiy nomidagi ko‘rik-tanlovlarning doimiy ishtirokchilari va g‘oliblaridir. Ushbu muassasa o‘quvchilaridan Doniyor Rahimboyev, Javlonbek Hayitboyev, Nurxon Do‘sboyev, Sharofiddin Saparboyev, Azizbek Soatboyev, Abror Adilboyev, Zilola Qodirova, Hakimbek Sobirov va Sherzodbek Rajabovlar 2020-2021 yilda bo‘lib o‘tgan M.Qori Yoqubov nomidagi ko‘rik tanlovning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha faxrli 1-o‘rinni, Jamshidbek Saliyev, Jasur O‘rinboyevlar 2-o‘rinni, Jo‘rabek Sidabdullayev 3-o‘rinni egallashdi. Mazkur ko‘rik-tanlovning O‘zbekiston Respublikasi bosqichida maktabning 2 nafar o‘quvchisi 3-o‘rin sohiblari bo‘lishdi.

Shuningdek “Bolalar musiqa va san‘at maktablari ansambl va orkestrlari” Respublika ko‘rik-tanlovida maktabning bir yo‘la uchta ansambli faol ishtirok etib, Xurshid Tajiboyev rahbarligidagi “Xalq cholg‘ulari orkestri” faxrli 1-o‘rinni, an‘anaviy maqom ansambllari esa faxrli 2-o‘rinni egallashdi.

Maktab o'quvchilari deyarli har yili o'tkaziladigan "Kamalak yulduzlari" ko'rik-tanlovi, san'at yo'nalishidagi ko'rik-tanlovlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichlarida doimiy ravishda 1-,2-,3-o'rinlarni egallab kelishmoqda. Bugungi kunda Xoreografiya sinfi o'quvchisi Gulira'no va Guliruxsora O'rinboyevalar hamda tasviriy san'at yo'nalishining a'lochi, iqtidorli o'quvchisi Bahoroy Hidoyatovalarning nomlari san'at va tasviriy san'at shinavandalariga yaxshi tanish bo'lib qolgan.

"Maktabimizda o'qish istagini bildirayotgan o'quvchi-yoshlar, hamda farzandlarining qiziqish va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlayotgan ota-onalar safi yil sayin oshib bormoqda" -deydi mamnuniyat bilan maktab direktori Yo'ldoshboy Abdalov. 2023-2-24-o'quv yilida 12 ta yo'nalish bo'yicha 1-sinflarga 69 nafar iqtidorli bolalarni qabul qildik.

Ayni paytda 170 nafar o'quvchi musiqa yo'nalishida, 72 nafari san'at yo'nalishida tahsil olib olmoqda. Barcha yo'nalishlar bo'yicha umumiy 242 nafar bolalar musiqa va san'at sirlarini puxta o'rganib kelishmoqdalar.

Muossasada o'ziga xos qat'iy tartib-intizomga asoslangan ma'naviy muhitning mavjudligi har bir o'quv yili uchun belgilangan o'quv rejasining muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlamoqda. Ochiq darslar hamda har bir chorak bo'yicha o'quvchilarning hisobot kansertlarida ota-onalarning ham ishtiroki belgilangan rejaviy dars-mashg'ulotlarining sifatli amalga oshirilishida muhim omil bo'lib kelmoqda.

"O'quvchilarimiz hamma narsaga rejalashtirilgan dars-mashg'ulotlarini uzviy ravishda o'zlashtirish bilan bir qatorda barcha davlat tadbirlarida ham faol ishtirok etishga ulgurishadi" -deya mamnunligini yashirmaydi Y. Abdalov. Musiqa va san'at bilan shug'illanayotgan o'quvchi-yoshlar o'zlari ta'lim olayotgan maktablarida ham juda faol va intiluvchandirlar.

San'atsevar bolalarning bilim va iqtidoridan quvonib so'zlayotgan Y. Abdalovning fikrlarini tinglar ekanman, hurmatli Prezidentimizning: "umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz hech bo'lmasa bitta cholg'u asbobini cholib bilishlari kerak, san'atga oshno bo'lgan insonning qalbi toza bo'ladi, Vatanimiz kelajagi uchun shunday tozaqalb, intiluvchan yoshlar kerak..." degan so'zlarini esladim.

Darvoqe, qalbi toza, intiluvchan yoshlarda xalqparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Modomiki, uchinchi Renessans sari qadam qo'yayotgan ekanmiz, har bir yoshning qalbida ana shunday go'zal tuyg'ularni uyg'otishimiz, ularni haqiqiy vatanparvar, xalqparvar qilib tarbiyalashimiz zarur.

9-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida, nazarimda ana shunday yoshlar tahsil olishmoqdalar. Atroflari mevali va manzarali daraxtlar bilan qurshalgan bebaho, obod o'quv maskanining har bir sinfxonasida qadim va hamisha navqiron, nafosatli, jozibali va o'lmas ohanglarga yanada go'zal sayqallar berib, berilib kuy ijro etayotgan sozanda bolalar, "Shashmaqom", "Tanovor" va "Dembermes" singari kuylarning dillarni o'zgartiruvchi ohanglariga jo'rnavoz bo'lib kuylayotgan shinavanda bolalar, oromijon "Lazgi", Qoraqalpoqlarning "Olti qiz" raqslari sehrini ajib jilvalari bilan vujudlarga singdirishga intilayotgan sochlari jamalak qizaloqlar, tasviriy san'atning jilvakor ranglariga har birimizni maftun etmoqqa qodir musavvir bolalarning orzu-intilishlaridan ko'ngillar yuksaladi.

Havaslar, hayratlar og'ushida ijodkor bolalar davrasida qolgimiz keladi.

Xulosa tariqida shuni aytish kerakki yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar va ulardan unumli foydalanish bugungi kundagi yosh avlodlarning san'at sohasiga bo'lgan qiziqishlari beixtiyor ularning iqtidorlaridan, kamolot sari dadil qadamlaridan, ruhlanamiz va yosh boshidan el-yurtga ma'naviyat ulashishga intilayotgan san'atsevar bolajonlarni kelajakda yurtimiz madaniyatini dunyolarga tanitadi diya ishonamiz.

#### REFERENCES

1. K.Nurjonov, G'.Xo'janiyozov "Amudaryo" TOSHKENT-2004. "ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI TIBIYYOT NASHRIYOTI".
2. Qodirbergan Hoji Jumamurod o'g'li "Mang'itlik Hofiz" TOSHKENT "NOSHIR"-2016.
3. Pirmat Shermuhammedov "Yurtning Teran Tomirlari" TOSHKENT-2005.
4. Robiya Yo'ldosheva "Adashganlar Qissasi". "SAN'AT JURNALI" nashriyoti TOSHKENT.
5. "Taraqqiyot ko'zgusi" gazetasi 25-yanvar, 2024-yil. 1-2 son. 4-bet 'Madaniyat va san'at ta'limi' Robiya Yo'ldosheva "VATANGA MA'NAVIY NUR SOCHMOQQA INTILGAN BOLALAR MASKANI".
6. www.amunews.uz sayti, 17.04.2023 Ikromjon Siytimov,
7. tuman Madaniyat va turizm bo'limi mudiri. Maqola, "XALQQA MADANIY XIZMAT KO'RSATISH SIFATI OSHMOQDA".
8. Abatbaeva Rano Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) 2023/6/13 Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 138-144 2-tom
9. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." Вестник музыки и искусства 1.3 (2024): 28-37.
10. GAIPOVA, Mohigul, and Rano ABATBAEVA. "BETAKROR OVOZ SOHIBASI BAG 'DAGUL JAQSIMURATOVA." Journal of Culture and Art 2.3 (2024): 130-134.
11. Abatbaeva, R. "KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DORETIWSHILIGINDE ERTEK JANRI (To'g'iz to'nqilda bir shi'nikildek ertegi tiykarinda)." Вестник музыки и искусства 1.2 (2023): 46-51.
12. YO'LDASHEV, Abbas, and Rano ABATBAEVA. "USTOZIM NESIPBAY ALEKEEV TURSINBAEVICHNING IJODIGA BIR NAZAR." Journal of Culture and Art 1.3 (2023): 123-129.
13. Gulbahor, YO'LDOSHEVA, and Rano ABATBAEVA. "MUSIQA SAN'ATIDA DAMLI CHOLG'ULARNING AHAMIYATI." Journal of Culture and Art 2.3 (2024): 97-101.
14. Yo'ldosheva, Gulbahor, and Rano Abatbaeva. "QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATIDA MUSIQALI DRAMA JANRINING SHAKLLANISHI." Modern Science and Research 3.6 (2024).
15. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." Вестник музыки и искусства 1.3 (2024): 28-37.



16. Matimuratov, S. "QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍNÍ TUTQAN ORNÍ." Вестник музыки и искусства 1.3 (2024): 95-99.

## QISQA MASOFAGA YUGURISH TEXNIKASI

**Omonov Shohrux Orzimurod o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi.

[oshohrux595@gmail.com](mailto:oshohrux595@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788736>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola biomexanika, tezlikni optimallashtirish va jarohatlarning oldini olishga qaratilgan qisqa masofaga yugurishning muhim usullarini o'rganadi. U yugurish mexanikasi bo'yicha turli tadqiqotlarning batafsil tahlilini taqdim etadi, mashg'ulotlarning samarali usullarini taklif qiladi va sportchilar uchun Sprint ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** Qisqa masofaga yugurish, Sprint, biomexanika, tezlikni o'rgatish, yugurish texnikasi, jarohatlarning oldini olish, sport ko'rsatkichlari.

## SHORT DISTANCE RUNNING TECHNIQUE

**Abstract.** This article explores important short-distance running techniques that focus on biomechanics, speed optimization, and injury prevention. It provides a detailed analysis of various studies on running mechanics, suggests effective training methods, and provides practical recommendations for improving sprint performance for athletes.

**Key words:** Short distance running, Sprint, biomechanics, speed training, running technique, injury prevention, sports performance.

## ТЕХНИКА БЕГА НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются важные техники бега на короткие дистанции, направленные на биомеханику, оптимизацию скорости и профилактику травматизма. В ней дан подробный анализ различных исследований по механике бега, предложены эффективные методы тренировок и даны практические рекомендации по улучшению спринтерских результатов спортсменов.

**Ключевые слова:** Бег на короткие дистанции, Спринт, биомеханика, скоростная тренировка, техника бега, профилактика травматизма, спортивная результативность.

## Kirish

Qisqa masofaga yugurish, odatda Sprint deb ataladi, tezlik va texnika muvaffaqiyat uchun juda muhim bo'lgan sport ko'rsatkichlarining yuqori intensiv shakli. Sprinterlar odatda 100 metrdan 400 metrgacha bo'lgan poygalarni o'tkazadilar, bu erda optimal tezlashuv, qadam samaradorligi va portlovchi kuch muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik jismoniy kuchni rivojlantirishga e'tibor qaratsa-da, Sprint salohiyatini maksimal darajada oshirishda to'g'ri texnika juda muhimdir. Ushbu maqola Sprint mexanikasining asosiy jihatlarini yoritib berishga va qisqa masofaga yugurish ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha dalillarga asoslangan strategiyalarni taqdim etishga qaratilgan.

## Adabiyotlarni Tahlil Qilish

Sprinting fani keng o'rganilib, tadqiqotchilar samaradorlikni oshirish va jarohatlar xavfini kamaytirishda texnikaning muhimligini ta'kidladilar. Cavagna va boshq. (1971) yugurishning

biomexanikasini o'rganishda kashshoflar bo'lib, elita sprinterlari ko'pincha yerdagi reaksiya kuchlarini samarali boshqarishga tayanishini ta'kidladilar. Klark va Veyand (2014) kabi so'nggi tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, tezlikni yaratish asosan er bilan aloqa qilish vaqtini minimallashtirishga va harakatlanish bosqichida kuch qo'llanilishini maksimal darajada oshirishga bog'liq.

Delecluse (1997) va hamkasblar sprint-maxsus ta'lim usullarini va ularning nerv-mushak moslashuviga ta'sirini ko'rib chiqdilar. Ularning topilmalari shuni ko'rsatdiki, kuch, plyometriya va sprint mashqlarining kombinatsiyasi mushaklarni muvofiqlashtirish va quvvat chiqarishni kuchaytirish orqali Sprint tezligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, ovchi va boshq. (2004) sprint mexanikasini o'rganib chiqdi va pastki oyoq-qo'llarning qattiqligi va qadam chastotasi sprint ishlashida, ayniqsa tezlanish bosqichida muhim rol o'ynashini kuzatdi.

### **Usullari**

Turli xil Sprint texnikalarining samaradorligini baholash uchun ushbu tadqiqot aralash usulli yondashuvni, shu jumladan sifat va miqdoriy tahlilni qabul qildi. Ma'lumotlar quyidagilar orqali to'plandi:

1. Biomexanik baholash: 15 sprinterdan iborat kohort harakatni ta'qib qilish texnologiyasi yordamida ularning qadam mexanikasi, yer bilan aloqa qilish vaqti va tezlanish qonuniyatlarini tahlil qilish uchun kuzatildi. Sprint paytida hosil bo'lgan er reaksiyasi kuchlarini o'lchash uchun kuch plitalari ishlatilgan.

2. Trening aralashuvi: ishtirokchilar 8 haftalik Sprintga xos o'quv dasturidan o'tib, tezlik mashqlari, tezashtirish ishlari va plyometrik mashqlarga e'tibor qaratdilar. Sprint vaqti va qadam uzunligi kabi ishlash choralari aralashuvdan oldin va keyin qayd etilgan.

3. So'rov va mulohazalar: sportchilar mashg'ulot rejimini tugatgandan so'ng harakatning qulayligi, shikastlanish holatlari va umumiy ish faoliyatini yaxshilash bo'yicha so'rovni yakunladilar.

### **Natijalar**

Sprintlar (100m, 200m va 400m) kabi qisqa masofaga yugurish tezlik va samaradorlikni oshirish uchun to'g'ri texnikani talab qiladi. Bu erda asosiy jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Boshlang'ich Pozitsiyasi (Portlovchi Start):

- Bloklarni Sozlash: portlovchi tezashtirish uchun boshlang'ich bloklardan foydalaning.

- Tana burchagi: boshida boshingizni pastga qaratib, tanangizni oldinga burchak ostida saqlang.

- Haydash fazasi: tezlashganda tanangizni past tutib, kuchli oyoq haydovchisi bilan bloklarni suring.

- Qo'l harakati: oyoqlaringizni haydashga yordam berish uchun qo'llaringizni kuch bilan silkit. Tirsaklarni 90 daraja egilgan holda saqlang.

2. Tezashtirish Bosqichi:

- Asta-sekin tik holat: tezlikka erishganingizda, tanangizni asta-sekin tik holatga keltiring (dastlabki 20-30 metr bo'ylab).

- Kuchli qadamlar: oyog'ingiz kestirib, ostiga tushishini ta'minlab, haddan oshmasdan kuchli, uzoq qadamlarga e'tibor qarating.

- Oyoq barmoqlaridan foydalanish: oyoq barmoqlari bilan itaring, oyoq to'plarida qoling.

3. Maksimal Tezlik Bosqichi:

- Tik holat: yuqori tezlikda tanangiz bo'shashgan yelkalar bilan to'liq tik turishi kerak.
- Qo'l va oyoqlarni muvofiqlashtirish: qo'l va oyoqlarni tez va samarali muvofiqlashtirishni saqlang. Qo'llaringiz oyoqlarni haydaydi, shuning uchun qo'llarning tez harakatlanishi oyoqlarning tezroq aylanishini rag'batlantiradi.

- Minimal er bilan aloqa: erga minimal vaqt bilan tez, engil oyoq zarbalarini maqsad qiling.

4. Nafas olish:

- Yengillik: samaradorlikni saqlash uchun xotirjam bo'ling. Ritmik nafas oling, yuzingizni va elkangizni bo'shashtiring.

5. Tugatish Texnikasi:

- Oldinga egilish: marra chizig'iga yaqinlashganda, qo'shimcha erishish uchun ko'kragingiz bilan bir oz oldinga egiling. Bu sizga yaqin pardozlarni cheklashga yordam beradi.

Texnikani yaxshilash uchun matkaplar:

- Yuqori tizzali matkaplar: oyoq aylanishini va tizzani ko'tarishni yaxshilang.
- Chegaraviy mashqlar: portlovchi kuch va qadam uzunligini oshiring.
- Tezlanish Sprintlari: portlovchi startlarga e'tibor qaratgan holda qisqa sprintlarni (20-40 metr) mashq qiling.

Ushbu maslahatlar sizning texnikangizni takomillashtirishga va sprintning umumiy ishlashini yaxshilashga yordam beradi.

Sprinterlik yugurish texnikasini tahlil qilish uchun shartli ravishda undan quyidagilar ajratiladi:

- start;
- start tezlanishi;
- masofa bo`ylab yugurish;
- marraga yetib kelish.

Start. Qisqa masofalarga yugurishda musobaqa qoidalariga binoan past start qo`llaniladi, bunda start oyoq tirgaklaridan (stanogidan) foydalaniladi. Start oyoq tirgaklarining joylashtirilishi o`ta individual bo`lib, sportchining malakasiga va uning jismoniy imkoniyatlariga bog`liq bo`ladi. Amaliyotda to`rt xil turdagi past start qo`llaniladi (oyoq tirgaklarining joylashishiga qarab): odatdagi; uzoqlashtirilgan; yaqinlashtirilgan; tor.

Start tezlanishi. Startdan yugurib chiqish yuguruvchining individual imkoniyatlariga qarab 15 dan 30 m gacha davom etadi. Uning asosiy vazifasi – mumkin qadar tezroq maksimal yugurish tezligini olish. Startdan birinchi qadamlarning to`g`ri bajarilishi yuguruvchining itarilishiga (yo`lkaga nisbatan o`tkir burchak ostida maksimal kuch bilan) va harakat tezligiga bog`liq.

Yuguruvchi birinchi qadamlarni egilgan holatda yuguradi, keyin (6,7 - qadamlar) gavnani ko`tarishni boshlaydi. Start tezlanishida gavnani asta-sekin ko`tarish juda muhim, shundagina startdan va start tezlanishidan optimal samaraga erishish mumkin. Yuguruvchi birinchi qadamlarni egilgan holatda yuguradi, keyin (6, 7- qadamlar) gavnani ko`tarishni boshlaydi. Start tezlanishida gavnani asta-sekin ko`tarish juda muhim, shundagina startdan va start tezlanishidan optimal samaraga erishish mumkin. Gavda to`g`ri egilganda qadam tashlaydigan oyoq soni tekislangan itariladigan oyoqqa nisbatan 90° ga ko`tariladi va inersiya kuchi yuqoriga qaraganda ko`proq oldinga yo`naltirilgan kuchni hosil qiladi. Yuguruvchi qadam tashlaydigan oyoqni pastga-orqaga

qo'yaturib, gavdasini oldinga itargan holda birinchi qadamlarni bajaradi. Bu harakat sonlarni tez birlashtirish bilan birga qancha tez bajarilsa, keyingi itarilish shuncha chaqqonroq sodir bo'ladi.

Masofa bo'ylab yugurish. Masofa bo'ylab yugurishda gavdani egiltirish vertikalga nisbatan taxminan 10-15° ni tashkil etadi. Yugurishda egilish o'zgaradi: itarilishda yelkalar bir oz orqaga olinadi, shu orqali egilish kamayadi, uchish fazasida egilish ortadi. Oyoq kaftlari deyarli bir chiziq bo'ylab qo'yiladi.

Marraga yetib kelish. Masofa oxirigacha maksimal tezlikni saqlab bo'lmaydi. Marragacha taxminan 20-15 m qolganda tezlik odatda 3-8% ga kamayadi. Marraga yetib kelishning asl mohiyati shundan iboratki, masofa oxirigacha maksimal tezlikni saqlab qolishga va uni salbiy omillarning ta'sirini kamaytirishga harakat qilish zarur.

Toliqish boshlanishi bilan itarilishda ishtirok etuvchi mushaklar kuchi kamayadi, yugurish qadami uzunligi kichrayadi, demak, tezlik tushib ketadi. Tezlikni saqlab qolish uchun yugurish qadamlari tezligini oshirish zarur, buni esa, yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'l harakatlari hisobiga amalga oshirish mumkin. Masofada yugurish yuguruvchi marra to'siniga, ya'ni marra chizig'i orqali o'tuvchi xayoliy vertikal tekislikka tegishi bilan tugallanadi. Unga tezroq tegish uchun yuguruvchilar oxirgi qadamda qo'llarni orqaga chiqargan holda gavdani tez oldinga egiltiradilar.

Bunday usul ko'krak bilan otilish deb ataladi.

### **Muhokama**

Topilmalar, ayniqsa, tezlashuv va maksimal tezlik bosqichlarida to'g'ri sprinting texnikasi ishlashni yaxshilashda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Mavjud adabiyotlarga muvofiq, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, biomexanik samaradorlikni maqsadli kuch va Sprintga xos mashqlar orqali yaxshilash mumkin.

Iqtisodiyotning muhim omili bo'lgan er bilan aloqa qilish vaqti yanada kuchli va portlovchi qadamlardan foydalangan sprinterlarda sezilarli darajada kamaydi. Bu Veyand va boshq. (2000), sprint tezligining eng muhim determinanti sifatida kuch ishlab chiqarishni aniqlagan.

Sportchilar o'rtasida jarohatlar darajasining pasayishi, ayniqsa, haddan tashqari kuchlanish va oyoqlarning noto'g'ri joylashishini kamaytirishda to'g'ri harakat shakllariga e'tibor qaratish bilan bog'liq. Bezodis va boshq. (2008) shuni ham ta'kidlash kerakki, yomon texnika nafaqat ishlashga to'sqinlik qiladi, balki Sprint paytida yuqori ta'sir kuchlari tufayli shikastlanish xavfini oshiradi.

### **Xulosalar**

Ushbu tadqiqot natijalari ishlashni yaxshilash va shikastlanish xavfini minimallashtirish uchun Sprint texnikasini takomillashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. To'g'ri sprint mexanikasi, ayniqsa tezashtirish bosqichida, maxsus mashg'ulotlar bilan birgalikda, sprint vaqtlarini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi mumkin.

- Texnik murabbiylik: murabbiylar to'g'ri sprint mexanikasini o'rgatishga ko'proq e'tibor qaratishlari, qadam chastotasi, tizza haydash va oyoqlarni joylashtirishga e'tibor qaratishlari kerak.

- Kuch va Plyometriya: muntazam sprint mashg'ulotlariga kuch mashqlari va plyometriya aralashmasini kiritish sportchilarning portlash kuchini yanada oshirishi va er bilan aloqa qilish vaqtini qisqartirishi mumkin.

- Monitoring va teskari aloqa: biomexanik o'zgarishlarni kuzatish va vaqt o'tishi bilan sprint ko'rsatkichlarining yaxshilanishini kuzatish uchun harakatni tahlil qilish vositalari va kuch plitalaridan foydalaning.

Jismoniy tarbiya bilan bir qatorda texnik malakani ta'kidlab, sportchilar shikastlanish xavfini minimallashtirish bilan birga Sprint salohiyatini oshirishi mumkin.

#### **REFERENCES**

1. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. - T.: 1998. - 124 b.
2. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. - T.: 1990. - 109 s.
3. Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii. - M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2009. - 464 s.
4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. - T.: 2008. - 72 b.
5. Zelichenok V.B., Nikitushkin V.G., Guba V.P. Legkaya atletika: kriterii otbora. - M.: Terra-Sport, 2000. - 240 s



## ZAMONAVIY YOSHLAR VA MILLIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Umedullayeva Husnora Ilhomovna

Surxondaryo viloyati Boysun tuman 1-son kasb-hunar maktabi

“Raqamli axborotlarni qayta ishlash ustasi” talabasi.

*Email:* [husnoraumedullayeva@gmail.com](mailto:husnoraumedullayeva@gmail.com)

telefon raqam: (+998)91-908-77-34.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788834>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy yoshlarning ko'p vaqtlarini virtual olamda, xususan, jangari va zo'ravonlikka asoslangan kompyuter va telefon o'yinlariga bag'ishlashlari, bu esa ularning ruhiy salomatligi va xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritadi. Maqola, yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarni singdiruvchi tarbiyaviy va ma'naviy mazmunli o'yinlarni yaratish zaruratini ta'kidlaydi. "To'maris" o'yini shunday o'yinlardan biri sifatida keltirilib, uning yosh avlod uchun tarixiy bilimlarni oshirishi va vatanparvarlik ruhini singdirishdagi ahamiyati yoritiladi. Mazkur o'yin yoshlarning nafaqat bilim olishlari, balki milliy qadriyatlar va urf-odatlarini anglashlariga yordam beradi. O'yinning maqsadi yoshlarni ma'naviy jihatdan boyitib, ularni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga undashdir.

**Kalit so'zlar:** Milliy o'yinlar, To'maris o'yini, O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati, Jangari o'yinlar, Vatanparvarlik, Tarixiy bilim, Milliy qadriyatlar, Ruhiy salomatlik, Skiflar podshohligi, Massagetlar, Milliy liboslar, Qadimiy tarix.

## IMPORTANCE OF MODERN YOUTH AND NATIONAL GAMES

**Abstract.** This article discusses the fact that today's young people spend a lot of time in the virtual world, especially in violent and violent computer and phone games, which has a negative effect on their mental health and behavior. . The article emphasizes the need to create games with educational and spiritual content that instill national values among young people. The game "To'maris" is cited as one of such games, and its importance in increasing historical knowledge and instilling the spirit of patriotism for the young generation is highlighted. This game helps young people not only to learn, but also to understand national values and traditions. The goal of the game is to enrich young people spiritually and encourage them to respect national values.

**Key words:** National games, Tomaris game, Educational value of games, Martial games, Patriotism, Historical knowledge, National values, Mental health, Kingdom of Scythians, Massagets, National costumes, Ancient history.

## ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР

**Аннотация.** В статье рассматривается тот факт, что современные молодые люди проводят много времени в виртуальном мире, особенно в воинственных и жестоких компьютерных и телефонных играх, что отрицательно влияет на их психическое здоровье и поведение. В статье подчеркивается необходимость создания игр образовательного и духовного содержания, прививающих молодым людям национальные ценности. В качестве одной из таких игр приводится игра «Томарис», подчеркивается ее значение в расширении исторических знаний и привитии духа патриотизма молодому поколению. Эта игра помогает молодым людям не только учиться, но и понимать национальные ценности и традиции. Цель игры – духовно обогатить молодежь и побудить ее уважать национальные ценности.

**Ключевые слова:** Национальные игры, Игра Томарис, Воспитательная ценность игр, Боевые игры, Патриотизм, Исторические знания, Национальные ценности, Психическое здоровье, Скифское царство, Массагеты, Национальные костюмы, Древняя история.

### Zamonaviy yoshlar va milliy o'yinlar

Bugungi texnologik rivojlanish davrida yoshlar ko'proq vaqtlarini virtual olamda, xususan, kompyuter va telefon o'yinlariga bag'ishlaydilar. Afsuski, ko'p hollarda bu o'yinlar jangari va zo'ravonlik bilan to'yingan bo'lib, yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turli jangari o'yinlar ularning xulq-atvoriga ham ta'sir qiladi, natijada tajovuzkorlik, bezovtalik va psixologik muammolar paydo bo'lishi mumkin. Shu sababdan, yoshlarni tarbiyalovchi va ularga ma'naviy-axloqiy bilim beradigan o'yinlarni yaratish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan qaraganda, milliy qadriyatlarimiz va tariximizni o'zida mujassam etgan "To'maris" o'yini yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu o'yin o'zining ijobiy ta'siri bilan ajralib turadi, chunki u faqatgina o'yin-kulgini emas, balki bilim va tarbiyaviy maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. O'yin ichida qadimiy tariximizning mashhur qahramoni To'maris haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, yoshlar o'yinni o'ynab, nafaqat vaqtlarini maroqli o'tkazadi, balki tarixiy bilimlarga ham ega bo'lishadi.

O'yinda turli savollar va vazifalar orqali yoshlar To'marisning jasorati, uning davlatni boshqarish san'ati va Skiflar podshohligining tarixiy voqealari haqida o'rganishadi. O'yin faqat bilimga yo'naltirilgan bo'lib qolmay, unda tarbiyaviy maqsadlar ham yotadi. Misol uchun, o'yinda To'marisning o'z xalqi uchun olib borgan kurashi va vatanparvarlik hissiyotlari yoshlarga milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik ruhini singdirish uchun xizmat qiladi.

#### O'yinning Milliylik va Tarixiy Mazmuni

"To'maris" o'yini, asosan, miloddan avvalgi VI asr voqealarini aks ettiradi. Ushbu davr O'rta Osiyoning buyuk tarixi va madaniyati bilan ajralib turadi. O'yinda Skiflar va Massagetlar podshohligi, ularning urf-odatlarini, hayot tarzi va ayniqsa, kiyinish madaniyati batafsil yoritib berilgan. Misol uchun, o'yinda "egniga yarg'oq teridan kamzul kiygan, kamariga qilich va o'q-yoy osgan, namat qalpoq kiygan jangchi" paydo bo'ladi. Bu tasvir nafaqat o'yinga hayotiylik bag'ishlaydi, balki yoshlarni qadimiy dunyo bilan tanishtiradi.

O'yinning asosiy qahramoni – To'marisning obrazi ham katta e'tiborga loyiq. To'maris, tarixiy manbalarga ko'ra, o'z davrining eng jasur ayol sarkardalaridan biri bo'lgan. O'yinda uning obrazi "yoshi qirqlarga borib qolgan, chiroylikina ayol, belidagi oltin kamarga taqilgan qilich bilan aravadan tushib kelayotgani" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu sahna yosh avlodga o'z milliy qahramonlariga bo'lgan hurmat va faxr tuyg'usini uyg'otadi. To'marisning urushdagi strategiyalari



va o'z xalqi uchun olib borgan kurashlari yoshlarga vatanparvarlik va jasorat timsoli sifatida o'yin orqali taqdim etiladi.

Bundan tashqari, o'yinda milliy liboslar, qurollar va turmush tarzi haqida ma'lumotlar ham berilgan bo'lib, yoshlar o'z tarixini chuqurroq anglaydi. Qadimgi urf-odatlar va hayot tarzining virtual dunyoda aks ettirilishi yoshlar uchun tarixni yanada qiziqarliroq qilib qo'yadi. O'yinda, shuningdek, turli tarixiy davrlarning o'ziga xos jihatlari va ularning ahamiyati ham yoritib berilgan. Yoshlar o'z vatani tarixiga nazar solib, buyuk o'tmishga ega bo'lgan xalqning avlodlari ekanligini his etishadi.

### **Zamonaviy Yoshlar uchun Tarbiyaviy Ahamiyati**

O'yinlarning yoshlar ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini hisobga olgan holda, bunday milliy va tarbiyaviy o'yinlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki jangari va salbiy mazmundagi o'yinlar yoshlarni noto'g'ri yo'lga boshlashi mumkin. Bunday o'yinlar bilan yoshlar faqat vaqtini bekor o'tkazmay, balki o'z bilimlarini boyitishi va milliy qadriyatlarni qadrlashni o'rganishi kerak. "To'maris" o'yini shu nuqtai nazardan muhim rol o'ynaydi.

Ushbu o'yin orqali yoshlar o'z o'tmishiga hurmat bilan qaraydi, qadriyatlarini anglaydi va ularni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini his etadi. O'yin ichidagi savollar, vazifalar va tarixiy syujetlar yoshlarning bilimlarini oshirish bilan birga, ularda milliy g'ururni ham uyg'otadi.

Tarixiy o'yinlar orqali yosh avlod nafaqat o'yin orqali zavqlanadi, balki o'z mamlakati va millati bilan faxrlanish tuyg'usini ham chuqur his qiladi.

### **Xulosa**

Maqolada zamonaviy yoshlarning kompyuter va telefon o'yinlariga qiziqishi, ayniqsa jangari va zo'raonlikka asoslangan o'yinlarning ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'siri haqida so'z boradi. Yoshlarning salomatligi va xulq-atvoriga zarar yetkazuvchi o'yinlarga qarshi chora sifatida, milliy qadriyatlarni singdiruvchi, tarbiyaviy va ma'naviy mazmunli o'yinlar yaratish muhimligi ta'kidlanadi.

"To'maris" o'yini milliylik va tarbiyaviy ahamiyatni o'zida mujassam etib, yoshlar uchun nafaqat qiziqarli vaqt o'tkazish imkoniyatini, balki ularga tarixiy bilim va vatanparvarlik ruhini singdirish vazifasini ham bajaradi. Ushbu o'yinda yoshlar To'marisning jasorati va davlat boshqaruvi haqida o'rganish bilan birga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishadi.

O'yinda tariximizning qahramonlari va qadriyatlari haqida bilim olish, yoshlar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu kabi o'yinlar yosh avlodga milliy qadriyatlarni anglash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini his qilishga yordam beradi.

### **REFERENCES**

1. **Askarov, A.** (2019). *O'zbekiston tarixi: qadimiy davrlar*. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti.
2. **Karimov, I.** (2001). *Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
3. **Ergashev, M. A.** (2015). *Milliy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

5. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
6. [www.milliytiklanish.uz](http://www.milliytiklanish.uz)

## BOQIY AKS-SADO: ADABIY EPONIMLARGA OID SO‘ZLARNING TIL VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘CHMAS IZI

Azimova Anisa Abroriddinovna

Termiz davlat universiteti 1- kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13787448>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola adabiy eponimlar hodisasini o‘rganadi - badiiy asarlardan kelib chiqqan va o‘z asl kontekstidan tashqariga chiqib, umumiy lug‘at tarkibiga singib ketgan atamalar, tushunchalar va personajlar. Turli janrlar va tarixiy davrlardan misollar keltirib, maqola bu eponimlarning paydo bo‘lish jarayonlarini, ularning til va madaniyatga ta‘sirini, hamda adabiyotning uzoq muddatli ta‘siri haqida bergan ma‘lumotlarni tahlil qiladi. Adabiy eponimlarni tanqidiy tahlil qilish orqali, ushbu maqola ular badiiy dunyolar va real hayotdagi muloqot o‘rtasida kuchli ko‘prik vazifasini o‘tashini, so‘z boyligimizni boyitishini, ijtimoiy hodisalarni tushunishimizni shakllantirishini va jamiyatning o‘zgaruvchan qadriyatlarini aks ettirishini ta‘kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy eponimlar, Til, Madaniyat, Ta‘sir, Adabiyot, Leksik innovatsiya, Ijtimoiy sharh, Madaniy ta‘sir, Adabiyot nazariyasi.

## IMMORTAL ECHO: THE INDELIBLE IMPRINT OF LITERARY EPONYMS ON THE FORMATION OF LANGUAGE AND CULTURE

**Abstract.** This article explores the phenomenon of literary eponyms – terms, concepts, and characters originating from literary works that have transcended their original context to become embedded in the collective lexicon. Examining examples from various genres and historical periods, the article analyzes the processes by which these eponyms emerge, their impact on language and culture, and the insights they offer into the enduring influence of literature. Through a critical analysis of literary eponyms, this essay argues that they represent a powerful bridge between fictional worlds and real-world discourse, enriching our vocabulary, shaping our understanding of social phenomena, and reflecting the evolving values of society.

**Keywords:** Literary Eponyms, Language, Culture, Influence, Literature, Lexical Innovation, Social Commentary, Cultural Impact, Literary Theory.

## БЕССМЕРТНОЕ ЭХО: НЕИЗГЛАДИМЫЙ СЛЕД ЛИТЕРАТУРНЫХ ЭПОНИМОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В статье исследуется феномен литературных эпонимов – терминов, понятий и персонажей, возникших в художественных произведениях и вырванных из исходного контекста и ставших частью общеупотребительной лексики. На примерах из разных жанров и исторических периодов в статье анализируются процессы возникновения этих эпонимов, их влияние на язык и культуру, а также данные, которые они дают о долгосрочном влиянии литературы. Посредством критического анализа литературных эпонимов в этой статье утверждается, что они служат мощным мостом между художественными мирами и реальным общением, обогащая наш словарный запас, формируя наше понимание социальных явлений и отражая меняющиеся ценности общества.



**Ключевые слова:** литературные эпонимы, язык, культура, влияние, литература, лексические инновации, социальные комментарии, культурное влияние, теория литературы.

### **1. Kirish: Badiiy adabiyot va hayot uyg'unligi**

Adabiyot va til o'rtasidagi aloqa murakkab va o'zgaruvchan jarayondir. Adabiyot xayoliy olamlarni yaratish uchun tildan foydalanadi, shu bilan birga, atrofimizdagi dunyoni tushunish uchun qo'llaydigan so'zlarimizni ham shakllantiradi va ularga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sirning eng yorqin namoyandalari adabiy eponimlardir - ya'ni, asl kontekstidan tashqarida o'z hayotini topgan va kundalik muloqotda keng qo'llaniladigan atamalar, tushunchalar yoki hatto personajlar.

Ushbu maqola adabiy eponimlar hodisasini chuqur o'rganadi, ularning badiiy matnlardan paydo bo'lishi, qo'llanilishi davomida rivojlanishi va natijada til hamda madaniyatning dinamik evolyutsiyasiga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Turli janrlar va tarixiy davrlardan olingan misollarni ko'rib chiqish orqali, bu eponimlarning madaniy ahamiyat kasb etish jarayonini, ularning dunyoni tushunishimizga ko'rsatgan ta'sirini va hikoya aytish san'atining umumiy lug'at boyligimizga ko'rsatadigan doimiy ta'siri haqidagi fikrlarni o'rganamiz.

### **2. Adabiyotlar sharhi: eponimlarning rivojlanish yo'li**

Adabiy eponimlarni o'rganish adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kabi turli sohalar olimlari e'tiborini tortib kelgan. Dastlabki tadqiqotlar ma'lum eponimlarning kelib chiqishi va rivojlanishiga qaratilgan bo'lsa, keyingi izlanishlar ularning til va madaniyatga ko'rsatgan keng qamrovli ta'sirini o'rgandi.

Kelib chiqishi va rivojlanishi: Richard A. Lanham o'zining "Eponymy: The Use of Proper Names in Literature" kitobida adabiy eponimlarning xayoliy olamlardan paydo bo'lib, kundalik tilga singib ketish jarayonini tadqiq etdi. U eponimlar ko'pincha abadiy mavzularni qamrab olgan yoki yorqin obrazlarni yaratgan asarlardan kelib chiqishini ta'kidladi.<sup>6</sup>

Madaniy ta'sir: Peter L. Berger va Thomas Luckmann kabi sotsiologlar va madaniyat nazariyotchilari "The Social Construction of Reality" asarida til kabi ijtimoiy tuzilmalar dunyoni qanday idrok etishimiz va tushunishimizga ta'sir ko'rsatishini o'rgandilar. Ular eponimlar ma'lum bir davrning ustun madaniy qadriyatlarini va tashvishlarini aks ettirishi mumkinligini ta'kidladilar.

Lingvistik tahlil: Tilshunoslar adabiy eponimlarning lug'at boyligini oshirishi va yangi so'zlar yaratilishiga qo'shgan hissasini o'rgandilar. Masalan, Steven Pinkerning "The Language Instinct" asarida yangi atamalarning tez-tez ishlatilishi natijasida lug'at tarkibiga kirib qolish jarayoni yoritilgan.

Bu tadqiqotlar adabiy eponimlar hodisasini va ularning til hamda madaniyatga ta'sirini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola mavjud bilimlar majmuasini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kengaytirishni maqsad qilgan:

Misollar ko'lamini kengaytirish: Maqolada eponimlarning keng doirasi tahlil qilinadi, ularning turli janrlar va tarixiy davrlarda paydo bo'lishi o'rganiladi.

<sup>6</sup> Lanham, Richard A. \*Eponymy: The Use of Proper Names in Literature\*. Yale University Press, 1982.



Madaniy kontekstni o'rganish: Tahlil jarayonida bu eponimlar paydo bo'lgan va ahamiyat kasb etgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlar ko'rib chiqiladi.

Til va madaniyatga ta'sirini tahlil qilish: Maqolada eponimlarning lug'at boyligini oshirishi, ijtimoiy hodisalar haqidagi tushunchalarimizni shakllantirishi va madaniy muhokamalarimizga ta'sir ko'rsatish usullari o'rganiladi.

### **3. Adabiy eponimlarning kelib chiqishi: matndan lug'atga**

Adabiy eponimlar ko'pincha muayyan tushuncha, mavzu yoki ijtimoiy hodisani g'oyatda aniq va ta'sirchan tarzda aks ettirgan badiiy asarlardan kelib chiqadi. Bu asarlar odatda ularning uzoq muddatli ta'siriga hissa qo'shadigan umumiy xususiyatlarga ega:<sup>7</sup>

Abadiy mavzular: Adabiyot sevgi, yo'qotish, hokimiyat, shaxsiyat va inson tabiati kabi umuminsoniy mavzularni o'rganadi. Bu doimiy mavzularga mos keladigan asarlar avlodlar osha dolzarb bo'lib qoladigan eponimlarni yaratish ehtimoli yuqori. Masalan, "Romeo and Juliet" fojiali muhabbatni aks ettirsa, "Hamlet" mavjudlik tashvishi va ikkilanishni ifodalaydi.

Unutilmas qahramonlar: Adabiyotdagi mashhur qahramonlar o'ziga xos xususiyatlarni mujassam etishi yoki kengroq tushunchalarni ifodalashi mumkin. "Don Juan" jozibador va yengiltaklikni o'zida mujassam etgan bo'lsa, "Sherlock Holmes" mantiqiy mushohada va aql-idrokning timsoli hisoblanadi.

Kuchli tasvirlar: Badiiy asarlardagi jonli tasvirlar, metaforalar va ramzlar dunyoni tasvirlash uchun biz foydalanadigan tilda o'chmas iz qoldirishi mumkin. Masalan, "Scarlet Letter" jamiyat hukmini va gunoh oqibatlarini eslatadi.

Madaniy ahamiyat: O'z davrining ijtimoiy, siyosiy yoki falsafiy muammolariga hamohang bo'lgan asarlar kelgusi avlodlar uchun ham ma'noli bo'lgan eponimlarni yaratish ehtimoli yuqori. Masalan, Jorj Oruellning "1984" asari totalitarizmdan qo'rquvni aks ettirib, kuzatuv va nazoratni anglatuvchi "Big Brother" eponimini yuzaga keltirdi.

### **4. Adabiyotda eponimlar: misollar va ularning rivojlanishi**

Adabiy eponimlarning o'zgaruvchan kuchini ko'rsatish uchun, bu bo'lim turli janr va tarixiy davrlardan olingan misollarni tahlil qiladi. Har bir misol quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Kelib chiqishi: Eponim matn ichida qayerdan paydo bo'lgan?

Ma'nosi: Eponim qanday tushuncha yoki hodisani ifodalaydi?

Rivojlanishi: Eponimning ma'nosi vaqt o'tishi bilan qanday o'zgargan va zamonaviy tilda qanday qo'llaniladi?

#### **4.1. "Catch-22" (Jozef Xeller):**

Kelib chiqishi: "Catch-22" eponimi Jozef Xellerning 1961-yilda nashr etilgan shu nomdagi satirik romanidan kelib chiqqan. U paradoksal harbiy qoidaga ishora qiladi: askar xizmatdan bo'shatilishi uchun aqldan ozgan deb topilishi kerak, ammo bo'shatish uchun ariza berish aqlning sog'lomligini ko'rsatadi va shu sababli bo'shatishga to'sqinlik qiladi.

Ma'nosi: "Catch-22" atamasi o'zining badiiy kontekstidan tashqariga chiqib, odamlar qarama-qarshi qoidalar yoki kutilmalar tuzog'iga tushgan har qanday absurd yoki paradoksal vaziyatni ifodalash uchun qo'llanila boshlagan.

<sup>7</sup> Baldick, Christine. \*The Oxford Dictionary of Literary Terms

Rivojlanishi: Bu atama kundalik tilda keng tarqalgan metaforaga aylandi. Ko‘pincha mantiq buzilgan va odamlar byurokratik to‘siqlar yoki mantiqsiz tizimlar domiga tushgan vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

#### 4.2. " **Big Brother** " (Jorj Oruell):

Kelib chiqishi: " Big Brother " atamasi Jorj Oruellning 1949-yilda nashr etilgan "1984" antiutopik romanidan kelib chiqqan. U texnologik yutuqlar orqali o‘z fuqarolari ustidan doimiy nazorat va boshqaruvni amalga oshiradigan totalitar tuzumni ifodalaydi.

Ma‘nosi: " Big Brother " atamasi o‘zining badiiy kontekstidan o‘tib, zulm o‘tkazuvchi hokimiyat, kuzatuv va nazoratning kuchli ramziga aylangan.

Rivojlanishi: Bu atama zamonaviy jamiyatda kuzatuv va nazoratning turli shakllarini, jumladan davlat kuzatuv dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar va hatto shaxsiy texnologiyalarni tasvirlash uchun keng qo‘llanila boshladi.

#### 4.3. " **Kafkaesque** " (Frans Kafka):

Kelib chiqishi: "Kafkaesque" sifati XX asr boshlarida ijod qilgan chex aslli nemis yozuvchisi Frans Kafka asarlaridan kelib chiqqan. Uning asarlarida ko‘pincha begonalashgan, ojiz, absurd vaziyatlarga tushib qolgan qahramonlar tasvirlanadi.

Ma‘nosi: "Kafkaesque atamasi chalkash, ezuvchi va mantiqqa zid tuyulgan holatlarni tavsiflaydi. U murakkab va bashorat qilib bo‘lmaydigan dunyoda begonalashish va ojizlik tashvishlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Rivojlanishi: Bu atama byurokratik qiyinchiliklar, g‘ayritabiiy tajribalar va odamlar o‘zlarini tuzoqqa tushgan va kuchsiz his qiladigan vaziyatlarni tasvirlash uchun keng qo‘llanila boshladi. U zamonaviy dunyodagi xavotir va begonalashuv hissini aks ettiruvchi kino, san‘at va ommabop madaniyatga kirib bordi.<sup>8</sup>

#### 4.4. " **Dikkenscha Dickensian** " (Charlz Dikens):

Kelib chiqishi: "Dickensian" atamasi o‘zining ijtimoiy realizmi hamda qashshoqlik, tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlikni tanqid qilishi bilan tanilgan Viktoriya davri ingliz yozuvchisi Charlz Dikens asarlaridan kelib chiqqan.

Ma‘nosi: "Dickensian" atamasi Viktoriya davri Angliyasining ijtimoiy voqeligini, xususan, Dikens asarlarida tasvirlangan qashshoqlik, qiyinchiliklar va ijtimoiy adolatsizliklarni esga soladi.

Rivojlanishi: " Dickensian " atamasi ko‘pincha shafqatsiz yoki zulm o‘tkazuvchi muhitni, ayniqsa qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik va imkoniyatlarning yetishmasligi bilan ajralib turadigan vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, u Dikens ijodini eslatuvchi, qayg‘uli muhit, murakkab syujetlar va yorqin tasvirlangan qahramonlar bilan ajralib turadigan vaziyatlar yoki personajlarni tasvirlash uchun ham qo‘llaniladi.

#### 4.5. " **Shakespearean** " (Uilyam Shekspir):

Kelib chiqishi: " Shakespearean " atamasi o‘zining tragediyalari, komediyalari va tarixiy asarlari bilan mashhur bo‘lgan buyuk ingliz dramaturgi va shoiri Uilyam Shekspir asarlaridan kelib chiqqan.

---

<sup>8</sup> . Berger, Peter L., and Thomas Luckmann. \*The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge\*. Doubleday, 1966.

Ma'nosi: "Shakespearean " atamasi Shekspir asarlarining ulug'vor mavzulari, fojiali ziddiyatlari va she'riy tilini eslatadi. U ko'pincha ulug'vor, dramatik yoki murakkab his-tuyg'ular bilan tavsiflanadigan narsalarni anglatadi.

Rivojlanishi: " Shakespearean " atamasi dramatik jozibasi, murakkabligi va hissiy chuqurligi bilan ajralib turadigan san'at asarlari yoki spektakllarni tasvirlash uchun keng qo'llaniladigan sifatga aylandi. Shuningdek, u dramatik keskinlik, kutilmagan burilishlar va fojiali yakun bilan ajralib turadigan Shekspir pyesalarini eslatuvchi vaziyatlarni tasvirlash uchun ham ishlatiladi.

#### **5. Eponimlar va tilning rivojlanishi: adabiy ijoddan madaniy qadriyatgacha**

Adabiy eponimlar tilning doimiy rivojlanishiga bir necha yo'l bilan hissa qo'shadi:

Lug'atni boyitish: Ular tilga yangi atama va iboralarni kiritib, so'z boyligimizga chuqurlik va noziklik qo'shadi. Bu atamalar ko'pincha murakkab g'oyalar yoki ijtimoiy hodisalarni ifodalashning qisqaroq usullarini taqdim etadi.

Tushunchalarni qoliplash: Eponimlar murakkab g'oyalar yoki ijtimoiy hodisalarni lo'nda va esda qolarli tarzda ifodalab, bu tushunchalarni tushunish uchun qisqartma vazifasini bajaradi. Ular ko'pincha tushunchaning mohiyatini qamrab olib, keng ommaga yetkazish uchun uning ma'nosini soddalashtirib beradi.

Madaniy qadriyatlarni aks ettirish: Eponimlar muayyan davrning ustun qadriyatlari va xavotirlarini aks ettirib, jamiyatning dunyoni qanday ko'rishi va talqin qilishini ochib berishi mumkin. Masalan, XX asrda " Big Brother " iborasining paydo bo'lishi davlat kuzatuv va nazoratidan kuchayib borayotgan qo'rquvni aks ettiradi.

#### **6. Matn ortidagi ta'sir: adabiy eponimlarning madaniyatga nufuzi**

Adabiy eponimlarning ahamiyati tildan tashqariga chiqib, keng qamrovli madaniy muhokama va tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

Ijtimoiy sharh: Eponimlar ko'pincha ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va tushunish uchun vosita vazifasini bajaradi. Masalan, " Kafkaesque " atamasi zamonaviy hayotning bema'niligi, begonalashuv va o'zgaruvchan holatlarini tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi.

Siyosiy nutq: Eponimlar siyosiy muhokamalarga singib ketgan bo'lib, g'oyalarni ifodalash, hokimiyat tizimlarini tanqid qilish yoki shaxslar va voqealarni tavsiflash uchun qo'llaniladi. "Catch-22" atamasi ko'pincha mantiq va aql-idrok buzilgan siyosiy vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Badiiy ifoda: Eponimlar turli san'at sohalariga chuqur kirib borgan bo'lib, kino, musiqa va tasviriy san'atga ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, " Shakespearean " atamasi ko'pincha kino va teatrdagi dramatik uslub yoki mavzuni anglatadi.<sup>9</sup>

Ommaviy madaniyat: Eponimlar ko'pincha ommaviy madaniyatga kirib boradi, kundalik suhbatlarning bir qismiga aylanadi va dunyoqarashimizni shakllantiradi. " Big Brother " iborasi realiti-shoularda va boshqa ommabop ko'ngilochar dasturlarda keng tarqalgan timsolga aylangan.<sup>10</sup>

#### **7. Adabiy eponimlarning istiqboli: hikoya qilishning davomli ta'siri**

<sup>9</sup> Lakoff, George, and Mark Johnson. \*Metaphors We Live By\*. University of Chicago Press, 1980.

<sup>10</sup> Pinker, Steven. \*The Language Instinct: How the Mind Creates Language\*. William Morrow, 1994.

Adabiy eponimlarning paydo bo'lishi va ta'siri adabiyot, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Jamiyat rivojlanishi va yangi adabiy asarlar yaratilishi bilan zamonamizning o'zgaruvchan muammolari va tashvishlarini aks ettiruvchi yangi eponimlar vujudga kelishi mumkin.

XXI asrda raqamli media rivojlanishi va adabiyotdan keng foydalanish imkoniyati eponimlarning paydo bo'lishi va tarqalishiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Ijtimoiy tarmoqlar va internet muhokamalar yangi atamalarning tez ommalashishi va umumiy lug'at boyligiga kirib borishini tezlashtirishi mumkin.

#### ***Xulosa: Eponimlar olamlar o'rtasidagi ko'prik sifatida***

Adabiy eponimlar hikoyachilikning doimiy ta'siridan kuchli dalolatdir. Ular badiiy dunyo va real dunyo diskursi o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirib, tilimizni boyitadi, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurimizni shakllantiradi, jamiyatning evolyutsion qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu terminlarning paydo bo'lishi va ta'sirini o'rganish orqali adabiyot dunyo haqidagi tasavvurimizni qanday shakllantirishi, so'zlar, g'oyalar va umumiy tajribamiz o'rtasidagi chuqur aloqadorlikni ochib berish haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

#### **REFERENCES**

1. Lanham, Richard A. \*Eponymy: The Use of Proper Names in Literature\*. Yale University Press, 1982.
2. Baldick, Christine. \*The Oxford Dictionary of Literary Terms\*. Oxford University Press, 2008.
3. Berger, Peter L., and Thomas Luckmann. \*The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge\*. Doubleday, 1966.
4. Pinker, Steven. \*The Language Instinct: How the Mind Creates Language\*. William Morrow, 1994.
5. Lakoff, George, and Mark Johnson. \*Metaphors We Live By\*. University of Chicago Press, 1980.

#### **Internet saytlar**

1. The Phrase Finder (<https://www.phrases.org.uk/>)
2. Oxford English Dictionary (<https://www.oed.com/>)
3. The Literary Encyclopedia (<https://www.litencyc.com/>)
4. The American Heritage Dictionary (<https://www.ahdictionary.com/>)
5. Google Scholar (<https://scholar.google.com/>)

## BUXARANIŃ ARDAQLÍ PERZENTÍ HIKMAT RAJABOVŃÍŃ ÓMIRI HÁM DÓRETÍWSHILIGI

(1950-1975-jillar kesiminde)

Ongarbaeva Larisa Amanbay qizi

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialınıń  
Saz atqarıwshılıǵı (xalıq sazları) jónelisiniń 4-kurs studentı.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13814107>

**Annotaciya.** *Bul maqalada ustaz, kompozitor, belgili dirijyor, “Shuhrat” medalınıń iyesi. Qaraqalpaqstan Respublikasına miynet sıńdirgen jaslar ustazi, proffessor Hikmat Rajabov ómiri hám dóretiwshiligi.*

**Gilt sózler:** *Muzıka, orkestr, dirijyor, ustaz, shákirt, konservatoriya, koncert.*

### THE LIFE AND CREATION OF HIKMAT RAJABOV, THE PRECIOUS SON OF BUKHARA

**Abstract.** *In this article, the master, composer, conductor, recipient "Shuxrat" of the Medal of Honor. Teacher of youth for the Republic of Karakalpakstan, Professor Hikmat Rajabov.*

**Key words:** *music, orchestra, conductor, master, conductor, conservatory, concert.*

### ЖИЗНЬ И ТВОРЕНИЕ ХИКМАТА РАДЖАБОВА, ДРАГОЦЕННОГО СЫНА БУХАРЫ

**Аннотация.** *В этой статье мастер, композитор, обозначено дирижёр, обладатель медали “Шухрат”. Учитель молодежи, профессор Хикмат Ражабов, заслуженный деятель Республики Каракалпакстан.*

**Ключевые слова:** *Музыка, оркестр, дирижер, мастер, ученик, консерватория, концерт.*

Bugingi kúnde Ózbekstanniń jańa rawajlanıw dáwiri, súyenishin jaratıp atirmiz. Bunda bızın eń jaqın kómekshimiz ustaz hám tárbiyashılar, ilimiy hám dóretiwshi ziyalılar bolıp esaplanadı. Xalqımızdın mádeniy dárejesin asırıw, insaniy pikirler, ana wataǵa degen sadıqlıq ruwxında tárbiyalawda muzıka kórkem óneriniń ornı júdá úlken bolıp tabıladı. Áwelen bar insan ózi gózzalıqtı seze alatuǵın, pák kewil iyesi bolıwı kerek.

Bay muzikalıq miyrasımızdı asrap abaylawda hám rawajlanıwi ushin usı jóneliste iskerlik kórsetken kompozitor hám bastakorlar, qosıqshi hám sazendeler óz dóretiwshilik iskerligin alıp barıp, Ózbekstanniń muzıka kórkem óneri rawajlanıwında óz úlesin qosıp kelmekte.

Ózbekstanda 2020-jıl 1-fevralda kompozitorlar hám bastakorlar aǵzası, ajayıp sazende hám tárbiyashı qabiletli dirijyor, hám taniqlı jámiyetlik ǵayratker, mehriban ustaz Hikmat Rajabov tuwılıwına 70 jıl boldı. Bugingi kúnde Hikmat Rajabov “Shuhrat” medalınıń iyesi, Qaraqalpaqstan Respublikasına miynet sıngen jaslar ustazi, professor ataqların alıwǵa miyassar boldı.

1950-jıl 1-fevralda Buxara wálayatı Buxara rawonı atbazar QFY “Shiribadan” awılında jumisshi diyhan shańaraǵında on jıldan berı intizarlıq penen kútken perzentı dunyaǵa keldi. Oǵan ata-anası quwanıp, Hikmatjon dep at qoydı. “Balamız halal pak bolsın, ómiri hikmetlerge tolsın” – dep niyet qıldı.

Anası Zevarxon apa Ahmedova (1912-1975) hár kúni balasına ajayıp erteklerdi aytip beretuǵın bolǵan. Bala anasınıń tizzsine basın qoyıp, bul erteklerdi esitiwdi suyer edı. Onıń

hayyiwlern, qosiqlarin tiñlap, bul siyqirli ájayip dawislarin esitip uyxlap qalğanin sezbey qalar edi. Anasi óziniñ saldamlılıǵı, insanlarǵa muhabbati, nama hám qosiqlarǵa qizigiwshañlıǵı menen balasinıñ qalbinde muzikaǵa iqlasin oyatadi.

Atasi Juma Rajabov (1900-1985) Shashmaqom hám eski qosiqlar ishqipazi edi. Radio tolqinlari arqali Mámurjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozovlar atqariwındaǵı qosiqlar jañraqanda, olarǵa qosilip aytar edi. Balasin kitab hám ilimge ishqipaz, qiziqtirip tarbiyaladı. Hikmatjon tarbiyasında atası alip kelip bergem kitaplardıñ hám áhmiyeti úlken boldı. Ata nasiyatlarınan muzikashi bolıw ushın hám álbette oqıw, izleniw kerekligin Hikmatjon balalıǵınan aq tusinip jetti.

Hikmat Rajabov orta mektepte oqıp júrgen kezlerinde olardıñ awilinda Usmon Salixovlar shañaraǵı kóship keledi. Jas Hikmat olardıñ shañaraǵında balalayka sazın kórip qalip, oǵan qizıǵa baslaydı. Balanıñ usı sazǵa qizigiwın kórgen Usmon aǵa oǵan balalayka sazında shertiwdı úyretedi. Atasi balasına rubob sazın alıp beriw niyetinde boladı. Biraq balasinıñ muzikaǵa mehri balalıǵı sebepli sabri shidamay qolbala rubob sazın jasap ata-ansi úkelerine qosiq aytıp beretin bolǵan.

Usi tárizde ol mekteptegi háweskerler tógeregine qatnap rubob shertiwdı úyrenedi hám mektepler ara ótkeriletin turli kórik tanlawlarda qatnasıp, jeñislikke eriser edi.

Muzikaǵa daslepki hawesi áne sonda baslandı. Aqıl-zakawati, ótkir ziyinli bilimge shañqaq bala mektep jillarında muzikadan tisqari, ádebiyat, tariyx, filosofiyǵa qizigiwi joqari edi. Hikmat Rajabov dáslepki muzikalıq bilimlerin qalalıq mádeniyat úyi qasında iskerlik kórsetken kursta muǵallım Shavkat Subhonovadan aldı. Hikmatjonniñ oqıp atirǵan jillari Buxara mámleketlik muzika bilim jurti I-kurs studentı 1964-jil. Buxara qalasındaǵı Uluǵbek atli 20-orta mektepte 7-klass oqıwshisi 1966-jil.

1966-jilda orta mektepti tamamlaǵannan soñ Buxara mámleketlik muzika bilim jurti qasında oqıwǵa kiredi. Hámde kiriw imtahanlarin Ózbekistanda xizmet kórsetken artist, taniqli ustaz, bastakor sheber dirijyor, xalıq arbabi Ixtiyorov Ahmad Muxtorovich taniqli girjekshi sazende Vohidov Sami Vohidovich hámde tájriyebeli dirijyor ustaz Badirov Boris Amirovichlar qabul qilip, bolashaq musiqashini tiñlaǵannan soñ bul balada keleshekte dirijyorliqqa mas qabileti barlıǵın bilip tiñlap qabullaydı.

1967-jil. Buxara qalasi. Buxara mámleketlik muzika bilim jurti II-kurs studentı. Oqıw orayında Hikmat Rajabov Ózbekstan xalıq bilimlendiriw aǵzasi taniqli kórkem óner muǵallım Hojiyev Momin Muxsinovich qolınan qashqar rubob sazi hám dirijyorliq qanigelıǵı boyınsha oqıdı. Ustazi shagirtin hárdayim maqtanish tutatuǵın edi.

Ózbekstanda xizmet kórsetken muǵallım maqamshunas Máfujon Toshpólatovtan bolsa shashmaqom sirlarin úyrendi. Keyinshelik Hikmat Rajabovtıñ jaratqan shigarmalarında Buxara shashmaqominiñ ózine tán usıl hám sesler úyǵınlıǵı óz ornin tawa basladı. Bilim jurti qasında tájriyebeli muǵallımler qatarında muzika teoriyasınan Ózbekistanda xizmet kórsetken artist Ahmadjon Ixtiyorov sabaq beretuǵın edi. Hikmat Rajabovtıñ qol hareketlerin diqqat penen qaraǵan Ahmadjon Ixtiyorov bul qabiletti oqıwshidan jaqsi dirijyor shigıwın aytti. Hikmat Rajabovtıñ kóz aldında ardaqlı kórkem ónershi, professor Muxtor Ashrafıy suwretlenedi hám keleshekte ullı dirijyor bolıwdı niyet qiladı.



1968-jil ol bilim jurtında oqiw menen birge birinshı márte jumis iskerlıgın Sadridin Ayniy atli Buxara walayati muzikali drama hám komediya teatrında qashqar rubab sazı atqariwshisi sipatında baslaydı. 1969-1971-jıllar aralıǵında armiya qatarında xizmet etedi. 1971-jılda armiya xizmetinen qaytip, muzika bilim jurtında oqiwın dawam ettiredi. Hikmat Rajabov bilim jurtın jaqsi tamamlap 1973-jıl Tashkent mámleketlik konservatoriyasına xalıq sazları fakutetine oqiwǵa kiredi. Konservatoriyada qashqar rubabı qanıgeligi boyınsha jetekshi qanıgeliklerden biri professor Vasilev Feoktist Nikiforovich klasında dirijyorlıq qanıgeligi boyınsha taniqli kompazitor professor Nazarov Fattoh Vahobovich (1919-1982) tan bilim aladı. 1977-jıl Konservatoriyanın studentler orkestrinde Hikmat Rajabov dirijyorlıq qiladi hám igzamındı aliwshılar, professor A.I.Petrosyants, S.Boboyev, A.Leviyev. Hikmat Rajabov muǵallimlerinden, xalıq namaları hám bastakorlıq atqariwına tiyisli kólemı ırı, atqariwi quramalı bolǵan shıǵarmalardı akadimiyalıq hám milliy jónelislerde sheber atqariwdı úyrenedi. 1978-jıl iyunda Hikmat Rajabov hám fortepianoda Yusman Irina Yakovlevna qanıgelik páninen mámleketlik igzamin tapsıradı. Konservatoriya studentı Hikmat Rajabov 1975-jılı 10-20- avgusta Ózbekstan student jaslari atınan Moskvada bolıp ótken Ózbekistan ádebiyatı hám muzika hám kórkem óner kúnleri konfrensiyasında qatnastı.

1975-jıl avgust ayında Ózbekistan joqari oqiw orınları bilimdan studentler qatarına kiritilip, Konservatoriya wákili retinde Moskvada dem aliwǵa jiberiledi.

#### **REFERENCES**

1. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń 2021-jıl 5-apreldegi “Ózbekstan Mámleketlik Konservatoriyasınıń Nókis filialın shólkemlestiriw haqqında” gı 186-sanlı qararı.
2. Nargıza Barnayeva. Buxoroı Sharıfning Ardoqlı Farzandı./managrafiya 2020.
3. Hikmat Rajabov “ORKIESTR SINIFI” “MUZIKA”, Tashkent 2011
4. Hikmat Rajabov “RUBOB SABAQLIǴI” Nokis 2023.

#### **Qosımsha ádebiyatlar dizimi**

5. Мамутов П. А. Обеспечение профессиональными кадрами каракалпакского государственного театра //Проблемы современной науки и образования. – 2023. – №. 3 (181). – С. 104-111.
6. Pirnazarov S. M., Mamutov P. A. History And Development Of Karakalpak National Ethnogenesis //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 7. – С. 193-195.
7. Pirnazarov S. M. Qaraqalpaq teatriniń' professionallıqqa o'tiwinde da'slepki adımlar (1930-1939). Ilim hám jámiyet. 62-64-bet.
8. Pirnazarov S. M. A PERIOD OF FORMATION OF THE KARAKALPAK THEATRE (1922-1930). Science and Education in Karakalpakstan. 93-94-bet.

## THE BENEFITS OF THE GAME METHOD IN CHINESE LANGUAGE TEACHING

Ismatullayeva Madinabonu Davronbek qizi

Uzbekistan state world languages university Oriental Philology Faculty

Student of group-2101.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13814705>

**Abstract.** *A few features of using games to teach Chinese in the classroom are covered in the article. Games are unquestionably a fantastic approach to keep students motivated, aid in the gradual acquisition of vocabulary and grammar, and support the successful introduction of new material. Azart sparks a student's curiosity, which in turn propels advancement. The youngster advances to new language learning levels as a result of studying the content through the game and developing the idea that learning Chinese is a lot of fun.*

**Keywords:** *game activity; game teaching methods; Chinese language, Chinese lessons, school children, elementary Chinese language teaching, methods of teaching Chinese, lexical games, school textbooks, teaching games, game exercises, mysterious hieroglyphs and interesting methods.*

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИГРОВОГО МЕТОДА В ПРЕПОДАВАНИИ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** *В статье рассматриваются некоторые особенности использования игр для обучения китайскому языку в классе. Игры, несомненно, являются фантастическим подходом для поддержания мотивации студентов, помогают в постепенном приобретении словарного запаса и грамматики и способствуют успешному введению нового материала. Азарт разжигает любопытство студента, что, в свою очередь, стимулирует прогресс. Юноша переходит на новые уровни изучения языка в результате изучения содержания через игру и развития идеи, что изучение китайского языка — это очень весело.*

**Ключевые слова:** *игровая деятельность; игровые методы обучения; китайский язык, уроки китайского языка, школьники, начальное обучение китайскому языку, методы обучения китайскому языку, лексические игры, школьные учебники, обучающие игры, игровые упражнения, загадочные иероглифы и интересные методы.*

**Introduction.** The first years of school complicated by the fact that children are included in the educational process, far from always accompanied by a game, as in kindergarten. The study of new material is undoubtedly a complex type of activity, associated with a concentration on the subject, self-organization, and discipline. Due to this the acquisition of strong language skills in the process of educational activity and the choice of effective methods for mastering educational material is one of the urgent problems of teaching in elementary school. As A. S. Belkin rightly notes: "The game does not disappear from the life of the child - it is pushed into the background, still occupying a significant place, but educational activity acquires the main role". The introduction of the elements of the game in the lessons of language teaching contributes to a more successful process of mastering new concepts and the study of the subject.

The child's age, psychological makeup, and unique traits must all be considered by the teacher. The groundwork for understanding both native and foreign languages is established in

elementary school. Cognitive activity, which is included into activities that perfectly match the age features of kids in primary school, is fertile ground for this. The difficulty of successfully integrating lexical games into the teaching of foreign languages in secondary school primary grades is the focus of this study.

**Methods.** According to A.V. Konyshева, the game is a unique means of teaching a foreign language. “The game is synthetic because It is both the method and the form of organization of training. In addition, it synthesizes almost all methods of active learning”. Furthermore, educational games are games created by teachers using methodological tools and used during classes for teaching and raising children, focused on the sphere of proximal development of students. The game combines the pedagogical goal with an exciting motive for the child. Training games are different from other types of games with their substantial basis. In our educational activity, we rely on the concept of teaching games by M.F. Stranin, who highlights “preparatory games that contribute to the formation of speech skills (this group includes lexical, phonetic, spelling and grammatical) and creative games, the purpose of which is to further develop speech skills and skills”.

The usefulness of studying foreign languages is rising at the moment. The world has changed, impacting not just international politics, economy, and society at large but also the educational system. A second foreign language is now optionally studied in many schools in addition to English. These languages used to be Spanish and Italian, but now he is highly well-known in Chinese. The majority of parents believe it to be the language of the future, and kids in elementary schools find “mysterious hieroglyphs” intriguing.

Consider about the matter of teaching Chinese in schools. Chinese is undoubtedly one of the hardest languages in the world to learn. Additionally, studying becomes an engaging activity for students if an adult goes to it consciously and sets goals and objectives for himself. Mysterious hieroglyphs that are accompanied by intriguing images draw them in. This does not always match reality, though. Everything changes and the learner loses interest in the language as soon as he starts studying hieroglyphs.

**Discussions and Results.** Notwithstanding the foregoing, Uzbekistan continues to see Chinese as an unusual language. It is also not difficult to choose a teacher who would work with adults in classes or at a university; on the other hand, selecting a teacher who would deal with children (and occasionally with elementary school kids) is more challenging. Furthermore, a significant issue for educators is the availability of engaging, colorful, and stimulating textbooks for students, as well as the absence of textbook coherence within classes.

Another point of view is that, since visual memory is superior to text memory, it is a useful tool for teaching Chinese to students through engaging and interesting activities. Learners will remain calm and find it easier to retain the terms and concepts if they are not bored with the material being taught. Using games to teach is a good idea because it can pique students' interest and help them learn.

There may be pauses between classes, according to some lecturers, so that pupils can unwind. However, its purpose is not analogous to the game's adjustment. Teachers can resume teaching after the games since the pupils have calmed down and become more comfortable. The effectiveness of studying Mandarin Chinese is currently quite high. Children's favorite activity is

playing games. To some extent, students who start learning Chinese in China are also considered "children" in the language. These days, a wide range of entertainment is employed in several industries. As a result, it is reasonable and possible to incorporate games into Chinese instruction to improve student retention and the learning environment.

Teachers that can help students create an image, a process, or an event in every class will help students' brains develop, which will improve their memory. After the rigorous listening and pronunciation exercises, it is common for individuals who are just starting to study Mandarin to feel exhausted. There are various game styles. However, educators ought to put some effort into creating engaging games that support Chinese language learning for their pupils. Better still, if they could participate in the games. Teachers have an obligation to assist students in learning through play, not only play itself. To effectively support students' learning, teachers must be skilled in the teaching arts. Learning Chinese is a challenge for the majority of students that study there.

The phenomena of language are varied and intricate. To make things easier for students to accept and learn, teachers should reduce them into soothing lesson plans. They will thus acquire self-assurance and a greater interest in studying Chinese.

Тадқиқотимизда иштирок этган 60-63,5 кг. вазн тоифаларига мансуб боксчи-талабаларда НОЧ ўқув-машғул� йили бошида 14,4±1,56 марта/дақ. га тенг бўлганлиги кузатилган, лекин ўқув-машғул� йили якунига келиб мазкур кўрсаткич 13,3±1,21 марта/дақ. ни ташкил этган ёки унинг абсолют намойиш фарқи 1,1 марта/дақ. га тенг бўлган.



5 расм



*Изоҳ:*

1-4 – қўлланилган тестларнинг тартиб рақамлари;

Штанге синови бўйича чуқур нафас олиб, нафасни сақлаш вақтини аниқлаш натижалари шуни кўрсатдики, 60-63,5 кг. вазн тоифасидаги малакали боксчи-талабаларда бу кўрсаткич ўқув-машғулот йили бошида  $61,6 \pm 3,17$  с. ни ташкил этган бўлса, унинг якунига келиб ушбу кўрсаткич  $67,9 \pm 4,12$  с. га тенг бўлган ёки унинг абсолют ўсиш суръати 6,3 с. ни ташкил этган. 67-71 кг. вазн тоифасидаги малакали боксчи-талабаларда мазкур кўрсаткичлар мувофиқ равишда:  $68,4 \pm 4,07$  ва  $70,8 \pm 4,72$  с. билан ифодаланган ёки бир ўқув-машғулот йили давомида чуқур нафас олиб, нафасни сақлаш вақти 4,4 с. гача узайган.

Генчи синови бўйича чуқур нафас чиқариб, нафасни сақлаш 60-63,5 кг. вазн тоифасидаги боксчи-талабаларда ўқув-машғулот йили бошида  $38,7 \pm 2,07$  с. ни, якунида –  $44,3 \pm 3,45$  с. ни ташкил этган ёки уни узайиш фарқи 5,6 с. га тенг бўлган. 67-71 кг. вазн тоифасига мансуб малакали боксчи-талабаларда эса мазкур кўрсаткич ўқув-машғулот йили бошида  $43,5 \pm 3,38$  с. га, якунида эса бу кўрсаткич  $47,8 \pm 3,97$  с. га тенг бўлган ёки нафас чиқариб, нафасни сақлаш вақтининг узайиш фарқи 4,3 с. ни ташкил этган.

**60-63,5 ва 67-71 кг. вазн тоифасига мансуб малакали боксчи-талабаларда юрак ва нафас олиш органларининг функционал кўрсаткичларини бир ўқув-машғулот йили давомида ўсиш фарқини акс эттирувчи диаграммалар**

Қайд этилган кўрсаткичларни таққослаш мақсадида шу йўналишда ўтказилган бир қатор тадқиқот натижаларини мисол тариқасида келтириш мумкин. Масалан, А.З. Зиннатнуров, Ю.В. Болтиков, Н.А. Абрамов [2019, с. 76-79]лар томонидан малакали ўсмир боксчилар устида ўтказилган тадқиқотларда Штанге синови бўйича чуқур нафас олиб, нафасни сақлаш вақти тажрибадан аввал  $49,42 \pm 0,63$  с. ни ташкил этган бўлса, тажриба якунига келиб бу кўрсаткич  $56,8 \pm 1,73$  с. гача узайган. В.И. Филимонов [2009, с. 60-63] томонидан келтирилган тадқиқот натижаларига кўра, 46 кг. дан 57 кг. гача бўлган вазн тоифасидаги малакали боксчиларда чуқур нафас олиб, нафасни сақлаш 80 с. ни, 60-71 кг. вазн тоифасидаги боксчиларда 90 с. ни, 75 кг. дан токи оғир вазн тоифасигача бўлган боксчиларда эса бу кўрсаткич 70 с. ни ташкил этган. Чуқур нафас чиқариб, нафасни сақлаш вақти (Генчи синови) мазкур кўрсаткичлар мувофиқ равишда: 50, 60, 40 с. га тенг бўлиши мумкин экан.

Манбалардан маълумки, замонавий боксда ўтказиладиган узок муддатли ва шиддатли машғулотлар, айниқса мусобақа циклларида кечадиган кўп сонли расмий жанглар давомида зарбалар суръати, кучи ва аниқлигини туширмаслик нафақат барқарор шаклланган техник-тактик маҳоратга асосланади, балки устувор жиҳатдан организмда  $O_2$  қарздорлиги юзага келганда ҳам (гиперкопник-гипоксия ҳолати) “ишни” жадал давом эттириш қобилиятига боғлиқдир ёки бошқача қилиб айтганда боксчида аэроб иш қобилиятига асосланган анаэроб чидамкорлик зарур бўлади. Шунинг учун ҳам аксарият бокс мутахассислари ўз тадқиқотларида ЮҚЧ, НОЧ, Штанге синови, Генчи синови, Купер тести, Гарвард степ-тести,  $PWC_{170}$  каби функционал тестлардан фойдаланишга урғу беришгади. Буларнинг ичида айниқса Штанге ва Генчи синовлари алоҳида аҳамиятга эгадир. Гап шундаки, масалан, Штанге синовини ўтказиш вақтида, яъни чуқур нафас олиб,

нафасни сақлаш давомида кўкрак ичида босим ортади, бундай ҳолат ўпкадан қон ўтишини кийинлаштиради. Натижада юракнинг чап қоринчасига қоннинг қуйилиши камаяди, бу вақтда ўнг қоринча ўз ишини ўпка ичида ортган босимни енгишга қаратади. Ана шу жараён давомида юрак уриши – пульс тезлашади, вена қон томири босими ортади, систолик босим эса дастлаб кўтарилади, кейин туша бошлайди. Синов тугаганда мазкур жараёнлар ўзининг одатий ҳолатига қайтади. Чуқур нафс олиб, нафасни сақлашда асосий юклама юракни ўнг томонига тушади, чуқур нафас чиқариб, нафасни сақлашда (Генчи синови) асосий юклама юракнинг чап томонига тушади<sup>15</sup>.

**Хулоса.** Мазкур йўналиш доирасида биз томонимиздан ўтказилган тадқиқот натижалари ва уларнинг қиёсий таҳлилидан кўриниб турибдики, текширилувчи малакали боксчи-талабаларда, биринчидан, тинч ҳолатда ўқув-машғулот йили бошида олинган ЮҚЧ ва НОЧ кўрсаткичлари ўрнатилган физиологик меъёрлардан ортиқ бўлган ва ўқув-машғулот йили якунига келиб ҳам ушбу кўрсаткичлар спортчиларга хос бўлган физиологик стандартларгача тикланмаган. Демак, эҳтимол қилиш мумкинки, ушбу боксчиларда аввалги жисмоний юкламалар таъсирида юзага келган ўта толиқиш аломатлари ўз вақтида тўлатўқис тикланмаган. Иккинчидан, уларда нафас олиб ва нафас чиқариб, нафасни сақлаш кўрсаткичлари ҳам етарли бўлмаган ва бундай ҳолат мазкур боксчиларда шиддатли анаэроб юкламалар таъсирида юзага келадиган гиперкопник-гипоксик ҳолатларда жангни жадал суръатлар билан давом эттириш имконияти чегараланишидан дарак беради.

## REFERENCES

1. Балтаева И. Т. и др. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //MODERN SCIENCE AND RESEARCH. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 709-718.
2. Jumayev U. X., Kazoqov R. T., Abdusalomov I. K. QUANTITATIVE EVALUATION OF QUALITY INDICATORS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 229-240.
3. Qutlimurotov I. X. et al. THE PROCESS OF ORGANIZING EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS AND MASTERING PERSONAL PROFESSIONAL KNOWLEDGE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 869-879.
4. Солиев И. Р. и др. МОРФО-ФУНКЦИОНАЛ ВА АНТРОПОГЕНЕТИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРГА КЎРА ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ИШЧАНЛИК НАТИЖАЛАРИНИ БАШОРАТ ҚИЛИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
5. Тажибаев С. С. и др. ЖАХОН ЧЕМПИОНАТИ 2022 ЙИЛГИ ФУТБОЛЧИЛАР АНТРОПОМЕТРИК ЎЛЧАМЛАРИ ВА ТЕЗЛИК СИФАТИ ОРАСИДАГИ КОРРЕЛЯЦИЯНИ ЎРГАНИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.
6. Тажибаев С. С. и др. 13-14 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШ САМАРАДОРЛИГИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6.

<sup>15</sup> Куколевский Г.М., Граевская Н.Д. Основы спортивной медицины / Шифокорлик учун қўлланма. Изд-вакт-оралиқ “Медицина”. М., 1971. – 368 с. (с. 225-226).

7. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 561-569.
8. Ganieva M. et al. THE UNITY OF TECHNIQUE, TACTICS AND STRATEGY IN TABLE TENNIS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1175-1183.
9. Usmonova S. H., Akmurodov M., Kazokov R. THE INFLUENCE OF TEMPERAMENT ON THE CHOICE OF SPORTS ACTIVITIES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 63-70.
10. Umaraliyeva F. T., Kazoqov R. T. THE ROLE OF SPORTSWOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1124-1131.
11. Mustafayeva N. A., Kazoqov R. T. USING THE MAIN CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC SCHEDULE IN SOLVING ISSUES RELATED TO PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 1115-1123.
12. Kazoqov R. T., Axatov L. K. SPORT TOMOSHASINING ESTETIKASI. – 2024.
13. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
14. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 732-741.
15. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
16. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
17. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.
18. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
19. Казоков Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.

21. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
23. Murod o'g'li P. D. MAMLAKATIMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. – 2023.
24. Achilov O. H. TO INCREASE THE INTEREST OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN SPORTS AND TO MAKE THEM REGULARLY ENGAGE IN SPORTS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 218-220.
25. O'G'li S. O. S., Nurullayev A. Q. THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF ATHLETICS //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 10-15.
26. O'Imasbek S. MIDDLE LONG DISTANCE RUNNING //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 10-12.
27. Nurullayev A. Q., Ogli S. U. S. JUDO ACHIEVEMENT AT THE 2021 SPORTS COMPETITION AT THE UNIVERSITY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 234-236.
28. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 742-753.
29. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
30. Boltayeva I. T., Tashnazarov D. Y., Kazaqov R. T. TECHNICAL-TACTICS OF 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS EFFICIENCY OF EDUCATIONAL ACTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 91-98.
31. Каримов Б. З., Казоқов Р. Т. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИДА ҲАРАКАТ МАЛАКАЛАРИ ВА КЎНИКМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 32-39.
32. Казоқов Р. Т., Холбоева Д. Р. КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 90-97.

УДК:631.6

## КОЭФФИЦИЕНТЫ КЛАССИФИКАЦИИ ПО КОЛИЧЕСТВУ ГУМУСА В ПОЧВЕ

**Кучкарова Нодира Пазитдиновна**

Кандидат сельскохозяйственных наук.

Доцент Ташкентский государственный аграрный университет.

Кафедра Агрохимии и почвоведение. Uzbekistan.

*E.mail.* [kuchkarova@mail.com](mailto:kuchkarova@mail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13822134>

*Аннотация.* Сегодня рациональное использование минеральных удобрений в бедных гумусом почвах Средней Азии привело к значительному повышению урожайности всех возделываемых сельскохозяйственных культур. Такая ситуация привела к тому, что некоторые работники сельского хозяйства снизили, а иногда игнорировали роль гумуса в плодородии почв, что нашло отражение в системе земледелия, в которой мерам по сохранению и увеличению органического вещества почвы не уделялось должного внимания, причем не только в Узбекистане. В целом в Средней Азии необходимо обратить внимание на увеличение обеспеченности почвы гумусом, что означает достижение ряда достижений в сельском хозяйстве.

*Ключевые слова.* Гумусовая почва, применение удобрений, повышение урожайности, улучшение плодородия почвы.

### CLASSIFICATION COEFFICIENTS BY THE AMOUNT OF HUMUS IN THE SOIL

*Abstract.* Today, the rational use of mineral fertilizers in humus-poor soils of Central Asia has led to a significant increase in the yield of all cultivated crops. This situation has led some agricultural workers to reduce, and sometimes ignore, the role of humus in soil fertility, which is reflected in the farming system in which measures to preserve and increase soil organic matter have not been given due attention, and not only in Uzbekistan. In general, in Central Asia, it is necessary to pay attention to increasing the supply of humus to the soil, which means achieving a number of achievements in agriculture.

*Keywords:* humus soil, use of fertilizers, increase productivity, improve soil fertility.

**Введение.** Сейчас уже многие ученые в нашей стране и за рубежом падение плодородия земель в связи с этим снижением урожайности сельскохозяйственных культур связывают с уменьшением гумуса в почве. Появилась даже теория воспроизводства плодородия почвы путем увеличения запасов гумуса. Вместе с тем еще далеко не ясна роль гумуса в плодородии почв.

Методы исследования: Давно установлено, что присутствие гумуса в почве даже в незначительных количествах оказывает положительное влияние на химические, физические и биологические свойства почв. Это связано в первую очередь со специфическими свойствами самого гумуса.

Например; способностью гумуса к сильному набуханию при увлажнении и, наоборот, снижению при высыхании обязано рыхлое сложение верхних горизонтов большинства почв.



Это свойства гумуса вместе с гумусовыми веществами, обволакивающими при коагуляции минеральные почвенные частицы, образуют структуру или агрегированность почвы.

Характерным свойствам гумуса являются высокая водоудерживающая способность, в несколько раз превышающая водоудерживающую способность минеральных частиц.

Поэтому от количества гумуса во многом зависит такое важное агрономическое свойство почвы как влагоемкость. Высокогумусные почвы или отдельные слои всегда содержат больше влаги и растения на них меньше страдают от почвенной засухи.

Изложенным выше далеко не исчерпывается значение гумуса в плодородии почв.

Исследователям предстоит еще много работы по определению его химического состава, влияния на почвенные процессы и на свойства почвы.

Большое значение гумуса как главному фактору, определяющему плодородие почвы, придавал основатель почвенной науки В.В.Докучаев, который шкалу оценки степных почв составил по запасу в них гумуса. В дальнейшем такого же мнения о роли гумуса в почвенном плодородии придерживались Н.Ф.Гаврилюк. Они также составляли бонитировочные шкалы по запасам гумуса и мощности гумусовых слоев.

В последнее время некоторые исследователи считают, что при бонитировке почв необходимо учитывать не только количество гумуса, но его качественный состав, особенно содержание гуминовых кислот. Так например, в условиях южного Урала Г.А.Чиглинцева и В.И.Щербинин в Сибири установили тесную корреляцию между количеством гуминовых кислот и величиной урожая сельскохозяйственных культур.

О целесообразности учета качества гумуса при бонитировке почв высказывался и Н.Ф.Тюменцев. Он пишет, что «бонитировочная шкала в основу которой будут положены данные о количестве гумуса и о его качестве, полнее отразит потенциальное плодородие почв». Хотя большинством исследователей признается доминантность гумуса как фактора плодородия материалов, подтверждающих это положение в аридной зоне почти нет. В Узбекистане, во всяком случае, исследование по поиску характера связи между количеством гумуса и урожайностью сельскохозяйственных культур не проводилось.

Вследствие этого во «Временных методических указаниях по бонитировке орошаемых почв» этот важный фактор плодородия почв не учитывался при бонитировке орошаемых почв.

В плане научных исследований по усовершенствованию методики бонитировки орошаемых почв республики, нами была с 2009г. начата работа по выявлению роли гумуса как фактор плодородия и возможность использования количества гумуса как критерия бонитировки орошаемых почв.

Ниже приводятся результаты исследований за 2018-2020гг. Для поиска связи между количеством гумуса и урожайностью хлопчатника все почвы учетных площадок по запасу гумуса в полуметровом слое разделены на 5 групп. (табл.1)

Таблица 1.

***Вариационно-статистические показатели связи урожайности  
Хлопчатника с содержанием гумуса в почве (0-50 см слое)***



	Кол-во учетных площадей	Содержание гумуса т/га X	Урожай ность ц/га Y	X <sup>2</sup>	Y <sup>2</sup>
	30	25,5	20,6	525,3	435,3
	41	36,1	21,3	768,9	457,7
	26	56,0	26,9	1506,4	734,6
	10	72,8	29,6	2173,7	878,1
	1	102,5	35,0	3587,5	1325,0

Коэффициент корреляции составил 0,97. Найденная цифра показывает, что между этими двумя показателями имеется прямая тесная корреляционная связь, что дает нам основание вычислить монтажные коэффициенты по запасам гумуса в полуметровом слое почв (Таблица 2).

Таблица 2.

*Бонитировочные коэффициенты по содержанию гумуса в почве  
(0-50см слое)*

Градация почв по запасу гумуса, т/га	Количество учетных площадок, шт	Средняя урожайность, ц/га	Бонитировочные коэффициенты
< 30	30	21,6	0,56
30 – 45	41	22,3	0,61
45 – 65	26	27,9	0,76
65 – 85	10	29,6	0,86
>85	1	35	1,00

#### ВЫВОДЫ:

Таким образом, наши исследования показали, что размеры роста урожайности хлопчатника прямо пропорциональны количеству гумуса в полуметровом слое, 10,6т/га гумуса дает прибавку в урожае около 0,7 ц/га. Особенно резкое увеличение урожая происходит при количестве гумуса более 50 т/га. Видимо, эту цифру целесообразно считать средней для орошаемых типичных сероземов при характеристике их по количеству гумуса.

#### REFERENCES

1. Хақбердиев О.Э. «Эрозионноопасные орошаемые земли самаркандского оазиса и пути повышения их противоэрозионной устойчивости» Ташкент 2008 г.
2. Кучкарова Н.П «Эрозионноопасные земли правобережья низовьев
3. р.Чирчика и их качественная оценка» Ташкент 2001 г.

**O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING ASOSCHISI, MAMLAKAT MUSTAQIL  
TARAQQIYOT YO‘LINI BELGILAB BERGAN ATOQLI DAVLAT ARBOBI**

**Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi**

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti  
Yurisprudensiyayo'nalishi 3-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13822155>

***Annotatsiya.** Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Bu hayot juda tez-boshdagi do'ppini bir aylantirguncha o'tadi- ketadi. Shu qisqa fursatda inson xalq uchun, Vatan uchun, o'z farzandlari va kelgusi nasllar uchun savobli ishlar qilib ulgurishi kerak. Oliyjanob xalqimizning ezgu tasavvur va tushunchasiga ko'ra, har bir odam dunyoga kelib, uchta xayrli ishni ado etishi kerak. Birinchisi, sog'lom va oqil farzand tarbiyalab voyaga yetkazish, Ikinchisi, o'z oilasi, farzandlari uchun imorat qurish, Uchinchisi, kelajakni o'ylab, yaxshi niyat bilan daraxt o'tqazish. Bu insoniy intilishlarda millatimizning barkamol avlod haqidagi orzu-umidlari o'z aksini topgan. Qisqasi, o'zbekning hamma orzu-havaslarini, hayotining mazmunida farzandlarining kelajagi, baxt-u saodati bilan bog'liq maqsadlarni ko'ramiz. Vatan hissi, Vatan tuyg'usi barcha narsadan qadrliroqdir.*

***Kalit so'zlar:** komil inson, tarbiya, davlat siyosati, inson, xalq, barkamol avlod, istiqloq.*

**THE FOUNDER OF THE INDEPENDENCE OF UZBEKISTAN, A PROMINENT  
STATEMAN WHO DETERMINED THE WAY OF INDEPENDENT DEVELOPMENT  
OF THE COUNTRY**

***Abstract.** We have declared the education of a perfect person as a priority area of state policy. When we say a perfect person, we understand, first of all, educated, enlightened people who have a high consciousness, who can think independently, and whose behavior is an example to others. This life goes by very quickly. In this short time, a person should manage to do meritorious deeds for the people, for the Motherland, for his children and future generations. Your Excellency, according to the good imagination and understanding of our people, every person should perform three good deeds when he comes into the world. The first is to raise a healthy and intelligent child, the second is to build a building for one's family and children, and the third is to think about the future and plant trees with good intentions. The hopes and dreams of our nation for a perfect generation are reflected in these human aspirations. In short, we see goals related to the future and happiness of children in the meaning of life and dreams of Uzbeks. The feeling of the Motherland, the feeling of the Motherland is more valuable than everything.*

***Key words:** perfect person, education, state policy, human, nation, perfect generation, independence.*

**ОСНОВАТЕЛЬ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА, ВЫДАЮЩИЙСЯ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ, ОПРЕДЕЛИВШИЙ ПУТЬ НЕЗАВИСИМОГО  
РАЗВИТИЯ СТРАНЫ**

***Аннотация.** Мы объявили воспитание совершенного человека приоритетным направлением государственной политики. Когда мы говорим «совершенный человек», мы понимаем, прежде всего, образованных, просвещенных людей, обладающих высоким*

*сознанием, способных мыслить самостоятельно и поведение которых является примером для других. Эта жизнь проходит очень быстро. За это короткое время человек должен успеть сделать достойные дела для народа, для Родины, для своих детей и будущих поколений. Ваше Превосходительство, по хорошему воображению и пониманию нашего народа, каждый человек, придя в мир, должен совершить три добрых дела. Первое – вырастить здорового и умного ребенка, второе – построить дом для своей семьи и детей, третье – думать о будущем и с добрыми намерениями сажать деревья. Надежды и мечты нашей нации об идеальном поколении отражены в этих человеческих стремлениях. Словом, в смысле жизни и мечтах узбекистанцев мы видим цели, связанные с будущим и счастьем детей. Чувство Родины, чувство Родины дороже всего.*

**Ключевые слова:** *совершенный человек, образование, государственная политика, человек, нация, совершенное поколение, независимость.*

KIRISH: Bugun barchamizning ildizimizni chambarchas bog'laydigan bir tushuncha borki, bu- mustaqil O'zbekistondir! Kerak bo'lsa, O'zbekistonning istiqloli va istiqboli uchun hammamiz jonimizni fido qilamiz, O'zbekistonimiz, asriy zulmatdan xalos bo'lgan jabrdiyda Vatanimiz biz uchun hamma narsadan ulug'roq va ustunroqdir. Har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyodagi obro'- e'tibori, avvalo, shu el-yurtda qaror topayotgan tinchlik-osoysishtalikka, shu yerda yashaydigan barcha millat va ellatlarning totuvligiga bog'liq. Shu ma'noda, eng katta boyligimiz- bu mamlakatimizdagi tinchlik, millatlar va fuqarolar totuvligidir, deb doimo faxr -u g'urur bilan takrorlaymiz. Shu ma'noda bizga mustaqillikni hadya qilgan davlat arbobi haqida qanchalar gapirsak shunchalar oz! Birinchi prezidentimiz mustaqil davlatimiz asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining fidoyi, sadoatli farzandi sifatida xotiramizda mangu yashaydi. 25 yil davomida o'zbekiston prezidenti bo'lgan Islom Abdug'aniyevich Karimovning vafoti haidagi xabarni ko'p millatli xalqimiz chuqur qayg'u bilan qabul qildi. Birinchi prezident mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun qadrton va aziz kishiga aylangan edi. Islom Karimov o'zining ko'p qirrali siyosiy faoliyati hamda oliyjanob insoniy fazilatlarini bilan Vatanimizning ko'p asrlik tarixida o'chmas iz qoldirdi. Birinchi prezident O'zbekiston xalqi uchun yangi davlatni barpo etishdek tarixiy qaror qabul qildi hamda milliy tiklanishning o'tish davridagi mas'uliyatni va mashaqqatni zimmasiga oldi. Sobiq tuzumdan ajralib chiqqan boshqa davlat rahbarlaridan farqli o'laroq, Islom Karimov o'z xalqini qurbonlarsiz va "rangli" inqiloblarsiz milliy taraqqiyot yo'liga boshladi. Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938- yil 30- yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati -o'zbek. Oliy ma'lumotli. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida boshlagan. 1966- yilda O'zbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga o'tib bosh mutaxassislikdan respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1989- uilning iyunidan boshlab O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishlagan. 1996-yil 26- martda bo'lib o'tgan umumxalq referendumini yakunlariga ko'ra, I. Karimovning prezidentlik vakolati 2000- yilga qadar uzaytirildi. 2000-yil 9- yanvarda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, Kostitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq, I. Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Shu boisdan, birinchi prezidentimiz Islom Karimov bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan dunyoda

ro'yi berishi mumkin bo'lgan barcha jarayonlarning kelajakka bo'lgan ta'sirini oldindan aniq tahlillar asosida belgilab beruvchi, nafaqat o'z millati va butun Markaziy Osiyo xalqlarining ertangi farovon kunlarga bo'lgan ishonchini belgilovchi, dunyo yetakchilari orasida birinchilardan bo'lib insoniyatni bugungi kunda asr vabosi deya atalayotgan terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik kabi illatlar ta'siridan ogohlantirgan buyuk siymo edi. Shu bilan birga, Islom Karimovning mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlari va bevosita tashabbuslari bilan milliy parlamentarizmga va ko'p partiyaviylik tizimiga asos solindi. 25 yil davomida ushbu sohaning huquqiy asoslari yaratilib, parlament va siyosiy partiyalarning jamiyatda, fuqarolarning hayotida tutgan roli oshdi. **ASOSIY QISM:** Birinchi prezidentimiz Islom Karimov Vatanimizni mustabid tuzum qaramligidan ozod qilib, halokat yoqasiga kelib qolgan yurtimizni qayta tikladi. Istiqlolimiz asoschisi g'oyat qaltis va tahlikali bir vaziyatda og'ir qiyinchiliklar va sinovlarga qaramay, tarixan qisqa davrda O'zbekistonni jadal va barqaror sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy demokratik davlatga aylantirdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlash, xalqimizning mustaqillik yillarida erishgan barcha olamshumul yutuq va natijalari Birinchi Prezidentimiz faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini, Islom Karimov nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida ham katta hurmat va obro'-e'tibor qozongan ulkan shaxs hamda arbob bo'lganini keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlarga yetkazishga qaratilgan. Shuningdek, mustaqillika erishilgan paytdan boshlab O'zbekiston Islom Karimov rahbarligida Markaziy Osiyodagi asosiy davlat sifatida mustahkam qaror topdi, ham ichki siyosatda, ham xalqaro maydonda katta muvaffaqiyatlarga erishdi, o'zini mintaqadagi va umuman, jahondagi xavfsizlikning faol tarafdori sifatida namoyon qildi. Islom Karimovning mamlakatimiz hayotida tutgan o'rnini judda ulkan. O'tmish davrining qiyinchiliklari, o'zligini topayotgan davlat mafkurasini yaratish, tinchligini saqlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash kabi muhim vazifalar bu insonning yelkasiga yuk bo'lib tushgani, umrining oxiriga qadar bu ishlarini sharaf bilan uddalab o'tganini tan olishimiz kerak. 1989-yilda Islom Karimov O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasining birinchi kotibiga aylangan. Karimov savet respublikalari rahbarlari orasida birinchi bo'lib (1990-yil 24-mart), "prezident" titulini olgan. Taqqoslash uchun SSSR rahbari Mixail Gorbachyov 1990-yil 15-martda prezident deb atala boshlangan. Qozog'iston birinchi kotibi Nursulton Nazarboyev esa bir oy o'tib, 1990-yil 24-apreldan prezident bo'lgan. Islom Karimov 4 marotaba (1990, 2000, 2007 va 2015-yillarda) prezidentlik saylovlarida g'alaba qozongan. 1999-yil fevral oyida Toshkentda Islom Karimov hayotiga suiqasd uyushtiriladi. Vazirlar Mahkamasi yig'ilishi bo'lib o'tadigan hukumat binosi yaqinida avtomobil portlatiladi. Portlash oqibatida 16 kishi halok bo'ladi, yuzdan ortiq inson jarohatlanadi. Karimovning o'zi portlashdan jabrlanmagan. Prezident televideniyaedagi chiqishida ushbu portlash radikal islom vakillari tomonidan uyushtirish uchun tashkillashtirilganini aytgan. Karimov Afg'oniston masalasida AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik qilgan va yaqin aloqalar o'rnatgan. 2005-yilgi Andijon voqealaridan so'ng Karimov va G'arb o'rtasidagi munosabatlar sovuqlashgan. Natijada Islom Karimov Rossiya va Xitoy bilan aloqalarga katta e'tibor qarata boshlagan. Islom Karimov davlat rahbari sifatida rasmiy

tashrif bilan 125 marotaba xorijiy davlatlarga borgan. Islom Karimov saylovlar borasida rekordlarga ega. 2007- yilgi prezidentlik saylovlarida Karimov 91% saylovchi ishtirok etgan birinchi turda 90,76% ovoz olgan va bu bilan dunyo rekordlaridan birini o'rnatgan. Karimovning 25 yillik prezidentlik davrida uning xastalanganligi haqida hech qachon rasmiy xabar berilmagan.

Islom Abdug'aniyevich Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hududni yaratish tashabbuskori bo'lgan. Islom Karimov shaxmat o'ynashni yoqtirgan va ba'zida soatlab shaxmat stoli oldida o'tirgan. Karimovni Ispaniya qiroli "Fuqarolik xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. Islom Karimov O'zbekiston davlatini 27 yil- 1989- yil 23- iyunda birinchi kotib bo'lganda 2016-yil 2-sentabr, vafotiga qadar, mustaqil O'zbekiston Respublikasini 25 yil (1991-yil 31-avgustdan) boshqargan. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti 2016- yil 2-sentabr kuni 78 yoshida vafot etdi va 3-sentabr kuni Samarqand shahrida dafn etildi. Hayotda o'zidan biron-bir iz, yaxshi nom qoldirish tuyg'usi odamni kuch qudratga to'lgan, navqiron paytida ham, keksaygan chog'ida ham tark etmaydi. Hayotga muhabbat, hayotga tashnalik hissi odamzot qalbidan bir umr o'chmaydi.

XULOSA: Mustaqil davlat asoschisi, bosh me'mori. Butun umrini iymon va e'tiqod, poklik va halollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi. Islom Karimov ham shunday dahollardan biri edi. O'zbekiston xalqi birinchi prezidentimizni doim yaxshi so'zlar hamda ona Vatanimizning rivojiga ulkan hissalarini, komil insonliklarini ko'z yoshlari bilan eslashadi. Xalq bunday Vatandarparvar insonni unutishi albata qiyin! Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab har bir sohaga ulkan e'tibor qaratildi shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham tub burilish yuz berdi. Yildan yilga yoshlarga ko'rsatiladigan e'tibor ortib bordi. Jumladan, jahonning sanoqli mamlakatlaridagina mavjud majburiy 12 yillik bepul ta'lim tizimi yaratildi. Bir qancha oliy ta'lim muassasalarini biz kabi yoshlarni chuqur ta'lim olishi uchun eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan jihozlandi. Buning samarasi o'laroq, o'zbek yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblik shohsupasiga ko'tarilib kelmoqda. Yurtboshimiz har bir nutqida: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono, bilimli, va albatta baxtli bo'lishlari shart"-deb takror va takror ta'kidlar edi. Buni biz kabi yoshlarga bildirilgan yuksak darajali ishonch deb bilaman. Buguni o'tmishidan, ertasi bugunidan nurafshon bo'lgan yurtda yashayotganimdan fahrnaman. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning millat kelajagi yo'lida ko'rsatgan shijoati taqsinga sazovor. Bu kun tarix zarvaraqlariga oltin harflarda yozildi. Chunki, 1991-yil 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi. Binobarin, o'zbek xalqi mustabid zanjirlaridan ozod etilgan edi. Bundan soddadil xalqimizning ko'ksi tog'dek ko'tarildi. Milliy bayramlarning tiklanishi, din erkinligi, buyuk ajdodlarimiz xotiralari va ularning qutlug' qadamjolariga birinchi galda e'tibor qaratilib, xalqimizning qon- qoniga singib ketgan eng azaliy orzu-umidlari tiklandi. Endi xalqimiz qanday yashashni, zulmatni yorug'likdan ajratishni bildi. Xalqimizning ma'naviy merosini tiklash va uni yanada kamol topishi uchun keng imkoniyatlar ochib berish- ajdodlarimizning azaliy orzusi emasmi? Shu jumladan mustaqillik yillarida ma'naviy poklanish haqida gap ketganda O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishining ahamiyati kattadir. 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonun milliy ongning rivojlanishida, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida,



madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynaydi. Sobiq sho'rolar davridagi ta'lim tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, u davrlarda hatto O'zbekistonning o'zining milliy ta'lim tizimi joriy etilmagani ayanhli holatdir. Asosan ta'lim tizimi sobiq markazning hukmron mafkura manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratildi.

Ta'lim-tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma'naviyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi. Ta'lim tizimini har tamonlama, shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov yurtimizni boshqarishda beshta tamoyilga asoslangan. Jumladan birinchi tamoil- iqtisodning mafkuradan to'la xoli bo'lishi.

Ikkinchisi -davlat -bosh islohotchi, ya'ni biz o'tish davrida iqtisodning boshqarilishi tarafdorimiz. Uchinchi tamoyil-qonunning ustuvorligi. To'rtinchi-kuchli ijtimoiy siyosat. Chunki bizda aholining 48-50 foizini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi. Beshinchi tamoil- barcha siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga bosqichma -bosqich o'tishdir. Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non-tuzini yeganmiz. Hammamiz o'zimizni o'zbek sanaymiz. O'zbekligimizdan faxrlanamiz, g'ururlanamiz. Xalqqa va Vatanga sadoqat ota-onaga sadoqatdan boshlanadi. Ota-onasi rozi insondan Xudo ham rozi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zbek xalqining qalbida aziz, abadiy va barhayotdir.

#### **REFERENCES**

1. Yoshlarimiz-xalqimizning ishonchi va tayanchi/ I. Karimov. - T.: "Ma'naviyat", 2006.-96 b.
2. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li"/ I. karimov.-T. : 1992.
3. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch/. I. A. Karimov, -T. : "Ma'naviyat", 2008-yil nashri



## ODAM SAVDOSI JINOYATIGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 3-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13822171>

**Annotatsiya.** Dunyo xalqlarining jiddiy muammosiga aylangan odam savdosiga qarshi kurash barchaning e'tiborida qolmoqda. Jinoyatchilikning bu mudhish turiga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator tavsiyaviy va majburiy xarakterga ega bo'lgan hujjatlari qabul qilingan. Xususan, "Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushtlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya (1949 yil), "Qullik va qul savdosini, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to'g'risida"gi qo'shimcha konventsiya (1956 yil), "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash haqida"gi konventsiyani to'ldiruvchi " Odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonoma(2000yil) shu toifadagi xalqaro huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Afsuski, dunyo bo'ylab shuncha keng qamrovli amaliyot, tegishli targ'ibot-tashviqot olib borilishiga qaramay. Har yili millionlab insonlar "zamonaviy qullik", ya'ni odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ular orasida ayollar, qizlar, keksalar hatto yosh bolalar ham borligi judayam achinarli. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turtki bo'layotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish va ishga joylashish haqida yetarli ma'lumotga ega emaslidir.

**Kalit so'zlar:** Odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya, huquqiy madaniyat, huquqiy ong.

## DOLZARB ISSUES OF FIGHTING THE CRIME OF HUMAN TRAFFICKING

**Abstract.** The fight against human trafficking, which has become a serious problem of the peoples of the world, remains in everyone's attention. In order to combat and prevent this terrible type of crime, a number of recommendatory and mandatory documents of the United Nations have been adopted. In particular, the Convention for the Suppression of Trafficking in Persons and the Exploitation of Slavery by Third Parties (1949), the Convention on the Abolition of Slavery and the Slave Trade, and Institutions and Customs Similar to Slavery. Additional Convention (1956), Protocol on Suppression, Suppression and Punishment of Trafficking in Persons, Especially Women and Children, supplementing the Convention on Combating Transnational Organized Crime (2000) ) are international legal documents of this category. Unfortunately, despite such a wide-ranging practice and appropriate propaganda being carried out around the world. Every year, millions of people become victims of "modern slavery", that is, human trafficking. It is very sad that there are women, girls, old people and even young children among them. One of the main factors driving the development of this crime is that people do not have enough information about going abroad and getting a job.

**Key words:** Human trafficking, sexual exploitation, legal culture, legal consciousness.

## ДОЛЗАРЬ ВОПРОСЫ БОРЬБЫ С ПРЕСТУПЛЕНИЕМ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ

**Аннотация.** Борьба с торговлей людьми, ставшая серьезной проблемой народов мира, остается в центре внимания. В целях борьбы и предотвращения этого страшного вида преступлений принят ряд рекомендательных и обязательных документов ООН. В частности, Конвенция о пресечении торговли людьми и эксплуатации рабства третьими

лицами (1949 года), Конвенция об упразднении рабства и работорговли и Дополнительная конвенция об институтах и обычаях, сходных с рабством (1956 года). Протокол о пресечении, пресечении и наказании за торговлю людьми, особенно женщинами и детьми, дополняющий Конвенцию о борьбе с транснациональной организованной преступностью (2000 г.), являются международно-правовыми документами данной категории. К сожалению, несмотря на такую широкую практику и соответствующую пропаганду, которая ведется во всем мире. Ежегодно миллионы людей становятся жертвами «современного рабства», то есть торговли людьми. Очень печально, что среди них есть женщины, девушки, старики и даже маленькие дети. Одним из основных факторов, способствующих развитию этой преступности, является отсутствие у людей достаточной информации о выезде за границу и устройстве на работу.

**Ключевые слова:** Торговля людьми, сексуальная эксплуатация, правовая культура, правосознание.

### KIRISH

Bugungi kunda dunyoda odam savdosini uchta keng tarqalgan turi mavjud bo'lib, bular: jinsiy ekspluatatsiya (foxishabozlik), majburiy mehnat va odam a'zolarini sotishdir. Jinsiy ekspluatatsiya uchun asosan ayollar (shu jumladan qizlar) sotiladi. Ma'lumotlarga ko'ra ayollarning 72 foizi shu maqsadda sotilar ekan. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili dunyo bo'yicha 600-800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda. Majburiy mehnatga jalb qilinganlarning asosiy qismini esa erkaklar tashkil qilar ekan. Bu ko'rsatgich 85,7 foizni tashkil qilishi odam savdosidan jabr ko'rgan erkaklarning aksariyati majburiy mehnat orqali amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Bu jinoyatlarning asosiy sababi, tag zamiriga nazar tashlasak, ma'naviy qashshoqlik, ochlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsig qul bo'lishlikni ko'ramiz. Mana shunday iflos, jirkanch jinoyat bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmayopti.

Afsuski, fuqarolarimiz ham odam savdosi qurboniga aylanmoqda, buni ommaviy axborot vositalarini ko'rib, eshitib turibmiz. Bularning barchasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi qat'iy choralar ko'rishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko'rgan hamyurtlarimizni muhofaza etishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Huquq ustuvor bo'lgan davlatimizda inson huquqlarini, qonunlar himoyasini amalga oshiruvchi organlar borki, bu kabi illatlarni fosh etishda kechayu-kunduz tinmay ishlashmoqdalar. 2013-yil 30-iyul kuni BMT tomonidan Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston respublikasining odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha qonun hujjatlarini o'rganish va takliflar tayyorlash borasida bevosita Adliya vazirligi tashabbusi bilan shu kunga qadar ushbu qonunning qabul qilishi bilan hukumatimizning ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1993yil 19- avgustdagi 423- sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida boj yig'implari tariflariga izohlarning 6-bandiga, Vazirlar Mahkamasining 1999yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi nizomning 4-bandlariga tegishli tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Odam

savdosi bilan shug'ullanuvchi yirik jinoyatchi tashkilotlarning yildan yilga kuchayib borayotganligi ham ko'pchilikka sir emas.

Birlashgan millatlar tashkilotidan olingan ma'lumotlarga ko'ra ayollarning tovar sifatidagi dunyoviy savdosi ko'lami yiliga 12 milliard dollarga baxolanayotgan bo'lsa, har yilli odam savdogarlari qo'lga ikki millionga yaqin insonlar tushayapti. Butun dunyoda hozirda odam savdosi jinoyati turli ko'rinishlarda: insonlarni kamsitish, ularning huquqlarini tan olmaslik, erkinliklarini poymol qilgan holda turli maqsadlarda foydalanish, qul sifatida majburan sotib yuborish, foxishabozlikda foydalanish va boshqa shakllari ko'plab uchramoqda.

### **ASOSIY QISM**

Inson insonni sotishi naqadar ayanchli va jirkanch holat ekanligini hammamiz bilamiz.

Ammo, ming afsuski oramizda shunday qabih ishlarni qiladigan nobakor insonlar ham mavjud.

### **Odam savdosi o'zi nima?**

Odam savdosi- kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish yo'li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odam savdosiga qarshi kurashishga doir faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi. Ammo davlatimiz tomonidan ushbu jinoyatchilikka qarshi ko'plab qonunlar chiqishiga qaramasdan, ayrim insonlar tomonidan odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar uchrab turibdi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasi mazmuniga ko'ra, odam savdosi deganda, odamni olish-sotish yoki odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

Biroq, shunday bo'lsada, hali-hanuz odam savdosiga chek qo'yilmadi. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar zamonga monan ish yuritishni boshladilar. Hozirda rivojlanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar ularning ov quroliga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, "chet elda ishlash", "davolanish" hamda "arzon turizm" sarlavhalari bilan odamlarni aldab xorijda sotib yuborish holatlari mavjud. Xalqimizda bir gap bor: kasalni davolagandan ko'ra uning oldini olgan afzal. Shunday ekan, siz-u biz bunday odamfuruslarning qarmog'iga ilinmasligimiz uchun avvalo o'z huquqlarimizni bilishimiz, huquqshunoslar bilan maslahatlashib chet el safariga otlanishimiz lozim. Shuni unutmaylik, tuzoq hech qachon oshkora joyga qo'yilmaydi.

**XULOSA.** Odam savdosi faqatgina O'zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto'g'ri bo'ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ko'plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini havotirga solmoqda. Eng achinarlisi, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatchilikning keng quloq yozilishiga: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari-ishsiz yurgan fuqarolar, turmush hayotida ko'p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota-onasining e'tibori va qaramog'idan chetga qolgan voyaga yetmagan shaxslarning go'yoki ularning muommolarini hal qilgan kabi ko'rinib, o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanayotganligi.

Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, odam savdosiga qarshi kurash borasida aholining turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush- hayotimizga soladigan xavfli va salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya'ni, aholining gavjum joylarida, mahallalarda, turli xil ta'lim muassasalarida, davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir.

#### **REFERENCES**

1. "2020 yil 17 avgustda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-633-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni.
2. "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash haqida"gi konvensiya
3. "Qullik va qul savdosini, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to'g'risida"gi qo'shimcha konvensiya (1956 yil)

## SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONNING MA’NAVY-MADANIY QARAMLIGI HAQIDA

Parvez Quadratillayev Kamol o‘g‘li

O‘zbekiston milliy univerteti tarix fakulteti yo‘nalish mamlakatlar va mintaqalar  
ikkinchi kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13823477>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada, o‘zbek millatiga sovet davrida ko‘rsatilgan zug‘m, sovet hokimiyati davrida bizning millatning ma‘naviy - madaniy qaramligi oqibatida nimalar ro‘y bergani va hozirda ham mavjudligi haqida so‘z yurutilgan.

*Kalit so‘zlar:* sovet, hokimiyat, millatchilik, o‘zbek, ma‘naviy-madaniy qaramlik.

## ON SPIRITUAL-CULTURAL DEPENDENCE OF UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD

*Abstract.* This article talks about the oppression shown to the Uzbek nation during the Soviet era, what happened during the Soviet period as a result of the spiritual and cultural dependence of our nation and what is still happening now.

*Key words:* Soviet, power, nationalism, Uzbek, spiritual and cultural dependence.

## О ДУХОВНО-КУЛЬТУРНОЙ ЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

*Аннотация.* В данной статье рассказывается о притеснениях, проявленных к узбекскому народу в советский период, о том, что произошло и существует до сих пор в результате духовной и культурной зависимости нашего народа в советский период.

*Ключевые слова:* Советский Союз, власть, национализм, узбек, духовная и культурная зависимость.

Bizga ma‘lumki, sovet davrida o‘zbek millatimiz juda ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi. Bu davrda millatimiz o‘z ma‘rifat o‘chog‘idan ajratildi, millatimizdan o‘z madaniyati tortib olindi, bu tadbirlar o‘zbek millatining ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan bo‘lsada millatimiz vakillari sho‘rolar tuzumidan hadiksirashgan edi.

Sho‘rolar tuzumi bizning millatga eng qabix jinoyatlarni ularning ko‘z o‘ngida sodir etishdi, millatimiz fuqarolarining odobini qo‘rqoqlikga yo‘ydilar.

Sovet Sotsialistik Respublikalari ittifoqi, SSSR, Sovet Ittifoqi sobiq Rossiya imperiyasi hududlaning eng katta qismida 1922-91-yillarda mavjud bo‘lgan musta bid davlat. “SSSRni tashkil etish to‘g‘risida” deb atalgan shartnoma (1922-yil)ga muvofiq, uning tarkibiga xalqlarning xohish irodasiga zid ravishda:

1. Rossiya (RSFSR);
2. Ukraina (USSR);
3. Belarus (BSSR);

To‘g‘ri bu davrda sotqinlar, millat kushandalari ko‘p foyda ko‘rdilar. Sotsialistlar bizning hududga kirib kelishganida, o‘z g‘oyalarini ilgari surib millat ma‘rifatining o‘chog‘iga juda qattiq zarba berishdi. Ularning bunday qilgan amallari bizning madaniyatimizga, ma‘naviyatimizga, ma‘rifatimizga qattiq salbiy ta‘sir o‘tkazdi. Uning ta‘siri hozirgacha sezilib kelmoqda, chunki, millatimizning ba‘zi sust ma‘rifatlilari haligacha o‘z ma‘rifatini



mukammal tushunib yeta olishmagan.

Сон - это ежедневный цикл отдыха, характеризующийся снижением уровня сознания, изменением физиологических показателей и особым состоянием мозговой активности. Хотя мы еще не полностью понимаем все аспекты сна, современные исследования позволили нам раскрыть многие механизмы, регулирующие этот важный процесс.

## Мозговые структуры, регулирующие сон

Сон контролируется сложной системой мозговых структур, включая гипоталамус, ретикулярную формацию и кора головного мозга.

•Гипоталамус: Эта область мозга играет ключевую роль в регуляции циркадного ритма - естественного 24-часового цикла сна и бодрствования. В гипоталамусе располагается супрахиазматическое ядро (SCN), которое является "внутренними часами" организма. SCN синхронизируется с циклами света и темноты, регулируя выработку мелатонина, гормона, который способствует сну.

•Ретикулярная формация: Эта сеть нейронов, проходящая через ствол мозга, регулирует уровень бодрствования. Ретикулярная формация активируется при бодрствовании и ингибируется при сне.

•Кора головного мозга: Кора головного мозга играет роль в процессах сна и бодрствования, а также в обработке информации, полученной во сне.

## Нейромедиаторы и сон

Нейромедиаторы - это химические вещества, передающие сигналы между нейронами. Некоторые нейромедиаторы активируют сон, а другие - бодрствование.

- Ацетилхолин: Этот нейромедиатор связан с бодрствованием и REM-сном (фазой быстрого движения глаз).

- Серотонин: Этот нейромедиатор связан с регуляцией настроения, а также с некоторыми стадиями сна.

- Мелатонин: Этот гормон, вырабатываемый шишковидной железой, способствует сну. Его выработка увеличивается в темноте и снижается на свету.

#### **Стадии сна**

Сон проходит через несколько стадий, которые отличаются физиологическими и мозговыми характеристиками.

- Стадия 1: Переходное состояние между бодрствованием и сном.

- Стадия 2: Легкий сон, характеризующийся замедлением сердечного ритма и дыхания.

- Стадия 3 и 4: Глубокий сон, характеризующийся медленными волнами мозговой активности и усилением мышечного тонуса.

- REM-сон: Фаза быстрого движения глаз, характеризующаяся быстрой мозговой активностью, снижением мышечного тонуса, и часто яркими снами.

#### **Генетика и сон**

Генетика также играет важную роль в регуляции сна. Некоторые гены связаны с регуляцией циркадного ритма, выработкой нейромедиаторов и другими процессами, влияющими на сон.

#### **Сонные расстройства**

Нарушения сна встречаются довольно часто и могут влиять на качество жизни. Наиболее распространенными сонными расстройствами являются:

- Бессонница: Трудности с засыпанием, прерывистый сон, раннее пробуждение.
- Нарколепсия: Неконтролируемое засыпание в течение дня.
- Снохождение: Хождение во сне.

#### **Заключение**

Сон - это неотъемлемая часть здоровья. Понимание механизмов сна позволяет нам лучше понимать его роль в жизни и разрабатывать новые методы лечения сонных расстройств.

#### **REFERENCES**

1. Principles and Practice of Sleep Medicine by Meir H. Kryger, Thomas Roth, William C. Dement
2. Sleep Disorders and Sleep Medicine: Basic Science, Clinical Practice, and Treatment by Christian H. Benedict, Robert L. Bixler
3. Sleep: A Very Short Introduction by Paul M. Allen
4. The Science of Sleep by Steven W. Lockley
5. Sleep: The Myth of 8 Hours by Aric Sigman
6. Journal of Sleep Research
7. Sleep
8. Sleep Medicine Reviews

## QANDLI DIABETNING HAYOT FAOLIYATIGA TASIRI

Jo'raqulov Jahongir Sirojiddin o'g'li

Muallif.

tel: +998 (88) 396- 73-77 *email: [jurakulovjahongir02@gmail.com](mailto:jurakulovjahongir02@gmail.com)*

Tog'ayeva Gulnora Siddiqovna

Ilmiy raxbar.

tel:+998 (91) 538-42-55 *email: [gulnora.togaeva1981@mail.ru](mailto:gulnora.togaeva1981@mail.ru)*

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son Davolash ishi 4-kurs 421-guruh,  
Samarqand, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13825012>

**Annotatsiya.** Qandli diabet - asosiy energiya manbasi bo'lgan glyukozaning hujayralarga kirmasligi bilan kechadigan kasallik bo'lib, organizmda metabolik jarayonlar noto'g'ri ishlay boshlaydi. Natijada insulin darajasi pasayadi va qonda shakar miqdori oshadi. Qandli diabetda qonda qand moddasi keskin ko'payib, siydik bilan chiqib turadi tarkibida qand moddasi bo'ladi, tashnalik, ozib ketish, quvvatsizlik, badan qichishishi va boshqalar alomatlar kuzatiladi.

Kasallikning irsiy yoki hayotda orttirilgan, shuningdek, insulinga bog'liq (diabetning 1 turi) va insulinga bog'liq bo'lmagan (diabetning 2 turi) turi farq qilinadi. Diabetning 1 turi ko'pincha o'smirlik yoshida uchraydi. Bunda bemor organizmida me'da osti bezi hujayralari insulin ishlab chiqara olmaydi va ularni davolashda qand miqdorini pasaytirish maqsadida insulin preparatlari qo'llanadi. Qandli diabetning 2 turida me'da osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me'yorida yoki undan sal yuqoriroq bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Laktatsidiotik koma, Gipoglikimiya, Diabetik retinopatiya, Laktatsidiotik koma, Diabetik nefropatiya, Insulinorezistentlik, Gangrena.

### IMPACT OF DIABETES ON LIFE ACTIVITIES

**Abstract.** Diabetes is a disease characterized by the inability of glucose, the main source of energy, to enter the cells, and metabolic processes in the body begin to malfunction. As a result, insulin levels decrease and blood sugar increases. In diabetes, the sugar content in the blood increases sharply, the urine contains sugar content, thirst, weight loss, weakness, body itching and other symptoms are observed. The type of the disease is hereditary or acquired in life, as well as insulin-dependent (type 1 diabetes) and non-insulin-dependent (type 2 diabetes).

Type 1 diabetes often occurs in adolescence. In this case, the cells of the pancreas cannot produce insulin in the patient's body, and in their treatment, insulin preparations are used to reduce the amount of sugar. In type 2 diabetes, insulin production from the pancreatic islet cells is preserved, with insulin levels in the blood at or slightly above normal.

**Key words:** Lactic acid coma, Hypoglycemia, Diabetic retinopathy, Lactic acid coma, Diabetic nephropathy, Insulin resistance, Gangrene.

### ВЛИЯНИЕ ДИАБЕТА НА ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Аннотация.** Сахарный диабет – заболевание, характеризующееся неспособностью глюкозы – основного источника энергии – поступать в клетки, и обменные процессы в организме начинают нарушаться. В результате снижается уровень инсулина и повышается уровень сахара в крови. При диабете резко

увеличивается содержание сахара в крови, моча содержит сахар, наблюдаются жажда, похудание, слабость, зуд тела и другие симптомы. Тип заболевания бывает наследственным или приобретенным при жизни, а также инсулинозависимым (сахарный диабет 1 типа) и инсулиннезависимым (диабет 2 типа). Диабет 1 типа часто возникает в подростковом возрасте. В этом случае клетки поджелудочной железы не могут вырабатывать инсулин в организме больного, и при их лечении используются препараты инсулина, снижающие количество сахара. При диабете 2 типа продукция инсулина островковыми клетками поджелудочной железы сохраняется, при этом уровень инсулина в крови находится на уровне нормы или немного выше нормы.

**Ключевые слова:** Молочнокислая кома, Гипогликемия, Диабетическая ретинопатия, Молочнокислая кома, Диабетическая нефропатия, Инсулинорезистентность, Гангрена.

**Kirish qismi:** Qandli diabet (lot. diabetes mellitus, «saxar kasalligi») — glyukoza ning oʻzlashtirilishi buzilishi bilan bogʻliq boʻlgan va insulin gormonining nisbiy yoki mutlaq yetishmovchiligi yuzaga keladigan endokrin kasalliklar guruhi. Buning oqibatida giperglikemiya — qonda qand miqdorining turgʻun oshishi kuzatiladi. Kasallik surunkali kechishi, shuningdek uglevod, yogʻ, oqsil, mineral va suv-tuz metabolizmi buzilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda qandli diabetga irsiy moyillik isbotlangan hisoblanadi. 1-tip diabetda genetik geterogenlik kuzatiladi, yaʼni kasallik turli gen guruhlari tomonidan chaqirilishi mumkin. 1-tip patologiyani aniqlashda laborator-klinik koʻrsatkich sifatida qonda meʼda osti bezining  $\beta$ -hujayralariga antitanalarning aniqlanishi xizmat qiladi. Nasldan-naslga oʻtish xarakteri toʻliq oʻrganilmagan.

Diabetni patogenetik asoslari kasallik turiga bogʻliq. Bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki turi farqlanadi. Zamonaviy endokrinologiya kasallikning tasniflanishini shartli deb atasa ham, uning har bir turida davolash strategiyasini belgilash muhim ahamiyatga ega. Kasallikni jiddiyligiga qarab tasniflash juda muhim sanaladi. Asosan glikemiya darajasiga qarab farqlanadi.

Darajalanish tashxis qoʻyishda yordam beradi va asoratlarni oldini olishda muhim rol oʻynaydi. Tibbiy yozuvlarga qarab kasallik qanday kechayotganini, asoratlar ogʻir-yengilligini bilib, farqlash mumkin.

**1-daraja:** Kasallanish orasida eng yaxshi koʻrsatkich hisoblanib, har qanday davolash jarayoni kasallikni ana shu darajaga tushirishga qaratilgan boʻladi. Qand miqdori insulin bilan butunlay qoplanadi, glyukoza darajasi 6-7 mmol / l atrofida, glyukozuriya (glyukoza siydik bilan ajralishi) uchramaydi, boshqa koʻrsatkichlar ham meʼyorda boʻladi. Kasallik fonida rivojlangan patologiyalar uchramaydi, asoratlar kuzatilmaydi. Bunday natijaga davolash kursiga toʻliq amal qilish va parhez tutish yordamida erishiladi.

**2-daraja:** Bu darajada insulin qand miqdorini biroz qoplay olmayotganidan dalolat beradi. Koʻzlar, buyraklar, yurak, qon tomirlari, oyoqlarda, nerv tolalarida shikastlanishlar mavjud boʻladi. Qonda glyukoza miqdori biroz oshgan va 7-10 mmol / l atrofida boʻladi, glyukozuriya uchramaydi. Boshqa koʻrsatkichlar ham biroz meʼyordan oshgan boʻladi.

**3-daraja:** Bu darajada kasallik faol rivojlanayotgani va uni dori-darmonlar bilan ushlab turib boʻlmasligi kuzatiladi. Glyukoza miqdor 3-14 mmol / l atrofida, glyukozuriya doimiy boʻladi, yuqori proteinuriya kuzatiladi, shikastlangan organlar asta-sekin belgi berishni boshlaydi.

Ko'rish o'tkirligi tez pasayib ketadi, gipertoniya kuzatiladi, oyoqlarda va barmoq uchlarida sezuvchanlik kamayadi.

**4-daraja:** Bu darajada mutlaq dekompensatsiya kuzatiladi va qilgan muolajalar (agar bo'lsa) umuman foyda bermayotganidan dalolat beradi. Glyukoza miqdori jiddiy raqamlargacha (15-25 mmol / l va undan ko'p) ko'tariladi, qand miqdorini tushirishga urinish yaxshi samara bermaydi.

Siydik orqali oqsil ajralishi yanada faollashadi. Buyraklar yetishmovchiligi yuzaga keladi, terida yaralar va gangrena uchrashi mumkin. Komaga tushish xavfi o'ta yuqori.

**Alomatlari:** Qandli diabet belgilari bosqichma-bosqich rivojlanadi va sekinlik bilan namoyon bo'la boshlaydi. Asosan qonda glyukoza miqdorining yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Bemorlarda kasallik paydo bo'la boshlanganida quyidagi asosiy alomatlar seziladi

- Me'da osti bezining endokrin hujayralari tomonidan yetarli miqdorida insulin ishlab chiqarilmasligi.

- Insulinning organizm to'qimalari hujayralari bilan o'zaro ta'sirlashuvining buzilishi (insulinorezistentlik). Buning sabablariga:

Bundan tashqari kasallikning ikkilamchi belgilari ham mavjud. Ular asta-sekin rivojlanadi va har qanday turdagi diabet uchun xarakterlidir:

- Doimiy ravishda og'izning quruqligi;
- Tana vaznining kamayishi yoki birdan oshib ketishi;
- Terining kuchli qichishi va quruqlashishi;
- Teri va yumshoq to'qimalarda yiringli yarachalar paydo bo'lishi;
- Mushaklarning kuchsizligi va haddan tashqari terlash;
- Har qanday yaralarning qiyin tuzalishi;
- Ko'rish buzilishi;
- Bosh og'rig'i, aylanishi va aqliy faoliyatning pasayishi;
- Yurak og'rig'i, jigarning kattalashishi;
- Oyoqlarda og'riq va yurishning buzilishi;
- Teri, ayniqsa oyoqlarda sezgirlik kamayishi;
- Yaralar paydo bo'lishi;
- Qon bosimining oshishi;
- Yuz va oyoq shishishi;
- Bemordan atseton hidi kelishi.

**Asosiy qism:** Qonda glyukoza miqdorining me'yordan oshib ketishi qandli diabetning birinchi alomati hisoblanadi. Inson organizmida insulin ishlab chiqarilishi uchun me'da osti bezi hujayralari (beta-hujayralar) javobgar. U gormon hujayralarga glyukozani o'zlashtirishga yordam beradi. Qandli diabetda insulin kam miqdorda ishlab chiqariladi, qonda glyukoza miqdori oshadi. Biroq, glyukoza insulinsiz o'zlashtirila olmasligi sababli hujayralarda glyukoza yetishmovchiligi kuzatiladi.

Bu metabolik kasallik irsiy yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Insulin yetishmasligida terida yiringli va boshqa kasalliklar paydo bo'lishi, tishlar, buyrak, asab tizimi shikastlanishi, ateroskleroz, stenokardiya, gipertoniya rivojlanishi, ko'rishning buzilishi kabi ikkilamchi



patologiyalar kuzatiladi.

- Irsiyat. Albatta, kasallik ta'sir etuvchi omillar bo'lmaganda rivojlanmaydi, lekin moyillik yuqori bo'ladi.

- Semizlik. Ortiqcha vazn ikkinchi turdagi diabet shakillanishiga olib keladi.

- Kasalliklar. Insulin ishlab chiqarish uchun javobgar  $\beta$ -hujayralari shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar. Ularga pankreatit, me'da osti bezi saratoni, boshqa endokrin bezlar kasalliklari kiradi.

- Virusli infeksiyalar — qizamiq, suvchechak, yuqumli gepatit va boshqa kasalliklar.

Ushbu infeksiyalar diabet rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, xavf guruhida bo'lgan insonlar uchun.

- Asabiylashish, stress. Stress, asabiylashishdan yiroq bo'lish tavsiya etiladi.

- Yosh. Yosh ortishi bilan har o'n yilda diabet rivojlanish ehtimoli ikki barobarga ortadi.

### **Patogenezi:**

1. Me'da osti bezining endokrin hujayralari tomonidan yetarli miqdorida insulin ishlab chiqarilmasligi.

2. Insulinning organizm to'qimalari hujayralari bilan o'zaro ta'sirlashuvining buzilishi (insulinorezistentlik). Buning sabablariga:

Yuqorida aytilganidek, qandli diabet ota-onadan farzandlarga o'tishi mumkin. Ota-onaning biri ushbu xastalik bilan kasallangan bo'lsa, uning nasl surishi ehtimoli 1-tip uchun 10%, 2-tip uchun 80% ni tashkil etadi.

### **O'tkir asoratlari**

- **Diabetik ketoatsidoz** — qonda yog'larning oraliq metabolizmi mahsulotlari to'planib qolishi oqibatida rivojlanadigan og'ir holat. Hushdan ketish va organizmning hayotiy zarur funksiyalari buzilishiga olib kelishi mumkin.

- **Gipoglikemiya** — qonda glyukozaning me'yordan pasayib ketishi (odatda 3,3 mmol / l dan past). Qandni pasaytiruvchi preparatlar peredozirovkasi, hamrohlik qiluvchi kasalliklar, noodatiy jismoniy faollik yoki yetarli ovqatlanmaslik, alkogol qabul qilish natijasida sodir bo'lishi mumkin. Birinchi yordam bemorga shakar eritmasi yoki boshqa shirin ichimlik berish, uglevodga boy mahsulotlar qabul qilish (tezroq so'rilishi uchun til ostiga shakar yoki asal solish mumkin), imkon bo'lganda mushak orasiga glyukagon preparatlar, vena ichiga glyukozaning 40% li eritmasini kiritish.

- **Giperosmolyar koma** — asosan anamnezida 2-tip diabet bo'lgan yoki bo'lmagan keksa bemorlarda kuzatiladi va kuchli suvsizlanish bilan bog'liq. Ko'pincha bir necha kundan bir haftagacha davom etadigan poliuriya va polidipsiya kuzatiladi. Tezkor gospitalizatsiya uchun hayotiy ko'rsatkich sanaladi.

- **Laktatsidiotik koma** — qonda sut kislotasi to'planishi tomonidan chaqiriladi. Asosan 50 yoshdan oshgan bemorlarda yurak-tomir, jigar yoki buyrak yetishmovchiligi, to'qimalarning kislorod bilan yetarlicha ta'minlanmasligi fonida sodir bo'ladi. Uyquchanlik, hushdan ketish, nafas olish buzilishi, Kussmaul nafasi yuzaga kelishi, arterial bosimning pasayishi, peshob kelishining kamayishi (oliguriya) yoki umuman bo'lmasligi (anuriya) kuzatiladi.

### **Kechki asoratlari**

• Diabetik retinopatiya — ko'z to'r pardasining mikroanevrizmalar, nuqtali va dog'li qon quyilishlar, qattiq eksudatlar, shishlar, yangi tomirlar shakllanishi ko'rinishida shikastlanishidir.

Ko'z tubida qon quyilishi bilan yakunlanadi, to'r pardaning ko'chishiga olib kelishi mumkin. Ko'proq 2-tip diabetda kuzatiladi. O'rta va keksa yoshdagi bemorlarda ko'rlikning asosiy sababchisidir.

• Diabetik mikro- va makroangiopatiya — tomirlar o'tkazuvchanligining buzilishi, ularning sinuvchanligi oshishi, trombozlarga va ateroskleroz rivojlanishiga moyillik.

• Diabetik polineuropatiya — ko'pincha ikki taraf lama periferik neyropatiya ko'rinishida qo'l va oyoqning uch qismlarida boshlanadi. Og'riq va harorat sezishning pasayishi — neyropatik yara va jarohatlar rivojlanishida eng asosiy omildir. Sababi nerv to'qimalari oziqlanishi buzilishi. Sezgining buzilishi osonlikcha yuzaga keladigan jarohatlarga olib keladi.

Nerv faoliyatini tiklash uchun tiokta kislotasi saqlagan preparatlar yordam beradi. U tanadagi uglevod va lipid almashinuvini tiklaydi va asab to'qimalarining fiziologik jarayonlari normallashtiradi.

• Diabetik nefropatiya — buyraklarning shikastlanishi, dastlab mikroalbuminuriya, keyin proteinuriya ko'rinishida. Surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanishiga olib keladi.

• Diabetik artropatiya — bo'g'imlarda og'riq, «qarsillash», harakatning cheklanishi, sinovial suyuqlik miqdorining kamayishi va uning yopishqoqligi ortishi.

• Gangrena — angiopatiya natijasida qon aylanishi buzilishi kuzatiladi. Uzoq vaqt davom etgan hollarda qo'l-oyoqlarda gangrenalar yuzaga kelishi mumkin. Bu qaytarilmas jarayon bo'lib, shikastlangan qism amputatsiya qilinishi talab etiladi.

**Tashxislash:** Agar kasallik mavjudligiga shubha bo'lsa uni tasdiqlash yoki inkor qilish kerak bo'ladi. Buning uchun bir qator laboratoriya va instrumental diagnostik usullar bor va bu tahlillar yordamida kasallikka aniq tashxis qo'yilishi mumkin. Ularga:

- Doimiy ravishda og'izning quruqligi;
- Tana vaznining kamayishi yoki birdan oshib ketishi;
- Terining kuchli qichishi va quruqlashishi;
- Teri va yumshoq to'qimalarda yiringli yarachalar paydo bo'lishi;
- Mushaklarning kuchsizligi va haddan tashqari terlash;
- Har qanday yaralarning qiyin tuzalishi;
- Ko'rish buzilishi;
- Bosh og'rig'i, aylanishi va aqliy faoliyatning pasayishi;
- Yurak og'rig'i, jigarning kattalashishi;
- Oyoqlarda og'riq va yurishning buzilishi;
- Teri, ayniqsa oyoqlarda sezgirlik kamayishi;
- Yaralar paydo bo'lishi;
- Qon bosimining oshishi;
- Yuz va oyoq shishishi;
- Bemordan atseton hidi kelishi.

**Davolash:** Hozirgi kunda qandli diabetni davolash ko'pchilik holatlarda simptomatik hisoblanadi va mavjud alomatlarini bartaraf etishga qaratiladi. Diabetni davolashda shifokorning

asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Uglevod almashinuvini komponentsatsiya qilish;
- Asoratlarni oldini olish va davolash;
- Tana vaznini me'yorga keltirish;
- Bemorga tushuncha berish.

**Profilaktika:** Afsuski, ko'p holatlarda birinchi turdagi diabetni oldini olish murakkab vazifadir. Chunki uning asosiy sabablari irsiy omillar va ko'plab kasalliklar sanaladi. Lekin kasallik hammada ham rivojlanavermaydi. Olimlar ko'krak suti bilan ko'proq oziqlangan bolalarda qandli diabet kamroq uchrashini ta'kidlashadi, ammo bu hali isbotlanmagan. Ikkinchi turdagi diabetda esa umuman boshqacha holat. Chunki u noto'g'ri ovqatlanish va hayot tarzi natijasida shakllanadi, shuning uchun profilaktik chora-tadbirlarni qo'llasa bo'ladi, demak:

- Tana vaznini normallashtirish;
- Qon bosimi va yog'lar almashinuvini nazorat qilish;
- Yengil hazm bo'ladigan ovqat iste'mol qilish;
- Jismoniy faollikka amal qilish va shu bilan birga haddan ziyod zo'riqishlardan o'zini tiyish

**Xulosa:** Tadqiqot shu paytgacha faqat ikki ko'rinishga ega deb hisoblab kelingan. Biroq biz hali ma'lum bo'lgan yangi turlari haqida ko'p ma'lumotlarni bilishimiz zarur. Shundagina ular tufayli azob chekayotgan bemorlarning asl holati borasida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

#### **REFERENCES**

1. Williams Textbook of Endocrinology"
2. Endocrinology" by Mac Hadley and Jon E. Levine
3. "Basic and Clinical Endocrinology" by Francis S. Greenspan
4. B.Shagzatova endokrinologiya

## O‘ZBEK TILI KORPUSIDA TERMINLARNING QIDIRUV VA TAHLIL USULLARI

Z.Z.Kadirova

Termiz davlat universiteti o‘zbek  
filologiyasi fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrası dotsenti, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13829946>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilish usullari ko‘rib chiqiladi. Terminologiyani tizimli o‘rganishning dolzarbligi va ilmiy-tadqiqot ishlarida zamonaviy korpus lingvistikasi vositalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Terminlarni korpusda qidirish uchun qo‘llaniladigan usullar, ular orasidagi kontekstual bog‘liqlik va qidiruv algoritmlarining afzalliklari batafsil bayon etiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilidagi terminlarni identifikatsiya qilish va ularni qo‘llanish chastotasini aniqlash uchun ilg‘or texnologik yechimlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda terminlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari ham e‘tiborga olinadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili korpusi, terminologiya, qidiruv usullari, tahlil usullari, korpus lingvistikasi, semantik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik xususiyatlar.

### METHODS OF SEARCH AND ANALYSIS OF TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE CORPUS

**Abstract.** This article examines the methods of searching and analyzing terms in the corpus of the Uzbek language. The relevance of the systematic study of terminology and the effectiveness of the use of modern corpus linguistics tools in research work are analyzed. The methods used to search for terms in the corpus, the contextual relationships between them, and the advantages of search algorithms are described in detail. Also, the article analyzes advanced technological solutions for identifying terms in the Uzbek language and determining their frequency of use. In this process, the semantic, morphological and syntactic features of the terms are also taken into account.

**Key words:** Uzbek language corpus, terminology, search methods, analysis methods, corpus linguistics, semantic analysis, morphological analysis, syntactic features.

### МЕТОДЫ ПОИСКА И АНАЛИЗА ТЕРМИНОВ В КОРПУСЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы поиска и анализа терминов в корпусе узбекского языка. Анализируется актуальность систематического изучения терминологии и эффективность использования современных инструментов корпусной лингвистики в исследовательской работе. Подробно описаны методы, используемые для поиска терминов в корпусе, контекстуальные связи между ними и преимущества алгоритмов поиска. Также в статье анализируются передовые технологические решения по идентификации терминов в узбекском языке и определению частоты их употребления. При этом учитываются также семантические, морфологические и синтаксические особенности терминов.

**Ключевые слова:** корпус узбекского языка, терминология, методы поиска, методы анализа, корпусная лингвистика, семантический анализ, морфологический анализ, синтаксические особенности.

Zamonaviy lingvistika taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri korpus lingvistikasi bo‘lib, u tillarni kompyuter texnologiyalari yordamida o‘rganish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, terminologiyani tizimli ravishda o‘rganish va tahlil qilishda korpus lingvistikasi vositalari keng qo‘llanilmoqda. O‘zbek tili korpusi ushbu jarayonda muhim manba sifatida xizmat qiladi, chunki u tilning turli qatlamlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Terminlar ilm-fan, texnika, iqtisodiyot va boshqa ko‘plab sohalarda asosiy tushuncha va g‘oyalarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, terminlarning to‘g‘ri identifikatsiyasi va qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tili korpusida terminlarning qidiruv va tahlil usullarini o‘rganish, tilshunoslikning amaliy jihatlaridan biri bo‘lib, ilmiy-tadqiqot ishlarida terminlarni aniqlash, ularning qo‘llanish chastotasi va ma‘nodoshligini tahlil qilish orqali tilning boy imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilishda qo‘llaniladigan ilg‘or usullar va texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, terminologiyani ilmiy-tahliliy jihatdan chuqur o‘rganish ehtiyojidan kelib chiqadi va o‘zbek tili korpusida terminologik birliklarni to‘g‘ri va samarali tadqiq qilishga qaratilgan.

O‘zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilish usullari zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korpus lingvistikasining rivojlanishi bilan terminologiyani o‘rganishning yangi imkoniyatlari ochilib, ilmiy-tadqiqot ishlarida yuqori aniqlik va samaradorlikka erishish imkoniyati yaratildi. Terminlar tilda faqatgina ma‘lum bir soha vakillari tomonidan ishlatiladigan maxsus so‘zlar sifatida emas, balki keng ommaga tushunarli bo‘lishi kerak bo‘lgan tushunchalar to‘plami sifatida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli, terminologik birliklarning o‘zbek tili korpusida qanday qidirilishi va tahlil qilinishi, ularning ilmiy tadqiqotlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

O‘zbek tili korpusida terminlarni qidirish ko‘plab zamonaviy dasturlar va qidiruv tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda terminologik birliklarning tez-tez uchraydigan shakllari va ularning kontekstdagi qo‘llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Terminlar til korpusida ko‘p uchragan hollarda, ularning qo‘llanish chastotasi orqali ma‘lum tahlillarni amalga oshirish mumkin. Masalan, terminning qaysi kontekstda ko‘proq ishlatilishi, uning ma‘no doirasini kengaytirishga yoki toraytirishga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslarga o‘zbek tilidagi terminlar bazasini shakllantirishda qo‘l keladi[1, 67-78].

Taniqli olim G. Mahmudovning fikricha, terminlarni qidirish jarayonida ularning sinonimik va antonimik qatlamlarini ham o‘rganish muhimdir. Chunki terminlar ba‘zan o‘zaro sinonim yoki antonim sifatida ishlatilishi mumkin va bu ularning aniq ma‘nosini tushunishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi[2, 45-56]. Masalan, "ta‘lim" va "o‘qitish" tushunchalari sinonimlar bo‘lsa-da, turli kontekstlarda turlicha ma‘no yukini berishi mumkin. Bu kabi tahlillarni korpus vositasida amalga oshirish tadqiqotchilarga terminlarni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Terminlarning semantik tahlili ularning ma‘no qatlamlarini ochib berishga yordam beradi.

Bu usul yordamida o‘zbek tili korpusida terminlar qanday semantik yukka ega ekanligi va ular qaysi kontekstlarda ko‘proq ishlatilishi o‘rganiladi. Masalan, "kompyuter" va "texnologiya" kabi so‘zlar ilm-fan va texnika sohasi uchun umumiy, keng ma‘nodagi terminlar bo‘lib, ularning qo‘llanilishi va ma‘nosi korpusdagi turli tekstlar yordamida tahlil qilinishi mumkin. Bu jarayonda

semantik tahlil usullaridan foydalanib, terminlarning ma'nodoshligi va ma'no doiralari aniqlanadi[3, 102-115].

Semantik tahlilning yana bir muhim jihati terminlarning konnotativ ma'nosini aniqlashdir.

Ba'zi terminlar faqat denotativ ma'noga ega bo'lsa, ba'zilari konnotativ ma'noni ham o'z ichiga oladi. Masalan, "tibbiyot" termini faqatgina ma'lum bir kasb yoki soha bilan bog'liq emas, balki uning atrofida qo'shimcha konnotatsiyalar ham mavjud. Ushbu konnotatsiyalarni aniqlash uchun korpus lingvistikasi usullaridan foydalanish terminlarni yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi[4, 89-98].

Terminlarni qidirish va tahlil qilishda ularning morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Morfologik tahlil yordamida terminlarning tuzilishi, ular qanday morfemalardan tashkil topganligi, qaysi morfologik shakllarda ishlatilishi kabi jihatlar aniqlanadi. O'zbek tilida terminlarning ko'plab qismi o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularning shakllanishiga va qo'llanishiga ta'sir ko'rsatadi[5, 134-146]. Masalan, "matematika" va "fizika" kabi so'zlar ilmiy atama sifatida maxsus morfemalardan iborat bo'lib, ularning morfologik tahlili orqali ularning qanday yasalishi va boshqa terminlarga qanday bog'lanishi o'rganiladi.

Sintaktik tahlil usuli esa terminlarning gap tarkibida qanday qo'llanilishini aniqlashga xizmat qiladi. Bu usul yordamida terminlarning sintaktik vazifalari, ularning gapdagi o'rni va boshqa so'zlar bilan bog'lanishi o'rganiladi. Masalan, ilmiy maqolalarda ishlatiladigan terminlarning gap ichidagi o'rni ularning ahamiyatini oshiradi yoki kamaytiradi. Bu orqali terminlarning ilmiy uslubdagi roli yanada chuqurroq o'rganiladi[6, 58-72].

O'zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilish uchun turli dasturiy vositalar mavjud bo'lib, ular tadqiqotchilarga terminologik birliklarning turli xil jihatlarini o'rganishda yordam beradi. Masalan, Sketch Engine, AntConc kabi dasturlar til korpuslarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi va ular orqali terminlarning tez-tez qo'llanilishi, ma'nodoshligi va kontekstual bog'liqligi osonlik bilan aniqlanadi[7, 201-214]. Bu vositalar yordamida terminologik birliklarning qaysi matnlarda ko'proq uchrashi va ularning semantik tahlili amalga oshiriladi.

Ushbu dasturlar tadqiqotchilarga katta hajmdagi tekstlarni tahlil qilish va terminlarni chuqur o'rganish imkonini beradi. Masalan, AntConc orqali o'zbek tili korpusida terminlarning tez-tez qo'llanilishini o'rganish va ularning sinonimik bog'liqligini tahlil qilish mumkin. Sketch Engine esa terminlarning sintaktik vazifalarini va ularning turli gap shakllaridagi qo'llanilishini o'rganishda qulay vositadir [8, 123-137].

O'zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilish usullari tilshunoslik sohasida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada terminlarning semantik, morfologik va sintaktik tahlil usullari ko'rib chiqildi va ularning zamonaviy dasturiy vositalar orqali tadqiq etilish imkoniyatlari ochib berildi. Korpus lingvistikasi yordamida terminlarni qidirish jarayonida ularning qo'llanilish chastotasi, kontekstual bog'liqligi va sinonimik munosabatlari o'rganildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tili korpusi zamonaviy ilmiy izlanishlar uchun kuchli vosita bo'lib, terminlarning chuqur tahlili uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kelgusida terminologiyani yanada samarali o'rganish va tahlil qilish uchun yangi dasturiy vositalardan foydalanish, shuningdek, terminlarning lingvistik bazasini yanada boyitish zarur. Bu esa o'z



navbatida ilm-fan, texnologiya, ta'lim va boshqa sohalarda terminologik tadqiqotlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

#### **REFERENCES**

1. Karimov F. O'zbek tili korpusida terminlarni qidirish va tahlil qilish usullari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik Instituti ilmiy jurnali, 2021, 2(4), 67-78.
2. Mahmudov G. Terminlar va ularning sinonimik munosabatlari. Til va adabiyot tadqiqotlari, 2019, 11(1), 45-56.
3. Xudoyberdiyev R. Terminlarning semantik tahlili. O'zbek tili misolida. Tilshunoslikning zamonaviy masalalari, 2020, 6(3), 102-115.
4. Tursunov B. Korpus lingvistikasi va semantik tahlil vositalari. o'zbek tilshunosligi ilmiy jurnali, 2022, 5(2), 89-98.
5. Qodirov M. O'zbek tili terminlarining morfologik tuzilishi. Oliy ta'lim ilmiy tadqiqotlari, 2018, 3(4), 134-146.
6. Sodiqov O. O'zbek tili korpusida terminlarning sintaktik tahlili. lingvistika va tahlil, 2020, 9(1), 58-72.
7. Ismoilov Z. Korpus lingvistikasida qo'llaniladigan dasturiy vositalar. Zamonaviy tilshunoslik ilmiy to'plami, 2021, 7(2), 201-214.
8. Karimov F. Terminlarning o'zbek tili korpusidagi o'rni va qidirish algoritmlari. O'zbek tili va adabiyoti ilmiy jurnali, 2022, 8(3), 123-137.

## TO‘Y-MAROSIM LEKSEMALARINING SEMANTIK TADQIQI

Almambetova Uldaulet

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13829993>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining qadim o‘tmishdan to bugungi kungacha shakllanib kelgan va hozirda davom etayotgan milliy urf-odatlar, sovchilik va nikoh to‘yi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘y-marosimlari haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** etnografizm, to‘y-marosimlar, urf-odat, nikoh, sovchilik, mahr, qalin.

### SEMANTIC STUDY OF WEDDING LEXEMAS

**Abstract.** This article discusses the national traditions of the Uzbek and Karakalpak peoples, which have been formed since ancient times and are still ongoing, as well as wedding ceremonies related to courtship and marriage.

**Key words:** ethnography, wedding ceremonies, tradition, marriage, courtship, dowry, thick.

### СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ СВАДЕБНЫХ ЛЕКСЕМ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются национальные традиции узбекского и каракалпакского народов, сформировавшиеся еще с древнейших времен и продолжающиеся до сих пор, а также свадебные обряды, связанные со сватовством и бракосочетанием.

**Ключевые слова:** этнография, свадебные обряды, традиции, брак, ухаживания, приданое, густота.

O‘zbek va qoraqalpoq tili o‘zining tarixiy mavjud bo‘lgan davrida ma‘lum qonuniyatlar bo‘yicha rivojlangan. Ming yillardan ortiq davrda siyosiy o‘zgarishlar, davlat tuzilmalaridagi tub o‘zgarishlar, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, madaniyat va an‘analari, to‘y-marosimlari o‘zbek va qoraqalpoq tilining lug‘aviy tarkibi, uning fonetik va grammatik tizimi evolyutsiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Ma‘lumki, tilning rivojlanishi va boyib borishi, jumladan, uning marosim lug‘aviy fondi ijtimoiy hayot, uni yaratuvchisi – xalq tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bir qator o‘ziga xos marosim an‘analarida ko‘p asrlar davomida nikoh marosimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u oilaning shakllanishi uchun asos yaratib, o‘zbek madaniyatining etnik va milliy xususiyatlari bilan bog‘liqlik jarayonini tartibga soladi. Bu marosim mintaqaviy farqlarga ega.

Marosimlardagi farqlar nafaqat turli xalqlarga mansub jamoalar o‘rtasida, balki bir millatga mansub kishilar o‘rtasida ham kuzatiladi. Marosimlar ushbu yodgorlik an‘analarining tashuvchilari yashash joyi (shahar, tuman, qishloq, aholi punkti), shuningdek, ularning ijtimoiy qatlamiga qarab o‘ziga xosdir. Har bir mintaqaning to‘y-marosim lug‘atida umumiy og‘zaki nutqning boyligi va ifodaliligidan foydalangan holda, uning ijtimoiy hayot sohasida (leksikon) maqsadli ishlashini aks ettiruvchi ma‘lum naqshlar mavjud bo‘lib, ular tufayli dialektlar va ularning lug‘at boyligi sayqallangan, ularning ifodali va obrazli vositalari takomillashtirilib, foydalanish imkoniyatlari kengaygan grammatik tuzilishi boyitiladi. Shu bilan birga, u adabiy til va shevalar o‘rtasidagi bog‘lovchi rolini o‘ynay boshlaydi, bir tomondan adabiy til uslublari va hududiy dialekt hamda lahjalar o‘rtasidagi vositachilik munosabatlarining muayyan qonuniyatlarini aks ettiradi, boshqa tomondan so‘zlashuv nutqi asosida shakllangan.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, leksikani etnolingvistik jihatdan o'rganishning asosiy maqsadi xalqlar etnik madaniyatining lingvistik rasmini yaratishdir. Bunday tadqiqotlar urf-odatlar leksikasini o'rganish, ularning xalq ijtimoiy hayotidagi turli omillar (nikoh, motam, demonologiya, muqaddas kitoblar syujeti, dunyoviy va diniy odatlarning talqini ) bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bu bilimlar ma'lum darajada etnik guruhlarining marosim madaniyati, marosim an'alarining paydo bo'lishining shart-sharoitlari, marosim lug'ati bilan tanishish uchun asos yaratadi, ularning semantikasi, umumiyliigi va ma'no soylaridagi farqlarni sharhlashga yordam beradi.

Turli olimlarning etnografik asarlarida nikoh marosimi tushunchaning keng ma'nosida - o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlariga ko'ra ko'plab turli xil tashkil etilgan marosimlarni o'z ichiga olgan mazmunli marosimlarning bir tarmog'i degan fikr keltirilgan. Ularning rivojlanishi xarakterologik (mintaqaviy) dan rasmiy va mazmun-tipologikgacha bo'lgan mohiyatan xilma-xil kichik va yirik hodisalarning keng majmuining tashqi va ichki farqlanishini o'rganish bilan birga kechadi.

Tilshunoslik manbalaridagi nikoh va oilaviy munosabatlarga aloqador motivlarni o'rganishga doir kuzatuvlar jarayonida qadimgi ajdodlarimizning oilaviy-maishiy marosimlari sirasiga kirgan nikoh munosabatlari jumladan, sovchilik, udumi va qudashilik an'analari va qalin berish bilan bog'liq an'anaviy motivlarning o'z ifodasini topganining guvohi bo'lindi<sup>21</sup>. Mazkur motivlarni tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilish sovchilik va qudashilik an'alarining qadimgi ko'rinishlari, o'ziga xos jihatlari hamda genezisi haqida keng doirada ilmiy mulohaza yuritish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar o'zining mazmunan boyligi, rang-barangligi va falsafiy-axloqiy mohiyati bilan ajralib turadi.

Etno-lingvistik ma'lumotlariga qaraganda, sovchilik udumi juda qadimiy tarixga ega.

Masalan, qoraqalpoq xalq dostoni "Munglik-Zorlik"da "jawshilik", ya'ni sovchilik udumini Odam ota va Momo Havoning mifologik marosimi bilan bog'lanadi:

Arada jawshi jurmeklik,	Orada sovchi yurmaklik,
Jawshi aytirip kelmeklik,	Sovchi bo'lib kelmoqlik.
Bizden emes babajan,	Bizdan emas bobojon,
Adam-ata, Hawa-ene,	Odam ota, Momo Havo.
Payg'ambardin' sunneti	Payg'ambarning sunnati <sup>22</sup>

Sovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni VII-VIII asrlardagi O'rxun-Enasoy bitiklarida ham uchratish mumkin. Buyuk davlat arbobi, hukmdor Tunyuquqning bitiktoshida "sab" "so'z" va "gap" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, "Irq bitigi (fol kitobi)"da esa "sab" - "so'z", "sabchi" - "xabarchi", "so'z keltiruvchi" ma'nosida qo'llanilgan. O'rta asrlarning mashhur tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy ushbu atamani "sovchi - kelin va kuyov o'rtasida bir-biriga xabar eltuvchi" deb izohlagan<sup>23</sup>. "Sabchi" degan so'zning ma'nosi "xabarlar yetkazib beruvchi".

Olimning "Devoni-lug'atit turk" kitobida "sovchi" so'ziga ta'rif berib, uni "kuyov va kelin o'rtasida xabar yetkazuvchi odam "Xudoning xabar yetkazuvchi insoni" ma'nolarida ishlatgan.

<sup>21</sup> Дала ёзувлари. Қорақалпоғистон Республикаси 2005-2020 йиллар.

<sup>22</sup> Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий диний эътиқод ва маросимлари ... -Б. 122.

<sup>23</sup> Махмуд Қошғарий М. Девони луғатит турк. Т. III. - Тошкент: Фан, 1963. - Б. 170

Demak, yangi oilaning paydo bo'lishida *sovchilik* udumi uzoq o'tmishda shakllanganligiga amin bo'lamiz.

Qoraqalpoqlarda sovchilar "jawshilar" ("bosib oluvchilar") yoki "elshiler" ("elchilar"), ya'ni tomonlarni kelishtirib, yarashtirib qo'yadigan insonlar, deb ataladi. Ular kuyov va kelinning ota-onasi bilan avvalroq kelishib olgandan so'ng sovchilikka borgan. Bu yerda tabiiy bir savol tug'iladi: nega sovchilikda birinchi atama "jawshilar" ishlatilgan, chunki ushbu termin harbiy leksikaga oid so'z bo'lsa? Ehtimol, ushbu atama sovchilik an'analari paydo bo'lishiga qadar ishlatilgandir. Bahodirni unashirib qo'yish an'anasi yakuniga yetganidan so'ng mazkur atama birlamchi ma'nosini yo'qotgan va boshqa ma'no kasb eta boshlagan. Chunki, har doim ekzogam nikohga turli urug' vakillari kirishgan, ko'p hollarda ular bir-biriga do'st ham, dushman ham bo'lmagan. Harbiy kuch va bosqinchilik hukmron bo'lgan vaqtda asosiy qo'lga kiritilgan boyliklar qatorida qiz va ayollar ham bo'lgan. Aksariyat turkiy tilli epik asarlarda keltirilishicha, qo'lga o'lja sifatida tushgan qiz va ayollar askarlar o'rtasida taqsimlangan hamda ularning qonuniy xotiniga aylangan<sup>24</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, qoraqalpoq dostoni "Edigeyda asosan, To'xtamishning qizlari Qanikey bilan Tinikey o'lja sifatida qo'lga olinadi va Edigey hamda uning o'g'li Nuratdinning xotinlariga aylanadi. Oltoy xalqlarida ham "o'zga yurtlarda bosqinchilik yurishlari natijasida qo'lga tushgan qizlarni kelin qilish" syujetlari ko'p uchraydi. Bunga misol sifatida "Тысяцкому воеводе" qo'shig'ida keltirilgan "mamlakatdan kelgan jasur drujina"lar va ularning bellashuvda olib kelgan epizodini ko'rsatish mumkin<sup>25</sup>. Shunga asosan, avvaliga harbiy atama hisoblangan "jawshi" so'zi keyinchalik o'z birlamchi ma'nosini yo'qotgan. Bunga misol sifatida "Alpomish" dostonidan quyidagi misolni keltirish mumkin:

Jawlastirmaq jawshidan,	Yovlashtirish sovchidan
Jawshiliqqa kelgenmen,	Sovchilikka kelganman,
Ellestirmek elshiden,	Ellashtirmoq elchidan
Elshilikke kelgenmen.	Elchilikka kelganman <sup>26</sup>

Qizning uyiga sovchi yuborish bilan birga qudachilikdagi yana bir muhim qoidalardan biri bu qudalarning ijtimoiy mavqesi bir-biriga teng bo'lishidir. Shariatda ushbu jarayon "kafaat" deb atalgan. Iloji boricha ular o'zlariga mos oilalar bilan quda bo'lishga intilgan.

Markaziy Osiyoda aholi qadim zomonlardan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlar bo'yicha tabaqalashgan bo'lgan. Odatga ko'ra, yuqori tabaqa vakillari hisoblangan sayyidlar, xo'jalar, maxsumlar ijtimoiy mavqei o'zlariga teng bo'lgan aholi vakillari bilan quda bo'lgan.

XX asrning o'rtalariga qadar qudachilikning ushbu tartiblariga qat'iy amal qilingan.

Ushbu tartib yuqori jamiyatdagi boshqa qatlam vakillariga ham tegishli bo'lgan. Ammo, shunday dalillar ham uchrab turadiki, unga ko'ra, boy, o'ziga to'q oilaning o'g'il farzandlari quyi tabaqa vakillarining go'zal qizlarini sevib qolgan va katta qalin evaziga unga unashtirilgan.

<sup>24</sup> Малов С. Е Памятники древнетюркской письменности. – М-Л.: Наука, 1951. – С. 29.

<sup>25</sup> Мингажетдинов М. Х. Этногенетические мотивы в башкирских сказках / В кн.: Археология и этнография Башкирии. - Уфа, 1971. IV/Материалы научной сессии по этногенезу башкир, май. - 1969. - С. 307.

<sup>26</sup> "Alpamis". Qaraqalpaq xaliq dostoni. Qaraqalpaq folklori. Kөp tomliq. T. 1. – Tashkent: Ma'naviyat, 2009. 5. 12

Ammo, kambag'al oiladan bo'lgan yigitlar boy oilaning qiziga uylanish imkoniyati bo'lmagan<sup>27</sup>. O'zbeklar orasida ham jamiyatda o'ziga xos mavqe'ga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar, xususan, xo'ja yoki eshonlar o'z farzandlarini faqatgina yaqin qarindoshlariga uzatgan.

Avvallari ular hatto podshoh, amir yoki katta hokimiyatga ega bo'lgan kishilar bilan qudanda bo'lgan. Beklar o'z qizlarini o'zlaridan pastroq tabaqa vakillariga bermagan, o'z navbatida o'zlari ham past tabaqa vakillarini qizini kelin qilmagan. Ular hatto ijtimoiy mavqe' jihatdan ulardan past bo'lmagan sayyid va xo'jalar oilalaridan ham qiz olmagan, lekin ularga o'z qizlarini turmushga bergan<sup>28</sup>.

Odatda, sovchilar el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqilu fozil kishilardan tanlangan.

Chunki, ularning vazifasi og'ir va o'ta mas'uliyatli hisoblangan. Sovchining gap-so'zi ma'noli, ishonarli, tosh bosadigan zalvorli bo'lishi kerak bo'lgan. Sovchining o'zini tutishi, dunyoqarashi, gap so'zlariga qarab, yigitning qanday odamligi ham ma'lum darajada tasavvur qilingan. Uchragan odamni sovchilikka yuborish ushbu yigitning o'z qadrini bilmasligini emas, shu bilan birga qiz qadrini yerga urish hisoblangan. Ayniqsa, qadimgi elchilar sovchilik maktabini o'tagan, shunga mos ibora, maqol va matallar, so'z o'yinlarini yaxshi biladigan, hozirjavoblik, sir va sukut saqlay oladigan, nikoh va oilaning qadriga yetadigan insonlar bo'lgan<sup>29</sup>. Masalan, "Qo'rquq ota" eposida yozilishicha, qiyin va mashaqqatli elchilik vazifasini o'g'uz qabilalari orasidan birinchi bo'lib Qo'rquq ota bajargan va u hamma voqealarni yaxshi bilgan, chunki uning aytgan barcha so'zlari haqiqat bo'lib chiqqan. U yashirin kelajak haqida turli xabarlar olib kelgan, uning aytishiga qaraganda, ushbu ma'lumotlarni Yaratganning o'zi uning qalbiga joylab qo'ygan.

U o'g'uz xalqining og'irini yengil qilgan. Hech kim qanday voqea sodir bo'lmasin, Qo'rquq-otadan maslahat so'ramasdan ish tutmagan. U nimaiki buyursa, odamlar bajonidil bajarishga harakat qilib, uning hamma so'zlariga quloq solganlar va o'git-nasihatlariga amal qilganlar.

Bunga o'xshash motivlarni qoraqalpoqlarning boshqa epik asarlarida ham uchratish mumkin. Ularning aksariyatida muqaddas pirlar (karomatli insonlar) bahodirga kuch va g'ayrat bergan hamda uning ko'zlagan maqsadi sevgilisiga uylanishga yordam bergan.

Qoraqalpoqlarning "Maspodsho" dostonida hikoya qilinishicha, asar qahramoniga Qarg'aboy Oyparchaning sovchisi sifatida tasvirlangan.

Kim qanday maqsadda kelganligi ma'lum bo'lishiga qaramasdan, sovchilar gapni uzoqdan boshlagan va o'z niyatlarini ramziy ma'noga ega so'zlar orqali anglatgan. Masalan, Qo'rquq otaning sovchi bo'lib kelishidan maqsadi qanday tarzda yoritib berilgan: "Men sening qarshinga o'rtamizda yastanib yotgan qora tog'ingni ustiga ko'tarilgani keldim. Men sening qarshinga sening tezoqar, sersuv, chiroyli daryoyingni kechib o'tgani keldim. Men sening qarshinga etiging ostida va bo'yning orasida qisilgani keldim. Xudoning irodasi va Payg'ambarning so'zlari bilan sening qarshinga Bamsi-Beyrekdan singling oydan ham go'zal Banu-Chechakga sovchi bo'lib keldim"<sup>30</sup>.

O'tmishda yashagan odamlar tabiatdagi narsa va hodisalar singari so'zda ham magik qudrat bor, deb o'ylaganlar. So'zda odamga yaxshilik yomonlik keltiruvchi sexrli kuch borligi

<sup>27</sup> Дала ёзувлари. Қорақалпоғистон Республикаси Қораўзақ тумани Қорабуға МФЙ, 2018 йил.

<sup>28</sup> Расулова З. Никох ва насл-насаб // Тафаккур. - 2008. - № 4. - Б. 90.

<sup>29</sup> Дала ёзувлари. Қорақалпоғистон Республикаси Конликўл тумани Бекжап МФЙ, 20016 йил.

<sup>30</sup> Книга моего деда Коркута . Перевод В. В. Бартольда ... - С. 37

bilan qadimgi odamlar afsun, qarg‘ish va olqishlarga ishongan. Ko‘zlangan maqsadni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ramziy ma‘noga ega so‘z, iboralar va narsalar orqali anglatish so‘zning magik xususiyatiga ishonch kuchli bo‘lgan davrlar mahsulidir.

Shuningdek, nikoh to‘yi marosimlari tarkibida afsungarlik qarashlari ham magik tasavvurlarga uyg‘unlashgan tarzda ularning izlari saqlanib qolgan. Jumladan, turkiy xalqlar orasidagi marosimiy afsungarlikni asosan ikki guruhga bo‘ladi. Birinchisi – *“apotropeik”* afsungarlik yoki boshqachasiga himoyalovchi afsungarlik bo‘lib, unga kelin-kuyovni turli yomon kuchlardan, yomon odamlarning nigohi va turli *“ilmu amal”*laridan asrovchi, bo‘lg‘usi oilani himoya qilishga qaratilgan harakatlar va urf-odatlar kirgan. Ikkinchisi – *progrepeik*, ya‘ni uyg‘otuvchi va birlashtiruvchi afsungarlik, ya‘ni kelin-kuyovni o‘zaro birlashtirish yo‘lida bajarilgan qator urf-odatlardan iborat bo‘lgan.

Yuqorida ta‘kidlangan sovchilik udumidagi suhbatni boshqa mavzudan boshlash, maqsadga birdaniga o‘tishni o‘rniga uzoqdan olib kelish uslubini qo‘llash so‘z magiyasidan tashqari apotropeik afsungarlik ko‘rinishi bo‘lib, boshlanayotgan ezgu ishni yovuz kuchlarning ta‘siridan himoyalashga xizmat qilgan. Odatda, sovchilikdan qaytgan mutasaddilarni “o‘g‘ilmi” yoki “qiz” deb qarshi olgan. Agar ular xushxabar bilan qaytgan bo‘lsa, “o‘g‘il” deb javob qiladi.

Bu qadimdan kelayotgan odat bo‘lib, “Qo‘rqut ota” kitobida ham Qo‘rqut ota Banu-Chechakning sovchiligidan qaytganidan so‘ng Boy-Burabek undan so‘raydi: “Bobo, siz erkakmi yoki ayol?”. Savolga Qo‘rqut ota quyidagicha javob beradi: “Men erkakman”<sup>31</sup>. Ushbu odat ba‘zi o‘zbek urug‘lari orasida ham tarqalgan<sup>32</sup>. Turkiy xalqlar kundalik hayotini tadqiq qilgan V. V. Radlov shunday ma‘lumot yozib qoldirgan: “Qadimiy turkiylarda balog‘atga yetgan qizlarga sirg‘a taqishadi va ular sirg‘ali, ya‘ni qaylig‘ hisoblanishadi”<sup>33</sup>. Metall buyumlarning xususiyatlari to‘g‘risida E. Taylor shunday ma‘lumot keltiradi: “Sharq ruhlari temir buyumlardan qo‘rqadi”<sup>34</sup>.

Shuningdek, unashtiruv marosimidan so‘ng kelin-kuyov qarindoshlar bilan uchrashishdan qochgan, ularni ko‘ziga ko‘rinmaslikka harakat qilgan. Shunga o‘xshash syujet “Qo‘rqut ota” kitobida ham uchraydi. Xon-To‘rali go‘zal yuzga va yaxshi xulqqa ega bo‘lgan yigit bo‘lishiga qaramay, Banu-Chechak bilan uchrashganda yuzida niqobi bo‘ladi. Shunda Banu-Chechek o‘z yonidagi qizlardan so‘raydi: “Menga aytishgandiki, meni Beyrek ismli yigitga uzatgan. Yuzida niqobi bor yigit kim, men turmushga chiqqan o‘sha emasmi?”<sup>35</sup>. Bu kabi syujet qoraqalpoq xalq dostoni “Yusuf va Zulayxo”da ham uchraydi. Bu yerda Yusuf ham o‘zining chiroyli yuzini yashirish maqsadida yuziga niqob taqib oladi.

Islom dinida nikohning amalga oshishi uchun asosiy omillardan biri sifatida kelin uchun “mahr” to‘lash belgilangan<sup>36</sup> “Nekesin qiyiw” – nikoh o‘qish faqatgina “mahr” to‘langanidan so‘ng amalga oshirilgan. “Mahr” qizning o‘zi uchun beriladigan mablag‘ hisoblanadi. Agar “mahr” to‘lanmagan yoki qisman to‘langan bo‘lsa, guvohlar ishtirokida keyinroq to‘lab berishga va‘da beriladi va shundan so‘ng nikoh o‘qiladi. Agarda, vaqtlar o‘tishi bilan va‘da qilingan “mahr”

<sup>31</sup> Kniga moyego deda Korkuta/Perevod V. V. Bartolda ... - S. 37.

<sup>32</sup> Shaniyazov K.SH. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda ... - C. 311.

<sup>33</sup> Radlov V. V. Iz Sibiri. - Moskva: Nauka, 1989. - S. 133.

<sup>34</sup> Taylor E. B. Pervobitnaya kultura. - Moskva: Politizdat, 1989. - S. 109.

<sup>35</sup> Kniga moyego deda Korkuta/Perevod V. V. Bartolda ... - S. 35.

<sup>36</sup> Bu to‘g‘risida batafsilroq qarang: Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja. Majma‘-ul-Maqsud yoki Muxtasar ul-Vikoyaning o‘zbekcha sharhi. 1-kism. - Toshkent, 1996.



to‘lab berilmasa, shariat qoidalariga ko‘ra, ayol ajrim olish uchun sudga murojaat qilishi mumkin<sup>37</sup>. Islom dinida “mahr” miqdori aniqlab berilmagan. “Mahr” sifatida chorva mollari, pul mablag‘i, kiyim-kechak, zeb-ziynat buyumlari, uy-joy va oziq-ovqat mahsulotlari berilishi mumkin. Ammo, ta‘kidlanishicha, musulmonchlikda hech qachon “mahr” miqdori oshirilmagan.

Hadisi sharifda aytilishicha, Eng yaxshi nikoh bu – eng kam miqdorda “mahr” to‘langanidir<sup>38</sup>. Qur‘oni Karimning “Niso” surasida: “Ayolingizga “mahr”ni butun qalbingiz bilan beringlar”, deb yozilgan<sup>39</sup>.

Turkiy xalqlarning yozma yodgorligi hisoblangan “Qo‘rqut ota”da qalin to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar qayd qilingan. Qo‘rqut ota Bamsi-Beyrekning sovchisi sifatida go‘zal qiz Banu-Chechakning akasi Qarcharning oldiga boradi. Qarchar o‘z singlisi Banu-Chechak uchun Boyburaning sovchisi Qo‘rqut otadan quyidagi qalinni so‘raydi: “mingta biya ko‘rmagan ot, mingta urg‘ochi ko‘rmagan tuya, mingta qulog‘i va dumi kesilgan it, mingta qora burga”<sup>40</sup>. Qalin uchun so‘raladigan odatiy hayvonlar: tuya, ot va qo‘yga qo‘shimcha tarzda it va burga ham talab qilinadi. Ushbu voqeadan so‘ng Qo‘rqut ota Bamsi-Beyrekning otasi Boy-Bura bekka ushbu ertaknamo qalinni to‘lashga yordam beradi.

“Qalin” to‘lovi orasida bugungi kunda ham qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan udumlardan biri hisoblanadi. Lekin, hozirgi kunda qadimgidek qalinning aniq beliglangan miqdori mavjud emas. “Qalin” miqdori va kuchi, ya‘ni turmushga chiqib ketayotgan qizning o‘rnini to‘ldirish zarurati paydo bo‘lgan. Qoraqalpoq tilidagi “qalin’ mal” so‘zi ham atama sifatida “otasining uyidan uzatiladigan qizning o‘rnini to‘ldiruvchi” degan ma‘noni anglatib, bevosita kelin uchun beriladigan chorva mollari (ot, qo‘y) nomi bilan bog‘liq tarzda shakllangan.

Tadqiqot obekti qilib olingan etnografik leksemalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va qoraqalpoq etnografik leksemalar etimologiyasi o‘ziga xos ilmiy ahamiyatga ega. Ularning shakl-shamoyili, shakllanishi o‘ziga xos lug‘aviy tarkibida muhim o‘rin tutadi.

## REFERENCES

1. Ashirov A, Atadjanov SH. Etnologiya. –T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. “Alpamis”. Qaraqalpaq xaliq dastani. Qaraqalpaq folklori. Ko‘p tomliq. T. 1. – Tashkent: Ma‘naviyat, 2009.
3. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 1991.
4. Maxmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘atit turk. T.III. – Toshkent: Fan, 1963.
5. Kasimova R. Ziyodullayev A. Etnografizmlarning o‘zbekcha-inglizcha izohli lug‘ati. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018.
6. Rasulova Z. Nikoh va nasl-nasab. – Tafakkur. -2008.

<sup>37</sup> Bobomuradov A. Islom odobi va madaniyati. - Toshkent: Cho‘lpon, 1995. - B. 47.

<sup>38</sup> Axloq-odobga doir Hadis namunalarini ... - B. 88

<sup>39</sup> Kur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima / Tarjima va izoxlar muallifi Alouddin Mansur ... - B. 252.

<sup>40</sup> Kniga moyego deda Korkuta/Perevod V. V. Bartolda ... - S. 37-38

## TA'LIM MUASSASALARIDAGI IJTIMOY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA TARBIYAVIY KORREKSION FAOLIYATNING O'RNI

**Xamidova Laylo Baxtiyor qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikum psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13830029>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida xulq atvorida og'ishish bor o'quvchilar bilan tarbiyaviy korreksion faoliyat olib borish ahamiyati, o'quvchilarning psixologik holatlari hamda tarbiyaviy korreksion faoliyat metodlari haqida bilim ko'nikmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy, ijtimoiy, globallasuv, korreksion, diagnostic, texnika-texnologiya, moddiy ta'minot.

### THE ROLE OF EDUCATIONAL CORRECTIONAL ACTIVITY IN SOLVING SOCIAL PROBLEMS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Abstract.** In this article, knowledge and skills are given about the importance of conducting educational correctional activities with students who have deviations in behavior during the educational process, psychological conditions of students, and methods of educational correctional activities.

**Key words:** economic, social, globalization, correction, diagnostic, technique-technology, material supply.

### РОЛЬ УЧЕБНО-КОРРЕКЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.

**Аннотация.** В данной статье приводятся знания о важности проведения учебно-коррекционной деятельности с учащимися, имеющими отклонения в поведении в ходе учебного процесса, психологическом состоянии обучающихся, методах учебно-коррекционной деятельности.

**Ключевые слова:** экономическая, социальная, глобализация, коррекция, диагностика, техника-технология, материальное обеспечение.

Butun dunyo xalqlari shiddat bilan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa omillar ta'sirida globallasuv jarayonining ham ijobiy ham salbiy tomonlari ichida yashamoqda.

O'zgarishlar, yangiliklarni esa dastlab yoshlar sezishadi. Yangi O'zbekistonda yangicha qarash va o'zgacha yondashuv har bir pallada o'z natijasini ko'rsatmoqda. Ilm fan, texnika-texnologiya, ishlab chiqarish sohalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham keskinlashayotganligini ko'rish mumkin. Insonlar ayniqsa, yoshlar ongiga ta'sirlar ko'lamini ko'paytirmoqda. Bu esa, yosh avlod tarbiyasida va xulq –atvorida jiddiy og'ishishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bola jamiyatda avvalo oila bag'rida so'ng turli ta'lim muassasalari, mahalla muhitida ijtimoiylashadi. Jamiyat tomonidan o'rnatilgan hatti-harakatlar normasini qabul qiladi. Shunday muhitda unib o'sganligi uchun boshqa odamlardan ham shuni talab qiladi va kutadi. Ta'lim muassasalarida turli ijtimoiy kelib chiqishga ega, turli tarbiya muhitida o'sgan hamda o'ziga xos xarakter xususiyatlariga ega bolalar bo'lalilar, ularda paydo bo'lgan ijobiy fazilatlar yoki salbiy illatlar aynan shu yerda ko'rinadi.

Bugun har bir oila yaxshi yashashga, moddiy ehtiyojlarini qondirishga uy-joy, mashina va texnik qurilmalar bilan jihozlanishga harakat qilmoqda, shuningdek, uzoq masofadagi insonlar bilan aloqa qilish uchun turli tuman ijtimoiy tarmoqlar mavjud. Bular albatta yaxshi va biz busiz hayotimizni tasavvur qilolmaymiz. Biroq asta-sekin oilada ayniqsa bolalar, yoshlar bilan shaxslararo munosabatlar tizimiga putur yetmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra yoshlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarni 60%ni oilada sog'lom muhit mavjud bo'lmagan bolalar qilar ekan. Mutaxassislar ota-onaning farzand axloqidagi salbiy o'zgarishlar, uning fe'l atvori, ta'lim tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lishi bola kelajagi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi asosiy omil ekanligini takidlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyatga qo'l urayotgan bolalar asosan notinch, va nosog'lom oilalarda voyaga yetmoqda.

Oiladagi bunday muhitga moslashgan yoki moddiy ta'minotga muhtoj bolalar boshqalar bilan ko'p janjallashadi, o'g'rilik, bezorilik kabi jinoyatlarga qo'l uradi. Bunday muammolari bor bolalar ta'lim muassasasida ta'limni samarali tashkil etish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bo'lishiga qaramay, o'zlashtirish va tarbiyasida oqsash ko'zatiladi. Xulq-atvorida og'ishishning paydo bo'lishi atrofda o'quvchilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab ta'lim muassasalarida tarbiyaviy korreksion va diagnostik faoliyatni tashkil etish muhimdir.

Korreksiyalash jarayoni bu yoshlarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi faoliyat turidir. Korreksiyalash ta'sirida ularning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga nisbatan ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiyaviy masalalar amalga oshiriladi (Sh.Abdullayeva). Ta'lim muassasalarida korreksion faoliyatni amalga oshirish orqali yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi.

Bunga erishishda yoshlarning ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashhari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi.

Zamonaviy ta'lim tarbiya jarayonida tarbiyaviy korreksion faoliyatni samarali tashkil etishda ikki asosiy jarayonga alohida e'tibor hamda ma'suliyat bilan qarash zarur, bular:

- Pedagogik tashxis metodlar yordamida har bir tarbiyalanuvchi haqida ma'lumotlarni to'plash.
- Tarbiyalanuvchilarning mavjud muammolarini bartaraf qilishga mos tarbiyaviy tadbirlarni olib borish.

Mavjud muammolarni bartaraf etishda esa tarbiyalanuvchiga pedagogik-psixologik yondashish kerak. Tarbiyaviy korreksion faoliyatni olib borishda quyidagi tarbiya metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Tarbiyachining tarbiyalanuvchiga ishontirish, tushuntirish, o'rgatish, talab qilish, buyurish, jazolash, rag'batlantirish, shaxsiy namuna ko'rsatish, iltimos, maslahat orqali ta'sir ko'rsatish;
- Tarbiyalanuvchining ma'lum vaziyatda o'zini tutishi, hatti-harakatlarini amalga oshirishga va munosabatni o'zgartirishga majbur qiluvchi vaziyatlarni uyushtirish;

- Tarbiyalanuvchi uchun referent guruh( sinfdoshlari, kursdoshlari), yoki uning uchun nufuzli bo'lgan kishilarning –ota-onasi, mutaxassis-olimlarning davlat arboblarning fikrlari;
- Tarbiyalanuvchi va tarbiyachining birgalikdagi muloqot yoki tadbirdagi faoliyati;
- Oila a`zolari davrasida axloqiy ijtimoiy, yoki kasbiy masalar yuzasidan ma`lumot almashish;
- Milliy an`analar, urf-odatlarini bilishi va ularga rioya qilish

O'ylaymanki, ta`lim muassasalarida pedagog hamda psixolog har bir bola taqdiriga befarq bo`lmasdan o`z o`rnida tarbiyaviy korreksion va diagnostik faoliyatni olib borsa, bola oilasi hamda referent guruhlar bilan ishlasa albatta, natijalar ijobiy bo`ladi. Hamda jamiyatga to`g`ri integratsiyalashgan, o`zi, oilasi va vatani uchun foydasi tegadigan inson bo`lib shakllanadi.

### **REFERENCES**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar // Xalq ta'lim i, 2003, №3. - B.40-45.
3. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. – Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.
4. Yuldashev j.G'. Tarbiyaviy korreksion faoliyat- Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.

## PROBLEMS OF POETRY IN UZBEK LITERATURE, CHARACTERISTICS OF EXPRESSION AND INTERPRETATION AND GENRE TYPOLOGY

**Saidova Rayhon Bekmurodovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zarmed universiteti o'qituvchisi.

**E-mail:** [malikau494@gmail.com](mailto:malikau494@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13833088>

**Abstract.** This article focuses on the scientific information about poets and their work in examples of tazkira in Turkish, Persian and Arabic literature. The opinions of tazkiranavis such as Saolibi, Avfiy, Farididdin Attar, Jami, Alisher Navoi, Davlatshah Samarkandi about penmen and poetry are analyzed. "Majolis un-nafois" work is in the center of analysis and is compared with other tazkiras.

**Key words:** tazkira, tabakat, poet, poem, chapter, ravza, meeting, saint, memoir, biography.

## ПРОБЛЕМЫ ПОЭЗИИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ, ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ, ТИПОЛОГИЯ ЖАНРА

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется научной информации о поэтах и их творчестве на примерах тазкиры в турецкой, персидской и арабской литературе. Анализируются мнения таких поэтов, как Саолиби, Авфий, Фаридиддин Аттар, Джамии, Алишер Навои, Давлатшах Самарканди о писателях и поэзии. В ней в центре анализа находится произведение «Маджолис ун-нафоис», и оно изучается в сравнении с другими тазкирами.

**Ключевые слова:** тазкира, табакат, поэт, поэма, глава, равза, встреча, святой, воспоминания, биография.

In Eastern-Islamic classical literature, there are "Qissas ul-Anbiyya" dedicated to prophets, "Shahnama" type works about historical and legendary persons and rulers, "Qissas ul-Avliya" or "Tazkirat ul-Avliya" about saints and Sufis, and about poets. Tazkirat ush-shuaros, about literary heroes the creation of series of works dedicated to artistic epics and other classes took the form of a unique literary tradition.

In other words, in Eastern classical literature, the writing of "stories" about prophets and saints, "nomes" about kings, epics about literary heroes, "zikr" about poets and sometimes guardians was a literary phenomenon. this, in turn, served as a bright memory for the past history, culture, literature, and art of the peoples of the East. One such tradition is the direction of tazkiranavis, which directly discusses the issues of poetry and poetry. it is a living phenomenon that is extremely great in terms of its history and development, scope and significance, scientific and artistic value and place in world literature. In it, it is seen that there are brief opinions about the poets who wrote their pen based on the laws of classical creation (ilmi aruz, ilmi qafiya, ilmi sanoe'), but with a high content of scientific and artistic aspects. in contrast to Western literature, in Eastern classical literature, the most important source of information about poetry and poetry is these tazkiras.

In this type of works, which are of great importance for the history of classical literature, poets refer to oral and written sources, directly and indirectly witnessed realities and processes to provide reliable information about the biography and creativity of poets and the laws of poetry.

The main goal of the essays is to present the author's works based on historical truth, to provide information based on the main source. Tazkiras have an incomparable role in the complete collection of information about poets over the years, and they are important sources of classical literature history, poetry and poetry. They provide their readers with the most accurate and reliable information. tazkira is derived from the Arabic root "zikr" and means "something that causes to be remembered". In the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language" the word zikr is explained as "to remember", "to remember". tazkira is used as "tabaqat" in Arabic literature, in Persian-Turkish literature it is used in the Arabic form "tazkira". From this, Arab creators call the biographical works "tabaqat ush-shuaro" ("layers of poetry"). they cover the biographies of people who have achieved fame in a particular profession, and often traditionally include poets, artists, saints, calligraphers, historians, and many other fields. in other words, tazkiras are a series of separate works that tell the biography of famous people in a certain field.

In Alisher Navoi's works, "Nasayim ul-Muhabbat", which informs about more than 750 sheikhs and saints, "Majolis un-nafais", which mentions about 460 poets and artists, are the first Turkish tazkiras. The poet founded the Turkish tazkira genre with these two great works, and this work is widely spread among creative people as a unique work both in the history of classical literature and in the tradition of tazkiranavis. in other words, with this work, the ground was prepared for the separation of the tazkiranavis tradition into the pre-Navoi and post-Navoi periods.

The fact is that most of the people mentioned in tazkiras are poets and the subject of poetry. That's why Alisher Navoi writes "Majolis un-nafois" for nothing:

*Yuz hamd angakim yasab jahon bo 'stoni,  
Aylab yuzu zulfidin gulu rayhoni.  
Qildi yasag'och bu bog'i ruhafzoni  
Nazm ahli aning bulbuli hush ilhoni, - say.*

A wonderful artistic landscape is created in it, and it is interpreted as "if the world is a flower garden, poets are nightingales of this flower garden." that is, "Praise be to Allah, who made the yuzu zulfi into flowers and basil and created the world boston, after creating this life-giving boston (garden), then he placed poets (people of poetry) in it as pleasant nightingales." You see, the status of poetry and poetry cannot be defined more than this.

It should be said that in Turkish literature, tazkiras reflect one or another aspect of the life of poets, and other professions also unite around poetry and poetry in connection with poetry or art. This is the reason why a special type of tazkirat is called "tazkirat ush-shuaro" ("poet's mention"). His Holiness Alisher Navoi said in one place: "I am the admirers of the science of poetry and those who are perfect in the science of poetry, those who have become the ocean of the ocean of pureness and the mine of the fire of the maonii lali, and those who are noble people and dear people. timIn order not to destroy the Sahayidin and Davran Safayihidin, the people of Tasfini are making a fusuli orosta and abbwabi pyrosta in their taalifs and taalif khaily classifications, and they are decorating their books with the mention of this community.



It seems that the main purpose of tazkiranavis to mention the names of the people of the pen in books is to prevent their blessed names from being forgotten with the passage of time, in other words, to convey the basics of classical poetry and poetic culture from generation to generation there was a huge task. There is also a type of tazkirats in Eastern classical literature, which talk about saints, and this type of works is called "Tazkirat ul-Avliya" ("Remembrance of Saints"). An example of this is Tazkirat ul-Avliya by the famous Sufi poet Farididdin Attar. Alisher Navoi commented on this work of Farididdin Attar in his epic "Lison ut-Tair" and said, "Again, he created a tazkira that pleases the souls of the saints. From every word of his, hundreds of unknown people came to life as if they drank the water of life.

According to Alisher Navoi, the works of tazkira, which have the power to "renew life as if drinking water of life" for people who are forgotten in the pages of history, are at the same time an example of the creativity of great thinkers at the art level. In addition, Alisher Navoi interprets the spiritual connection of creativity in the "Qaqnus story" in the image of father and son Qaqnus.

In this, it is pointed out that there is a connection of creative inspiration among poets, like the gene connection between generations of mankind. Alisher Navoi takes this second type of tazkira to a higher level with his work "Nasayim ul-Muhabbat" ("Breaths of Love"), which speaks about Sufi poets. In this book, information is systematically given about many Sufi poets, "people of good fortune" in the world of poetry, and blessed people who "guided and promised" the people.

Alisher Navoi founded the Turkish tazkira genre with his work "Majolis un-nafois" written in 1491, at the age of 50, and this work gained fame in world literature. The fact is that in the world literary studies of the new era, foreign fans of the poet often refer to the same work. With this work, Alisher Navoi completely renewed the long-standing tradition of tazkiranavis, the fact that contemporary creative people were also mentioned in it turned the subsequent tradition of tazkiranavis to this one. because until then only the fates and works of poets and personalities of the past were written in tazkiras. On the one hand, this was a world-wide innovation in the history of Orientalism. together with the emergence of the background of thinking with clear evidence in the art of writing, the creative people of the time also became history. After this tazkirah was written, large schools of this type of tazkirah appeared, and this genre tradition was transferred to the literature of other nations, and many works were created in the style of "Majolis un-nafois" when talking about tazkira in general, biographies containing brief biographies of primary poets and examples of their works come to mind. But the main part of tazkiras are tazkiras about poets. it mentions the poets' names, nicknames, brief biographies, professions, careers, and provides examples of their poems. In this way, the tradition of poetry and poetics is born. they mainly give examples from the genres of ghazal and qasida, and more matla of ghazals are given as examples.

At the same time, poems in the genre of verse, rubai, masnavi can also be found as an example. It should be noted here that the origin of tazkirah, which is a tradition characteristic of Islamic culture and civilization, goes back to the history of research that began in the early days of the Islamic world. besides, in the literature and science of ancient antiquity, there was a habit of creating "glossaries" that gave brief information about individuals. Other Muslim nations follow these studies, which are called "tabaqat" in Arabic literature. In the words of Hazrat Alisher Navoi, "I am in the service of the old men and in the presence of the old men, I attach this evidence to the rank of the word of poetry, and in its alternative, I am indulging in the verses of peaceful poetry

with the jewels of maturity and the jewels of eloquence and the voice of the plaintiff was sent to heaven." In this confession of Alisher Navoi, it was mentioned that the life of poets, the task of recording their poems in the pages of history has existed since ancient times. This genre later became widespread among Persians and Turks and was called tazkira. For example, "Tazkirat ul-Avliya" by the 12th century mystic poet Farididdin Attar was composed of stories, and later it was widely spread in the Islamic world. Alisher Navoi mentioned Fariduddin Attar as the author of Tazkirat ul-Avliya in his work "Nasayim ul-Muhabbat" and said, "With the permission of the Almighty God, I put my pen to this great work and I put my pen to it and Hazrat Sheikh Fariduddin Attar p.s. Some quotes from "Tazkirat-ul-Avliya" that ended I did not include it in "Nafohat ul-uns" - I included each of them in the appropriate place, and the commentaries of the Indian mashayi were also mentioned a little, I asked for and found Hazrat Qutb ul-Avliya Shaykh Farid Shakarganj q.a.d. until the last mashayih, and the Turkish mashayi. He mentioned it less and less "I have made a wish of Hazrat Sheikh ul-Mashoyikh Khoja Ahmad Yassavi R.Din as far as possible, and I have published his zikrs and some of his sayings in his own place," he said. It seems that the main reason for the movement of the pen in Tazkira is that Abdurrahman Jami's work "Nafohat ul-uns" met some great sheikhs without names in Farididdin Attar's "Tazkirat ul-Avliya" ul-muhabbat" in a perfect way. glorifying the status of the Turkish language and promoting the creativity of writers in this language has always been Alisher Navoi's original goal. For this reason, Shaykh Ahmad Yassavi includes Turkigos from the time of the poet's life. In this place, the poet says that the creators of the past published their "zikr", "situation" and "word".

It can be seen from this that a large number of creative people are noted in the tazkiras, their mood is reported, and their works are mentioned it should be said that before Islam, the names of famous poets with their famous genealogies and descendants were mentioned by narrators.

Arabs had "genealogies" of poets even in the pre-Islamic period, and after Islam, when the sciences of tafsir and hadith appeared, the biography of the narrators was needed to know for sure that there was no break in the musnad. therefore, Arab creators called the biographical works "tabaqat ush-shuaro". In Persian literature, authors use the word "tazkira" in a different sense instead of the word "tabaqat" used by the Arabs. Purman works of this genre are received with great interest in the Islamic world and impress many readers. Tazkiranavis, which was popular in Arabic until the 12th century, gradually gives way to Tazkiranavis of Persian literature.

#### REFERENCES

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992 йил
2. Абдуллаев И. Бухоронинг арабийнавис шоирлари. - Тошкент: Фан, 1965 йил
3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. - Toshkent: Tamaddun nashriyoti, 2018 yil
4. Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадиий сўз санъати //Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1966. №37.
5. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976 йил
6. Ойбек. Навоийнинг “Мажолисун нафоис” асари ҳақида. –Тошкент: Фан, 1979 йил
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil

8. Хайитметов А. “Мажолис ун-нафоис”нинг ноёб бир нашри ҳақида // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 2004, №2.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n yettinchi tom. Nasoyim ul-muhabbat. - T.: “Fan” nashriyoti, 2001 yil
10. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 -yil
11. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” нинг икки таҳрири//Халқ сўзи. – Тошкент, 2013. № 28.
12. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” га изоҳ ва таржималар. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 13 том. –Тошкент: Фан, 1998 йил
13. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ҳақида янги маълумот//Буюк ва муқаддасан, мустақил ватан (тўплам). Т-2011.
14. Internet saytlari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) [www.google.uz](http://www.google.uz) [www.google.ru](http://www.google.ru)

## БИЗ ҲАҚИҚИЙ КИТОБХОНМИЗМИ?

Норбоева Гуллола Кахрамоновна

Навоий вилояти юридик техникуми ахборот-кутубхона технологияси  
бўйича мутахасис.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13834980>

*Аннотация.* Ушбу мақолада бугунги кун китобхонларнинг китобга бўлган муносабати уларнинг кўпроқ интернет маълумотларига қизиқишлари ошиб бораётганлиги ҳақида фикр юритилган.

*Калит сўзлар:* зиёкор, андоза, қобилият, ибора.

## ARE WE A REAL LIBRARY?

*Abstract.* This article discusses how today's readers' attitude toward books is increasing as they become increasingly interested in more information from the Internet.

*Key words:* intelligence, model, ability, expression.

## МЫ НАСТОЯЩАЯ БИБЛИОТЕКА?

*Аннотация.* В данной статье отражено отношение современных читателей к книгам, поскольку их интерес к большему количеству информации в Интернете возрастает.

*Ключевые слова:* интеллект, модель, способность, выражение.

Баъзида китоб-билим булоғи, китобим-офтобим, китоб-маънавият ўчоғи деган жуда чиройли мисраларни гувоҳи бўламиз. Китоб-ҳақиқатдан ҳам шундайми? Бугунги кунда ёшларимизни китобга меҳри қай даражада? Китобни ўзига дўст билишадими? Ёки ўқишга кириш учунгина ўқиядими? Шу каби саволлар ҳар бир маънавиятли инсонни қийнайди менинг назаримда.

Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий ҳазратлари ёзганидек, “**китоб-беминнат**”, **билим ва аънавий ва юксалишга эришишнинг энг асосий манбаи**”. “**Китобсиз ақл-қанотсиз куш**”, “**Билим-ақл чироғи**”, “**Гўзаллик-илми маърифатда**”.

Бундай ҳикматли ҳикматли нақлларни узоқ давом эттириш мумкин. Неча минг йиллардан буён инсонларга тўғри йўлни кўрсатиб келаётган, уларнинг билимли, тарбияли касб-ҳунарли ва албатта бахтли бўлишининг муҳим омили -бу китобга дўст бўлиш ва ўқишни қанда қилмасликдир. Айниқса, ёшларнинг ҳаётида китобнинг алоҳида ўрни бор.

Чунки яхши китоб инсонда Ватанга муҳаббат, миллий ва умумсоний қадриятларга ҳурмат туйғуларини юксалтириб, яхшилик ҳамда эзгуликка ундайди. Китобга ошно кишидан ҳеч қачон чиқмайди. Фарзандларимизга китоб ўқишни тарғиб этишимиз эмас, уларга ўрнатилган бўлишимиз лозим. Китобнинг бебаҳо дўстлиги ҳақида ёзувчи Ўткир Ҳошимовнинг, “**Эътибор бергансизми-йўқми, билдим-ку, сизнинг садоқатда тенгсиз дўстингиз бор. Қачон хохласангиз сиз билан ҳамсуҳбат бўлади. Шод пайтингизда қувончингизга қувонч қўшади. Ғамгин паллада дардингизни олади.**

Билмаганингизни ўгатади. Адашсангиз тўғри йўл кўрсатади. Яқин кишиларингиз бурилиб кетганида ҳам у сизни тарқ этмайди. Хизмати учун ҳеч нарса тама қилмайди. Йиллар унитиб, ташлаб қўйсангиз индамайди. Ҳатто улоқтириб юборсангиз ҳам аразламайди. Тагин чорласангиз, етиб келиб, хизматингизни

**қилаверади”...Бу дўстнинг номи-Китоб!** деганди. Китоб мутаола қилган инсон ниҳоятда сўзга бой, маънавий дунё қараши теран, ҳаётни паст-баландини биладиган, инсонларга самимий муносабатда бўла олади. Ўзим бир зиёкор яъни кутубхоначи бўлганим учун ўқувчи-ёшлар билан мулоқат қилганимда, тўғри китоб ўқиш керак лекин вақт йўқ қўшимча дарсга боришим керак, бугунги кунда бу болаларимизни онгига сингиб қолган иборадир.

Ўқиган-ўқда ўзар дейди дона халқимиз, ўзимизни ўтмишимизни, кўп асрларга тотугилик бобокалонларим-у, илм-у уломоларимизни билмасдан туриб қандай етук комил инсон бўла олишимиз мумкин! Халқимизда “қуш уясида кўрганини қилади” деган нақл бор. Мақолнинг мазмуний моҳиятига ёндашадиган бўлсак, фарзанд ота-онасида андоза олади. Агар ота-оналаримиз фарзандларга ўрнак бўлиб қунига ярим соат бўлсада китоб мутаола қилганда эди, балки ёшларимиз ҳам қушлар каби ўз инида кўрганини қилишган бўлар эди.

Китоб ўқиш машғулоти шундай жараён-ки, ота-оналаримиз фарзандларини ёшлигиданоқ бу машғулотга қизиқтира олсалар кейинчалик фарзандларнинг ўзи хаттоки китобни саралаб ўқиш қобилиятига эга бўладилар, ҳолбуки ҳеч кимнинг кўмаги ва кўрсатмасисиз. Албатта бу жараённи шакллантириш қандай кечади деган савол ўз-ўзидан пайдо бўлади.

Бунинг учун ота-оналаримиз фарзандларига болалигидан ёшига қараб аввал расмли, кейинчалик эса эртақ китоблар сотиб олиб ўқиб беришлари керак, фарзандларни ёшига ёш қўшилган сари ҳикоялар, қиссалар тўплами, романлар ўқишига туртки бўлишса, яъни ўзлари севган китобларини олиб берибишсалар, қолаверса унинг назоратини ўз зиммасига олишсалар, боласи билан ўқиган асари юзасида суҳбатлашсалар борган сари ёш авлод онгида китоб ўқиш ва мутаола қилишга нисбатан шартли ривлекс ҳосил бўлади.

Хулоса ўрнида шуни айтишим мумкинки, китоб билан дўстлашган инсондан ҳеч қачон ёмонлик чиқмайди. У ватанига садоқатли дўст, яхши ота-она, энг яхши жамият аъзоси бўла олади. Агар ҳар бир болани китобга меҳрини, биз ота-оналар уйғота олсак билинг-ки биз буюк олим-у, уламолари бор ривожланган мамлакатларимиз қаторидан муносиб жой олаоламиз.

Келинглари азиз ота-оналар фарзандларимизга шу бугундан китоб сотиб олиб бериб ўз келажагимизни гуллаб яшнатайлик, шундаги бизни ўтиб кетган буюк алломаларимиз-у уламоларимизни руҳлари шод қилган, ўз мақсадимизга эришган ҳақиқий китобхон бўла оламиз.

## REFERENCES

1. Ахунжонов Э.О. Ватан кутубхоначилиги тарихи: 1-қисм Дарслик/ “Тошкент”
2. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2004-106 б.
3. Ахунжонов Э.О. Ватан кутубхонашунослик, Архившунослик, Китобшунослик назарияси тарихи.-Тошкент, 2011-520 б
4. Қосимова О. ва Есимов Т. Умумий кутубхонашунослик; ЎЗР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги.-Т.: -ўқитувчи: 1994.350 б.

## ДАСТЛАБКИ ЭШИТУВ БОСҚИЧИДА ПРОКУРОР ИШТИРОКИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

С.Н.Эсаналиев

Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш Академияси  
мустақил изланувчиси.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13835240>

*Аннотация.* Мақолада жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида кўрилишида прокурор иштирокининг ўзига хос жиҳатлари, ушбу босқичда прокурорнинг асосий вазифалари, эътибор қаратилиши лозим бўлган ҳолатлар, прокурор иштирокини такомиллаштириши масалалари таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** дастлабки эшитув, прокурор, суд, суд ажрими, судья.

### SPECIFIC ASPECTS OF THE PROSECUTOR'S PARTICIPATION IN THE PRELIMINARY HEARING STAGE

*Abstract.* The article analyzes the features of the prosecutor's participation in the preliminary hearing of criminal cases, the main tasks of the prosecutor at this stage, aspects that should be paid attention to, as well as issues of improving the participation of the prosecutor.

**Key words:** preliminary hearing, prosecutor, court, court ruling, judge.

### ОСОБЕННОСТИ УЧАСТИЯ ПРОКУРОРА НА СТАДИИ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОГО СЛУШАНИЯ

*Аннотация.* В статье анализируются особенности участия прокурора в предварительном слушании уголовных дел, основные задачи прокурора на этой стадии, аспекты, на которые следует обратить внимание, а также вопросы совершенствования участия прокурора.

**Ключевые слова:** предварительное слушание, прокурор, суд, определение суда, судья.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 143-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қонунларнинг аниқ ва бир хилда бажарилиши устидан назоратни Ўзбекистон Республикасининг Бош прокурори ва унга бўйсунувчи прокурорлар амалга ошириши, Конституциянинг 145-моддасида прокуратура органлари ўз ваколатларини бошқа давлат органларидан, ўзга ташкилотлардан, мансабдор шахслардан мустақил равишда, фақат Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ва қонунларига бўйсунган ҳолда амалга ошириши қайд этилган.

“Прокуратура тўғрисида”ги қонунининг 4-моддаси ҳамда 33-моддасида прокурор судларда жиноят ишлари кўрилатганда давлат айбловини қувватлаши, суд процессининг бошқа иштирокчилари билан тенг ҳуқуқлардан фойдаланиб, судьяларнинг мустақиллиги ҳамда процессуал қонунчилик нормаларига қатъий риоя этиш принципига амал қилиши шартлиги белгиланган.

Бундан ташқари, ишлар судларда кўрилатганда иштирок этаётган прокурорнинг ваколатлари процессуал қонунлар билан белгиланиб, бунинг бевосита ҳуқуқий асоси сифатида Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексини келтириб ўтиш мумкин.



Амалдаги ЖПКнинг 409-моддасида прокурор биринчи инстанция судларида жиноятларга доир ишларни кўришда иштирок этиб, давлат айбловини қувватлаши, далилларни текширишда иштирок этиши, судланувчиларга, жабрланувчилар, гувоҳлар, экспертлар ва судга таклиф этилган бошқа шахсларга саволлар бериши, Жиноят кодексининг нормаларини қўллаши, судланувчининг ҳаракатларини тавсифлаши, унга жазо турини ва меъёрини тайинлаш тўғрисида ҳамда суд ҳал этиши лозим бўлган бошқа масалалар юзасидан ўз фикрини баён қилиши, жиноятнинг сабаблари ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар ҳақида ҳамда уларни бартараф этишга қаратилган чоралар хусусида ўз фикрини билдириши кўрсатилган. Мазкур модданинг иккинчи қисмида прокурор давлат айбловини қувватлар экан, ЖПКнинг, Ўзбекистон Республикаси бошқа қонунларининг талабларига ва ишнинг барча ҳолатларини қараб чиқишга асосланган ўз ишончига амал қилиши қайд этилган. Амалдаги ЖПКнинг 405<sup>6</sup>-моддасининг учинчи қисмида дастлабки эшитув босқичида давлат айбловчиси иштирок этиши шартлиги белгиланган. Дастлабки эшитув босқичида прокурорнинг иштироки айбловни қўллаб-қувватлаш, жиноят ишида қонунийликни таъминлаш ҳамда суд жараёнининг самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонида<sup>41</sup> Бош прокуратура ҳамда Олий суднинг барча босқичлардаги суд ишларини юритишда тортишув ва тарафларнинг тенглиги тамойилларини тўлақонли рўёбга чиқариш, судларнинг холислигини амалда таъминлашга қаратилган янги механизмни жорий этиш бўйича ихтисослашган прокурорлар корпуси ташкил этилди. Мазкур корпуснинг асосий вазифалари этиб :

- судларда ишларни кўришда прокурор ваколатини таъминлаш;
- суд процессининг бошқа иштирокчилари билан тенг ҳуқуқлардан фойдаланган ҳолда одил судлов фаолиятининг самарали амалга оширилишига кўмаклашиш;
- жиноят ишлари бўйича судларда давлат айбловини фақат қонунга асосланиб, холисликни сақлаган ҳолда сифатли қўллаб-қувватлаш каби бир қатор вазифалар белгиланди.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, дастлабки эшитув босқичида иш юритиш тартиби ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, бу прокурорнинг ваколатларида ҳам ўз ифодасини топади. Мазкур босқичда прокурорнинг асосий вазифалари сифатида давлат айбловини қувватлаш ва исботлаш, далилларни тақдим этиш, давлат манфаатларини химоя қилиш ва жиноят қонунларининг адолатли қўлланилишини таъминлаш деб тушуниш мумкин.

Бугунги кунда давлат айбловчисининг дастлабки эшитув босқичидаги иштироки, унинг процессуал мақоми, ҳуқуқ ва мажбуриятлари, исботлаш субъекти сифатидаги фаоллиги даражаси, далилларни келтириш ва текширишда дуч келадиган муаммоларни ўз вақтида бартараф этиш, тараф сифатида илтимоснома тақдим қилиш тартиб-таомилларини ислоҳ қилиш долзарб бўлиб қолмоқда.

<sup>41</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 16.01.2023 й, ПФ-11. [электрон ресурс], қаралган вақти 22.07.2024 й. <http://lex.uz/acts/>

Илмий манбаларда прокурорнинг дастлабки эшитув босқичидаги процессуал мақоми хусусида турли қарашлар илгари сурилади.

Мисол учун, бир гуруҳ олимлар А.В.Смирнов<sup>42</sup>, Шарль Луи де Монтескье<sup>43</sup>, Ф.Н.Багаутдинов<sup>44</sup> фикрича “прокурор айблов тараф сифатида жиноий таъқиб қилиш функциясини амалга оширадиган мансабдор шахс” деб фикр билдирган бўлсалар, иккинчи гуруҳ олимлар В.И.Басков<sup>45</sup>, И.Д.Перлов<sup>46</sup>, П.И.Кудряцев<sup>47</sup>, В.М.Савицкийлар<sup>48</sup> “прокурор давлат айбловчиси вазифаларини бажариши билан бирга, қонунларга риоя этилишини назорат қилади”, яна бошқа олимлар А.Бойков, К.Скворцов, В.Рябцевлар<sup>49</sup> “прокурор жиноий таъқиб қилувчи субъект бўлмаслиги керак, у фақат қонунларни назорат қилиши, исботлаш босқичида ҳимоячи билан тенг ҳуқуқли субъект сифатида намоён бўлади” деб фикр билдирганлар. Юқоридагиларга кўра, А.В.Смирнов, Шарль Луи де Монтескье, Ф.Н.Багаутдиновларнинг фикрларига кўшилиш баҳслидир. Олимлар В.И.Басков, И.Д.Перлов, П.И.Кудряцев ҳамда В.М.Савицкийлар фикрларига кўшилиш мумкин. Сабаби, жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида кўриб чиқилишда прокурор иш юзасидан ўз фикрини судга тақдим этишида ҳамда қонунийликни назорат қилувчи субъект сифатида намоён бўлади. Олимлар А.Бойков, К.Скворцов, В.Рябцевлар фикрларини тўлиқ қўллаб-қувватлаймиз. Сабаби, давлат айбловчиси дастлабки эшитув босқичида жиноят ишини объектив ва адолатли текшириши, фақат айблов эмас, балки айбсизлик эҳтимолини ҳам инобатга олиши лозим деб биламиз. Айнан дастлабки эшитув босқичида давлат айбловчиси бир томонлама айбловчи шахс сифатида эмас, балки суд жараёнида адолатни таъминловчи шахс сифатида намоён бўлиши лозим деб биламиз. Шу жумладан, давлат айбловчиси ушбу босқичда ҳимоячи билан тенг позицияда бўлиб, мақбул далилларга таянган ҳолда иштирок этади. Бир сўз билан айтганда, давлат айбловчиси айбланувчига қарши фаолият юритувчи эмас, балки далилларни ҳолисона баҳолайдиган субъект бўлиши керак деб биламиз.

Л.В.Головкони таъкидлашча, давлат айбловчиси дастлабки эшитув босқичида иштирок этганда, ишни судга тайёрлаш сифати ошади<sup>50</sup>. Ушбу фикрга кўшилишимиз мумкин. Чунки, дастлабки эшитув босқичида давлат айбловчисига судга тақдим этилган жиноят ишидаги далилларни синчковлик билан текшириш имконини беради. Бу эса уларнинг қонунийлиги ва асослилигини таҳлил қилишга, суд жараёнида ушбу далилларга ўзининг муносабатини билдириш имконини беради. Бир сўз билан айтганда ишнинг кейинги тақдирини қонуний ҳал этилишида ўз стратегияни яратишга ёрдам беради.

<sup>42</sup> Алексеев С. Н. Функция прокурора по новому УПК РФ // Государство и право. 2002. №5. С.99.

<sup>43</sup> Монтескье Ш. Л. “О духе законов”. СПб., 1900. С.86.

<sup>44</sup> Багаутдинов Ф. Н. Обеспечение публичных и личных интересов при расследовании преступлений. М., 2004. С. 479.

<sup>45</sup> Басков В. И. Прокурор в суде первой инстанции. М., 1968. С. 79.

<sup>46</sup> Савицкий В. М. Государственное обвинение в суде. М., 1971. С.32.

<sup>47</sup> Кудряцев П. И. Прокурор в суде первой инстанции // Социалистическая законность 1970. №4. С.4—5.

<sup>48</sup> Савицкий В. М. Выступление на совместном заседании Совета по рассмотрению вопросов теоретического характера и координационных бюро ВНИИ Прокуратуры СССР “О проекте раздела 7 Конституции СССР// Научная информация по вопросам борьбы с преступностью. Выпуск 127. М., 1990. С. 49.

<sup>49</sup> Бойков А., Скворцов К., Рябцев В. Проблемы развития правового статуса Российской прокуратуры // Уголовное право. 1999. №2. С. 12, 18,21.

<sup>50</sup> Головки Л.В. “Современные проблемы уголовного процесса”. – Москва: Статут, 2015. – стр 162-164.

Амалдаги ЖПКга асосан, дастлабки эшитув босқичида ҳимоя тарафи тақдим этган важларни рад этиш прокурорнинг зиммасида бўлиши кўрсатилган. Бу борада бир гуруҳ олимлар В.А. Белкин<sup>51</sup>, А.Е.Лунц<sup>52</sup>, Г.П. Чечель<sup>53</sup> *“Прокурор ҳимоя тарафи томонидан тақдим этилган важларни дастлабки эшитув босқичида рад этиш мажбуриятини қонунийлик ва адолат принципларига асосланган ҳолда бажариши керак”* деб фикр билдирса, бошқа гуруҳ олимлар М.С.Строгович<sup>54</sup>, Б.Т.Базилев<sup>55</sup>, В.М.Лебедев<sup>56</sup> *“Ҳимоя тарафи томонидан тақдим этилган далилларни рад этиш фақат прокурор зиммасига юклатилиши ишдаги қонунийликка путур етказди”* деб таъкидлаган. Олимлар В.А.Белкин, А.Е.Лунц, Г.П.Чечельнинг фикрларига қўшилиш мумкин. Сабаби, жиноят процессида ҳар қандай ҳаракат амалдаги ЖПКнинг 11-моддасида кўрсатилган қонунийлик принципи талабларига мувофиқ бўлиши, яъни судья, прокурор, терговчи, суриштирувчи, ҳимоячи, шунингдек жиноят ишини юритишда иштирок этувчи барча шахслар Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, ушбу Кодекс ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонун ҳужжатларига аниқ риоя этишлари ва уларнинг талабларини бажаришлари шартлиги қайд этилган. Олимлар М.С.Строгович, Б.Т.Базилев, В.М.Лебедев фикрларини қўллаб-қувватламаймиз. Сабаби, амалдаги ЖПКнинг 405<sup>11</sup>-моддасининг 4-қисмига кўра, ҳимоя тарафи томонидан берилган илтимосномани кўриб чиқиш чоғида ҳимоя тарафи тақдим этган важларни рад этиш прокурорнинг зиммасида бўлиши, қолган ҳолларда буни исботлаш вазифаси илтимоснома берган тарафнинг зиммасида бўлиши, Кодекснинг 409-моддасида прокурор биринчи инстанция судларида жиноятларга доир ишларни кўришда иштирок этиб, давлат айбловини қувватлаши белгиланган.

Бизнингча, дастлабки эшитув босқичида прокурор жиноят ишида биринчи навбатда далилларни ЖПК талабларига мувофиқ олинган, олинмаганлигини асослаши ҳамда исботлаши, ҳимоячи томонидан киритилган илтимосномаларга қонун ҳужжатларига асосан ҳуқуқий баҳо бериши асносида иш материалларидаги бўшлиқларни ўрнини тўлдириши зарур.

Бу борада илмий манбааларда олимлар томонидан қуйидаги қарашлар илгари сурилади.

Р.Д.Рахуновнинг фикрича, *“асоссиз айблов айблаш эмас, айблов далилларга асосланган бўлиши керак, далилларни тақдим этиш ва уларни таҳлил қилиш эса прокурор зиммасидадир”*<sup>57</sup>. К.А.Корсаков *“прокурор нафақат айбловнинг далилларини тизимлаштиради, таҳлил қилади, балки, ҳимоя томонидан илгари сурилган қарши далилларни ҳам рад этади”*<sup>58</sup>. Билдирилган фикрларга қисман қўшилаемиз. Сабаби, айблов

<sup>51</sup> Белкин В.А. “Уголовный процесс”. – Москва: Юридическая литература, 2010. С 328.

<sup>52</sup> Лунц А.Е. “Проблемы уголовного процесса”. – Москва: Статут, 2013. – с 214-216.

<sup>53</sup> Чечель Г.П. “Уголовное судопроизводство”. – Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2012. Стр 147.

<sup>54</sup> Строгович М.С. “Курс советского уголовного процесса”. – Москва: Наука, 1981. Стр 301-302.

<sup>55</sup> Базилев Б.Т. “Уголовный процесс и право на защиту”. – Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2012. С 178.

<sup>56</sup> Лебедев В.М. “Уголовное судопроизводство и процессуальные гарантии”. – Москва: Статут, 2010. Стр 224.

<sup>57</sup> Рахунов Р. Д. Участники уголовно-процессуальной деятельности по советскому праву. М., 1961. С.52.

<sup>58</sup> Корсаков К. А. Криминалистические и процессуальные проблемы подготовки прокурора к судебному разбирательству уголовного дела. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. СПб., 2000. С. 19.

далилларга асосланмаган бўлса, жиноят ишининг кейинги тақдирига салбий таъсир кўрсатибгина қолмай, процесс иштирокчиларининг конституциявий ҳуқуқлари бузилишига олиб келиши табиий.

А.Ф.Кони<sup>59</sup> ва Ю.В.Кореневский<sup>60</sup>ларнинг фикрича, *“прокурор ишни бирёқлама, фақат судланувчини айбловчи далиллар аҳамияти нуқтаи назардан жиноятни бўрттириб кўрсатмаслиги керак”*. Билдирилган фикрга қўшилиш мумкин. Сабаби, давлат айбловчиси ҳимоячи томонидан илгари сурилган қарши далилларни (илтимосномаларни) ҳар доим ҳам рад этиши мунозарали ҳисобланади. Чунки, дастлабки эшитув босқичида жиноят иши бўйича ҳимоячи томонидан тақдим этилган далиллар ҳамда илтимосномалар қонуний ва асослантирилган бўлса, уларни рад этиш асоссиздир.

О.М.Мадалиевнинг фикрича, *“ассосиз илтимосномаларга нисбатан прокурор ўзининг қатъий ва асослантирилган эътирозини билдириши, илтимосномани чуқур ўрганиб чиқиши ва жиноят иши бўйича аҳамияти йўқлиги ҳақида аниқ ишонч ҳосил қилиши шарт”*<sup>61</sup>. Ушбу фикрга тўлиқ қўшилаемиз. Сабаби, ҳуқуқни қўллаш амалиётида ҳимоячилар томонидан айбланувчининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида айрим ҳолларда асоссиз илтимосномалар киритиш ҳолатлари кузатилиши табиий. Шунга кўра, асоссиз илтимосномаларга нисбатан прокурор ўзининг қатъий ва асослантирилган эътирозини билдириши жиноят ишининг адолатли ҳал этилишига хизмат қилади.

М.З.Раджапованинг фикрича, *“жиноят процессида иштирок этувчи прокурор, иш бўйича судланувчи бўлиб ўтаётган шахсга қўйилган айбловни қай даражада асосли эканлиги, далиллар билан тасдиқланганлиги, қонуний квалификация қилинганлиги хусусида ўзининг фикрини баён этиш орқали судланувчининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш билан бирга, айнан шу жиноят иши доирасида жабрланувчи тариқасида ўтаётган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, иш бўйича сўроқ қилинаётган гувоҳларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари поймол этилмаслигини олдини олувчи шахс ҳамдир”*<sup>62</sup>. Билдирилган ушбу фикрларни тўлиқ қўллаб-қувватлаймиз. Сабаби, дастлабки эшитув босқичида айбланувчи, жабрланувчи, гувоҳ ва экспертлар иштирок этиши мумкин бўлиб, улар билан узвий боғлиқ бўлган далиллар қай даражада асослантирилганлиги ва тасдиқланганлиги ҳамда иш бўйича сўроқ қилинаётган мазкур процесс иштирокчиларининг ҳуқуқ ва эркинликлари поймол этилмаслигини олдини олиш муҳим аҳамият касб этади.

Бизнингча, дастлабки эшитув босқичида прокурорнинг вазифаси, асосан, айблов хулосасининг қонунийлигини баҳолашдан иборат бўлиб, мазкур босқичда айблов хулосаси ва унга асосланган далилларнинг қонунчиликка мослигини таъминлайди. Шу каби, дастлабки эшитув босқичида прокурор доим ҳам давлат айбловини тўлиқ қувватлаш билан

<sup>59</sup> Кони.А.Ф. Собрание сочинений. Т.4. М., 1967. С. 62.

<sup>60</sup> Кореневский Ю. В. Государственное обвинение: какая реформа нужна? // Законность. 2001. №4 С. 31

<sup>61</sup> О.М.Мадалиев. Биринчи инстанция судларида жиноят ишлари кўрилишида прокурор иштироки. Юридик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2004, 69 б.

<sup>62</sup>М.З.Раджапова. “Жиноят ишларини юқори суд инстанцияларида кўрилишида прокурор функциялари ва ваколатларини такомиллаштириш: киёсий-ҳуқуқий таҳлил”. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган ДИССЕРТАЦИЯ. Тошкент, 2023 й. 24 б.

шуғулланмайди. Бу вазифа баъзан, дастлабки эшитув босқичида ёки кейинчалик умумий суд муҳокамасида амалга оширилиши мумкин. Масалан, жиноят ишини тўхтатиш, бирлаштириш (ажратиш), ишни прокурорга қайтариш борасида прокурор давлат айбловини қувватламасдан, ўз ташаббусига кўра судга илтимоснома киритиши ҳам мумкин.

Фикримизча, прокурорнинг жиноят иши материаллари билан танишиши, далилларга ўз вақтида қонун ҳужжатларига асосан ҳуқуқий баҳо бериши келгусида юзага келиши мумкин бўлган хато ва камчиликлар салмоғини сезиларли даражада камайтиришга хизмат қилади. Бу борада давлат айбловчилари жиноят иши материалларини қонун ҳужжатларига асосланган ҳолда пухта ўрганиши, далилларни синчковлик билан текшириши ҳамда ишни давом эттириш учун етарли қонуний асослар мавжудлигини аниқлаши лозим. Яъни, давлат айбловчилари жиноят иши доирасида жиноят таркиби (*жиноятнинг субъекти, объекти, объектив томони, субъектив томони*), жиноят сабаблари, ишга оид бошқа далиллар ҳақида етарли даражада билим ва кўникмаларга эга бўлиши иш ҳолати юзасидан асослантирилган фикр берилишига ёрдам беради. Бир сўз билан айтганда, прокурор айблов хулосаси асосида тўпланган далилларнинг қонунийлиги ва асослилигини исботлашда унинг қанчалик профессионал бўлишига боғлиқ.

Ҳуқуқни қўллаш амалиётида жиноят иши доирасида етарли даражада маълумот ҳамда билим ва кўникмаларга эга бўлмаган давлат айбловчилари дастлабки эшитув босқичида ҳимоячи томонидан киритилган илтимосномалар юзасидан қийинчиликларга дуч келиши мумкин. Чунки, юқорида таъкидлаганимиздек, ушбу босқичда ҳимоячи томонидан киритилган илтимосномани рад қилиш ёки айбловни исботлаш вазифаси прокурор зиммасида бўлади.

Амалдаги ЖПКга кўра, жиноят ишларини дастлабки эшитув босқичида кўриб чиқиш бўйича қоидалар мустаҳкамланган бўлсада, бу борада ЖПКда айрим ҳуқуқий бўшлиқларни учратишимиз мумкин. Масалан, амалдаги ЖПКнинг 405<sup>3</sup>-моддасининг 2-қисмида назарда тутилган асослар мавжуд бўлган тақдирда, суд тарафларнинг илтимосига кўра ёки ўз ташаббуси билан жиноят иши бўйича дастлабки эшитув ўтказиши кўрсатилган. Амалдаги ЖПКнинг 25-моддаси, 4-қисмига кўра<sup>63</sup>, “*давлат ва жамоат айбловчилари, судланувчи, вояга етмаган судланувчининг қонуний вакили, ҳимоячи, жамоат ҳимоячиси, шунингдек жабрланувчи, фуқаровий даъвогар, фуқаровий жавобгар ва уларнинг вакиллари суд мажлисида тарафлар сифатида иштирок этишлари* ва далиллар тақдим этиш, уларни текширишда қатнашиш, илтимос билан мурожаат қилишлари белгиланган”.

Бироқ, амалдаги ЖПКда давлат айбловчисининг жиноят иши бўйича дастлабки эшитув тарзидаги илтимосномаси (*жиноят ишини тўхтатиш, тугатиш, бирлаштириш, ажратиш, ишни прокурорга юбориш, номақбул далилларни чиқариб ташлаш*) қачон, қандай тартибда берилиши тартиб-таомиллари асослантирилмаган. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 14.05.2022 йилдаги “*Жиноят ишларини биринчи инстанцияда кўриб чиқишга тайёрлаш бўйича суд амалиёти тўғрисида*”ги 6-сонли Қарорининг 14-бандида “ЖПК 395 ва 405<sup>11</sup>-моддалари мазмунига кўра, жиноят иши бўйича

<sup>63</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. [Электрон ресурс], қаралган вақти 17.02.2024 йил. <https://www.lex.uz>



дастлабки эшитув ўтказиш тўғрисидаги илтимоснома **фақатгина “айбланувчи”** томонидан айблов далолатномаси ёки айблов хулосасининг кўчирма нусхаси олинган кундан эътиборан уч сутка ичида берилиши кўрсатилган”<sup>64</sup>.

Бизнингча, амалдаги ЖПКда прокурорнинг жиноят иши бўйича дастлабки эшитув тарзидаги (*жиноят ишини тўхтатиш, тугатиш, бирлаштириш, ажратилиш, ишни прокурорга юбориш, номақбул далилларни чиқариб ташлаш*) илтимоснома бериш тартиб-таомилларини белгилаш мақсадга мувофиқдир.

Фикримизча, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 14.05.2022 йилдаги “*Жиноят ишларини биринчи инстанцияда кўриб чиқишга тайёрлаш бўйича суд амалиёти тўғрисида*”ги 6-сонли Қарорининг 14 бандидаги “ЖПК 395 ва 405<sup>11</sup>-моддалари мазмунига кўра, жиноят иши бўйича дастлабки эшитув ўтказиш тўғрисидаги илтимоснома айбланувчи томонидан айблов далолатномаси ёки айблов хулосасининг кўчирма нусхаси олинган кундан эътиборан уч сутка ичида берилиши мумкин” деган қондан “ЖПК 395 ва 405<sup>11</sup>-моддалари мазмунига кўра, жиноят иши бўйича дастлабки эшитув ўтказиш тўғрисидаги илтимоснома **тарафлар иш материаллари билан танишган вақтдан, айбланувчи томонидан айблов далолатномаси ёки айблов хулосасининг кўчирма нусхаси олинган кундан эътиборан етти сутка берилиши мумкин**” деган қондага ўзгартириш мақсадга мувофиқ. Бу эса, келгусида ҳуқуқни қўллаш амалиётида турли хил талқинларнинг олдини олади.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, бугунги кунда давлат айбловчиларининг жиноят судларидаги иштирокининг ташкилий ҳуқуқий асоси сифатида Бош прокурорнинг 27.11.2015 йилдаги “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”ги 126-сонли буйруғи қабул қилинган<sup>65</sup>. Бош прокурорнинг ушбу соҳавий буйруғи талабларига кўра прокурорлар суд мажлиси бошлангунга қадар пухта тайёргарлик кўриши, терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки терговнинг ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона олиб борилганлигини ўрганишлари, далилларни текшириш ҳамда уларга баҳо беришда фаол қатнашишлиги, иш бўйича қонун ва иш ҳужжатларига асосланган фикр беришлари борасида бир қатор эътибор қаратилиши лозим бўлган масалалар қайд қилинган<sup>66</sup>. Бирок, соҳавий буйруқ талабларига кўра, жиноят ишлари биринчи инстанция судларида дастлабки эшитув тарзида кўриб чиқилишида давлат айбловчилари (прокурорлар)нинг иштироки ҳақида тегишли қондалар белгиланмаган.

Россия Федерацияси Бош прокурорининг соҳавий буйруғи (03.07.2002 йилдаги “Жиноят процессининг суд босқичида прокурорлар ишини ташкил этиш тўғрисида”ги 28-

<sup>64</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 14.05.2022 йилдаги “Жиноят ишларини биринчи инстанцияда кўриб чиқишга тайёрлаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 6-сонли Пленум қарори. [электрон ресурс] қаралган вақти 17.02.2024 йил.

<sup>65</sup> Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорнинг буйруғи. “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”. 27.11.2015 йил, 126-сон.

<sup>66</sup> Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорнинг буйруғи. “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”. 27.11.2015 йил, 126-сон.



сонли)га кўра, дастлабки суд мажлисида прокурорнинг иштироки мажбурийлиги кўрсатилган<sup>67</sup>.

Фикримизча, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 27.11.2015 йилдаги “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”ги 126-сонли буйруғига дастлабки эшитув босқичида прокурор иштироки билан боғлиқ асосий қоидаларни белгилаш мақсадга мувофиқ.

Эндиликда, юқоридаги илмий-назарий фикрлардан келиб чиқиб, давлат айбловчисининг дастлабки эшитув босқичида қандай ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга эканлиги ҳақида тўхтатиб ўтсак. Бизнингча, амалдаги ЖПК ҳамда илмий-назарий қоидаларга кўра давлат айбловчиси дастлабки эшитув босқичидаги ҳуқуқлари сифатида далиллар тақдим этиши, ишдаги мавжуд далиллардан фойдаланиши, қўшимча далилларни тақдим этиш ёхуд янги далиллар келтириш мақсадида илтимосномалар киритиш ҳуқуқига эга. Мисол учун, қўшимча ёки қайта экспертиза тайинлаш, гувоҳларни сўроқ қилиш каби.

Давлат айбловчисининг дастлабки эшитув босқичидаги мажбуриятлари сифатида айбловни қонуний ва асосли тарзда қўллаб-қувватлаш ҳамда процессуал қонунийликни таъминлашни келтириб ўтишимиз мумкин.

Бу борада айрим тадқиқотчи олимлар дастлабки эшитув босқичида давлат айбловчисининг қўшимча далиллар тўплаш билан боғлиқ ҳаракатларни шубҳа остига олиб, қуйидаги фикрларни илгари сурганлар.

Ф.М.Ягфаров<sup>68</sup>, В.Г.Ульянов<sup>69</sup> фикрича, “давлат айбловчисининг далилларни тўплаш билан боғлиқ илтимосномалари дастлабки тергов органлари ишидаги камчиликларни суд фаолияти ҳисобидан тuzатилмаслиги керак”. Билдирилган фикрга қўшилмаймиз. Сабаби, айбланувчининг ҳаракатларида жиноят таркибини тўлиқ исботлаш талаб этилган ҳолларда қўшимча процессуал ҳаракатларни суд жараёнида амалга ошириш натижалари юзасидан адолатли қарор қабул қилиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу борада олим Н.В.Кулик<sup>70</sup> юқоридаги олимлар Ф.М.Ягфаров ҳамда В.Г.Ульяновларнинг фикрларига қарши фикр билдириб “прокурор айбловга асосланган далилларни фақат ишда мавжуд бўлган далиллар билан эмас, балки дастлабки суд мажлисида бевосита олинган далиллар билан солиштириши йўли билан ҳам тегишириши мумкин” деб таъкидлаган ва бу фикрларга тўлиқ қўшилаемиз.

И.Д.Перловнинг таъкидлашича, “суд муҳокамасида қатнашувчи прокурор ҳар бир ҳолатда дастлабки терговнинг камчиликларини яширмаслиги керак”<sup>71</sup>. Билдирилган фикрга тўлиқ қўшилаемиз. Чунки, амалдаги ЖПКга кўра, прокурор Ўзбекистон

<sup>67</sup> Ковтун Н. Н., Роль прокурора в судебном процессе, 2019, стр. 112.

<sup>68</sup> Ягофаров Ф. М. Механизм реализации функции обвинен Автореф. дис.... канд. юрид. наук. Оренбург. 2003ия при рассмотрении дела судом первой инстанции. Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. Оренбург. 2003. [http:// www. kalinovskiy-k-narod.ru/b/yagof/Yagof-1 .htm](http://www.kalinovsky-k-narod.ru/b/yagof/Yagof-1.htm).

<sup>69</sup> Ульянов В.Г. Государственное обвинение в российском уголовном судопроизводстве (процессуальные и криминалистические аспекты). Автореф. дис. ...док. юрид. наук. Краснодар. 2002. С. 12.

<sup>70</sup> Н.В.Кулик “Осуществление прокурором доказывания на предварительном слушании”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2006 й, 194 ст.

<sup>71</sup> Перлов И. Д. Предание суду в советском уголовном процессе. М., 1948. С. 169

Республикаси Конституцияси, ЖПК ва бошқа қонун ҳужжатларига аниқ риоя этиши ва уларнинг талабларини бажариши шартлиги, қонунларни аниқ бажаришдан ва уларга риоя қилишдан ҳар қандай чекиниш, қандай сабабларга кўра юз берганидан қатъи назар, жиноят процессида қонунийликни бузиш деб ҳисобланиши ва белгиланган жавобгарликка сабаб бўлиши қайд этилган.

Бундан ташқари, жиноят процессида номақбул далилларни ишдан чиқариб ташлаш тўғрисидаги ишлар дастлабки эшитув тарзида кўриб чиқилишида исботлаш субъектларидан бири бўлган прокурор томонидан далилларга етарлича ҳуқуқий баҳо берилмаслиги салбий оқибатларга, кўп ҳолларда эса, жиноят ишлари бўйича адолатсиз қарор қабул қилинишига олиб келиши мумкин. Бу борада ҳуқуқшунос олимлар ўзларининг куйидаги фикрларни илгари сурганлар.

И.Д.Перловнинг фикрича<sup>72</sup>, *“дастлабки эшитув босқичида дастлабки терговнинг камчиликларини фақатгина томонлар ўртасидаги тортишув пайтида аниқлаш мумкин”*.

Мазкур фикрни олим Т.К.Рябина ҳам қувватлаб, шунга ўхшаш фикр билдирган<sup>73</sup>.

О.Ю.Гурова *“тарафлар далилларнинг мақбуллиги тўғрисидаги масалага қайта-қайта қайтиш ҳуқуқига эга бўлганлиги сабабли, бундай илтимосномалар ишни суд муҳокамасига тайёрлаш босқичида кўриб чиқилиши мумкин эмас”* деб таъкидлаган бўлса<sup>74</sup>, С.В.Марасанов юқоридаги фикрга қарши фикр билдириб, *“жиноят иши судга юборилгандан сўнг далилларни номақбул деб топиш ҳақидаги илтимосномалар фақат дастлабки суд мажлисида муҳокама қилиниши мумкин”*лигини таъкидлаган<sup>75</sup>.

П.А.Лупинская<sup>76</sup> ҳамда Е.А.Брагинлар<sup>77</sup> олим С.В.Марасанов фикрларига қарши *“дастлабки суд муҳокамасида далилларни шошилинч равишда чиқариб ташлаш нотўғри, чунки суд муҳокамаси пайтида улар моҳиятан синчковлик билан ўрганилиши ва шундан кейингина улар тўғрисида қарор қабул қилиниши керак”* деб фикр билдирган. Билдирилган фикрлардан П.А.Лупинская ҳамда Е.А.Брагинларнинг фикрларига тўлиқ қўшилиш мумкин ва бу миллий қонунчилигимиз талабларига ҳам тўлиқ мос келади. Сабаби, амалдаги ЖПКга кўра, *“агар суд далилни чиқариб ташлаш тўғрисида қарор қабул қилса, мазкур далил юридик кучини йўқотиши ва у ҳукмга ёки бошқа суд қарорига асос бўлиши, шунингдек суд муҳокамаси жараёнида бу далилни текшириш ва ундан фойдаланиш мумкин эмаслиги, ишни мазмунан кўриш давомида илгари номақбул деб топилган ва чиқариб ташланган далилни мақбул деб топиш масаласи тарафларнинг илтимосномасига асосан кўриб чиқилиши мумкин”*лиги ҳақида қоидалар белгиланган.

<sup>72</sup> Перлов И.Д. Предание суду в советском уголовном процессе. М., 1948. С. 169-170.

<sup>73</sup> Рябина Т.К. Стадия назначения судебного заседания в свете нового уголовно-процессуального закона: проблемы теории и практики, пути их решения // Российский судья. 2004 №7. С 6.

<sup>74</sup> О.Ю.Гурова. Теоретические и практические проблемы назначения судебного заседания по уголовным делам. Автореф. Дис...канд. юрид. наук. Екатеринбург. 2005. С. 18

<sup>75</sup> Марасанова С. В. Организационные и процессуальные проблемы деятельности суда присяжных // «Черные дыры» в Российском Законодательстве. 2002. № 4. С.390.

<sup>76</sup> Лупинская П.А. Доказательства и доказывание в новом уголовном процессе // Российская юстиция 2002. №7.С.5

<sup>77</sup> Брагин Е.А. Процессуальный порядок и правовые последствия признания доказательств недопустимыми в российском уголовном процессе: Дисс...канд.юрид.наук. Челябинск, 2003. С. 38.

Бизнингча, ҳуқуқни қўллаш амалиётида кўп ҳолларда далилларнинг номақбуллиги бўйича илтимосномалар тараф сифатида ҳимоячилар томонидан киритилади. Бундай илтимосномалар давлат айбловчилари томонидан атрофлича ўрганилиши, текширилиши, таҳлил қилиниши зарур ва шарт деб биламиз. Бундай илтимосномадаларда тараф чиқариб ташланишини илтимос қилаётган далил ҳамда далилни номақбул деб топиш ва чиқариб ташлаш учун ЖПКда назарда тутилган асослар кўрсатилиши лозим. Бу борада илмий манбаларда хорижий ҳуқуқшунос олимлар куйидаги қарашларни илгари сурганлар.

Н.В.Кулик “амалиётда кўп ҳолларда ҳимоячи тегишли далиллар акс этган иш материалларининг ҳажми ва варақларига мурожаат қилмасдан, далилларни номақбул деб топиш тўғрисида илтимосномалар беради”<sup>78</sup> – деб фикр билдирса, Ф.М.Ягфаров<sup>79</sup> “судланувчининг айбини суд олдида исботлаш учун давлат айбловчиси биринчи навбатда судланувчини айбдорлигини кўрсатувчи ҳар бир далилнинг қонунийлигини исботлаши керак”, В.М.Савицкийнинг<sup>80</sup> “прокурор иш материалларида мавжуд бўлган ҳужжатлар ва баённомаларни дастлабки кўриб чиқиш вақтида текширишни сўрабгина қолмай, ҳимоя томони тақдим қилган хулосаларнинг тўғрилигини исботлаш учун қўшимча ҳужжатларни ҳам тақдим этиши мумкин” – деб таъкидалаган. Бизнингча, юқоридаги ҳуқуқшунос олимларнинг фикрларига қўшилиш мумкин. Сабаби, иш ҳолати бўйича далилларга етарлича аҳамият қаратилмаган ҳолда, қонун талабларини ўзбошимчалик билан талқин қилиш орқали далилларни номақбул деб топиш қонунга зид ҳисобланади ва бунинг натижасида адолатсиз қарор қабул қилиниши мумкин. Шунга кўра, давлат айбловчилари (прокурорлар) юқоридаги ҳолатлар юзасидан ҳимоячилар томонидан киритилган рад этиш учун судда тортишув тамойилига риоя қилган ҳолда прокурор ваколатини таъминлаш мақсадга мувофиқдир. Жиноят-процессуал кодексининг муҳим принципларидан бири бўлган судда ишларни юритишда тортишув тамойили айна дастлабки эшитув босқичи алоҳида муҳим аҳамият касб этади. Чунки, жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида судда кўрилаётганда давлат айбловчиси ҳамда ҳимоячилар ўз зиммаларига юклатилган вазифаларни лозим даражада бажаришни тақозо этади. Айна дастлабки эшитув босқичида айбловнинг асослилигини ва далилларнинг мақбуллигини ҳимоя қилиш давлат айбловчисининг бевосита масъулияти ҳам ҳисобланади.

Статистик маълумотларга кўра<sup>81</sup>, судларнинг ташаббуси билан ўтказилган дастлабки эшитув тарзида кўрилган жиноят ишлари 2021 йилда 62 та, 2022 йилда 654 та, 2023 йилда 918 тани ташкил этган бир вақтда, тарафларнинг ташаббуси билан 2021 йилда 30 та, 2022 йилда 137 та, 2023 йилда 135 та жиноят ишлари бўйича дастлабки эшитув ўтказилган. Ҳуқуқни қўллаш амалиётидан тарафларнинг ташаббусига кўра (яъни ҳимоячи ҳамда давлат айбловчиси), дастлабки эшитув ўтказиш юзасидан илтимосномалар киритиш ҳолати суёт эканлиги кўринади.

<sup>78</sup> Н.В.Кулик “Осуществление прокурором доказывания на предварительном слушании”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2006 й, 194 ст.

<sup>79</sup> Ягфаров Ф. М. Механизм реализации функции обвинения при рассмотрении дела судом первой инстанции. Дис. ...канд. юрид.наук. Оренбург. 2003. <http://www.kalinovsky-k-narod.ru/b/yagof/Yagof-l.htm>.

<sup>80</sup> Савицкий В.М. Государственное обвинение в суде. М. 1971. С. 91.

<sup>81</sup> Жиноят ишлари бўйича судлар томонидан 2021-2023 йиллар давомида кўрилган дастлабки эшитувлар тўғрисидаги маълумот. Олий суди раиси ўринбосарининг 02.02.2024 йилдаги 07/13-1048-75-сонли алоқа хати.

Эндиликда, амалдаги ЖПКга кўра, жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида кўрилишида прокурорнинг айбловни ўзгартириш ёки айбловдан воз кечиш ҳуқуқи билан боғлиқ қоидаларга тўхтатиб ўтишни жоиз деб биламиз.

Амалдаги ЖПКнинг 409-моддасига кўра, прокурор биринчи инстанция судларида жиноятларга доир ишларни кўришда иштирок этиб, суд тергови маълумотлари асосида судланувчига қўйилган айбловни ўзгартириш зарур деган хулосага келса, у бу ҳақда судга асослантирилган баёнот бериши шартлиги, прокурорнинг айбловдан воз кечиши суд томонидан жиноят ишини реабилитация асосларига кўра, тугатишга сабаб бўлиши қайд этилган. Бироқ, амалдаги ЖПКга кўра, дастлабки эшитув босқичида прокурорнинг айбловдан воз кечиши ёки айбловни ўзгартириш тартиб-таомиллари асослантирилмаган.

Бу борада илмий манбаларда олимлар ўзларининг қуйидаги қарашларини илгари сурганлар.

А.А.Тушевнинг фикрича, *“давлат айбловчиси жиноят иши доирасидаги далиллар судланувчига қўйилган айбловни тасдиқламайди деган хулосага келса, буни рад этишига йўл қўйилиши, жиноят ишини бирон-бир сабабга кўра тугатиши тўғрисидаги қарор фақат суд тергови тугганидан кейингина қабул қилиниши керак”*<sup>82</sup>. Билдирилган фикрга қўшилаемиз.

Сабаби, дастлабки эшитув босқичида суд тергови тўлиқ амалга оширилмаслиги мумкин. Чунки, мазкур босқичда муддат қисқа эканлиги адолатли қарор қабул қилишга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

О.Ю.Гурованинг фикрича, *“прокурор томонидан айбловни ўзгартириш ёки рад этиш дастлабки суд мажлисида бўлиши мумкин эмас, чунки жиноят ишида мавжуд бўлган барча далиллар ўрганиб чиқилгандан кейингина йўл қўйилиши мумкин”*<sup>83</sup>. Мазкур фикрга қисман қўшилмаймиз. Сабаби, дастлабки эшитув босқичида прокурорнинг айбловдан воз кечиш билан боғлиқ ваколатлари фақатгина ЖПКнинг 84-моддасининг биринчи қисми бўйича яъни, *шахсни жавобгарликка тортиш муддати ўтган бўлса, эълон қилинган амнистия акти содир этилган жиноят ёки шахсга дахлдор бўлса, айбланувчи, судланувчи вафот этган бўлса, шахсга нисбатан айнан шу айблов бўйича суднинг қонуний кучга кирган ҳукми бўлса, шахсга нисбатан айнан шу айблов бўйича ишни тугатиш ҳақида суднинг қонуний кучга кирган ажрими (қарори) ёки ваколатли мансабдор шахснинг жиноят иши қўзғатишни рад этиш ёхуд ишни тугатиш ҳақида бекор қилинмаган қарори бўлса, иш фақат жабрланувчининг шикоят билан қўзғатиладиган ҳолларда унинг шикояти бўлмаса (ЖПКнинг 325-моддасида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно), шахс ижтимоий ҳавфли қилмиш содир этган пайтда жиноий жавобгарликка тортиш мумкин бўлган ёшга тўлмаган бўлса, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси Махсус қисмининг тегишли моддасида шахснинг ўз қилмишига амалда пушаймон бўлганлиги туфайли ёхуд белгиланган муддат ичида отказилган моддий зарарнинг ўрни қопланганлиги ва (ёки) жиноят оқибатлари бартараф этилганлиги муносабати билан жавобгарликдан озод қилиниши назарда тутилган ҳолатларгагина тааллуқли бўлиши лозим.*

<sup>82</sup> Тушев А.А. Прокурор в уголовном процессе Российской Федерации: система функций и полномочий. Дисс....док. юрид. наук. Краснодар. 2006. С. 126.

<sup>83</sup> О.Ю.Гурова. Теоретические и практические проблемы назначения судебного заседания по уголовным делам. Автореф. Дис...канд. юрид. наук. Екатеринбург. 2005. С. 18

М.З.Раджапованинг фикрича, “прокурорнинг дастлабки эшитув босқичида давлат айбловидан воз кечиш ваколати қонунчиликда белгиланиши лозим. Ушбу босқичда жиноят ишини реабилитация асосларига кўра тугатиш ҳақида прокурорнинг фикр билдириши унинг давлат айбловидан воз кечишини англатади”<sup>84</sup>. Мазкур фикрга қисман қўшилиш мумкин. Сабаби, дастлабки эшитув босқичида жиноят ишини ЖПКнинг 83-моддасига кўра реабилитация асосларига кўра тугатиш ҳақида прокурорнинг фикр билдириши унинг давлат айбловидан воз кечишини англатади ва бу баҳли масалалардан бири ҳисобланади.

Бизнингча, мазкур босқичда жиноят ишлари фақатгина амалдаги ЖПКнинг 84-моддаси биринчи ва бешинчи қисмида назарда тутилган асосларга кўра тугатилиши мақсадга мувофиқ.

Хорижий мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида кўриб чиқилишида прокурорнинг айбловни ўзгартириш ёки айбловдан воз кечиш билан боғлиқ қоидалар ҳар бир давлатнинг жиноят процессуал тизимига қараб турлича тартибга солинган.

АҚШ жиноят процессуал тизимида прокурор дастлабки эшитув босқичида айбловни ўзгартиришга ваколатли ҳисобланади<sup>85</sup>. Агар дастлабки эшитув босқичида янги далиллар пайдо бўлса ёки мавжуд далиллар бошқа айблов учун асос бўлган тақдирда прокурор айбловни ўзгартириши мумкин. Бунда айбловни ўзгартириш судга ёки гранд-жюрига (катта хайъат) тақдим этилади. Бу жараён “amendment of charges” яъни айбловни ўзгартириш сифатида амалга оширилади. Суд прокурорнинг таклифини кўриб чиқиб, уни тасдиқлаши ёки рад этиши мумкин. АҚШда прокурор “dismissal” усули орқали айбловдан воз кечиши мумкин<sup>86</sup>. Бу прокурорнинг қарори бўлиб, далиллар етарли эмас ёки жиноят ишини суд муҳокамасида кўриш учун етарли асослар мавжуд эмас деб топилганда амалга оширилади.

Бу ҳуқуқ суд томонидан тасдиқланиши лозим.

Буюк Британияда прокурор айбловни дастлабки эшитув босқичида ўзгартириш ваколатига эга. Агар янги далиллар айбловни ўзгартиришга асос бўлса, прокурор айбловни ўзгартириш учун судга илтимоснома беради. Суд бу ўзгаришни адолат нуқтаи назаридан кўриб чиқиб, тасдиқлайди ёки рад этади<sup>87</sup>. Британияда прокурор айбловдан воз кечишни “discontinuance of proceedings” усулида амалга оширади. Яъни, прокурор жиноят ишида далилларнинг етарли эмаслигини ёки ишни суд муҳокамасида кўриш зарур эмаслигини аниқласа, ишни тугатиш ҳақида қарор қабул қилиши ва бу қарор суд томонидан расман тасдиқланиши лозим<sup>88</sup>.

Франция<sup>89</sup> ва Германияда<sup>90</sup> прокурор дастлабки эшитув босқичида айбловни ўзгартириш ваколатига эга ва бу қатъий тартибга солинган. Яъни, жиноят иши бўйича янги

<sup>84</sup> М.З.Раджапова. “Жиноят ишларини юқори суд инстанцияларида кўрилишида прокурор функциялари ва ваколатларини такомиллаштириш: киёсий-ҳуқуқий таҳлил”. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган ДИССЕРТАЦИЯ. Тошент, 2023 й. 24 б.

<sup>85</sup> Lippman, M. Criminal Procedure in the United States, 2018, p. 231.

<sup>86</sup> Neuberger, D. The Role of Prosecutors in Criminal Cases, 2019, p. 144.

<sup>87</sup> Ashworth, A. The Criminal Process: An Evaluative Study, 2020, p. 302.

<sup>88</sup> Jackson, J. Prosecutorial Discretion in England and Wales, 2017, p. 95.

<sup>89</sup> Pradel, J. French Criminal Law and Procedure, 2018, p. 134.

<sup>90</sup> Weigend, T. Prosecution in Germany: The State’s Role in Criminal Justice, 2019, p. 127.



далиллар пайдо бўлса, прокурор судга илтимоснома бериб, айбловни ўзгартиришини сўрайди. Суд ўз навбатида бу илтимосни кўриб чиқиб, уни қонунчиликка мувофиқ равишда тасдиқлайди ёки рад этади. Шу жумладан, Германияда прокурор “Absehen von der Verfolgung” Францияда “classement sans suite”<sup>91</sup> (жиной таъқибдан воз кечиш) тартибига кўра айбловдан воз кечиши мумкин. Бу ҳолатларга жиноят иши бўйича далиллар етарли бўлмаса ёки айбловни қўллаб-қувватлаш учун асос йўқ деб топилганда амалга оширилади.

Суд бу қарорни кўриб чиқиб, уни расман тасдиқлаши шарт<sup>92</sup>.

Бундан ташқари, МДХ давлатлари яъни, Россия, Қозоғистон ҳамда Молдова Жиноят-процессуал кодексларида прокурорнинг дастлабки эшитув босқичида давлат айбловидан воз кечишига оид қоидалар белгилаган. Масалан, Қозоғистон Жиноят-процессуал кодексининг 321-моддасига кўра прокурорнинг дастлабки эшитув босқичида давлат айбловидан воз кечиш тартиби белгиланган<sup>93</sup>. Агар прокурор айбловни ўзгартириш ёки айбловдан воз кечишга қарор қилса, у судга ёзма равишда янги айбловни тақдим этади.

Судья бу ўзгаришларни ўз қарорида акс эттиради.

Россия Федерацияси ЖПКнинг 246-моддаси, 7-қисмига мувофиқ, прокурор суд муҳокамасининг ҳар қандай босқичида давлат айбловидан тўлиқ ёки қисман воз кечиш ҳуқуқига эга<sup>94</sup>.

Юқоридагиларга кўра, Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 49<sup>1</sup> бобига ёки 409-моддасида прокурорнинг айнан дастлабки эшитув босқичида айбловни ўзгартириш ҳамда айбловдан воз кечиш билан боғлиқ ваколатларини аниқ белгилаш мақсадга мувофиқ деб биламиз.

Эндиликда, дастлабки эшитув босқичи натижалари бўйича суд ажримига ҳуқуқий баҳо бериш масалаларига қисқача тўхталадиган бўлсак, амалдаги ЖПКнинг 405<sup>15</sup>-моддасига кўра, судьянинг ажрими устидан у чиқарилган кундан эътиборан етмиш икки соат ичида апелляция тартибида хусусий шикоят, хусусий протест берилиши мумкинлиги қайд этилган.

“Прокуратура тўғрисида”ги Қонуннинг 35-моддасига кўра, прокурор процессуал қонунда белгиланган тартибда ўз ваколатлари доирасида суднинг ҳукми, ҳал қилув қарори, ажрими ва қарорига протест келтиришга ҳақли эканлиги, Қонуннинг 36-моддасида, суднинг ажримига нисбатан келтирилган апелляция тартибидаги хусусий протест ишни судда кўриш бошлангунга қадар протест келтирган прокурор томонидан, шунингдек юқори турувчи прокурор томонидан ўзгартирилиши, тўлдирилиши ёки чақириб олиниши мумкинлиги қайд этилган.

Ўтказилган дастлабки эшитув натижасида чиқарилган ажримларга нисбатан келиб тушган шикоят ва протестларни юқори инстанцияда кўриб чиқилиши бўйича статистик маълумотларга кўра, Республика миқёсида 2021 йилда 1 та шикоят (1 та қаноат), 2022 йилда жами 15 та шикоят (13 та қаноат, 2 та рад), 1 та протест (1 та рад), 2023 йилда

<sup>91</sup> Hodgson, J. The Role of the Prosecutor in France, 2019, p. 156.

<sup>92</sup> Bohlander, M. Principles of German Criminal Law, 2018, p. 219.

<sup>93</sup> “Актуальные вопросы теории и практики отказа прокурора от обвинения” — 2020 г., статья стр 20–24.

<sup>94</sup> “Актуальные вопросы теории и практики отказа прокурора от обвинения в российском уголовном судопроизводстве” — 2020 г., статья стр 28–31.



16 та шикоят (13 та қаноат, 3 та рад), 1 та протест (1 та қаноат), 2024 йилнинг 6 ойида 10 та шикоят ва 3 та протест (13 та қаноат) кўриб чиқилган.

Юқоридагиларга кўра, миллий қонунчилигимизда биринчи инстанция судларида жиноят ишлари дастлабки эшитув тарзида кўриб чиқилишида прокурор иштироки самарадорлигини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

#### REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 16.01.2023 й, ПФ-11. [электрон ресурс], қаралган вақти 22.07.2024 й. <http://lex.uz/acts/>
2. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 14.05.2022 йилдаги “Жиноят ишларини биринчи инстанцияда кўриб чиқишга тайёрлаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 6-сонли Пленум қарори. [электрон ресурс] қаралган вақти 17.02.2024 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорнинг буйруғи. “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”. 27.11.2015 йил, 126-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорнинг буйруғи. “Жиноят ишлари бўйича судларда ишлар кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлигини янада ошириш тўғрисида”. 27.11.2015 йил, 126-сон.

## LOYIHANI SAMARALI AMALGA OSHIRISH TENDENSIYALARI

Umarjonova Surayyoxon Yakubjon qizi

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13836781>

**Annotatsiya.** Loyihalarning ko‘lami, tuzulma, resurslari, qiymati va boshqalarga qarab ularni boshqarishning maxsus usullariga ehtiyoj ortib boradi. Ushbu tezisda loyihani samarali amalga oshirish tendensiyalari xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** loyiha boshqaruvi, resurs, loyihani boshqarish usullari, tendensiyalari.

### TRENDS IN EFFECTIVE PROJECT IMPLEMENTATION

**Abstract.** Depending on the scope, structure, resources, cost, etc. of the projects, the need for special methods of their management increases. This thesis talks about the trends of effective implementation of the project.

**Key words:** project management, resource, project management methods, trends.

### ТЕНДЕНЦИИ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТОВ

**Аннотация.** В зависимости от масштаба, структуры, ресурсов, стоимости и т.п. проектов возрастает потребность в специальных методах их управления. В данной дипломной работе говорится о тенденциях эффективной реализации проекта.

**Ключевые слова:** управление проектами, ресурс, методы управления проектами, тенденции.

Loyihani boshqarish har qanday tashkilotning samarali faoliyatining asosiy elementlaridan biridir, ayniqsa, tez o‘zgaruvchan biznes muhiti va raqobat sharoitida. Jahon amaliyotida loyihalarni boshqarish ko‘p yillar davomida faol qo‘llanilmoqda va ko‘plab kompaniya va tashkilotlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Jahon amaliyotida loyihalarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri loyiha yoki tashkilot doirasida muayyan loyiha yoki vazifa uchun eng samarali yondashuvni tanlash imkonini beruvchi turli metodologiya va yondashuvlardan foydalanish qobiliyatidir.

Hozirgi vaqtda loyihalarni boshqarish yangi metodologiya va texnologiyalarning paydo bo‘lishi tufayli rivojlanish va takomillashishda davom etmoqda. Bundan tashqari, jahon amaliyotida loyihalarni boshqarish turli sohalarda, jumladan, IT, qurilish, ishlab chiqarish, marketing va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilayapti, bu uning zamonaviy dunyoda ahamiyati va dolzarbligidan dalolat beradi.

Loyihani boshqarish — bu muayyan natijalarga erishish uchun loyiha ishini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayoni. Bu korxonalar uchun mahsuldorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ish sifatini yaxshilash uchun muhim vositadir. Loyihani boshqarish, shuningdek, loyihani amalga oshirish vaqtini nazorat qilish va xavflarni minimallashtirish imkonini beradi. IT-loyihalarida loyihalarni boshqarish, ayniqsa, muhimdir, chunki bu sohada natijaga ta’sir qiladigan ko‘plab omillar mavjud. Bu sizga jamoa ishini boshqarish, jarayonlarni optimallashtirish, xatarlarni boshqarish va loyihani belgilangan muddatlarda va budget doirasida saqlashni ta’minlaydi.

Loyihani boshqarishning ba’zi usullarini ko‘rib chiqamiz, ulardan biri “Sharshara” usuli — bu usul harakatlarning chiziqli ketma-ketligini nazarda tutadi. Har bir keyingi bosqich faqat

avvalgisi tugagandan so‘ng boshlanadi. Loyihani amalga oshirish jarayoni tegishli bosqichlar uchun belgilangan muddatlarni va cheklangan konfiguratsiya variantini nazarda tutadi.

Afzalliklari:

- deyarli har qanday bosqichda loyihani amalga oshirish muddatini aniq belgilash mumkin;
- “Sharshara” usuliga asoslangan loyihani boshqarish mijozning katta ishtirokini talab qilmaydi;

- Talablar aniq bo‘lgan va turli tomonlar o‘rtasida kuchli aloqaga ehtiyoj bo‘lmagan oddiy loyihalar uchun yaxshi.

Kamchiliklari:

- doimiy kengaytirishga muhtoj bo‘lgan loyihalar uchun mos emas;
- Model ularni amalga oshirish jarayonida talablarni o‘zgartirish yoki aniqlashtirishga moslashtirilmagan;

- Faqat yakunlash jarayoni oldindan aytib bo‘ladigan va barcha talablarni boshidanoq aniqlash mumkin bo‘lgan loyihalar uchun juda yaxshi.

Keyingi usul — Agile usuli — loyiha davomida noaniqlik va o‘zgarishlarga tayyorlikni hisobga olishga mo‘ljallangan yengil, moslashuvchan va iterativ yondashuv. Har bir bosqich qisqa sikldan iborat bo‘lib, texnika har bir iteratsiyadan keyin mijozga mahsulotni taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

Afzalliklari:

- Agilening asosiy afzalligi shundaki, u mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi;

- loyihaning istalgan bosqichida talablarni o‘zgartirish imkoniyati;

- mijozga minimal yashovchan mahsulotni tezlashtirilgan holda yetkazib berish;

- rivojlanish jarayonida mijozning yuqori darajada ishtirok etishi;

- Jamoaning muhim muammolarni tez va samarali hal qilishga tayyorligini oshirish.

Kamchiliklari:

- Agile usuli noaniq va jarayonning hozirgi zamonga moslashishini talab qiladi, shuning uchun belgilangan muddatlar bilan ishlaydigan jamoalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin;

- loyiha tuzilmasining yetarli emasligi jamoaning mehnat unumdorligini pasaytirishi mumkin;

- jarayon bosqichlari takrorlanishi mumkin, bu esa ishlab chiqish jarayonida kechikishlarga olib kelishi mumkin;

- Qo‘llash turlari, o‘lchamlari va intensivligi bilan bog‘liq muammolar Agilega xos bo‘lishi mumkin.

Xorijiy IT loyihalari loyihalarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun turli texnologiyalar va vositalardan foydalanadi. Ulardan ba’zilari:

a). Agile loyihalarni boshqarishni osonlashtiradigan va mahsulotni yetkazib berish vaqtini qisqartirish va jarayon shaffofligini oshirish imkonini beruvchi Agile platformalari. Bunday platformalarga misollar: JIRA, Trello, Asana.

b). InVision — foydalanuvchi interfeyslari va maketlarini yaratish va prototiplash uchun vosita. Ushbu vosita sizga foydalanuvchi interfeysi maketlarini tezda yaratish va sinab ko‘rish imkonini beradi, bu esa ilovalarni ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

c). Slack — bu jamoaviy loyihalar uchun elektron pochta xabarlarini kamaytirish, qarorlarni tezroq qabul qilish va jamoada yanada samarali muloqot qilish imkonini beruvchi muloqot platformasi.

d). Rejalashtirish, resurslarni belgilash, taraqqiyotni kuzatish va loyiha ma'lumotlarini tahlil qilishda yordam beruvchi Microsoft Project platformasi. Ushbu platforma dunyodagi eng mashhur loyihalarni boshqarish vositalaridan biridir.

e). Salesforce CRM — bu mijozlar bilan ishlashingizni yaxshiroq tashkil qilish, konversiyalarni oshirish va kompaniya ichidagi aloqalarni yaxshilashga yordam beruvchi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi.

O'z ishlarida loyihalarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun texnologiyadan faol foydalanayotgan kompaniyalar qatoriga Google, Apple, IBM, Microsoft, Facebook, Amazon va boshqalar kiradi. Ular samaradorlikni oshirish va ish sifatini yaxshilash imkonini beruvchi zamonaviy texnologiya va vositalardan faol foydalanmoqda.

Loyihalarni amalga oshirishda mas'ul shaxslar o'zlarining rol va majburiyatlarini belgilaydilar, xususan:

Loyiha menejeri — loyihadagi asosiy rol, rejalashtirish, amalga oshirish monitoringi, risklarni boshqarish uchun mas'uldir. U loyihaning barcha ishtirokchilari o'rtasida muloqot qiladi va loyihani o'z vaqtida va budjetda muvaffaqiyatli yakunlash uchun javobgardir.

Loyiha jamoasi — loyiha doirasidagi vazifalarni bajarish uchun tayinlangan mutaxassislardan iborat. Jamoaning har bir a'zosi ishning o'z qismini belgilangan muddat va sifatga muvofiq bajarish uchun javobgardir.

Buyurtmachi — loyiha amalga oshirilayotgan shaxs yoki tashkilot. U loyihaning maqsad va talablarini belgilaydi, budjet va jadvalni belgilaydi, loyihaning bajarilishini nazorat qiladi va uning bajarilishini tasdiqlaydi.

Homiy — loyihani amalga oshirish muddati davomida moliyaviy yordam ko'rsatuvchi shaxs yoki tashkilot. Homiylik odatda loyiha natijalari bilan bog'liq potensial imtiyozlar evaziga taqdim etiladi.

Sotuvchilar va yetkazib beruvchilar — zarur jihozlar, materiallar, xizmatlar va boshqalarni etkazib beruvchi tashkilotlar. Sotuvchilar o'z mahsulotlari va xizmatlarining sifati, shuningdek etkazib berish muddatlariga rioya qilishlari uchun javobgardirlar.

Foydalanuvchilar loyiha natijalaridan foydalanadigan oxirgi foydalanuvchilardir.

Loyihani amalga oshirishda foydalanuvchilarning yuqori darajadagi qoniqishiga erishish uchun ularning talab va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

## REFERENCES

1. Paradaev M. Q., Xoliqulov A.N., Jumaeva G.. Investitsion loyihalar tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019. - 234 bet.
2. Bozorov R.H. O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashni takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 y.
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) –O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portal.

## УШЛАБ ТУРИШ ПРОЦЕССУАЛ МАЖБУРЛОВ ЧОРАСИНИ ҚЎЛЛАШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Абдуллаев Акмалжон Йўлчибоевич

Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси  
Дастлабки тергов ва суриштирув кафедраси ўқитувчиси.

ORCID ID 0009-0002-4302-2341

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13836724>

**Аннотация.** Мазкур мақолада қўллаб ҳорижий мамлакатларнинг қонунчилигида ўз аксини топган жинойят содир этишида гумон қилинган шахсларни ушлаб туришнинг процессуал асослари ва тартиби, бир-бирига ўхшаши ёки ажралиб турувчи хусусиятлари кўриб чиқилган. Шунингдек, ушлаб туриш процессуал мажбурлов чорасининг муддатлари қиёсий жиҳатдан таҳлил қилиниб, ўзаро солиштирилган.

**Калит сўзлар:** ушлаб туриш, процессуал мажбурлов, хориж, полиция, ҳибсга олиш.

### THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN USING THE MEASURE OF PROCEDURAL COMPULSORY PERFORMANCE

**Abstract.** This article examines the procedural bases and procedures for the detention of persons suspected of committing a crime reflected in the legislation of many foreign countries, as well as their similar or distinctive features. Also, the terms of the detention procedural coercion measure were analyzed and compared in a comparative manner.

**Key words:** detention, procedural coercion, foreign, police, arrest.

### ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПРИМЕНЕНИЯ МЕРЫ ПРОЦЕССУАЛЬНО ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ

**Аннотация.** В статье рассматриваются процессуальные основы и порядок задержания лиц, подозреваемых в совершении преступления, отраженные в законодательстве многих зарубежных стран, а также их сходные или отличительные особенности. Также в сравнительном порядке проанализированы и сопоставлены условия применения меры процессуального принуждения под стражу.

**Ключевые слова:** задержание, процессуальное принуждение, иностранец, полиция, арест.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда олиб борилаётган кенг қўламли ислохотлардан кўзланган асосий мақсадлардан бири “Инсон кадри учун”<sup>95</sup> учун тамойили асосида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳимояси кафолатларини кучайтириш, фуқароларимиз учун муносиб яшаш шароитини яратиш ва албатта, улар тинч-тотув истиқомат қилишлари учун жамоат хавфсизлигини таъминлаш ҳисобланади. Маълумки, ҳар бир жамиятда жамоат хавфсизлигига таҳдид солувчи хавфлардан бири бу жинойтчиликдир. Бундан келиб чиқадики, жамоат хавфсизлигини таъминлаш учун биринчи навбатда жинойтларни ўз вақтида фош этиш ва айбдорларни муқаррар жазога

<sup>95</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони

тортиш лозим бўлади. Бундай вазифаларни сифатли бажариш учун эса ушлаб туриш процессуал мажбурлов чорасини ўз вақтида ва асосли тарзда қўллаш муҳим саналади.

Зотан, жиноят содир этишда гумон қилишга етарли асослар бўлгани ҳолда шахсни ушламасдан туриб унинг жиноий фаолият билан шуғулланишига барҳам бериш, қочиб кетишининг, далилларни яшириши ёки йўқ қилиб юборишининг олдини олиш мумкин эмас. Ушлаб туриш жиноятни содир этишда гумон қилинаётган шахсни унинг жиноий фаолият билан шуғулланишига барҳам бериш, қочиб кетишининг, далилларни яшириши ёки йўқ қилиб юборишининг олдини олиш мақсадида қисқа муддатга озодликдан маҳрум қилишдан иборатдир<sup>96</sup>.

Шу сабабли, жиноят процессида ушлаб туриш процессуал мажбурлов чорасини қўллаш амалиётини ўрганиш бир қатор сабабларга кўра замонавий жамиятда жуда долзарбдир. Биринчидан, жиноят процессида инсон ҳуқуқлари ва адолатга риоя этилишини таъминлаш учун ушлаб туриш асослари ва қўллаш тартибини доимий равишда қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштириш зарур. Иккинчидан, ўзгарувчан ижтимоий шароитлар ва технологик тараққиётни ҳисобга олган ҳолда, замонавий чақириқ ва талабларга жавоб бериш мақсадида ушлаб туриш амалиётини мунтазам янгиллаб туриш муҳимдир. Бир сўз билан айтганда, “бу борада биз ҳар куни изланишда бўлишимиз, хориждаги илғор тажрибаларни чуқур ўрганиб, ҳаётимизни, иш услубимизни янгиллашга ҳаракат қилишимиз лозим”<sup>97</sup>.

Зеро, хорижий давлатларнинг қонунчилигини таҳлил қилиш, улардаги ютуқлардан миллий қонунчилигимизни такомиллаштиришда фойдаланиш ҳақида фикр юритиш ўринлидир<sup>98</sup>. Зотан, “қиёсий-ҳуқуқий тадқиқ этиш, бир томондан, чет элда асосий муаммони ҳал қилишда ўзини оқлаган фойдали омилларнинг барчасини аниқлашга кўмаклашса, бошқа томондан хориж тажрибасининг салбий томонларини, у ёки бу ҳуқуқий ечимларнинг самарали эмаслигини ҳисобга олиш учун имконият яратади”<sup>99</sup>.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, жиноятни содир этишда гумон қилинган шахсни ушлаб туриш бўйича бир қатор хорижий мамлакатларнинг қонунчилигини қиёсий ҳуқуқий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Англо-саксон ҳуқуқ тизимидаги мамлакатларда қўлга олиш институти бир хилда тартибга солинади. Англия ва Уэльсда ушлаб туриш асослари 1984 йилдаги “Полиция ва жиноят ишлари бўйича далиллар тўғрисида”ги қонун ҳамда унинг негизида ишлаб

<sup>96</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси//URL <https://lex.uz/docs/111460> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024 й)

<sup>97</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)

<sup>98</sup> Кулматов. Ш.А. Жиноят-процессуал мажбуриятлар ва уларни бажармаганлик учун жавобгарликнинг назарий, ҳуқуқий ва амалий жиҳатлари. 12.00.09 – Жиноят процесси. Криминалистика, тезкор-қидирув ҳуқуқ ва суд экспертизаси. Юридик фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.2019. Б.115.

<sup>99</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>(Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)



чиқилган “Амалий кодекс” билан тартибга солинади. Ушбу манбаларга кўра, ушлаб туриш ҳуқуқи полицияга тақдим этилган<sup>100</sup>.

Кўлга олиш полиция тергови босқичида, яъни полиция жиноятни содир этган шахсни аниқлаш чораларини кўраётган пайтида амалга оширилади. Махсус тадқиқотларнинг маълумотларига кўра, Буюк Британияда кўлга олинган шахсларнинг тахминан 25 фоизи кейинчалик ушлаб туриш асоси бўлган ҳуқуқбузарлик билан боғлиқ бўлмаган айбловлар бўйича айбдор деб топилади<sup>101</sup>.

Буюк Британиянинг “Полиция ва жиноят ишлари бўйича далиллар тўғрисида”ги қонуннинг 25-қисмига кўра ушлаб туришнинг қуйидаги 5 та умумий асослари мавжуд:

- гумон қилинувчининг шахси аниқ бўлмаганда ёки уни аниқлаш узок вақтни талаб қиладиган бўлса;

- полиция ходими гумон қилинувчининг шахсига оид маълумотларнинг ҳаққонийлигига шубҳа қиладиган бўлса;

- гумон қилинувчи ўзининг турар жойи тўғрисидаги маълумотларни тақдим этишдан бош тортган ёки полиция ходими улар ҳақидаги маълумотларнинг ҳаққонийлигига шубҳаланаётган бўлса;

- агар полиция ходими асосли равишда гумон қилинувчини қамоққа олиш у томондан ўзига келтирадиган ёхуд бошқа шахсга келтириладиган жисмоний ёки мулкӣ зарарни, жамиятнинг ахлоқий қоидаларига зид ҳамда жамоат транспорти қатновига халақит қиладиган ҳаракатларни содир этилишининг олдини олиш учун зарур деган хулосага келса;

- гумон қилинувчини ушлаб туриш вояга етмаган шахсни ёки ўзини ҳимоя қилишга қийналадиган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун муҳим ҳисобланса<sup>102</sup>.

Полиция ёки фуқароларнинг ушлаб туриши (уларда “қамоққа олиш” ибораси ишлатилади, XX асрнинг 30-йилларида Англия ва Уэльсда жиноят содир этилганини гувоҳ бўлган ҳар қандай шахс жиноятчини кўлга олиш чораларини кўриши мумкин деган қоида шаклланган<sup>103</sup>) қатъий белгиланган муддат билан кўлланилади, дастлабки ҳолатда бу муддат 24 соатни ташкил қилади. Бироқ, айрим турдаги муҳим жиноятларни (қотиллик, оғир турдаги тан-жароҳати етказиш, давлат ва жамиятга жиддий зиён етказиш ва шу кабилар) содир этилиши ҳолатларига нисбатан бу муддат 36 соатгача кўлланилиши қонун билан рухсат этилган. Унинг кейинги муддатга узайтириш масаласи магистрат суди деб номланадиган суд томонидан амалга оширилиши мумкин. Бу муддат даставвал 72 соатгача, кейин эса 96 соатгача узайтирилиши мумкин. Террорчилик ҳаракатлари билан боғлиқ жиноятларда эса ушлаб туриш муддати 48 соатни ташкил қилади. бироқ, зарурат туғилганида Ички ишлар вазири томонидан 7 соатгача узайтирилиши мумкин<sup>104</sup>.

<sup>100</sup> Хайриев Н.И. Жиноят ишларини юритувини жадаллаштириш / юридик фанлар бўйича фан доктори илмий даражасини олиш учун диссертация. Т.:2019. Б.-64-65

<sup>101</sup> Роганов С. А., Одинаев И. Х. Вопросы уголовного-процессуального задержания в законодательстве зарубежных стран/ <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-ugolovno-protsessualnogo-zaderzhaniya-v-zakonodatelstve-zarubezhnyh-stran> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)

<sup>102</sup> Ткачева Н.В. Особенности применения мер уголовного-процессуального принуждения в Великобритании. Вестник ЮУрГУ, № 2, 2008. Стр.-84. Серия “Право”. Выпуск 13.

<sup>103</sup> Уилшир А.М. Уголовный процесс Англии. – М.: НКЮ СССР, 1947. – С. 46–64.

<sup>104</sup> Ткачева Н.В. Особенности применения мер уголовного-процессуального принуждения в Великобритании. Вестник ЮУрГУ, № 2, 2008. Стр.-84. Серия “Право”. Выпуск 85.

Англиянинг юқоридаги тажрибаси бир қатор собиқ колониялар бўлган давлатларда ҳам қўлланилган ва ҳозиргача ўз аҳамиятини йўқотмаган. Мисол учун, Ҳиндистон ЖПКнинг 41-моддасига<sup>105</sup> мувофиқ, полиция ходими жиноят содир этишда иштирок этган деган шикоят ёки бошқа ишончли маълумот бўлган ҳар қандай шахсни; полициянинг вазифасини бажаришига тўсқинлик қилаётган шахсни; ўзига тегишли эмаслигига оид асосланган гумон бўлган буюмлар топилган шахсни қўлга олиши мумкин. 24 соат ичида магистрат суди қамокда сақлашнинг қонунийлигини текшириши керак.

Сингапурда эса “Полиция тўғрисидаги қонун”нинг 4-моддаси “d” банди<sup>106</sup> ҳар қандай полиция ходимига жиноят содир этиш вақтида ушланган шахсни қўлга олишга рухсат беради. Қўлга олинган шахснинг кейинги тақдири суднинг қарорига мувофиқ белгиланади, суд уни қамокқа олишга рухсат бериши мумкин. Гана ЖПКнинг 4-моддасига кўра эса, шахсни жиноят содир этганлиги ҳақида ишончли маълумот бўлса, полиция ходимига уни бошқа шахснинг уйида ҳам қўлга олишга рухсат беради<sup>107</sup>. Гана ЖПКнинг 3-4-моддасини солиштириб таҳлил қилиш, ушбу ҳолда амалдаги қўлга олиш ҳақида гап бораётгани ва кейинчалик полиция бўлимига олиб борилиб, баённома расмийлаштирилишини тахмин қилишга асос беради.

Австралия қонунчилигига кўра, 1914 йилги “Жиноятлар тўғрисида”ги қонуннинг 3Z моддаси фуқароларнинг қамокқа олиш ҳуқуқи (arrest without warrant by other persons) фақатгина полиция ходимларига эмас, балки барча фуқароларга ҳам берилган<sup>108</sup>. Қизиқарли жиҳати шундаки, Австралиянинг айрим штатларида (масалан, Виктория штатида<sup>109</sup>) бундай ҳуқуқ хизмат вазифасини бажармаётган полиция ходимларига ҳам берилган. Бу ердаги мақсад жиноятчини тезроқ констебль (полиция ходими)га ёки полиция бўлимига етказишдир.

Англия моделлини модернизация қилган АҚШ қонунчилигига мурожаат қилсак. АҚШ ҳамда Буюк Британия жиноят-процессуал қонунчилигида ушлаб туришга хос умумий жиҳатлар мавжуд. Масалан, ҳар икки давлатда ҳам ҳибсга олиш оддий фуқаро томонидан ҳам амалга оширилиши мумкин. Бироқ, ушбу ҳолатда жиноятнинг моҳияти (ижтимоий хавфлилиги), шубҳаланишнинг асослари ҳисобга олиниши керак<sup>110</sup>. АҚШ қонунчилигининг ўзига хослиги қуйидагиларда кўзга ташланади:

<sup>105</sup> The Code of Criminal Procedure, 1973 // Indiacode [Электронный ресурс]. – URL: <https://indiacode.nic.in/acts/11.%20Code%20of%20Criminal%20Procedure,%201973.pdf> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)

<sup>106</sup> Police Force Act // Singapore Statutes Online [Электронный ресурс]. – URL: <https://sso.agc.gov.sg/Act/PFA2004#pr8> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)

<sup>107</sup> Criminal Procedure Code, 1960 // Acts of Ghana [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/en/gh/gh011en.pdf> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 15.08.2024)

<sup>108</sup> Crimes Act 1914 (ed. by 2015) // Commonwealth Consolidated Acts [Электронный ресурс]. – URL: [http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/cth/consol\\_act/ca191482/](http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdb/au/legis/cth/consol_act/ca191482/) (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 24.08.2024)

<sup>109</sup> Police Powers: Your Rights in Victoria. – Melbourne: Victoria Legal Aid, 2017. – P. 11

<sup>110</sup> Мамай Е.А. Практика реализации процедур задержания и ареста органами полиции в США и Великобритании. Вестник Нижегородской академии МВД России, 2013, № 21. Стр.-126

биринчидан, федерал қонунчилик ҳам, штатлар қонунчилиги ҳам 1787 йилги Конституцияга қатъий риоя қилган ҳолда тузилган бўлиб, у суд қарорисиз ҳибсга олишга тақиқлайди<sup>111</sup>;

иккинчидан, замонавий даврда суднинг фаол позицияси тенденцияси туфайли АҚШнинг ҳуқуқ тизимига Олий суднинг прецедент қарорлари жорий этилди, уларда қўлга олиш жараёнида полициянинг ҳаракатларининг изчилликлари аниқ белгиланган.

Жумладан, *Miranda v. Arizona, Escobedo v. Illinois, United States v. Santana* ишлари бўйича қабул қилинган қарорларда жиноят-процессуал тартибда қўлга олинган шахснинг процессуал мақоми асослари яратилган. Америка полицияси ушлаб туриш амалиётини жуда тез-тез амалга оширади, бироқ статистикада қанча қўлга олишнинг жиноят-процессуал хусусияти бўлгани акс эттирилмайди (масалан, 1990 йилда 14,2 миллиондан ортиқ, 1995 йилда 15,1 миллион, 2000 йилда 13,9 миллион, 2005 йилда 14,1 миллион, 2010 йилда 13,1 миллион, 2015 йилда 10,8 миллион, 2017 йилда 10,5 миллион қўлга олиш амалга оширилган)<sup>112</sup>.

АҚШ юриспруденциясида “arrest”, яъни “ҳибсга олиш” белгиланган бўлиб, у шахснинг (гумон қилинувчининг, айбланувчининг) овозлиги ҳамда шахсий дахлсизлигини чеклашнинг ҳар қандай шаклига нисбатан қўлланилишини ифодалайди<sup>113</sup>. АҚШда процессуал-мажбурлов чоралари шахснинг конституцион ҳуқуқларини сезиларли чеклагани туфайли суднинг рухсати билан қўлланади<sup>114</sup>.

Германия Федератив Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси Германияда жиноят-процессуал ҳуқуқининг асосий манбаи бўлиб, жиноятларни тергов қилиш, жиноят ишлари бўйича суд жараёнларини тартибга солувчи ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади<sup>115</sup>.

Германия жиноят-процессуал қонунчилигининг 112-бўлимида шахсни ҳибсга олиш асослари келтирилган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1. Айбланувчининг қочиш кетгани ёки яширинганлиги аниқланган бўлса;
11. Крыжановский В. Соглашение о признании вины в США // Экономика, финансы, право. 2001. № 1. С. 27.
12. Bagirov Anar Ramiz oglu. Technical paper on Plea bargaining and issues related to its implementation in Azerbaijan // Support to the anticorruption strategy of Azerbaijan (AZPAC). 2008. P. 7.
13. Ma Y. Prosecutorial discretion and plea bargaining in the United States, France, Germany and Italy: a comparative perspective // International Criminal Justice Review. 2002. Vol. 12. P. 37.
14. Fisher G. Plea bargaining's triumph: a history of plea bargaining in America. Stanford, CA, 2003. P. 31.
15. Головки Л.В. Альтернативы уголовному преследованию в современном праве. СПб., 2002. С. 194.

## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QISHLOQ XO'JALIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH

**Axrorqulov Akram Sherali o'g'li**

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
Bank ishi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13852736>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni hamda tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'allani yetishtirishni imtiyozli kreditlash va yerga egalik qilish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibiga alohida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, imtiyozli kreditlash, yerga egalik qilish huquqi, garov.*

### LENDING TO AGRICULTURAL ENTITIES BY COMMERCIAL BANKS

***Abstract.** In this article, scientific studies were conducted about the role of agriculture in the economy of our Republic and the procedure of agricultural lending by commercial banks. In addition, preferential lending for the cultivation of cotton and grain for state needs and the procedure for lending with a pledge of the right to own land were specifically discussed.*

***Key words:** agriculture, preferential lending, land ownership, mortgage.*

### КРЕДИТОВАНИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ

***Аннотация.** В данной статье проведены научные исследования о роли сельского хозяйства в экономике нашей Республики и порядке кредитования сельского хозяйства коммерческими банками. Кроме того, конкретно обсуждались льготное кредитование выращивания хлопка и зерна для государственных нужд и порядок кредитования под залог права владения землей.*

***Ключевые слова:** сельское хозяйство, льготное кредитование, земельная собственность, ипотека.*

### KIRISH

**Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini tutgan o'rni va tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi.**

Qishloq xo'jaligi dunyo mamlakatlarining asosiy qismida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, selektsiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi.

Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 tsentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 tsentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir." -deb bejiz ta'kidlamaganlar.

Agrosanoat majmui O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Sohada olib borilayotgan islohotlar o'zining bir qator ijobiy natijalarini berdi: ekinlar strukturasi yaxshilandi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kafolatlandi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva etishtirildi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, etishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxonalar, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga etkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

Shu sababli davlatimiz tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida qishloq xo'jaligini isloh qilish va uni bozor munosabatlari talablariga mos ravishda rivojlantirish borasida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- qishloqda xo'jalik yuritishning yangi shakllarini keng ko'lamda rivojlantirish, dehqonlar o'zlari ishlayotgan erining, etishtirilayotgan mahsulotning to'la huquqli xo'jayinlari deb aniq xis qilishlariga imkon beradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish;
- paxtadan va boshqa ekinlardan bo'shatib olinayotgan er maydonlarini fermer (dehqon) xo'jaliklari tashkil etishga berish, shaxsiy tomorqa erlarini kengaytirish, qishloq mehnatkashlariga er maydonlarini meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'yish yo'lini izchil olib borish;
- qayta ishlovchi korxonalarini qishloq xo'jaligi xom-ashyosi etishtiriladigan joyga mumkin qadar yaqinroq qurish, qishloqda ixcham sanoat korxonalarini va tseklar bunyod etish, mexnatning klassik shakllarini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan firmalar tarmog'ini keng rivojlantirish;

Respublikamizda so'ngi ma'lumotlarga ko'ra 2015 yil boshiga sanoat ishlab chiqarishida, qurilishda, chakana savdo aylanmasida va aholiga pullik xizmatlarda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi ta'minlandi.

Hududlar kesimida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika ko'rsatkichidan yuqori ko'rsatkichlar namangan (55,9%), Samarqand (45,3%), Jizzax (42,9%) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (34,6%) hamda Toshkent shahrida (68,9%) qayd etildi.

**Javdal**

**O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning Ulushi (01.01.2022 y. holatiga)**

	Tarmoqlar	01.01.2021 yil.	01.01.2022 yil.
1 2 3	Xizmatlar	24,8	31,9
4 5	Chakana tovarlar aylanmasi	98,2	98,3
	Qurilish	71,9	70,3
	Qishloq xo'jaligi	46,3	45,4
	Sanoat	46,7	48,5

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bora-sidagi dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi yaxshilanishi natijasida, qishloq xo'jaligining yalpi hosili 6,9%ga, jumladan dehqonchilik 6,9%, chorvachilik esa 7%ga o'sdi.

2021 yil boshiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tuzilmasida xo'jaliklarning toifalari bo'yicha 65,1% dehqon xo'jaliklariga, 32,9% fermer xo'jaliklariga va 2,0% boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga to'g'ri keladi. Fermer xo'jaliklarining soni 2022 yil oxiriga 73,6 mingni tashkil etib, ularning 61,8 mingtasi (83,9%) dehqonchilikda, 7,3 mingtasi chorvachilikda (9,9%), 4,6 mingtasi (6,2%) boshqa yo'nalishda ixtisoslashgan.

**javdal**

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**

Tarmoqlar	Yillar kesimida		
	01.01.2021 y.	01.01.2022 y.	01.01.2023 y.
Fermer xo'jaliklari	34,4	34,0	32,9
Dehqon xo'jaliklari	63,5	64,0	65,1
Qishloq xo'jalik korxonalarini	2,1	2,0	2,0
Jami	100,0	100,0	100,0

Departament davlat xaridi uchun etishtiriladigan paxta va g'alla hosili hisob-kitobini moliyalashtirishga ajratilgan Jamg'armaning mablag'laridan foydalanishda, shuningdek zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni rag'batlantirish uchun qaytarib berish asosida ajratilgan qarz mablag'laridan foydalanilishida vakolati bo'lmagan mansabdor shaxslarning barcha aralashuvlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma kengashiga tegishli axborotlarni kiritadi.

Quyidagilar Jamg'armaning agentlari etib belgilangan:

- > paxta va g'alla etishtirish, xarid qilish, shuningdek, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni moliyalashtirish bo'yicha moliya agenti — «Agrobank» aktsiyadorlik tijorat banki;
- > paxtani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha tijorat agenti — «O'z paxtasanoat» aktsiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallari;
- > g'allani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha tijorat agenti — «O'zdonmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi;
- > zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish bo'yicha tijorat agenti — «O'zagrolizing» aktsiyadorlik jamiyati.

**TADVIQOT METODI VA METODOLOGIYASI**



### **Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi.**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining hozirgi bosqichida ustuvor yo'nalishlardan biri, Prezidentimiz ta'kidlaganidek:” ... xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur.

Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, u birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va engil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030 yilda 5,6 marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi.

Ushbu tuzilmaga ko'ra, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tizimi o'z ichiga - kredit institutlari (kredit resurslari bilan ta'minlovchi muassasalar), kreditdan foydalanuvchilar va kreditlash mexanizmini qamrab oladi.

Amaldagi tashkiliy tuzilmaga muvofiq, davlat ehtiyojiga mahsulot etishtirish xarajatlarini qoplash uchun kredit resurslari Moliya vazirligi huzuridagi “Davlat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga hisob-kitob qilish jamg'armasi” tomonidan Respublika Markaziy banki orqali tijorat banklariga va ularning viloyat, tuman bo'limlari orqali fermer xo'jaliklariga beriladi.


Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy yo'nalishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Birinchi yo'nalish, bevosita fermer xo'jaliklarini davlat ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy xarajatlarini moliyalashtirish bilan bog'liq. Bunda fermer xo'jaliklarining mahsulot etishtirish xarajatlarini, xususan, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari, biologik mahsulotlar, kimyoviy vositalar, texnika xizmatlari, urug'lik, ish haqi va boshqa xajaratlarni moliyalashtirish nazarda tutiladi.

Fermer xo'jaliklarining hosil etishtirishga ketadigan xarajatlarini moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi tomonidan 3 foizli kredit mablag'lari ajratilmoqda.

Shuningdek, davlat ehtiyojlaridan tashqari boshqa mahsulot turlarini, jumladan, meva, uzum, sabzavot, poliz, kartoshka etishtirish, shuningdek, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ham etarli miqdorda kredit resurslari ajratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, fermer xo'jaliklarini zaruriy aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida qo'shimcha bank kreditlarini jalb qilish yuzasidan Markaziy bank va tegishli vazirlik hamda idoralar tomonidan qator tartib va nizomlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.





1.-rasm. Fermer va dehqon xo'jaliklarini kreditlashning amaldagi tashkiliy tuzilmasi<sup>81</sup>.

Birinchidan, fermer xo'jaliklari agrotexnik tadbirlarni tashkil etishda etarli miqdorda aylanma mablag'larga ega bo'lishiga yordam berish maqsadida ularga boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun imtiyozli kreditlar berishning samarali tizimi joriy etildi. Fermer xo'jaligi boshlang'ich sarmoyani davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng 6 oy ichida olishi mumkin.

Boshlang'ich sarmoya uchun kredit fermer xo'jaliklariga 3 yilgacha bo'lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha foiz to'lashni 12 oygacha kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so'ng 18-24 oy o'tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

Ikkinchidan, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan texnika vositalari bilan ta'minlash maqsadida fermer xo'jaliklariga texnika vositalarini lizing asosida sotib olish tizimi yaratildi.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini lizing asosida xarid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 7 yil muddat ichida (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarining fermer xo'jaliklari 10 yil muddatda) to'lashi mumkin.

Bunda fermer texnikaning 85 foiz qiymatiga "O'zagrosug'urta" kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzadi. Sug'urta mukofotlari hisoblash uchun sug'urta tarif (stavka) miqdori texnikaning 85 foiz qiymatidan bir yilga 0,5 foizni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilari tomonidan lizingga olinadigan texnikalar soni har yili davlat texnika dasturiga kiritiladi.

Ikkinchi yo'nalish, qishloq xo'jaligi korxonalariga soliq imtiyozlari berilishidir.

Ma'lumki, soliqqa tortishda soliq miqdorini erning sifatiga (ball-boniteti) qarab hisoblash va bu jarayonga tabaqalashtirilgan ravishda yondashish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Bu xo'jaliklarga bir xil iqtisodiy sharoit yaratib berishni ta'minlaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJA**

### **Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'allani etishtirishni imtiyozli kreditlash.**

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi harid narxlar asos qilib olinadi. Kreditlar paxta etishtirish uchun ko'pi bilan 18 oy, g'alla etishtirish uchun esa 12 oy muddatga beriladi.

Kreditlarning yillik foiz stavkasi 3 foizni tashkil etadi.

G'alla uchun ushbu miqdorlar quyidagicha taqsimlanadi: 1 yanvarga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 35% (yoki jami kreditning 58 foizi); 1 aprelga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 50% (yoki jami kreditning 83 foizi); 1 iyunga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 60% (yoki jami kreditning 100 foizi)<sup>82</sup>.

Kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun beriladi: ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun; mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini sotib olish uchun; yoqilg'i-moylash materiallari sotib olish uchun; MTPlar, muqobil MTPlar va SFUlar xizmatlariga to'lovlar uchun; olingan urug'lik materiallari to'lovlari uchun; fermer xo'jaligi ixtiyoridagi texnika vositalariga ehtiyot qismlar sotib olish uchun; lizingga olingan texnika vositalarining lizing va sug'urta to'lovlari uchun; foydalanilgan elektr energiyasi to'lovlari uchun; yagona er solig'i to'lovlariga.

Mazkur hujjatning amaliyotga joriy qilinishi bilan fermer xo'jaliklarida tanlash imkoniyati vujudga keldi. Endilikda fermer davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etishtirishda hohlasa Moliya vazirligi qoshidagi Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olish, hohlasa davlat ehtiyojlari uchun etishtirilayotgan hosilni garovga qo'yib tijorat bankidan kredit olish yoki har ikkala manbadan bir vaqtning o'zida kredit olish imkoniga ega bo'ldi.

Nizomga asosan kreditlar faqat davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga 1,5 yilgacha bo'lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz beriladi.

Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibini joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini kreditlash sharoitini yaxshilash uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Albatta bu tartib kelgusida takomillashtirilib borilishi lozim.

Bugungi kunda fermer va dehqon xo'jaliklariga banklarning o'z resurslari hisobidan 2 turdagi ya'ni tijorat va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Fermer va dehqon xo'jaliklariga ajratilayotgan kreditlar yo'naltirilishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- kichik sanoat bo'linmalari va kasanachilikni tashkil etish va rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish;
- fermer xo'jaliklarida asosiy va takroriy ekinlar mahsulotlari etishtirishni rivojlantirish;
- noqishloq va qo'shimcha daromad keltiradigan soha sifatida transport, xizmat ko'rsatish, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnik ta'minoti va sotish, maishiy kommunal xizmat va shunga o'xshash boshqa tarmoqlarni rivojlantirish.

Qishloq xo'jalik korxonalariga banklar tomonidan ajratilayotgan tijorat kreditlari asosan qisqa muddatli (1-3 yil), ustama foizlari 16 foizdan 32 foizgacha bo'lib, garov miqdori kredit summasining 120 foizini tashkil etadi.

## **XULOSA**

### **Yerga egalik qilish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi.**

Fermer xo'jaliklarida kreditni garov ta'minotidagi muammolarni hal qilish maqsadida Markaziy bank boshqaruvining Nizomi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Fermer xo'jaliklari tijorat banklaridan er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'ygan holda kredit olishlari mumkin. Agar fermerlarning ijara huquqi bahosi so'ralayotgan kredit summasiga etmasa, etmagan qismini qoplash uchun boshqa garov turlaridan, masalan sug'urta, kafillik va shu kabilardan foydalanish mumkin. Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalaridan olingan dastlabki (boshlang'ich) sarmoya fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltirilishi mumkin.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan kreditlarning yillik ustama foizi imtiyozli bo'lib, u Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida belgilangan. Dastlabki (boshlang'ich) sarmoya uchun kredit fermer xo'jaliklariga 3 yilgacha bo'lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 barobari miqdorigacha, foizlar to'lashni 12 oygacha kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so'ng 18-24 oy o'tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

Ushbu tijorat banklarida fermer xo'jaliklariga kreditlar ajratish yo'nalishlari bo'yicha to'liq qaytarish muddati hamda imtiyozli davri ham turlicha, ya'ni har bir bankning yuritayotgan kredit siyosatidan kelib chiqqan holda belgilangan.

Xar bir tashkilot mavsumiy xarakterdagi va boshqa turdagi tuzulmalarga kredit berish jarayonida va ularning hajmlarini belgilashda ya'ni kredit ajratishda ular tomonidan garovga qo'yiladigan mol-mulk qiymati tijorat banklarida beriladigan kredit miqdoriga nisbatan turlicha belgilangan.

## **REFERENCES**

1. Cousin. E. J. Invertment strategy and the monetary a buziness cyeles – NY. Ets: Wiley, 1990. - R. 301.
2. Friedman M. The lag in Effect of monetary policy, journal of Political Economy, Oct. 1961. - R. 237-260.
3. M.Fridmen. Esli bi zagovorili dengi. Per. s angl. -M.: INFRA-M, 2001.- S. 63.
4. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho'lpon, 2011. -328 bet.
5. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2017.
6. Лаврушин О.И., Афанасьева О.Н., Корниенко С.Л. Банковское дело: современная система кредитования. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 264 стр.
7. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 352 стр.
8. Toymuhamedov I.R. Bank ishi. Toshkent. 2012 yil.

## BANK TIZIMIDA MARKETING XIZMATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axrorqulov Akram Sherali o'g'li

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti  
Bank ishi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13852767>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bank tizimida marketing xizmatining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari keng miqyosda o'rganilgan. Maqola davomida bank marketingizning maqsadi va ustuvor vazifalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** bank tizimida marketing, foizlar, xodim, bank faoliyati, mijozlarni qo'llab-quvvatlash.

## FORMATION AND DEVELOPMENT OF MARKETING SERVICE IN THE BANKING SYSTEM ITS OWN CHARACTERISTICS

**Abstract.** In this article, the peculiarities of the formation and development of marketing service in the banking system are studied on a large scale. In the article, the purpose and priorities of your banking market are discussed in detail.

**Keywords:** marketing in the banking system, interest, employee, banking activity, customer support.

## ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СЛУЖБЫ В БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЕ СВОИ ОСОБЕННОСТИ

**Аннотация.** В данной статье масштабно изучаются особенности становления и развития маркетинговой службы в банковской системе. В статье подробно рассмотрены цели и приоритеты вашего банковского рынка.

**Ключевые слова:** маркетинг в банковской системе, интерес, сотрудник, банковская деятельность, поддержка клиентов.

Bank marketingining maqsadi – kapital bozori talablariga moslashish uchun zarur sharoitlar yaratish, bozorni o'rganish, raqobatbardoshlikni va foydalilikni oshirish bo'yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Bank marketingining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: banklar uchun alohida qiziqish uyg'otadigan kapital bozoridagi talablarni va uning alohida segmentlarini o'rganish; foizlar siyosatini tahlil qilish; reklama; bank passivlari va aktivlarini kengaytirish; bank faoliyatini rejalashtirish tizimini ishlab chiqish; xodimlarni boshqarish; mijozlarga xizmat qilishni tashkil etish. Bank kapital bozorini tahlil qilib, hududdagi ob'ektlarning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarini hisobga olish asosida mablag'lar (qo'yilmalar, depozitlar) jalb qilish hamda kreditlar va ssudalar berish bo'yicha dastur tuzadi. Shu ma'noda bank xizmatlari bozorini egallashning aniq usullarini belgilab olishi zarur. Bankning barcha bo'linmalari ana shu strategiyaga asoslanib faoliyat yuritishi zarur.

Marketingni keng qo'llash va kapital bozorini tahlil qilish, shuningdek, tegishli strategiyani ishlab chiqishga misol tariqasida XX asrning 60-yillarda "Bank of America" banking siyosatini keltirib o'tish mumkin. Uning bozordagi strategiyasi shundan iborat ediki, bu bank o'z diqqatini boshqa Amerika tijorat banklari rad etgan mayda jamg'armalarni qabul

qilish va mayda mablag' qo'yuvchilarni jalb qilishga jamladi. Natijada, "Bank of America" moliyaviy jihatdan o'sha vaqtda umumiy soni 14 mingtagacha etgan AQSh tijorat banklari o'rtasida etakchi o'ringa chiqib oldi. Bunday misol shuni ko'rsatadiki, banklar jamg'armalarini ko'paytirishning har bir imkoniyatini hisobga olishlari kerak, chunki bu o'z navbatida ularning kredit potentsiyaalini kengaytiradi.

Bank marketingining boshqa muhim sohasi qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini tahlil qilish hisoblanadi. Bunga kreditlarni shartlaydigan omillarni o'rganish kiradi. Shuning uchun ham bank uchun qarz oluvchining kreditini kredit shartnomasidagi shartlarga mos ravishda qaytarish imkoniyati va shunga tayyorligini o'rganish juda muhimdir. Bank o'z zimmasiga oladigan tavakkal darajasini bilishi, shuningdek, o'zi bera oladigan kredit hajmini hisobga olishi shart.

Mijozning kredit qobiliyatini tahlil qilish bilan bankning kredit bo'limi shug'ullanadi. U mijozlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, umumlashtirish va kelgusi faoliyatini saqlash bilan shug'ullanadi.

Kredit qobiliyatini o'rganish chegaralari ssuda hajmi va muddatlari, kredit berilayotgan kompaniya yoki korxonaning o'tgan davr mobaynidagi faoliyati natijalari, shuningdek, bankning qarz oluvchi bilan o'zaro munosabatlariga bog'liq.

G'arb modeliga ko'ra mijozning kredit qobiliyati bank va kompaniya o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning juda muhim jihati hisoblanadi, ayniqsa, bu personal (shaxsiy) uniyalar yo'li orqali banklar va korporatsiyalarni birlashtirish, ishtirokchilik tizimi va uzoq muddatli moliyaviy aloqalarga asoslangan bo'lsa. Personal uniya bank xodimlarining kompaniya boshqaruvida bo'lishini yoki aksincha kompaniya xodimlarining bank boshqaruvida bo'lishini nazarda tutadi.

Ishtirokchilik tizimi qimmatli qog'ozlar, asosan aktsiyalarga birgalikda egalik qilishni nazarda tutadi. Uzoq muddatli aloqalar kompaniya yoki korxonadan bankdan 15 va undan ko'p yillarga kredit olishni anglatadi. Aloqalarning bu turi kredit qobiliyatini barqarorlashtiradi.

Bank marketingi deganda, shuningdek, pul jamg'armalarini va mablag'larini akkumulyatsiya qilish yo'nalishi bo'yicha, ham kreditlar berish yo'nalishi bo'yicha aniq bank faoliyatiga bozordagi ma'lum talabni tushunish kerak. Ma'lumki, banklar o'z faoliyatini asosan jalb qilingan mablag'larga (depozitlar va qo'yilmalar) asoslantiradi. Shuning uchun bank marketingini ishlab chiqishda iloji boricha ko'proq pul mablag'larini jalb qilish muhim jihat hisoblanadi. Bunda banklar funktsional jihatdan tijorat, jamg'arma, ipoteka, investitsiya, ixtisoslashgan banklarga bo'linishini hisobga olish lozim.

Bankdagi jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalari darajasi, turli qimmatli qog'ozlar bo'yicha (aktsiyalar bo'yicha dividendlar va xususiy va davlat obligatsiyalari bo'yicha foizlar) olinadigan, shuningdek sug'urta polislar bo'yicha to'lovlar hajmi o'rtasidagi nisbat katta ahamiyatga ega. Pullarni jamg'arishning turli shakllari o'rtasidagi bu nisbat pulni qayoqqa qo'yish maqsadga muvofiqroq ekanligini ko'rsatadi: jamg'arma shaklida bankkami, qimmatli qog'ozlargami yoki sug'urta polisigami?

Bank marketingining ikkinchi qismi bir qator omillarga bog'liq. Avvalambor bu kapital bozorida turli iqtisodiyot sohalari tomonidan bo'lgan talabdir. Qoida tariqasida tijorat banklari qisqa muddatli va o'rta muddatli qarz berishga ixtisoslashadi. Shuning uchun ham ular uchun sanoat, transport va savdo korxonalarining kreditga bo'lgan talabini baholash muhimdir, chunki bu sohalar iqtisodiyotning umumiy holatini ko'rsatib turadi.



Banklar o'z mablag' jamg'armalarini aktsiyalar, xususiy va davlat obligatsiyalariga qo'yib, qimmatli qog'ozlar bozorida qizg'in faoliyat ko'rsatadilar. Qimmatli qog'ozlar bozorini, u yoki bu qimmatli qog'ozga mablag' qo'yish foydaliligini baholash aktiv operatsiyalari yo'nalishi bo'yicha bank marketingining muhim qismi hisoblanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, 1929-1933 yilgi krizisdan keyin g'arb mamlakatlarining ko'pchiligida qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning deyarli barchasining faoliyati cheklangan. Ularga asosan markaziy va mahalliy hukumat tomonidan chiqarilayotgan davlat qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalar qo'yishga ruxsat beriladi. Shu bilan birga xususiy aktsiyalar va obligatsiyalarga mablag' qo'yish yo man qilingan (masalan, AQSh, Kanada, Angliyada) yoki cheklangan (g'arbiy Evropa mamlakatlari, Yaponiyada) bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda tijorat banklari 1991-1998 yillarda yaratila boshlandi. Yangi bank tizimining muhim xususiyati shundan iboratki, u asosan tijorat banklaridan iborat. Bunda ularning asosiy qismini ustav kapitali 100 mln. so'mdan kam bo'lgan mayda banklar tashkil qiladi. Bank marketingi endigini real faoliyat boshlanmoqda, chunki bozor elementi sifatida tijorat banklari hali bank marketingi yaratilishigachayoq faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Shu davrda iqtisodiyotda tegishli qonuniy asosga ega bo'lgan ba'zi bozor elementlari paydo bo'la boshlagandi. Jadal ravishda tijorat banklarining o'zini tuzib, boshqa kreditmoliya institutlarini yaratish, korxonalarini aktsiyadorlikka aylantirish va xususiylashtirish, narxlarni erkinlashtirish, korxonalarining mustaqilligini kuchaytirish kabilar shular jumlasidandir.

Banklar hozircha jahon amaliyotida umume'tirof etilgan korxonaning iqtisodiy faoliyatini baholash bilan bog'liq marketing usullaridan etarli darajada foydalanmayaptilar. Agar banklar ko'rsatilgan marketing usullarini hisobga olsalar va sanoat hamda milliy iqtisodiyotning boshqa sohalariga kreditlarqo'yish bilan shug'ullansalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu to'g'ridanto'g'ri bank krediti berish orqali ham, qimmatli qog'ozlar bozori orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori keng xususiylashtirish mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari real bank marketingining shakllanishi inflyatsiya darajasini pasaytiradi.

Aholi turli ijtimoiy qatlamlarining daromadlarini baholash, mijozning kredit fobilyatini hisobga olish, uning butun iqtisodiy faoliyatining ko'rsatkichlarini tahlil qilish (agar u korxonaga bo'lsa) zarur. Shuning uchun bank marketingining asosiy vazifalaridan biri xorijiy bank marketingi tajribasini o'rganish va O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda bu tajribani joriy qilishdir.

O'zbekistonda banklar faoliyati Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki haqida", "Banklar va banklar faoliyati haqida" qonunlari bilan tartibga solinadi. Ushbu huquqiy aktlar bizning davlatimiz bank tizimining huquqiy bazasi hisoblanadi.

O'zbekistonning milliy pul, bank tizimi va uning marketing shakllanish jarayoni, uni tartibga solishni shartli ravishda bir necha bosqichlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqich 1991 yildan 1994 yilni qamraydi, milliy valyutani kiritish va ikki pog'onali tizimni shakllantirish uchun qontsniy va institutsional asoslar qo'yildi. Qisqa vaqt ichida Markaziy bank ish uslubi va tashkiliy tuzilmasi qayta qurildi va asosan maxsus tijorat banklari miqdori o'sdi. Banklarning marketing rejalari va faoliyati asosan ustav kapitali, mijozlar bazasini shakllantirishga, xizmat bo'yicha maxsuslashishiga yo'naltirildi.



Ikkinchi bosqichda, 1994 yildan 1996 yilgacha muomalaga milliy valyuta kiritildi hamda bank tizimining ikki pog‘onali huquqiy asosi tashkil etildi. Banklarning marketingi asosan ustav kapitalini, mijozlar bazasini kengaytirishga, xizmatlar bo‘yicha maxsuslashishni takomillashtirishga yo‘naltirildi.

Uchinchi bosqich 1997-2000 yillarga to‘g‘ri keladi, bunda makroiqtisodiy barqarorlashish sharoitida bank sohasiga xususiy kapitalni jalb qilish, tijorat banklarida korporativ boshqarishni amalga oshirish va banklar ustidan nazorat tizimini yanada kuchaytirish bilan bog‘liq ishlarni rivojlantirish yuz berdi. Banklarning marketingi asosan nafaqat ustav kapitali va mijozlar bazasini kengaytirishga, balki boshqa xizmatlar bo‘yicha xizmatlarni joriy qilishga, filiallar tarmog‘ini kengaytirishga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 mart “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi Farmoni bank tizimi islohotlarini chuqurlashtirish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish va ularni investitsiyaon jarayonlar faol ishtirokchisiga aylantirishni ko‘zda tutgan edi.

Ushbu hujjatlar qabul qilinishi bilan davlatimiz bank tizimi rivojlanishida to‘rtinchi bosqich boshlandi. Uning asosiy vazifalari:

Birinchidan – bank faoliyatini yanada erkinlashtirish asosida aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini izchil mustahkamlash. Bu aholining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini bank qo‘yilmalariga jalb qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan – har qanday rivojlangan iqtisodning tuzilmasini tashkil etuvchi kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga imkon yaratish, uni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash tizimini maksimal soddalashtirish.

Uchinchidan – valyuta munosabatlarini yanada erkinlashtirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish hisobidan joriy hisobraqamlar bo‘yicha milliy valyutaning erkin ayirboshlanishini ta‘minlash.

Banklarning marketing faoliyati asosan bozordagi ulushini kengaytirishga, yanada universallashtirishga, yangi bank xizmatlarini joriy qilishga, filiallar tarmog‘ini kengaytirishga, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga yo‘naltiriladi. Marketing xizmati banklarning barcha tarkibiy bo‘linmalari ishlari asosiga quriladi. Marketingni tijorat banklari boshqaruviga kiritish faoliyat strategiyasi va taktikasi mezonlari tizimi yuzaga kelishining boshlanishiga hamda bozorni o‘rganish va rivojlantirish choralarini aniqlashga olib keladi. Marketingni joriy qilish daromad o‘sishi va bank faoliyati xatari kamayishiga imkoniyat yaratadi. Marketingning zarurligi bozorda rivojlanayotgan bank faoliyati jarayonlaridekvatligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi bilan aniqlanadi.

Aksariyat banklar marketingga vaziyatdan kelib chiqib murojaat qilishadi.

Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sotuv hajmlari pasayishi bank rahbarlarini axtarishga majbur qiladi;
- sotuv hajmining sekin o‘sishi: bu holda banklar yangi bozorlar axtara boshlashadi.

Aksariyat banklar marketingga murojaat qilib, yangi bozor imkoniyatlarini topishga yordamberishini tushunishadi;

- iste'molchi xohishining o'zgarishi. Aksariyat banklar iste'molchilar talabi tez o'zgarishini tavsiflovchi bozorlarda faoliyat ko'rsatishadi. Bu kabi bozorlarda mavuffaqiyatli faoliyatning graovi marketing ekanligini anglab etadi;

- o'sayotgan raqobat. Katta bo'lmagan banklar raqobatchilar tomonidan qarshilikka duch kelishadi;

- o'sayotgan marketing harajatlari. Ba'zi bir banklar reklamani ko'paytirish, marketing tadqiqoti va mijozlarga xizmat ko'rsatish xarajatlari juda katta deb hisoblashadi. Bu holda rahbariyat marketing auditini o'tkazish va marketing bo'limi ishlariga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qiladi.

Marketing uslublarini qo'llash zarurligini O'zbekiston Xalq banki va Rossiya Jamg'arma banki misolida kuzatish mumkin. Ularning ikkalasi ham jismoniy shaxslar bilan ishlashga mo'lajallangan Davlat banki vorislari hisoblanadi. Agar Rossiya Jamg'arma banki markazlashgan reja tizimi yiqilgandan keyin g'arbdagi o'xshash operatsiyalarga talab mavjud bo'lgan xizmatlarni ko'rsatishga o'z faoliyatini yo'naltirgan bo'lsa, u holda O'zbekiston Xalq banki aktiv operatsiyalarga kam e'tibor berib dpeozit operatsiyalariga urg'u berdiki va natijada bu hol Xalq banki uchun salbiy natijaga olib keldi.

Tijorat banklari faoliyatida marketing XX asrning 70 yillaridan boshlab keng qo'llanila boshladi, bu bank faoliyatini universal qilish, boshqa davlat banklari bilan raqobatni kuchaytirish, nobank muassasalar (sug'urta, jamg'arma, trast kompaniyalar, pensiya fondlar) ko'rinishida raqobatchilar paydo bo'lishi, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi oqibatida banklardan jamg'armalarning kamayib ketishiga sabab bo'ldi.

Bu banklarni bank xizmatlari bozorini o'rganish zarurligiga, uning yangi ehtiyojlarini o'zgartirish yoki boshqacha aytganda qurollanishiga marketingning yangi kontseptsiya va uslublarini tadbiiq qilishga olib keldi. Dastlab banklarning ishlari amaliyotiga marketingning alohida elementlari kiritildi. 80 yillarda marketing tijorat banklari tomonidan boshqarishning ajralmas qismiga aylandi.

Bank rahbariyati marketing bo'limi oldiga bozorni o'rganish vazifasini qo'yadi va uning asosida o'z maqsadlarini aniqlaydi. Umumiy holatda marketing masalasi bank faoliyati uchun alohida muhim bo'lgan, ustav kapitalni oshirishni rejalashtirishi, faoliyat geografiyasi va uning miqyosini kengaytirishi bilan bog'liq qarorlar qilishda o'rganilishi mumkin.

Marketingning asosiy maqsadi bank muassasidan to so'nggi iste'molchigacha bank xizmati barcha yo'lida qulaylik yaratishni ta'minlash hisoblanadi. Bank xizmatlari xilma-xilligini ko'rib chiqib, qayd etish lozimki, ularning keng spektri AQSh, Evropa, Yaponiya va qator boshqa davlatlar banklari tomonidan taklif etiladi va ushbu xizmatlar ro'yhati oxirgi yillarda tez o'smoqda. Shu munosabat bilan bank marketing ishlari, mazmun va maqsadi so'nggi yillarda moliya bozorida kuchayotgan raqobat ta'siri ostida ahamiyatli o'zgardi. Bank xizmatini tabaqalashtirish eng samarali uslublaridan biri – raqobatchilar bilan solishtirganda yanada sifatli servisni doimiy taklif qilishdir. Xizmatlarni iste'mol qilishga maqsadli segment xaridorlarini jalb qilish – mijozlarning sifatli xizmat olish talabini qanoatlashtirish demakdir. Iste'molchilarning kutishi, ularning avvalgi tajribasi, suhbatlar va reklama asosida shakllanadi. Xaridorlar ularga zarur bo'lgan xizmat qiluvchini tanlashadi va keyin o'z taassurotlarini va kutganini taqqoslashadi.

Agar qabul qilish qadri dastlabki taassurotga to'g'ri kelmasa xaridor xizmat sotuvchisiga qiziqishini yo'qotadi. Agar uning kutishlari yuqori darajada qanoatlantirsa, u sifatli xizmat qilgan bankka yana murojaat qiladi.

Banklarning faoliyat ko'rsatish tijorat tavsifi marketingi keng qo'llashni talab etadi. Bank sohasida marketing xususiyati nafaqat bank ishlarini tijoratlashtirish va pul resurslarini samarali foydalanishni ta'minlash, balki barcha bank faoliyati ob'ekti bo'luvchi pul aylanish xususiyatlari bilan belgilangan bo'ladi. Shu bilan birga bank marketingi birinchi navbatda xo'jalikda naqdsiz hisob-kitoblarni takomillashtirish hisobiga pul aylanishini tezlashtirishga mo'ljallanadi.

Bank sohasida marketing kredit resurslari bozorni o'rganishga, mijozlar moliyaviy holatini tahlil qilishga va ushbu bazada banklarga qo'yilmalarni jalb qilish imkoniyatlarini. Bank faoliyatidagi o'zgarishlarni taxmin qilishga erishiladi. Hozir, korxonalar va tashkilotlarga o'z hisob raqamini har qanday bankda o'sishga ruxsat berilgan, bank ishida raqobat asosi kengaymoqda.

Marketing yangi mijozlarni jalb qilishga, mijozlarni o'z mablag'larini ushbu bankka qo'yishga qiziqtiruvchi bank xizmatlari sohasini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Bank muhitida nafaqat omonatchilar doirasini kengaytirishga, balki ularga xizmat ko'rsatish sifatini doimiy yaxshilashga jalb qilingan marketing afzal bo'lib qolmoqda. Bank doirasida marketing xususiyati shundan iboratki, tijorat banklari nafaqat omonatlarni jalb qilishdan, balki har xil birlashmalarni, korxonalar va tashkilotlarni, shirkatlar va aholini kreditlash orqali mablag'larni faol ishlatishdan manfaatdor. Bu marketingning tijorat banklarining mablag' qo'yuvchilar bilan va korxonalar, shirkat va aholiga ssuda berish shaklida amalga oshiriladigan kredit qo'yilmalari sohasida marketingni majmualari rivojlantirish zarurligini belgilaydi. Ushbu ikki sohada marketingning maqsadi har xil: birinchi – mijozlarni mablag' qo'yuvchi sifatida bankka jalb qilish, ikkinchidan – bank kredit resurslarini bank uchun samarali foydalanadigan korxonalar va tashkilotlarga yo'naltirish.

Banklarda marketing doirasida quyidagi umumiy tamoyillar to'liq amalga oshishi lozim:

- aniq bozor maqsadiga erishish uchun barcha bank xodimlarining harakatlar yo'nalishi;
- marketing faoliyati jarayoni majmui (rejalashtirish, tahlil, tartibga solish va nazorat);
- marketingni istiqbolda va joriy rejalashtirish birligi;
- qabul qilinadigan marketing qarorlarini amalda birlashtirish asosi sifatida nazorat;
- bank marketingi xodimining ijodiy faolligi va tashabbusini har tomonlama rag'batlantirish o'z malakasini doimiy oshirish manfaatdorligini ta'minlash; - bank jamoasida qulay ruhiy muhitni yaratish.

Mijozlar bilan muloqotda bo'lish doirasida bank marketingi aktiv va passivga bo'linadi.

Aktiv marketingga quyidagilar kiradi: bevosita marketing, ya'ni pochta orqali reklama, telefon va televidenie; aholi keng guruhini so'rovi, shu jumladan, ko'chada so'rov o'tkazish; salohiyatli mijoz bilan shaxsiy muloqot, uning talablarini o'rganish.

Passiv marketingga – matbuotda bank faoliyati va holati, uning xizmatlaridan mijozlarga manfaat haqida chop etish kiradi. Bozorda mustahkam joylashib olishni xohlagan bank marketingning ushbu ikkita uslubidan foydalanishi lozim.

Tijorat banklari o'z xizmatini bozorga siljitishning yangi uslublarini ishlab chiqmoqdalar.

Sotish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha dasturni o'tkazish muvaffaqiyatini baholash qator umumiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, bu bankda bank mustaqil tarkibini o'z ichiga oluvchi "daromadlar markazlari" mavjudligidir. Har bir bu kabi markaz sotishni rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini ishlab chiqadi.

Banklar, bozorda faoliyat ko'rsatuvchi boshqa xo'jalik tashkilotlar kabi kon'yukturani tebranishga ko'niktirish mexanizmini ishlab chiqadi. Tijorat banklari tomonidan marketingni boshqarishga kiritish nafaqat strategiya va axloq taktikasini ishlab chiqish mezonlari yuzaga kelishiga, balki bozorni o'rganish va rivojlantirish aniq choralarini ishlab chiqish, bozor kataklizmasiga tezkor e'tibor berish imkonini beruvchi muqobil va moslanuvchan qarorlar tayyorlashga asos soldi. Respublikamizda bank faoliyatida marketing, avvalo, yangi mijozlarni jalb qilish maqsadida reklama faoliyati joriy qilina boshladi. Bank fondlarining shakllanishi yangi banklar uchun birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi, ularning yaratilishi bizning davlatimizda davom etmoqda. Marketingning boshqa yo'nalishi O'zbekiston sharoitida qo'llaniluvchi bank operatsiyalarining yangi turlarini tadqiq qilishga xizmat qiladi (eksport-import to'lovlari, depozit sertifikatlari, valyuta operatsiyalari, ipoteka, trust operatsiyalari va boshqalar).

Bank rivojlanishi uzoq muddatli rejasi bank faoliyatini aniqlovchi bosh yo'nalishni shakllantirish, asosiy g'oyalar, maqsadlarni va strategiyani, istiqboldagi faoliyat xarakterini, mavjud resurslardan yaxshi foydalanishni tanlash va ishlab chiqishni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

#### **REFERENCES**

1. Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., Abduhalilova L.T. Muhitdinova
2. U.S., Yo`ldoshev M.M. Strategik marketing. O`quv qo`llanma. 2004.-161 b.
3. Jalolov J.J., Fattaxov A.A. Biznes marketingi. Darslik. –T.: Moliya, 2006, -355 b.
4. Котлер Филипп. Основы маркетинга. Краткий курс.: Пер. с англ.-М.: Издательский дом. «Вильямс», 2008. -656 с.
5. Ефименко И.Б., Плотников А.Н. Экономика отрасли (строительство): учеб. пособ. – М.: Вузовский учебник, 2009. – 359 с.
6. Зотова.Т.А. Поведение потребителей. Теория и практика. - Ростов н ф Д; Феникс, 2008. - 222 с.
7. Лукина А.В.Маркетинг товаров и услуг: учеб.пос. - М.:ФОРУМ,2008.-240с.
8. Мак-Доналд М. Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию. – М.: Эксмо, 2009. – 448 с.
9. Малий бизнес: Учебное пособие / кол. Автор; под ред. В.Я.
10. Горфинкеля.- М.: КНОРУС,2009.- 336 с.

## INNOVATIVE WAYS OF MODIFYING LANGUAGE POLICY PROPOSAL

**Abduvoidova Gulchekhira Rustamovna**

English teacher at school number 5 in Gulistan City.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13852795>

**Abstract.** *This article focuses on goals and objectives of modifying a particular Language Policy Proposal on the sphere of teaching English as a foreign or second language.*

**Key words:** *language policy, multinational country, international education, main modifications, remarkable impacts, usage of curriculum, drawbacks.*

## ИННОВАЦИОННЫЕ СПОСОБЫ МОДИФИКАЦИИ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ЯЗЫКОВОЙ ПОЛИТИКИ

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются цели и задачи изменения конкретного предложения языковой политики в сфере преподавания английского языка как иностранного или второго языка.*

**Ключевые слова:** *языковая политика, многонациональная страна, международное образование, основные изменения, заметные последствия, использование учебной программы, недостатки.*

Each country and state should have their own language policy concerning both the native and foreign ones. Even the language policy of one country could be solid and highly applicable, after some time there will be an urgent demand for modifying it. Over recent decades, English has been considered to be the global language through which different countries are able to communicate with each other in various spheres of life. Therefore, there have been a great number of efforts to teach English efficiently among many countries.

Hence, the Republic of Uzbekistan is officially regarded to be a multinational country and its official state language is Uzbek (Azizova, 2014). Nevertheless, as mentioned above, because of rapid growth in using English, the importance of this very language has been increasing in all aspects of our life (Uzbek people) after the declaration of independence. The main reason for learning English is to acquire international education (in many spheres:

Literature, IT, Medicine, Accounting, Engineering, Machinery construction and so on), get a satisfactory job in developed countries and build up a durable career. So, the English language has owned the main prestige as a foreign language in Uzbekistan. Upon this time, several trustworthy projects have been carried out to accomplish the goal set by the Ministry of Education (Uzbekistan) in cooperation with British Council, such as PRISSETT (training assistant teachers) and EnSPIRE-U which has been founded to enhance English teaching in Higher Educational settings (West & Sheykhmetova, 2016). English is taught within four years at universities as the same as other subjects and it has commenced showing some disadvantages in students' learning processes.

Moving back to the outline of LPP, it is transparent that the main modifications in language policy planning are aimed to meet the needs of Gulistan State University (as a sample) in developing foreign language teaching. Actually, addressing to this issue may seem not to be feasible enough, yet it can have quite remarkable impacts on educational settings of the university.



The organization chosen to be modified concerning language planning policy exists in our real world, located in Gulstan city of Uzbekistan. The current plight of its foreign language teaching methodology needs much to be done because of unfruitful teaching strategy. Having a look its administrative organization may clearly represent some drawbacks of the current system: teachers seldom follow the correct implementation of lessons; they are so overloaded with unnecessary paperwork that it is occasionally possible to find extra time for good preparation to lessons; assistant and even professor teacher still have confusions with usage of curriculum.

Furthermore, the amount of technological equipment for conducting lessons is not adequate for all teachers: the order of classes has been set turn by turn (3 classrooms have projectors). Last but not least, only a few teachers implement CLT method in English classes, most of them still use grammar-translation method.

Modification is always an urgent and feasible option for any existing systems to increase the development. Therefore, the final LPP proposal will be clearly defining some changes in the current strategy of the university. These modifications will be witnessed in the followings:

- Administrative organization / proficiency level
- Sources / Technological equipment
- Teachers and their teaching approaches
- Assessment
- Actors

